Adib o'zining bu maqolasi orqali adabiyotning, adabiy ta'limning mazmunini, mohiyatini belgilab berganday. Chindan ham, adabiyot inson sezimlariga, his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazib, o'quvchiga hayot falsafasidan saboq beradi: olam va odam murakkabliklarini idrok etish yo'llarini ko'rsatadi; o'quvchiga yashash sirlarini o'rgatadi, uning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashadi. Inson borliq qurshovida yashaydi. U olamning bitta bo'lagi. Yaratiqlar ichida, borliqdagi mavjudotlar ichida eng azizi, mukarrami bu - INSONdir. Inson tafakkur qudrati, so'zlay olish imkoni bilan yanada qudratli va sharaflil sanaladi. Inson o'z aql-u idroki bilan olamni inikos etadi, uning sir-sinoatlarini yechishga intiladi. Tafakkur til vositasida voqelanadi, yorqinlashadi. Demak, inson doimo so'zga ehtiyoj sezib yashaydi. Insonning borliq haqidagi tasavvurlarini boyitishda, uning olam hodisotlarini teran anglashi yo'lida adabiyot bamisoli kuch-qudratga egadir. Adabiyotni anglash, idrok etish, so'z qudratidan bahra olish adabiy uquvni, zakovatni talab etadi. Adabiy ta'lim asosini adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuni tushunchalari tashkil etadi.

Komil shaxsni shakllantirish adabiyot o'qitishning bosh maqsadi hisoblanadi. Bu umumiy tushuncha bo'lib, istiqbolni belgilaydi. Oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchini tayyorlash, bolalarni badiiy so'zdan ta'sirlanadigan, uning jozibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigan, o'qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan va undan o'ziga xulosa chiqarishga qobil, o'z qarashlarini og'zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o'qishni o'zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o'quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu haqda shunday yozadilar: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak" .

Badiiy asarlar o'quvchi dunyoqarashini shakllantiradi, uning olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitadi, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratishga o'rgatadi. Badiiy asarlarni o'rganish orqali o'quvchining falsafiy qarashlari kamol

topadi, mushohadalari teranlashadi. Hayot – katta maktab. Shunday bo‘lsa ham o‘quvchini ana shu hayotning butun murakkabliklariga sabot va matonat bilan chidashga, uning zalvorli sinovlarini yengib o‘tishga, eng qiyin damlarda ham o‘zini yo‘qotmay oldinga intilishiga o‘rgatadigan beminnat maslahatchi, samimiy do‘st – bu adabiyot, adabiy ta’lim hisoblanadi. “Maktabda adabiyotni so‘z san’ati sifatida o‘qitish o‘quvchilarda uni emotsional qabul qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini kamol toptirishni taqozo etadi. O‘quvchida hayotni, hayotiy voqea-hodisalarni bilishga, odamlar va ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug‘ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo‘ladi. O‘qituvchi badiiy asarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda hosil bo‘lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni san’at olamiga olib kiradi, o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda ularning badiiy didini o‘stiradi”. Insoniyat uchinchi ming yillikda yuksak taraqqiyot sari dadil odimlamoqda. Uning tafakkuri, dunyoqarashi soatma-soat, daqiqama-daqiqa o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Har bir millat, xalq dunyo hamjamiyati orasida o‘z o‘rni, nufuzi, obro‘-e’tiborini saqlab qolish, taraqqiy etish, eng rivojlangan mamlakat maqomiga erishish kabi ezgu maqsadlar sari intilmoqda. Bunday oliy maqsadga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Ta’lim-tarbiya mushtarakligida, yoshlar ongida ezgulikning singdirilishida adabiyotning o‘rni beqiyos.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev «Yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Bizning asosiy maqsadimiz ta’lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta’lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi, hamda o‘zlashtira olishga qaratilgan.

Ta’lim - tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi Davlat ta’lim standartlari bugungi kunda yosh avlodning vatanga sadoqat, yuksak axloqqa, ma’naviyat va ma’rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish hamda komil farzand

bo'lib yetishish yo'lida qunt bilan ta'lim olishlari uchun kafolat bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim – tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta'lim – tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lim tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni dars jarayonida tadbiq etishdan iboratdir.

Abdulla Qahhor o'z asarlarida xalq dardini, davr fojialarini ochiq-oshkora ifoda etgan. Abdulla Qahhor asarlarini yanada kengroq o'rganish kerakligini qo'yish ham uning aynan xalq qalbining kuychisi bo'lganligidadir. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridandir. U o'zining 40 yildan oshiqroq ijodiy faoliyatida barcha ijtimoiy sohalarni aks ettiradigan asarlar yaratdi, asarlari turli tillarga tarjima qilindi. Abdulla Qahhor ajoyib asarlari bilan o'zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko'rsatgan nodir iste'dod sohibidir. Adabiyotimizning hech bir sohasi yo'qki, ko'p qirrali talant egasi bo'lgan Abdulla Qahhorning xizmati singmagan va u o'z talantini namoyish qilmagan bo'lsin. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janrida ham, qissa va romanchilikda ham, komediya va drama yaratishda ham hammani qoyil qoldirdi, bu janrlarda, xususan, hikoyachilikda, original va yetuk badiiy asarlar yaratdi. Abdulla Qahhor so'zga xasis, fikrga saxiy san'atkor. Adib ijodining fazilatlari ko'p. U ko'pchilikni qiziqtiradigan masalalar haqida yozadi, adabiyotda “qo'riq”larni ochadi, yangi gap aytadi, yangi timsollar yaratadi. Abdulla Qahhorning badiiy ijodidagi novatorligi ham, avvalo, ana shundadir. Yozuvchining asarlari yuksak badiiyliги, g'oyaning aniqligi, ijtimoiyligi, xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlari adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o'z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan.

Abdulla Qahhor o'zbek realistik hikoyachiligining asoschilaridan biri bo'lib, adabiyotimizda bu janrning shakllanishi va o'sishi uning nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Abdulla Qahhor G'.G'ulom, A.Qodiriy, Oydin, Oybek kabi yozuvchilar bilan hamkorlikda ijod etib, hikoya janrining ko'pgina namunalarini yaratdi. Uning “Bemor”, “Anor”, “Millatchilar”, “Tomoshabog'”, “O'g'ri”, “Maston”, “Qanotsiz chittak”, “San'atkor”, “Jonfig'on”, “Yillar”, “Adabiyot muallimi” kabi hikoyalari o'zbek adabiyotida hikoya janrining sezilarli darajada taraqqiy etishiga ta'sir

ko'rsatgan asarlar sirasiga kiradi. Abdulla Qahhor hikoyalarini mazmuni va janr xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Bularning bir guruhini o'tmish haqidagi hikoyalar tashkil qilsa, ikkinchi guruh hikoyalarning bosh qahramonlari zamondoshlarimizdir. Yaqin o'tmishdagi o'zbek voqeligi «Anor», «O'g'ri», «Bemor», «Tomoshabog'», «Millatchilar» kabi hikoyalarda aks etgan. Keyinchalik esa, adib o'tmish mavzuida yana «Dahshat» hikoyasini yaratdi. Shuningdek, «O'tmishdan ertaklar» qissa deb atalgan bo'lsa-da, mohiyati bilan ayrim-ayrim hikoyalardan tashkil topgan. Shuning u ularni ham adibning o'tmish haqidagi asarlari deb bilish mumkin. Abdulla Qahhor qissa va roman janrlarini taraqqiy etishiga ham salmoqli hissa qo'shdi. U «Sarob», «Oltin yulduz», «Qo'shchinor chiroqlari», «Sinchalak», «O'tmishdan ertaklar», «Muhabbat» singari ajoyib roman va qissalar yozib, katta janrda ham mohir san'atkor ekanini isbotladi. Yozuvchi ajoyib o'xshatishlar, go'zal sifatlashlar, original mubolag'alar va metoforalar, hikmatli so'z va iboralar yaratish orqali o'z fikrini g'oyat siqiq va obrazli qilib ifodalaydi.

Abdulla Qahhorni o'ziga va o'zga mualliflarga nihoyatda talabchan yozuvchi bo'lganligini e'tirof etadilar. U qo'lyozma ustida ishlashdan hech bir erinmagan, o'z asarlarini qayta-qayta ishlab pishitgan, ularga sayqal va jilo bergan. Asarlari kitob bo'lib chiqqandan yoki pyesa sahnaga qo'yilgandan so'ng ham qo'lyozma ustida ishlashni davom ettiravergan.

Abdulla Qahhor adabiyotimizning kelajagi uchun jon kuydiruvchi, yosh yozuvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishni doimo muhim ish deb bilgan, bu sohada ko'p yozuvchilarga namuna ko'rsatgan, adabiyotimizda o'ziga xos maktab yaratgan va ko'plab shogirdlar yetishtirgan ustoz san'atkor sifatida qadrlidir.

Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Odamzod mavjud ekan, baxillik, johillik, ochko'zlik, maqtanchoqlik, xudbinlik va boshqa qusurlar, albatta, yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo'lishi mumkin, lekin bu illatlar insonning qadr-qimmatini pastga uradi, chinakamiga barkamol bo'lishiga xalaqit beradi. Jahon adabiyoti namunalarida bunday masalalar doimo dolzarb bo'lgan. Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Jahon adabiyoti namunalarida bunday

masalalar doimo dolzarb bo'lgan. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida o'z uslubiga, o'z ovozigacha ega bo'lgan, adabiyotimiz taraqqiysiga sezilarli ijobiy hissa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Uning yorqin ijodi katta mahorat maktabi sifatida hamisha ijodkorlarning diqqat markazida bo'lgan. Uning asarlariga qayta-qayta murojaat qilmagan, uning uslubiy mahoratidan bahra olmagan, uni o'ziga ustoz deb sanamagan ijodkorlarni topish yaqin-yaqingacha aslo mumkin emas edi, adabiy ta'lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma'rifatga to'la bo'lgan.

Adabiyotimizning yirik vakili, o'zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o'n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pyesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko'p avlodlar uchun mulohaza obyekti bo'lib qolishi shubhasizdir".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har qanday badiiy asar o'quvchini mustaqil fikrlashga, turli xil obrazlarni tahlil qilishga va hayotga teran nigoh bilan qarashga o'rgatadi. Shubhasiz, adabiyotni o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan keskin farq qiladi chunki, aniq fanlarni o'qitishda o'qituvchi o'quvchilariga insoniyat tomonidan kashf etilgan tayyor bilimlarni o'rgatadi. Bunda o'quvchilar ham ortiqcha zo'riqishlarsiz, qiynalishlarsiz tayyor bilimlarni o'zlashtiradilar. Yana bir jihati, bunday fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilar barchasi yagona yechimga, xulosaga keladilar va bu ilmiy yagona haqiqat hisoblanadi. Adabiy ta'lim har bir o'quvchidan o'zgacha badiiy idrokni, asarni his etishni, kashf qilishni va yagona xulosaga emas, turfa yechimlarga, xulosalarga kelishi tabiiy hol sifatida baholaydi, to'g'ri deb biladi. O'quvchilar bitta asarni o'qib o'raganishsada, undan turlicha hissiy ta'sirga, quvvatga ega bo'ladilar, rango-rang xulosalar yasaydilar. O'quvchilarning badiiy tafakkurini o'stirishda, badiiy asarlar, ayniqsa, hikoya janrining imkoniyatlarini to'liq ochib berilishida, so'z sehri, qudratini teran his qilinishida, hayotning asl suratini – badiiy talqinini o'qib, zaruririy xulosalar hosil qilinishida, fikrni ifodalashning sodda, siqiq shakllarini o'rganib, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirilishida, o'quvchining

olam haqidagi, odam haqidagi bilimlarini boyitishda, mustaqil fikrlashda shubhasiz, Abdulla Qahhor asarlarining ham alohida o‘rni, mavqei bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma’naviyat, 2011.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so‘zi. // 2016-yil 16-dekabr.
3. Abdulla Qahhor. Shaxs va ijodkor. Maqolalar to‘plami. – T.: Tamaddun, 2013
4. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizaev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. 1-qism. – T.: Sharq, 2013.
5. Ahmedov S., Qosimova B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot-6. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Ma’naviyat. – 2009
6. Чўлпон. Адабиёт надир? –Т.:Чўлпон нашриёти, 1994. Б. 6-8
7. XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi.–T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti”. 2009, 3- 4-betlar.
8. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
9. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: Sharq, 2013.
10. WWW. Google.com
11. WWW. Ziyonet.com
12. Old. Ziyonet.uz

ФИО автора: NukusDPI Magistratura bo`limi O`zbek tili va adabiyoti

yo`nalishi 1-kurs magistranti *Mirzayeva Dilrabo*

ФИО научного руководителя: O`zbek adabiyoti kafedrası professorı v.b.
F.Sarayeva

Название публикации: «MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARINING BADIYY TALQINI»

O`zining otashin she'riyati bilan o`zbek adabiyotiga yangicha nafas, yangicha ruh olib kirgan Muhammad Yusuf she'rlaridagi teran falsafiylik, sharqona donishmandlik, Vatanning shonli o`tmishi va bugungi taqdiri, xalq qismati va kelajagi uchun bir komil fuqarolarcha kuyunchakligi, hayotdagi salbiy ko`rinishlarga murosasiz istehzosi bilan she'riyat muxlislari diqqatini o`ziga ohangrabodek tortib keladi. M.Yusuf hayotni keng ko`lamda va teran tasvirlaydi. U hayotni mushohada etar ekan, goh uni falsafiy tafakkur bilan tarannum etsa, gohida esa uni teran his-tuyg`u orqali tasavvur etadi. Shoirning lirik kechinmalari shunchalik nozik ifodalanadiki, uning she'rlarini o`qiganda go`yo boshqacha olamga kirib qolgandek bo`lamiz go`yo.

Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va dasturi bo`yicha 8-sinf adabiyot dasturida Muhammad Yusuf ijodini o`rganish mo`ljallangan. Unda shoir ijodi haqida ma'lumot berish, "Yurtim, ado bo`lmas armonlaring bor" she'rida fidoyi va dardkash farzandning ona yurt tarixiga kuyunchakligi aks etganligi, she'rda tilga olingan siymolarning yurtimiz tarixidagi o`rni beqiyosligini o`quvchilar ongiga yetkazish ko`zda tutilgan. "Mehr qolur" she'rida dunyodagi barcha narsalar o`tkinchi, faqat insonlar o`rtasidagi mehr-oqibat, muhabbatgina abadiy ekanligining samimiyat va mahorat bilan kuylanganligini, Muhammad Yusuf she'rlarining jozibadorligi, o`ynoqiligini ta'minlab turgan nozik lirizm, samimiylik va anglashga o`rgatish maqsad qilingan.

O`zbek adabiyoti shunday chamanzorki, uning bostonida gul kóp, chechak kóp. Bu bostonda bir-biriga óxshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan dilbar shoirlar avlodi qayta-qayta bóy chózaveradi. Ana shunday betakror shoirlardan biri, xalqimiz ardog'idagi inson, Ózbekiston xalq shoiri, yurtimizning bulbulzabon farzandi

Muhammad Yusuf edi. Mana shu kabi iste'dod egalari Ózbekiston deb atalmish tabarruk zaminda voyaga yetgan. "Ózbekiston – yuragim kózgusi, qalbimning kaliti, umrimning mazmuni hayotimdagi eng bebaho, jonimdan aziz ma'vosan. Sensiz yashab bólarcanmi? Sen tabora kónglimga, ózimga, umringa aylanib boryapsan, ona Vatanim – Ózbekistonim. Senga ming bor rahmat, ming bor tashakkur-sadoqatga oid bólganing uchun, onamga loyiq bólganing uchun..." - deydi shoir. Ózbekning asl farzandi bólmish Muhammad Yusuf óz qalamida Vatanni quyidagicha talqin qiladi: "Vatanni men shunday tasavvur qilaman-u onamday gózal, onamday xokisor. Onamni yaxshi kórganlarning hammasi mening dóstim. Lekin mening onam haqida birov yomon gapirsa, unga tosh o'tsa, uni qólini urib sindiraman. Vatan deganda men shuni tushunaman. Nodar Dumbadzedan "Vatan nima?" deb sórashgan, "Vatan shunaqa narsaki, uni aytganida odam jonini berishga tayyor bólishi kerak", deb javob bergan. U ana shunday, tasavvurimda u-mening onam. Qiziq, yuqorida Muhammad Yusuf Vatan haqida sóz aytganmi yo bólmasa onasi haqidami? Degan haqli savol tafakkurimizda charh uradi... Ona... Vatan...

Men dunyoni nima qildim,

Ózing yorug' jahonim.

Ózim xoqon,

Ózim sulton,

Sen taxti Sulaymonim.

Yolg'izim,

Yagonam deymi,

Topingam koshonam deymi,

Ózing meni ulug'lardan

Ulug'imsan, Vatanim...

Muhammad Yusuf bu qatorlarida ózining Vataniqa bólgan cheksiz muhabbatini ifoda etadi. Undan tashqari shoir ijodidagi boshqa she'rlari ham kitobxon qalbini tub tubigacha yetib boradi. Muhammad Yusuf faqatgina she'rlar yozish bilan cheklanib qolmagan, balki poetik janrlarga ham murojaat etib "Osmonning oxiri", "Qora quyosh" singari milliy dostonlar yaratdi. Yurtimiz mustaqillikka erishgani Muhammad Yusuf

ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan g'ozal she'rlari o'zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning "Vatanim" , "Xalq b'ol elim" , "Dunyo" , "Inshoolloh" , "O'zbekmomo" , "Iqror" , "Tilak" singari ko'plab she'rlari chinakkam she'riyat yurtini qanday kuylamog'i lozimligi isbotlagan asarlar b'olib qoldi. O'zbekiston, shubhasiz dunyodagi eng qadimiy va betakror o'lkalardan biridir. Uni umrida bir bor ko'rish orzusida yurganlar qancha. Biz esa betakror mana shu zamin bag'rida yashaymiz, uning musaffo havosidan, zilol suvlaridan beqiyos ne'matlaridan bahramand b'olamiz. Bunday baxt hammaga nasib etmaydi. O'zbekistonga ming-minglab sayyohlar tashrif buyuradi va ularning barchasi bu tarovatli serquyosh zamin ularni o'ziga maftun etgani haqida to'ldinlanib, hayajonlanib, so'zlashadi. Haqiqatdan ham, Vatanimiz – O'zbekiston dunyo havas qilarli boy ma'naviy merosga ega. Yaratgan egam O'zbekiston deb atalmish jannatmakon yurtni bizga Vatan ayladi. Bu muqaddas tuproq jahonga qanchadan qanchqa daholar, olim-u fuzalolarni, shuarolarni yetishtirib berdi. Ulardan biri Muhammad Yusuf o'zining ijod manbai bilan she'riyat shinavandalari qalbidan o'chmas o'rin egalladi. Shoir oz yashagan b'olsada, biroq bu umr dilbar shoirning tug'ilishi, kamol topishi, o'zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiy va ixlos ila xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirishi uchun kifoya qildi.

Ol deya bir egam, osmonga uchsa ruhlarim,

Bir ajib moviy diyor b'oynini quchsa ruhlarim,

Kok mening k'oksim b'olur, yulduzlari-anduhlarim,

Gul o'pib, gul yopinib har dilda mozorim qolur,

Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur...

Afsuski, Muhammad Yusufning umri qisqa ekan. U 2001- yil 31-iyulda Qoraqalpog'istonning Elikqal'a tumaniga qilgan ijodiy safar chog'ida, yuzlab muxlislari qarshisida she'r o'qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etdi. Xuddi Boburdek, Shavkat Rahmondek Muhammad Yusuf ham bor-yog'i 47-yil umr ko'rdi. Shu kabi ajdodlarimiz ruhi bizga hamisha madakordir. Ulardan o'rnak olgan holda Vatan ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlarni davom ettirmog'imiz lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov: "O'ylaymanki, o'zini

ózbek xalqining farzandi degan har qaysi inson ana shunday fidoyi yurtdoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanadi, unib-ósib kelayotgan bolalari, shog'irdlariga ma'naviy jasorat timsoli sifatida aynan mana shunday odamlarni namuna qilib kórsatadi. Va hech shubhasiz, umr bóyi el-yurt manfaati, Vatan istiqboli uchun kurashib yashaydigan shunday qahramon farzandlari bor xalq hech qachon kam bólmaydi", deb takror va takror ta'kidlaydilar. M.Yusuf she'rlarida an'anaviy ifoda-tasvir vositalaridan tashqari o'ziga xos tashbehlar, o'ziga xos sifatlashlar yaratiladiki, bular shoir mahoratidan darak beradi. Shoir ijodida takrorlar o'ziga xos tarzda qo'llanadi:

*Bo'lar elning bolalari bir-birin der,
Bo'lmas elning bolalari bir-birin er.
Bir bo'l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo'l elim, xalq bo'l elim, xalq bo'l elim!*

Shoir biz biladigan, aytmoqchi bo'lgan, lekin aytmagan so'zlar bilan xalqimizni erkalaydi. U iligimsan, cho'lig'imsan, qurug'imsan, urug'imsan, so'lig'imsan, dudug'imsan, qudug'imsan, deya barcha sifatlarimizni sanab beradi:

Shoir nazarida "yulduzlar – samoning ko'z yoshlari", "sevgi esa – bamisoli lolaqizg'aldoq, bamisoli g'arq pishgan shatut", "nafrat va muhabbat eru xotinday doim qo'ltiqlashib yuradi", "ilk sevgi achchiq tog'olma" va h.k. Gul bahor, lolazor, qizg'aldoq talqini asl ma'nosidan chiqib, ijtimoiy ma'no kasb etadi:

*Qadring bilgan, darding bilgan, ayt, kiming bor?
Kelib ketar bahor senga bevafo yor,
Go'zalsanki, senga bari gullar ag'yor,
"Oh" ursang, bir ohing tinglar ostonang yo'q...
O'ylamang, O'g'lingiz o'sha-o'sha sho'x,
Yuzim to'la so'qmoq o'ttiz yoshimda.
Otamning sochida bitta oqi yo'q,
O'riklar gulladi mening boshimda².*

Oddiy bir detal yuzim to'la so'qmoq timsolida inson hayotining murakkabligi aks etgan. Yuqoridagi satrlarda mubolag'a kuchli bo'lsa ham, inson hayotiga oid haqiqat

ifodalangan. H.Olimjonning “O‘rik gullaganda” she‘rida chaman bo‘lib ochilgan o‘rik gullari baxt mavzui bilan tutashib, katta falsafiy ma‘no kasb etgan bo‘lsa, M.Yusuf “O‘riklar gulladi mening boshimda”, deya inson baxtsizligiga ishora qiladi va katta falsafiy ma‘no yuklaydi. Variantlashtirish usuli she‘rga o‘zgacha bir joziba bag‘ishlagan.

M.Yusuf she‘riyatida oksimoron keng o‘rin tutadi. Badiiy ko‘chim turlaridan biri bo‘lib, tarkibidagi qarama-qarshi manoli tushunchalar yangi bir kutilmagan ma‘noni keltirib chiqaradi. Oksimorondagi mana shu xususiyat kuchli obrazlilik kasb etadi.¹

M.Yusufning “Qora quyosh” dostonining nomi oksimoron asosida qo‘yilgan.

Menga qadrdondir uning siymosi

Tilim tebranmas hech yomon deyishga

U shunday buyukki, Yo‘qdir qiyosi,

Qancha buyuk bo‘lsa, Tubandir shuncha...

U – yorug‘ dunyoda Tengi yo‘q inson,

Qadrdon begona. Yovuz mehribon.

Uning butun umri Jumboqdan iborat,

U ayni adolat, U ayni g‘orat.

U oqil buzg‘unchi U mohir me‘mor –

Inson suyagidan solgan imorat ...³

M.Yusuf she‘rlarida folklor ta‘siri, ikkinchidan, shunda ko‘rinadiki, uning she‘rlarida chinakam soddalik, tilda esa ravonlik va aniqlik mavjud. Shoir har bir she‘rida detallarning ancha aniqligiga erishadi, bironta sun‘iylikka yo‘l qo‘ymaydi, detallar esa chuqur fikrlarni, to‘lqinli hislarni ifodalashga moslashtiriladi. Xalq tilining boyliklaridan, leksik imkoniyatlaridan hassoslik bilan foydalanish she‘rlarning soddaligi va aniqligini yanada oshiradi. Shoir she‘rlarida jimjimadorlik,

¹ Hotamov N., B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. -T.: “O‘qituvchi”. 1983. 16-bet.

² M.Yusuf. Saylanma.Toshkent, “SHARQ” NMAK. 2012. 46-bet.

³ M.Yusuf. Ulug‘imsan, vatanim.Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU. 2012. 77-bet.

balandparvozlik sezilmaydi. Shu ma'noda Muhammad Yusuf o'zining qisqa umrida zamonaviy o'zbek she'riyatining taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oldi.

ФИО автора: *Ачилова Мадина Шерзод қизи*

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

3-босқич (бакалавр) талабаси

Название публикации: «ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎРГАТИШДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ВА ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИКЛАР ЯРАТИШНИНГ АХАМИЯТИ»

Мамлакатимиз таълим тизимида сезиларли ўзгаришлар рўй бераётганлиги кун сайин яққол кўриниб бормоқда. Чет тилларини ўргатишда турли таълим шакллари қатори айниқса, масофавий таълим кенг қўлланилаётганлиги ҳам қувонарли холдир. Шунини таъкидлаб ўтиш лозимки ЎзДЖТУ ҳамда юртимизнинг барча олий ўқув юртларида масофавий таълим техника ва технологиясини амалга ошириш борасида қатор ишлар олиб борилмоқда.

Хозирги ахборот технологиялар жадал ривожланиб бораётган даврда чет тилларини масофавий ўқитиш катта аҳамият касб этмоқда. Чунки таълимнинг бу тури шу пайтгача мавжуд бўлган таълим турларидан ўзининг айрим ижобий томонлари билан ажралиб туради. Масофавий таълимнинг кундузги ва бошқа таълим турларидан фарқли жихати шундаки, мазкур таълим турига жуда кенг аҳоли оммасини жалб қилиш мумкин. Шу жихатларига кўра масофавий таълимнинг хозирги кундаги истиқболли таълим турларидан бири ҳисобланади. Биринчидан масофавий таълимнинг асосида таълим бериш учун ўқиш истагида бўлган аҳолининг муайян қисмини таълим муассасаси жойлашган ерга йиғиш шарт эмас. Иккинчидан, тингловчи ёки ўқувчи томонидан ортиқча сарф - харажат қилиш зарурати бўлмайди. Учинчидан, бу таълим турига жалб қилинувчиларнинг ёш чекланишларини истисно қилиш мумкин. Чет тилларини ўқитишда масофавий таълимга жалб қилинувчи контингентни қуйидаги ижтимоий гуруҳларга мансуб бўлган шахслар ташкил қилиши мумкин:

- иккинчи олий ёки қўшимча маълумот олиш, малака ошириш ва қайта тайёргарлик ўташ истагида бўлганлар;

- минтақавий ҳокимият ва бошқарув раҳбарлари ;
- анъанавий таълим тизимининг имкониятлари чекланганлиги сабабли маълумот олаолмаган ёшлар;

- ўз маълумот мақомини замонавий талаблар даражасига кўтариш истагида бўлган фирма ва корхоналар ходимлари;

- иккинчи параллел маълумот олишни хоҳлаган тингловчилар;
- марказдан узоқда, кам ўзлаштирилган минтақалар аҳолиси;
- эркин кўчиб юриши чекланган шахслар;
- жисмоний нуқсонлари бўлган шахслар;
- харбий хизматда бўлган шахслар ва бошқалар.

Ўзбекистон шароитида чет тилларини ўқитишда масофавий таълимни ташкил қилиш катта самара беради. Ҳозирги даврда таълимнинг бу туридан кенг миқёсда фойдаланиш лозим. Масалан, дастлабки пайтда телевидениядан фойдаланиш катта самара бериши мумкин. Ҳозирги кунда телевидение орқали чет тилларини ўқитишда айрим фанлар бўйича ўқув машғулотлари ташкил қилиниб келинмоқда ва самарали натижалар бермоқда.

Чет тилларини ўқитишда масофавий таълимни ташкил қилишдаги энг муҳим масалаларидан бири профессор ўқитувчиларни танлашдир. Мазкур таълим турини амалга ошириш учун ўқитувчилар энг тажрибали ва ташкилотчи профессор - ўқитувчилар орасидан танлаб олиниши лозим. Чунки масофавий таълим бошқа таълим турларидан фарқли бўлиб, унинг самарадорлигини ошириш кўп жihatдан ўқитувчининг билимдонлиги, ташкилотчилик ва бошқарувчилик хусусиятларига боғлиқдир. Чунки масофавий таълимга жалб қилинувчи ўқитувчи бир пайтнинг ўзида мохир педагог, доно маслахатчи ва тажрибали бошқарувчи бўлиши керак.

Масофавий таълим асосан мустақил таълим кўринишида бўлиб, фақат ўқитувчи билан талаба ўртасидаги мулоқот компьютер, телекоммуникация қурилмалари ва Интернет орқали амалга оширилади. Ўқув жараёнида талаба ўқув материалларини ва топшириқларни ўз компьютерига олади, бажарилган тест ва

назорат ишларини ўқитувчига Интернет ёки электрон почта орқали юборади. Бундан ташқари, талаба ўз ўқитувчисига саволлар билан мурожаат қилиши ва уларга ўз вақтида жавоб олиши мумкин.

Ўзбекистон Давлат жаҳон тиллари университети етарли даражада кадрлар салоҳиятига ва моддий-техникавий базага ҳамда ахборот технологияларини кенг жорий қилиш ва телекоммуникация тармоқларидан унумли фойдаланиш имкониятига эга бўлган ҳолда масофавий таълимни ташкил қилиш ва уни қўллашга оид ишларни олиб бормоқда. Масофавий таълимни ташкил қилиш ва ўқув жараёнига татбиқ қилиш бўйича тадбирлар ишлаб чиқилган. Тадбирда кўзда тутилган режа асосида университетда масофавий таълимни ташкил этиш бўйича ишлар қуйидаги йўналишлар бўйича бўлинган:

Масофавий таълимда иштирок этувчилар билан олиб бориладиган ташкилий ва ўқув услубий ишлар.

Масофавий таълимда қўлланиладиган ахборот ва телекоммуникация технологиялар билан танишиш, ўрганиш ва керакли техникавий имкониятларга эга бўлган компьютер ва дастурий мажмуани яратиш бўйича ишлар.

Масофавий таълим учун ўқув услубий материалларини яратишга оид ишлар.

Масофавий таълимда қўлланиладиган ўқув материаллари технологиясини ўрганиш ва уни жорий қилиш бўйича ишлар.

Бунда интерактив таълим кучга киради ва бинобарин, мазкур таълимнинг педагогикаси шаклланади. Интерактив таълим ўқитишнинг, мулоқотнинг дистант услубида, қолаверса, бу усулни амалга оширувчи бир қанча интерактив (аудио, видео, электрон анжуманлар, теле ва овоз коммуникациялари орқали ўзаро алоқа ва б.) ва ноинтерактив технологиялар воситасида олиб борилади.

Масофавий ўқитишда қўлланиладиган техник восита ва технологиялар таълимга янги технологияларнинг кириб келиши – ахборотни узатиш ва қайта ишлашнинг электрон воситаларига асосланган янги таълим технологияларининг ва ўқитиш шаклларининг пайдо бўлишига олиб келди. Масофавий ўқитишда қуйидаги техник восита ва технологиялар қўлланилади: ўргатувчи, синовчи ва алоқа воситалари. Ўргатувчи воситаларга изоҳли луғатлар, қидирув воситалари,

электрон ўқув қўлланмалар, маърузаларнинг видео курслари ва бошқалар киради. Синовчи воситаларга тест саволлари, ўз-ўзини текшириш воситалари мансуб. Алоқа воситалари бўлиб форумлар, почта, аудио ва видео дисклар хизмат қилади.

Масофавий таълимнинг яна бир авфзаллигини видеоконференциялар мисолида кўришимиз мумкин яни бир маърузачи юзлаб боринки минглаб тингловчиларга бир вақтнинг ўзида маъруза ўқиши ва шу вақтнинг ўзида тингловчилар билан фикр алмашиши, саволларга жавоб бериши мумкин. Бу усул юқори техникалардан самарали фойдаланишни тақозо этади. Яъни ҳар бир ўқув хоналари микрофон, видеокамера, видео проектор ва видео-аудио ускуналари билан таъминланган бўлиши мақсадга мувофиқдир. Бу усулда ишлаш нафақат бир билим даргоҳи, нафақат бир давлат, боринки бутун бир давлатлар орасида ҳам қўл келади. Яъни бир маърузачини маърузасини коммуникация ёрдамида бошқа давлатлар тингловчилари ҳам тинглаши мумкин бўлади. Шунини айтиб ўтиш лозимки бундай илмий анжуманлар ҳозирда бизнинг университет томонидан кенг қўламда ташкил этиб келинмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Давлат жаҳон тиллари университетида масофавий ўқитиш тизимини татбиқ қилиш, уни янада яхши йўлга қўйиш учун чет давлатларнинг тажрибасини ўрганмоқ ҳамда мултимедиа - электрон дарсликлар, электрон кутубхоналар, аудио ва видео дарсликлар яратишга жиддий эътибор бериб келинмоқда. "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури"нинг иккинчи босқичида таълим муассасаларининг моддий техник ва ахборот базасини мустаҳкамлаш ҳамда илғор педагогик технологиялар билан таъминлаш масаласига алоҳида эътибор берилган. Шунга кўра Ўзбекистон Давлат жаҳон тиллари университети ҳамда университет қошида ташкил этилган академик лицейларда янги педагогик технологиянинг масофавий таълимни жорий қилиш борасида кенг қўламдаги ишлар амалга оширилмоқда. Шунини таъкидлаб ўтиш лозимки масофадан туриб ўқитиш услуби асосан мустақил таълим жараёнини қамраб олмоқда, унинг таълимдаги ижодийлик, мустақил ўрганиш имконияти, илм олиш учун вақтни тақсимлашдаги эркинлик каби кўплаб афзалликлари эса

мамлакатимиздаги йирик олимларнинг педагогик изланишларида акс эттирилган, рисолаларида кенг ёритилганини эътироф этиш мумкин. Шуниси қувонарлики, Университетимизда зиёлиларнинг, жумладан, педагогларнинг, янги авлоднинг тарбиясига эътиборли барча кишиларнинг, айниқса, талаба ёшларнинг замонавий компьютер ва телекоммуникация технологиялари воситасидаги интерактив таълимга, хусусан, on-line таълимига, Интернетга қизиқиши ва интилишлари катта.

Шу ўринда электрон дарсликлар яратиш ҳамда улардан фойдаланиш жараёнида ҳам Университетимиз пешқадамликни қўлдан бой бермай келмоқда. Оддий дарсликдан электрон дарсликнинг афзаллик томонларидан бири у "интеллектуал" кучга эга бўлиши билан бир қаторда керакли маълумотларни ўз вақтида ва жойида тақдим этиш имкониятлари билан фарқланади. Электрон дарслик маълум бир предмет бўйича ҳамма тегишли ўқув материалларини ўзида ифода этган бўлиши керак. Унинг интеллектуал даражада бўлиши эса ўз навбатида, оддий дарсликка нисбатан бир қатор афзалликларни туғдиради. Масалан, маълумотларни тез излаб топиш, мавзуларни ўзлаштириш даражасини мультимедиа элементлари ёрдамида амалга ошириш ва хоказо. Университетимиз профессор-ўқитувчилари томонидан бир неча тилларда яни инглиз, испан, француз ва немис тилларида электрон дарсликлар яратилган бўлиб улардан ўқув жараёнида унумли фойдаланиб келинмоқда. Бу эса чет тилларини ўқитишда самарали натижаларини кўрсатмоқда.

Она-Ватанимизнинг келажаги бугунги ёш авлоднинг ўқуви, салоҳияти, истеъдоди, мустақил фикрлашига бевосита боғлиқдир. Таълим мазмунини халқимизнинг миллий қадриятлари, тарихий обидалари хусусидаги маълумотлар билан бойитиш, илғор педагогик технология ва ахборотларни киритиш каби бир қатор чора-тадбирларни босқичма-босқич амалга ошириш давр талаби эканлиги давлатимиз томонидан аниқ белгилаб берилганлиги ҳамда ёшларни ўқитиш ва тарбиялашда илғор хорижий тажрибадан фойдаланишнинг ахамияти муҳимдир. Ўтган қисқа вақт мобайнида мамлакатимизнинг барча жабхаларида таълим

ислохотлари изчил ва тезлик билан амалга оширилиб, кўплаб ижобий натижаларга эришилганлиги эса биз каби профессор-ўқитувчилар ҳамда талабалар учун Юртбошимиз томонидан яратиб берилган имкониятларнинг натижасидир.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; —Sharq, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi «Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni.
3. A.Parpiev, A.Maraximov, R.Hamdami, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.
4. Abdukadirov, Abdukaxxor Abduvakilevich. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya / A. A. Abdukadirov, A. X. Pardaev; red. M. Sodiqova. T.: Uzbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN " nashriyoti, 2009.
5. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
6. B.G'.Qodirov. U.Begimkulov, A.A.Abduqodirov. «Axborot texnologiyalari». Elektron darslik. 2002.
7. S.S.Gulomov, A.X.Abdullaev. «Virtual'nie stendi dlya imitatsii funktsiy masterskix i laboratornix ustanovok». MVSSO. T.,2002.
8. R.I.Xolmurodov, M.H, Lutfullaev. «Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish», T.,O'zRFA «Fan», 2003.

ФИО автора: *Rahmonova Iroda Samijonovna*

Maktabgacha ta'lim yonalishi

1-bosqich magistranti

Название публикации: «МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI»

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь пойдет о роли и значении экономических знаний дошкольников, о показательных уровнях экономических знаний у детей, о повышении и анализе более низких уровней.

Ключевые слова: экономическая самостоятельность, экономическое воспитание, экономическая подготовка, критерии дошкольного образования.

ABSTRACT

This article will focus on the role and importance of economic knowledge of preschoolers, on the indicative levels of economic knowledge in children, on increasing and analyzing lower levels.

Keywords: economic independence, economic education, economic training, criteria of preschool education.

Respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini, uning ilmiy salohiyatini saqlab qolish, mustaqil, ongli ravishda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda mas'uliyatli qaror qabul qila oladigan erkin shaxsni tarbiyalamasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy etgan jamiyatning iqtisodiy, intellektual, madaniy, ma'naviy va axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va zamonaviy o'zbek jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy yangi iqtisodiy sharoitlar maktabgacha yoshdagi mustaqil, faol, mehnatkash, iqtisodiy jihatdan savodli, yuqori axloqiy, insoniy shaxslarni tarbiyalash zarurligini belgilaydi, bu esa insonning keyingi hayotiy faoliyatining asosi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash, iqtisodiy madaniyat asoslarini shakllantirish, bolalarni iqtisodiyotga jalb qilish, dastlabki iqtisodiy ta'lim iqtisodiy sotsializmning omillaridan biri bo'lib, bolaning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlariga va umuman, bola shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot nazariyasida o'rganilayotgan muammolarning xilma-xilligi tahsinga loyiq, biroq maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning pedagogik shartlarini o'rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. A. S. Makarenkoning fikriga ko'ra, erta yoshdan boshlab bola oilaviy sharoitda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga odatlangan bo'lishi va halollik, g'amxo'rlik, tejamkorlik, mas'uliyat haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asrning 70-yillarida olimlar L.N. Ponomaryov va L. E. Epstein iqtisodiy tarbiya xalq xo'jaligini rivojlantirishning muhim omili, ishlab chiqarishni ilmiy tashkil etishning zarur sharti hamda yosh avlodning mehnat va mol-mulkka to'g'ri munosabatni shakllantirishning muhim vositasi sifatida targ'ib etishdi. "Iqtisodiy ta'lim", "iqtisodiy tarbiya", "iqtisodiy tayyorgarlik" kabi tushunchalarni talqin qilishda tadqiqotchilar A. F. Amend, L. P. Kurakov, B. T. Lixachev, V. A. Povstik, V. D. Popov, A. S. Prutchenkovlarning nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, biz iqtisodiy tarbiya shaxsning axloqiy va iqtisodiy fazilatlarini shakllantirishning maqsadli jarayoni-tejamkorlik, mas'uliyat, samaradorlik, tadbirkorlik, shuningdek, qiymat munosabatlariga yo'naltirilgan odamlarning iqtisodiy hayoti haqidagi bilimlarni o'zlashtirishning maqsadli jarayonidir, degan umumiy ta'rif berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotining holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ta'lim jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning yaxlit nazariyasi yetarli

darajada ishlab chiqilmagan. Maktabgacha yoshda iqtisodiy ta'lim muhitining mazmuni quyidagilardan iborat: obyektiv muhit (o'yinga asoslangan iqtisodiy muhit yaratish); ijtimoiy - "qiziqishlariga atrof-muhit (ota-onalar, ta'lim jamoasi MTT), voqea-bilim muhiti (qiziqarli ekskursiyalar, mashhur odamlar bilan uchrashuvlar) va axborot muhit (jumboq, illyustratsiyalar, do'konlar, banklar, xizmat markazlari, shahar sanoat korxonalarini xaritasi, tanga namunalari). Tarbiyachi ijtimoiy agentlarning ma'lumotlarini professional tarzda qayta ishlab, ushbu ta'sirni maqsadli yo'naltira olishi, ijtimoiy rivojlanish holatini pedagogik holatga aylantira olishi, yetakchi axloqiy va iqtisodiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim muhitini yarata olishi lozim. Iqtisodiy ta'limning yana bir sharti-oila, odamlar, jamiyat va jamiyatning iqtisodiy ahvoriga oid bolalar faoliyati turlarini (o'yin, mehnat, bilim) tashkil etish va to'ldirish, shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning ijobiy me'yorlari va qadriyatlariga bilimli qiziqishni rivojlantirishdir.

Ta'limning tashkiliy shakllarini tanlash va iqtisodiy ta'lim bo'yicha faoliyat turlari bolalarning maqsadlari, vazifalari, yoshiga bog'liq. O'yin bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda faol omil bo'lganligi sababli, o'yin mazmunini hayotiy muhim jihatlardan boyitilishi juda muhimdir. Jumladan, bola iqtisodiyot to'g'risidagi bilimning dastlabki tushunchalarini o'yinlar orqali egallashi iqtisodiyot haqidagi g'oyalarini aniqlashtirish va mustahkamlash, odamlarning iqtisodiy hayoti haqida yangi bilimlarga ega bo'lish, bolaning o'zi, uning atrofidagi kattalar va tengdoshlari uchun muhim bo'lgan bilimlarga muvofiq to'g'ri harakatlar, munosabatlar, faoliyatlarda namoyon bo'lish imkonini beradi. Oila iqtisodiyoti, ona shahri, viloyat, biznes sohasidagi kasb-hunar haqida bilim olishning eng muhim rag'batlantiruvchi omillaridan biri-bu iqtisodiyotga bo'lgan bilim va qiziqishni rivojlantirishdir, bu esa bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Maktabgacha ta'limda mezonlarga mos keladigan ko'rsatkichlarning mavjudligi va majmui bo'yicha iqtisodiy ta'lim darajasini: yuqori, o'rta, past darajada baholash mumkin. Yuqori darajada: bolalar iqtisodiy tushunchalarning boshlang'ich ma'nosini tushuntirishlari, ota - onalarning ishiga aniq va barqaror qiziqish

ko'rsatishlari, otaonaning kasbi haqida tushunchaga ega bo'lishlari, iqtisodiy so'zlar va iboralarni ishlatishlari mumkin; o'yinlarda olingan bilimlarni hayotda qo'llay olishlari mumkin; ular kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilishga tayyor, ko'plab savollar berishadi va ularga mustaqil ravishda javob topishga harakat qilishadi; ishda kattalar va tengdoshlarga yordam berish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ongli ravishda muomala qilish, ish mavzulariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uning natijalari, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, o'z mehnatlari va o'rtoqlarining natijalarini to'g'ri baholashga qodir; materiallardan oqilona foydalanish; samarali faoliyat jarayonida ishbilarmon, qobiliyatli, ixtirochi, tengdoshlarning ijodiy izlanishlarini faol qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi; tashabbusni qabul qilishga intiladi va biladi, vazifalarni qat'iyat bilan bajaradi, boshlangan ishni oxirigacha olib keladi.

XULOSA

Mazkur iqtisodiy ta'lim darajasini 6-7 yoshdagi bolalarda aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: intervyular, shaxsiy suhbatlar, kuzatish. Ularga "Odamlarga pul nima uchun kerak?", "Reklama nima uchun qilinadi?", "Nega kitob, o'yinchoq, buyumlar, tabiatni muhofaza qilishimiz kerak?", "Do'konga borsang oilaga nimalarni sotib olish kerak?" kabi savollar bilan murojaat qilish orqali bolaning iqtisodiy tafakkurini aniqlash mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, bolaning kelajak hayotdagi faolligi, uning farovon va to'kin yashashi haqidagi tasavvurlari, bilim, malaka va ko'nikmalari kichik yoshdan shakllantirilib borilishi lozim. Ko'rsatkichi past darajadagi bolalar bilan individual ishlash, ularni kelajak hayotga tayyorlash maqsadga muvofiq.

REFERENCES:

1. Haydarovna, D. R. (2020). Pragmatic analysis of the linguistic concept of person-referencing deixis and pronouns referring to it in the uzbek language. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 350-354.

2. Лутфуллаева Д., Давлатова Р., Тожибоев Б. Ассоциативный словарь узбекского языка.- Ташкент:«NAVOIY UNIVERSITETI», 2019.

3. Makhmudova I.I. CONDITIONS FOR DETERMINING THE LEVEL OF ECONOMIC EDUCATION OF PRESCHOOL AGE CHILDREN.

Collociumjournal, 2021. № 22.

ФИО автора: *Mamadiyorova Feruza Azimovna*

Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili I fakulteti talabasi

ФИО научного руководителя: *Fayzullayeva Munavvar Bahodirovna*

Samarqand davlat chet tillari instituti

Название публикации: «BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH UCHUN TURLI O'YIN VA QO'SHIQLARDAN FOYDALANISH»

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida Ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni, qiziqishni oshirish uchun o'yin va qo'shiqlardan foydalanishni va bu bilan bolalarda yangi inglizcha so'zlarni xotirada saqlab qolishni osonlashtirishni ta'minlash haqida.

Kalit so'zlar: *xorijiy til, jahon sivilizatsiyasi, axborot resusrlari, g'arb olimlari, og'zaki nutqda ishlatiluvchi strukturalar yig'indisi, dramalashtirilgan-rolli o'yinlar, qisqa janrli she'rlar.*

Hammaga ma'lumki, bugungi kunda Ingliz tili butun dunyoda birinchi darajali til sifatida tan olingan. Ko'plab mamlakatlar o'z ona tillari bilan bir qatorda xorijiy til sifatida aynan Ingliz tilini o'rganayotgani so'zimizning yorqin dalilidir. Shu boisdan ham ushbu tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga o'sib bormoqda. Dunyo bo'ylab o'qib-o'rganilayotgani kabi bizning yurtimizda ham bu tilni o'rgatish va o'rganish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xususan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim sohalarida ushbu tilni o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda. Sababi, kichik yoshdagi bolalarda kattalarga nisbatan ancha mustahkam xotira mavjud va bu ularga xorijiy tillarni o'rganishda juda qo'l keladi. Shu sababli, kichik yoshdan boshlab bolalarga xorijiy tillarni, xususan, juda katta tezlik bilan o'sib borayotgan ingliz tilini o'qitish borasida barcha chora-tadbirlar ko'rilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga misol qilib 2012-yil 10-dekabrda Vazirlar mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan PQ-1875-SON "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qonunni keltirishimiz mumkin. Ushbu qarorda yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlariga imkon yaratish bosh maqsad etib belgilandi. Shu o'rinda biz boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga Ingliz tilini o'qitishda o'yin va qo'shiqlardan foydalanish va bu o'quvchilarning darslarga qiziqishi ortishiga sabab bo'lishi haqida to'xtalamiz. G'arb olimlarining, xususan, Ch.Friz va R.Ladoning fikricha chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar avval og'zaki nutqda ishlatiluvchi strukturalarning yig'indisini eslab qolishlari kerak. Ya'ni bolalarga til o'rgatishni og'zaki nutqni o'rgatishdan boshlash kerak. Bu esa qo'shiqlar eshittirish yoki dars davomida Ingliz tilidagi o'yinlarni o'ynash yordamida amalga oshirilishi mumkin. Hech kimga sir emaski, bolalar o'qib yoki yozib emas aynan eshitib ko'p narsalarni yodda saqlab qoladilar. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ularning aynan mana shu qobiliyatini e'tiborga olib, ular bilan ko'proq og'zaki nutq uslubini qo'llashlari maqsadga muvofiqdir. Chet tilini boshlang'ich sinflarga o'rgatish katta yoshlilarga va o'smirlarga o'rgatishdan farq qiladi. Ular o'zlarini shifokor, o'qituvchi, uchuvchi va hokazo sifatida tasavvur qilib rol o'ynashni yoqtirishadi. Shu sababli darsda rolli o'yinlar tashkil etish orqali boshlang'ich sinflarni darsga qiziqitirish oson kechadi. Bu xususda ham G'arb olimlarining fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz. Ularning fikricha, bu usul katta samara berishi kuzatilgan va 3 davrni o'z ichiga oladi:

1. Kundalik hayotda ko'p uchraydigan vaziyatlar asosida gapirishga o'rganish. Bu davrda grammatika o'rganilmaydi, faqat o'yinlar yordamida o'qituvchi kerakli gaplarni o'rgatadi.
2. Biror kasb hunarga tegishli nutqiy jarayonga o'tish. Bu davrda monologik nutqning rivojlanishi kuzatiladi.
3. Maxsus matnlar va ishga taalluqli hujjatlar haqida dialoglar qilish. Bu davrda nutq ma'lum bir kasb doirasida shakllanadi. Masalan o'qituvchi dars jarayonida quyidagi o'yindan foydalanishi mumkin: "Lost property office" (Topilmalar idorasi) Daraja: 1-2-sinflarga. **Amaliy maqsad:** tinglab tushunish, gapirish ko'nikmalarini muloqot jarayonida qo'llashni o'rganish. **Ta'lim vositalari:** "Lost property office" yozuvi

tushirilgan peshtaxta, telefon, kuchuk, mushuk, buzoqcha kabi hayvonlarning rasmlari.

Tashkiliy qism: O'qituvchi bolalarga o'yin qanday bo'lishini tushuntiradi va o'zini topilmalar idorasi xodimi deb tanishtiradi. So'ng o'ziga ikkita yordamchi tanlaydi. O'qituvchi o'quvchilarga rasmlarni tarqatadi va ism qo'yib ismlarini, sifatlarini eslab qolishlarini aytadi. Barcha o'quvchilar eslab qolganlaridan keyin uni o'qituvchiga qaytarib berishadi. So'ng o'quvchilar o'z hayvonlari haqida gaplar tuzishadi. Masalan: This is my dog. He is black... Rasmlar topilmalar qutisiga solib qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilarga nutq namunalarini tushuntiradi. Masalan: Excuse me, my dog is missing. He is black. He is two years old. His name is Olapar. My telephone number is... My address is ... O'quvchilar o'qituvchi yordamida o'zlari haqidagi ma'lumotlarni yozib oladilar. Shundan so'ng o'yin boshlanadi. O'quvchilar galma-gal ichki ishlar boshqarmasiga qo'ng'iroq qilishadi va quyidagi tartibda suhbatlashishadi: *policeman: -Good morning, this is lost property officer Mr. Green.*

Pupil: -Hello this is ...

Policeman: -What can I do for you?

Pupil: -My dog is missing. His name is... He is ...(color) He is... years old. Policeman: -Oh, I am sorry, what is your address?

Pupil: -My address is ...

Policeman:- What is your telephone number?

Pupil: -My telephone number is ...

Policeman: -OK, do not worry. We will find your dog very soon.

Pupil -Thank you, sir.

Shundan so'ng o'qituvchi va uning yordamchilari topilmalar qutisidan shu sifatlarga ega hayvon rasmini topib egalariga eltib beradilar. Bolalarni darsga qiziqtirishda she'r va qo'shiqlardan foydalanish ham samarali natijalar berishi kuzatilmoqda. Buning uchun o'quvchilarga qisqa matnli, qisqa janrli she'r va qo'shiqlarni tanlash lozim. Biroq bu yerda muvozanatni kuzatish juda muhim. Chunki, ba'zi bolalar she'r o'rganish va o'qishga qiziqmaydi. O'qituvchilar bu borada hushyor bo'lib , ularni qiziqtirish choralarini ko'rishlari lozim. To'g'ri talaffuzni rivojlantirish va keraksiz

pauzalarsiz gapirishni o'rgatish uchun she'rlarni baland ovozda o'qitish lozim.

Masalan quyidagi she'rlardan ham foydalanish mumkin:

GOOD NIGHT

Good night, Mummy!

Good night, Daddy!

Kiss your little son.

Good night, Granny!

Good night, Sister!

Good night everyone!

MY DEAR MUMMY

My dear, dear Mummy!

I love you very much.

I want you to be happy

On the 8th March.

MY PRETTY DOLL

My pretty doll

Is very small.

I love my pretty

Little doll.

Ingliz tilidagi she'rlarni o'rganish oson emas, ammo bir necha afzalliklari bor:

1. Bu juda xilma-xil so'z boyligi topiladigan usul.
2. Hayotda Inglizcha so'zlarni idrok etish qobiliyatini shakllantiradi.
3. Ingliz tilidagi ijod bilan tanishish imkoniyati.

4. So'zlarning yoqimli ohangi oson o'zlashtirishga yordam beradi.

She'rlardan tashqari har xil qo'shiqlar ham o'quvchilarning tilga qiziqishlarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun Ingliz tili alifbosini o'rganishda qo'shiqdan foydalanilganda natija samaraliroq bo'lgani kuzatilgan. Til o'rganish aqliy qobiliyat bo'lganligi sababli uning psixologik asoslari ham mavjuddir. Shu munosabat bilan tilni o'qitishda psixologik tamoyillarni, xususan, o'quvchilarning yoshi, aqliy va ruhiy salohiyati, dunyoqarashi va boshqalarni e'tiborga olishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Jalolov. Ingliz tili o'qitish metodikasi."O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent-2012. 2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim to'g'risidagi qarori.

3. Birsong.D, Hakuta K. Second language acquisition and the critical period hypothesis. Lawrence Erlbaum associates publishers 1999.

4. Brown D.H, Teaching by principles. An Integrative Approach to Language Pedagogy. New York:PEARSON-Longman 2007.

5. Boshlang'ich sinflarda Ingliz tili darslarida til o'yinlaridan foydalanish. Elektron manzil: /[http.wikipedia.com/](http://wikipedia.com/)

6. Boshlang'ich sinflarda Ingliz tili darslarida she'r va qo'shiqlardan foydalanish. Elektron manzil: /[http.wikipedia.com/](http://wikipedia.com/)

ФИО автора: *G'aybullayev Ruslan Asliddinovich*

Buxoro Davlat universiteti talabasi

Название публикации: «SHOU KONSERT DASTURLARINI TASHKIL ETISH TEXNIKASI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada shou konsert tashkil etish texnologiyalari, taktikasi, yo'nalishlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Moderna texnologiyalar, shou dekoratsiya, shou ssenariy.

Mustaqillik yillarida respublikada zamonaviy milliy estrada san'atini yanada rivojlantirish, estrada ijrochilarining professional mahoratini oshirish hamda iqtidorli yosh xonandalarni kashf etish uchun barcha zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi. Estrada ijrochilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, badiiy jihatdan yuksak musiqa asarlarini keng targ'ib qilish ta'minlanmoqda. Keyingi yillar mobaynida konsert va tomoshalar ko'rsatish texnikasi o'zgarib bordi. Yani konsert tomoshalarini shou tarzda tashkil etish taktikasi qo'llanila boshlandi. Shou konsert bu – zamonaviy inovatsiyalardan foydalangan holda tashkil etilgan modernaviy tomosha. Bu tomosha oddiy bo'lmaydi yani quyidagi jihatlarga alohida e'tibor beriladi:

1. Shou konsert ssenariysiga
2. Sahna dekoratsiyasiga
3. Sahna chiroqlariga
4. Konsert musiqasiga
5. Auditoriyaga

Yuqoridagi atamalarga alohida urg'u berib o'tsak. Bilamizki, har qanday tadbir tashkil etishdan oldin uni ssenariysi tuziladi. Shou ssenariy - boshqa ssenariylardan jozibadorligi bilan farq qiladi. Bunda faqat dastur ketma-ketligiga emas, uning har qismiga e'tibor kerak.

Shou (inglizcha — ko‘rsatmoq, tomosha) — dabdabali ommaviy tomosha. Dastlab AQShda estrada konsertini ifodalagan. Ko‘pincha muayyan mavzu (masalan , AQSH kinoakademiyasining "Oskar" mukofoti, O‘zbekistonda "Ofarin", "Nihol" mukofotlari taqdimot marosimlari), ma’lum shaxsni mashhur qilish yoki narsa, voqeani targ‘ibot etish maqsadida (reklama Shousi). estrada, sport "yulduzlari", mashhur aktyor, siyosatchi va boshqalar ishtirokida uyushtiriladi. Shou tashkil etish yo‘li bilan daromad topish shou biznes deb ataladi. Shou bilan maxsus Shou birjalar. firmalar, madaniy uyushmalar, ayrim guruhlar yoki ba’zi biznesmen (prodyuser)lar shug‘ullanishi mumkin. Shou bitishuv shartnomalariga asosan, mamlakatning o‘zidagi va chet ellardagi mashhur artistlar, san’at guruhlar va boshqalarning chiqishlari uyushtiriladi. O‘zbekistonda 20-asrning 90-yillari boshidan estrada shou biznes rivojlandi. Shu tariqa shou biznesni tarixiy taraqqiyoti boshlandi. Shou konsert uchun yasalgan dekoratsiya dabdabali bo‘lishi kerak. Hozirgi zamonaviy tadbirlarda zamonaviy ekranlardan ham foydalaniladi.



Shou dekoratsiya — teatrda sahnani, kinoda film suratga olinadigan joy maydon, pavilonni spektakl, film mazmuniga moslab bezash. Dekoratsiya yaratishda

rassomlik, haykaltaroshlik, me'morlik, voqelik joyini loyihalash san'ati, yoritish va boshqa vositalardan foydalaniladi. Dekoratsiya yaratish dekoratsiya san'ati deb ataladi. Teatr dekoratsiyasi san'ati va kino dekoratsiyasi san'ati turi bor.



Sahna chiroqlari - Bugungi kunda chiroqni ishlatish juda keng, har xil rangdagi chiroqlarning har xil turlari har qanday chiroq nuri eng ko'zga tashlanadigan va dazzling bo'lganligini so'rashni xohlaydi, bu tegishli bo'lgan sahna chiroqlari bo'lishi kerak.

Shuning uchun ko'p odamlar sahnada yorug'likni, odamlarning ko'zini tortadigan va sahna asarining tashqi qiyofasini shakllantirishni orziqib kutadi. Shuning uchun, sahna yoritish ta'siri ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ko'pchilik sahnada yorug'likka qiziqish bildirmoqda. Bugungi kunda sahna yoritish funksiyasini ko'rib chiqamiz .

Staj chiroqlari sahna san'ati ishlashi va konfiguratsiya uchun maxsus foydalanish talablariga mos keladigan qonunlarga mos keladi, uning maqsadi turli ijroistik san'atlarni qayta tiklash jarayonida, tizim muhandislik dizayni bo'yicha talab qilinadigan texnologik qurilmalarning konfiguratsiyasi chiroqlari, sahna yoritish tizimining aniq va to'liq bajarilishi san'at namoyishi xizmati uchun. Bugungi kunda kichik muharrirlar sahna yoritgichlari va kichik bilimlarning boshqa jihatlarini qo'llashadi.



Shou konsert musiqasi – shou konsert musiqalari e'tiborni tortadigan zamonaviy tarzda yoritilgan bo'lishi kerak yani bunda milliy, klassika yoki maqommas balki faqat estrada kuylanadi. Kirish qismiga esa barchani e'tiborini tortadigan musiqa yangraydi.

Xulosa qilib aytganda, shou tomosha tashkil qilishda har bir elementga e'tibor bergan holda modernizatsiya qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://www.teatr.uz>.
2. <http://www.bilim.uz>
3. <http://www.ziyo.edu.uz>
4. U. Qoraboyev, G'. Soatov "O'zbekiston madaniyati"

ФИО автора: *G'aybullayev Ruslan Asliddinovich*

Buxoro Davlat universiteti talabasi

Название публикации: «SAN'AT VA MADANIYAT SOHASI BOSHQARUVINING RIVOJLANISHI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududidagi madaniyat va san'at muassasalari boshqaruvi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Madaniyat markazlari, madaniy islohotlar, madaniy manbalar.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida barcha sohalarda yangi-yangi o'zgarishlar va yangiliklar ham amaliyotga joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, bu sohalardagi yig'ilib qolgan muammolarga yechimlar topish bugunning vazifasidir. Ayniqsa, san'at va madaniyat sohalaridagi innovatsion va transformatsion jarayonlarni barcha O'zbekiston fuqarolari his qilmoqdalar. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy milliy madaniyati va san'atini rivojlanishi bevosita hozirgi zamon globallashuv jarayoni bilan bog'liq holda yuz bermoqda. Shu bilan birga, an'anaviy milliy madaniyatimizning funksional va tashkiliy jarayonlarini asl mazmun mohiyati bilan saqlash imkoniyati ham cheklanib bormoqda. Shu bois, respublikada madaniyat va san'atning barcha tarmoqlarida transformatsion jarayonlar va innovatsion g'oyalarning huquqiy, tashkiliy asoslarini mamlakat taraqqiyoti va farovonligining asosiy sharti deb hisoblaganlidir. keragidan ko'p qahr xodimlarning rahbarlaridan bezishiga olib kelishini ko'z oldimizga keltirsak, bu haqiqatning to'g'riligiga amin bo'lamiz. Yurtimizda joriy etilgan harakatlar strategiyasini nazorat qilib borish uchun "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tashkil etildi.

"Taraqqiyot strategiyasi" markazining eng muhim vazifalaridan biri Harakatlar strategiyasida belgilangan eng muhim chora-tadbirlarning bajarilishini tizimli

monitoring qilib borish hamda har bir yo‘nalish bo‘yicha guruhlariga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Markaz 2017 yil 23 fevral kuni Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tdi va uning taqdimot marosimi 2017 yil 1 mart kuni “Zarafshon” konsert zali negizida tashkil etilgan yangi media maydonida bo‘lib o‘tdi. Harakatlar strategiyasi va “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishini keng yoritish va tadbirlar bo‘yicha muntazam ravishda jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish maqsadida Markaz tomonidan O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va boshqa yetakchi OAV hamda Xalqaro press-klub bilan o‘zaro hamkorlik bitimlari imzolandi. 2018 yilning 15 fevralida Prezidentimiz “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonni imzoladi .

Unga ko‘ra, mazkur sohalar bilan bog‘liq bir qator isloxlarni amalga oshirish uchun tegishli ko‘rsatmalar berildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasini tashkil etishga qaror qilindi va mazkur tashkilotlarning asosiy vazifa va yo‘nalishlari belgilandi. Shuningdek, “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi va “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi negizida “O‘zbekkonsert” davlat muassasasini tuzish, Xalq ta’limi vazirligiga qarashli R.Glier nomidagi , V.Uspenskiy nomidagi ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at akademik litseyi, bolalar musiqa va san’at maktablari, shuningdek, “Istiqlol” va “Turkiston” san’at saroylari – O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimiga o‘tkaziladigan bo‘ldi. Faoliyatini o‘rganib chiqish natijalarini hisobga olib, “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi, “Artmadad” maxsus jamg‘armasi va “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tugatilib, mazkur tashkilotlarning funksiyalari va mol-mulkini Madaniyat vazirligiga topshirish vazifasi ko‘rsatildi. Farmon sharhida qayd etiladiki, ushbu hujjat madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini keskin oshirish, O‘zbekiston xalqining boy va o‘ziga xos madaniyati,

san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholining keng qatlami o'rtasida ma'nani va axloqan komil inson bo'lish, sog'lom turmush tarzini yuritishga intilishini rag'batlantirishga yo'naltirilgan. O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etilishi milliy madaniyatimiz rivoji yo'lidagi zalvorli qadam bo'ldi. Bu islohotlar o'z navbatida yangi iqtidorlarni izlab topish, yangi repertuarlar yaratish, yangi ijodiy samaralar uchun keng imkoniyatlardir. Yurtboshimiz tomonidan madaniyat va sport boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risidagi farmonning imzolanishi ushbu sohalar faoliyatida yangi davrni boshlab beradi desak, xato bo'lmaydi. Chunki kundun-kundun san'at va sportdek qudratli vositalarga e'tibor butun dunyoda ortib borayotir, binobarin, o'z istiqboli va jahoniy maqomini o'ylagan har bir millat ayni jabhalarga g'amxo'rlik ko'rsatishini zamonning o'zi taqozo etayotir. Demak, yuqoridagi farmon va unda belgilangan vazifalarni hech ikkilanmay, mavzuimiz bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish mumkin. Boisi ushbu tizimlarning isloh qilinishi, faoliyatini qayta ko'rib chiqilishi va strukturasi, boshqaruv mexanizmining yangitdan yo'lga qo'yilishi san'at va madaniyat sohasida yuz bergan jiddiy transformatsion hodisadir. Shu ma'noda, barcha sohalar kabi san'at ham jamiyatning mavjud holati va talabidan kelib chiqib, doimiy yangilanishda bo'lishini qayd etish lozim.

Alohida ta'kidlash lozimki, buyuk allomalarimizdan Farobiyning qarashlarida jamiyatda madaniy bilimning o'rni, insonlarga xos bo'lgan jamiki yaxshi fazilatlarining birlashtiruvchi madaniy ilm ekanligi, faqat madaniy bilimga ega bo'libgina jamiyatni birlashtirish mumkin ekanligiga ustuvor e'tibor qaratilgan. "Qutadg'u bilig", ya'ni "Saodatga eltuvchi bilim" asari bilan tanilgan yana bir sharq donishmandi Yusuf Xos Hojib (taxminan 1020 yil Bolosug'unda tug'ilgan – vafoti noma'lum)dir. Mana shu asos allomaning "Ruhni tarbiyalash va poklash muttasil davom etsagina, yaxshi amallarga erishish mumkin" – deb e'tirof etishiga sabab bo'lgan. Mutafakkirning asarlarini mutolaa qilar ekanmiz uch mezon boshqaruv

taraqqiyotining asosini, o‘zagini tashkil etishi –bular fozil jamiyat (ya’ni ilmu ma’rifatli jamiyat), adolatli tuzum (ya’ni adolat va haqqoniylikka asoslangan tuzum) va odil rahbar (faqat to‘g‘rilik va adolatni yoqlagan rahbar) faoliyati ekaniga guvoh bo‘lamiz.

“Inson barcha zarur narsalarni bir o‘zi hosil qila olmaydi, bularni topish uchun turli kasbdagi odamlarning xizmatiga muhtojlik sezadi. Boshqa insonlar ham shunday holatda bo‘ladilar. Insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topish uchun jamoaga va jamiyatga birlashuvlari zarur bo‘ladi. Bu jamoada har bir shaxs o‘z tabiatiga, iste’dodi va qobiliyatiga yarasha kasb-hunarlarini o‘rganib, har kun o‘z san’atida (hunarida) kamolotga yetishga harakat qiladi. Shu sababli (turli millat va turli dinga mansub) turli joylarda yashovchi odamlar turli jamiyatlarga birlashadilar. Bu jamiyatlar ba’zilar to‘liq, ba’zilar to‘liqsiz bo‘ladilar. To‘liq jamiyatlar uch turli: buyuk jamoa, o‘rtacha jamoa va kichik jamoa.

Buyuk jamiyat – yer yuzidagi barcha joylar va yashovchi odamlar jamoasi. O‘rtacha jamiyat – biror xalqni tashkil etadi. Kichik jamiyat – u yoki bu shahar aholisi birlashmasi. To‘liqsiz jamiyatlar – qishloq, mahalla va oila jamoalari. Oila - eng kichik jamiyat. Mahalla va qishloq shaharga qarashli bo‘lib, qishloqlar jamoasi shahar aholisiga (mahsulot yetkazish uchun) xizmat qiladilar. Mahalla esa shaharning bir qismi, ko‘cha – mahallaning bir qismi. Shahar – mamlakatning bir qismi. Xalqlar turli mamlakatlardan iborat dunyo jamiyatidir.

Xulosa qilib aytganda, har bir jamiyatda madaniyatni yuksaltirmasdan turib yuksaklikka erishib bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <http://www.teatr.uz>.
2. <http://www.bilim.uz>
3. <http://www.ziyo.edu.uz>
4. U. Qoraboyev, G. Soatov ”O‘zbekiston madaniyati”

5. S. To‘ychiyeva “Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish”.

ФИО автора: *G'aybullayev Ruslan Asliddinovich*

Buxoro Davlat universiteti talabasi

Название публикации: «G'ARBDA SAN'AT VA MADANIYATNING UYG'ONISHI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arbda san'at va madaniyat uyg'onishi va shakllanishi haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Tarixiy madaniyat, tarixiy shakllanish, boshqaruv maktablari.

Bilamizki, qadimgi dunyo tarixidan boshlab insonning atrof muhitni o'rganishga bo'lgan harakati uning hayotini ongli ravishda o'zgartirdi. Shu o'rinda qadimgi dunyo tarixidan boshlab moddiy va ma'naviy boylik shakllandi. Shu shakllanish orqali insoniyatning madaniyati ham o'z-o'zidan vujudga kela boshladi.

Mamlakatimiz tarixidagi IX -XII asrlar madaniyat tarixida ilk uyg'onish davri nomi bilan ataladi. Bu davr milliy madaniyatimizdagi eng yorqin sahifalardan biri bo'lib, nafaqat moddiy madaniyat, balki ma'naviy madaniyatning barcha sohalarida yuqori darajaga erishilgan davrdir. Shu o'rinda, umuman, «Uyg'onish» («Renessans») atamasi, uning fanda qachondan boshlab qo'llanilganligi, Uyg'onish davri madaniyati tushunchasi, Sharq va G'arb uyg'onish davrlari madaniyatlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda xarakterli belgilariga qisqacha to'xtalib o'tish joizdir. «Uyg'onish» («Renessans») atamasi italyancha-fransuzcha - «Renaissanse» («Uyg'onish») atamasini ilk bor italiyalik yozuvchi J. Bokachcho musavvir Jotto ijodiga nisbatan «u antik san'atni uyg'otdi», deb ishlatgan. Italiyalik san'atshunos va rassom J. Vazari esa o'zining «Mashhur san'atkorlar hayotidan lavhalar» nomli asarida «uyg'onish» atamasini butun bir madaniy-tarixiy davrni ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatgan edi. Uyg'onish - bu G'arbiy va Markaziy Yevropa madaniyati tarixidagi XIV-XVI asrlarni o'z ichiga olgan malum bir davr. Bu davr Yevropa madaniyatidagi tub burilish davri hisoblanib, Yevropaning buyuk geografik kashfiyotlami amalga oshirgan davridir. Shuningdek, Uyg'onish davrida kitob chop etish yo'lga qo'yildi, antik davr

madaniyati - san'ati, fani, falsafasiga bo'lgan qiziqish nihoyatda kuchaydi. Antik davr fani, falsafasi va san'ati Yevropa xalqlari madaniyatini qamrab oladi. Shu boisdan ham «uyg'onish» atamasining mohiyati ham antik davr madaniyatining uyg'onish. qayta jonlanish ma'nolarini anglatgan. Ikki yarim asr mobaynida yevropaliklarning dunyoqarashi o'zgardi. Dunyoning tuzilishi, inson va jamiyatning asl mohiyati haqidagi fikrlari tubdan yangilandi. Inson, uning tabiat va jamiyat bilan o'zaro aloqasi masalasi birinchi va asosiy masalaga aylandi. Inson muammosi va uning hayoti, ichki kechinmalari va tafakkuri masalasi xudolar, avliyolar, farishtalar haqidagi tushunchalardan ko'ra muhimroq masalaga aylandi. Yevropa Uyg'onish davri ijodkorlari: shoirlar, fitologlar, faylasuf va boshqa atoqli san'atkorlar o'zlarining tadqiqot markaziga insonni qo'ydilar. XX asming 50-yillariga kelib Sharq Uyg'onish davri madaniyati masalasiga alohida e'tibor berila boshlanadi. Akademik N. Konrad o'zining «G'arb va Sharq» nomli asarida Xitoy madaniyatini tahlil qila turib, Uyg'onish davrini insoniyat sivilizatsiyasining barcha davrlari va mintaqalariga xos umumbashariy hodisa deb hisoblaydi. Uning fikricha, uyg'onish dastlab Xitoyda (VI-VIII asrlarda), so'ngra O'rta Sharqda O'rta Osiyo, Eron, Shimoli-g'arbiy Hindistonda (IXXII asrlarda), keyinroq esa, G'arbiy Yevropada hodisaga aylangan. Uyg'onish davri — bu, eng avvalo, ijtimoiy taraqqiyotda ishlab chiqarish munosabatlarning ham, ma'naviy hayotning ham yangi bosqichga o'tish davridir, yani eski ishlab chiqarish munosabatlari va ma'naviy hayotning yangisiga o'tishidir. IX-XII asrlar Movarounnahr va Xurosonda vujudga kelgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar. Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlari, eng avvalo, iqtisodiy jihatdan yuksalishga erishdilar. So'ngra islom ma'naviyatiga asoslangan madaniy taraqqiyotni vujudga keltirdilar. Manaviyat asoslari hisoblangan e'tiqod yakdilligi, siyosiy boshqaruv asoslari, qonun ustuvorligi, axloqiy kamolot, aql-idrok takomili, ma'rifiy barkamollik va fan taraqqiyotining yuqori bosqichiga chiqa oldilar. Uyg'onish davri madaniyati tushunchasi, bizningcha, birinchidan, muayyan millat yoki xalqning ma'naviy mahdudlikdan ozod bo'lib borishi, milliy qobiqdan chiqib, dastlab hududiy, so'ngra umumjahon ma'naviyatiga ta'sir ko'rsata borishidir. Xulosa qilib aytganda, O'rta

Osiyo hududidagi uygʻonish Yevropaga taʼsir oʻtkazgandan keyingina renessans boshlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. <http://www.teatr.uz>.
2. <http://www.bilim.uz>
3. <http://www.ziyo.edu.uz>
4. U. Qoraboyev, G. Soatov "O'zbekiston madaniyati"
5. S. To'ychiyeva "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish".

ФИО автора: *G'aybullayev Ruslan Asliddinovich*

Buxoro Davlat universiteti talabasi

Название публикации: «MARKAZIY OSIYO MADANIYATI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo madaniyati qanday vujudga kelganligi, tarixi, rivojlanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Markaziy osiyo, avesto, ellinizm, antik madaniyat

Markaziy Osiyo madaniyati jahon madaniyati tarixida muhim o'rin tutadi. Uning o'rta asrlardagi madaniyatiga butun dunyo allaqachon munosib o'rin bergan. Hatto Baqtriya, Marg'iyona, Sug'd, Parfiya, Farg'ona, Xorazm, Choch xalqlarining qadimgi madaniyati ham jahon xalqlarini hayratga solmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasining qadimgi madaniyatini o'rganish o'n yillar ilgari boshlangan bo'lsa tadqiqotchilarning bu madaniyatining o'ziga xosligi va boy mazmuni lol qoldirdi. Markaziy Osiyo madaniyati G'arb va Sharqning buyuk madaniyat elementlarni bir butunlikda uyg'unlashtirib o'ziga xos individuallik kasb etadiki, bu xususiyat keyingi taraqqiyot uchun ham negiz bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval jo'g'rofiy o'rni va tabiiy vositalarga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Markaziy Osiyo mintaqasining tabiati turli millat bilan farq qiladi. Bu yerda serhosil vodiylar va vohalar, sersuv daryolar, qaqroq cho'llar, dashtu adirlar, Pomir va Tangritog'ning baland muzofatlari bilan yonma-yon joylashgan. Bunday xususiyat dehqonchilik, chorvador, tog'da yashovchi qabila va xalqlar xo'jalik tarzi va o'ziga xos madaniyatlarning shakllanishi uchun imkon yaratadi. «Qadimgi Sivilizatsiya» deb nomlangan risolada Markaziy Osiyo madaniyatining ikki xususiyati ko'rsatiladi: bir tomondan, turli madaniyatlarning o'zaro ta'sirida, ikkinchi tomondan, qadimgi sivilizatsiyalarning boshqa o'choqlari bilan yaqin aloqada rivojlanishi. Bu xususiyatlarini batafsil kuzatadigan bo'lsak Markaziy Osiyo madaniyatining shakllanish jarayolari yaqqol namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyoning serhosil vodiysi, cho'l va dashti, tog'larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi farqlar turi xo'jaliklarni ertaroq paydo bo'lishi o'ziga xos

madaniyatlar shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon yaqin qo‘shnichilik munosabatlari asosida sodir bo‘lib, qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari taraqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratdi. Eng qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog‘ ovchi qabilalari o‘rtasida munosabat ayriboshlash Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi davrlarda ham uzoq saqlanib keldi. Turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatidagi farqlanish bilan birga mintaqa xalqlarining etnik va tillardagi yaqinlik juda ham uyg‘unlashib ketganligini qadimgi Xitoy va Yunon manbalarida ham qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularni bir-biridan ayricha yashashiga yo‘l qo‘ymadi. Natijada qadimgi Sharqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo qadimgi madaniyati ajralib, o‘ziga xos ko‘rinishda shakllanadi. Dastlab bu madaniyatga ikki xil madaniyat aralashib ketdi: ko‘chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda sivilizatsiya olami. Markaziy Osiyoning o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi xalqlarida ancha muncha farqlar bo‘lishiga qaramasdan ilgari yaqin munosabatlar o‘rnatilgan. Diniy e‘tiqodlar, urf-odatlar, folklorlar, axloqiy me‘yordagi umumiylik madaniy umumiylikni shakllanishiga olib kelgan. Shuning uchun bundan keyin Markaziy Osiyoning yahlit madaniyatini tashkil qiluvchi turli submadaniyatlar mavjudligi haqida to‘xtalish joizdir. Markaziy Osiyo madaniyatining o‘ziga xosligining ikkinchi jihati mintaqaning o‘ta qulay jo‘g‘rofiy o‘rnashganligi bilan bog‘liq. Mintaqa Mesopatomiya, Hindiston va Xitoy kabi uchta buyuk sharq sivilizatsiyasi bilan bevosita chegaradosh bo‘lib g‘arb sivilizatsiyasi beshinchi-Gretsiya va Rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqarrarligi Markaziy Osiyo madaniyati vositachiligi missiyasini bajarishga sabab bo‘ldi, ya‘ni iqtisodiy sohalarda eng avvalo xalqaro savdoda va madaniy sohalarda ham Markaziy Osiyo, G‘arb va Sharq o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajardi. Xususan Markaziy Osiyo hududi orqali buddizm butun dunyoga yoyildi, Hindiston va Xitoyga ellinistik ko‘rinishlari o‘tdi, sharqdan g‘arbgacha va g‘arbdan sharqqa madaniy boyliklar (bilim, dunyoviyg‘oya, kashfiyot, badiiy asarlar) ning almashib

turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo'lib xizmat qildi. Markaziy Osiyo madaniyatining buyuk vositachilik missiyasi boshqa madaniy qadriyatlarini yangilash, o'zlashtirish, mahorati va qayta ishlash kabi jihatlarimiz bo'lmas edi. Bu madaniyat qadimdan yangi hodisalarni o'zlashtirish va moslashtirish mahoratiga ega bo'ldi. Garchi boshqa qadimgi sharq madaniyatlaridagi kabi Markaziy Osiyo madaniyatida ham an'analar keng o'rin egallasada, aytarli xarakter kasb etmaydi, ya'ni, uzluksiz madaniyat yangilanish va taraqqiyot jarayoniga to'siq bo'lmaydi. Shuningdek, an'analarning mustahkam hukmronligi tarixiy vaziyatga ham to'sqinlik qilganliklarini ta'kidlash kerak. Mintaqa orqali katta bosqinchilik yurishlar, xalqlarining ko'chishlari yuz bergan bo'lib, bu Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o'zgarishlar olib keldi.

Afsuski ko'pincha urushlar Markaziy Osiyo madaniyatining qadimgi taraqqiyot davrlarining behisob dalillarini yo'q qiladi. Arxeolog qazilma ma'lumotlar va yozma manbalar mil.avv. I ming-yillik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osiyoning ilk davlatlari Sug'd, Baqtriya va Xorazm madaniyati haqida biroz ma'lumotlar beradi. Mil. avv. VIII-VII asrlarga oid Afrofsiyob (Samarqand), Surxondaryo vohasidagi Qiziltepa, Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir, Xorazmdagi Qizilqir kabi qadimgi shaharlarda o'tkazilgan tadqiqotlar murakkab ijtimoiy tuzilma va madaniyatning yuqori rivojlanganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebaho manbasi Avesto hisoblangan. Avesto so'zining mazmuni umumiy izohga ega emas, ko'pincha asosiy matn sifatida tarjima qilindi. Avesto dunyoning eng qadimgi dinlaridan bo'lgan zardo'shtiylik tarafdorlari uchun muqaddas kalima hisoblanib, payg'ambar Zardo'sht to'planganlarga undan va'z o'qigan. Uning hayoti davri mil.avv. IX-VI-VI asrlar atrofida deyiladi. Avesto va uning boshqa matnlarining to'planishi ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan. Avestoning eng qadimgi matnlari mil.avv. II minginchi-yillarga taalluqli. Avestoning millodiy VII asrga tegishli bo'lgan to'plami juda turlicha mazmundagi 21 kitobidan iborat bo'lib, o'sha davrning barcha bilimlari jamlangan. Zardushtiylik an'alariga ko'ra

bu yodgorlik ezgulik va yorug'lik xudosi Axuramazdaning Zaratushtra vaxiysi hisoblanadi. Biroq unda qadimgi mifalogik tasavvurlar ham tasvirlanadi. Shuningdek, diniy yo'l-yo'riq payg'ambar davridan keyin Zardushtiylikning rivojlangan e'tiqod ramzi yuzaga keldi. Hozirgacha Avestoning ayrim qismigina, faqat 4 kitobi saqlanib qolgan.

Bundan tashqari «Avesto» majmuaga «Kichik Avesto» ham mansub, u Avesto tilida yozilgan bo'lib, ibodat kalimalari joylashgan. Ko'pchilik olimlar Zardo'sht yuksak axloqiy idealdagi va ishontiruvchi fikrlari bilan birinchi haq payg'ambar ekanligini ta'kidlaydilar.

Zardo'sht ta'limotiga muvofiq barcha quruqlikning o'zgarimas ibtidosi Arta bo'lib, «Avesto»da haqiqat, olov ruh deyiladi. Axuramazda tartibli saqlanuvchi osmon xudosi yorug'lik va ezgulik hisoblangan (oxura-xo'shayish, ega, mazda-idrokli, bilimdon). Axuramazdaning o'g'li-Atar (olov), uning vatani bulutlardek qurigan suvlar, uning makoni-hududsiz yog'du. Axuramazda 6 ta ruhniyordamchilarni yaratdi (amesh spenta): ezgu aql, yaxshi tartib, layoqatli qudrat, olijanob mo'minlik, sog'lomlik va boqiylik. Unga Axrimaning zulmat qo'shini – devlar, urushlar timsoli, ochlik, kasallik, adovat va boshqa yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi. Olam va barcha insoniyat hayotining asosida ezgulik o'rtasidagi azaliy kurash yotadi.

Zardo'sht ta'limotining ulug'ligi shundaki, u har bir kishiga tanlash imkonini beradi. Har kim ham yovuzlikni yo'q etish va ezgulikni hukmron bo'lishida ishtirok etishi mumkin, bu ishda barcha bir xilda tengdir. Shu tariqa yerda ilgari bo'lmagan jannat – oltin asr tiklanadi. Unda sovuq ham, jazirama ham, qarilik ham, o'lim ham bo'lmaydi. Yovuzlik bilan kurashda har kishining asosiy quroli mehnat bo'lgan. Zardo'shtiylik axloqli kishidan kamtarin va halol meva eksa, u haqiqat tarqatadi. Ahmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo yerlari yunon-makedonlar tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyo madaniyatida ellinizm elementlari kirib keldi.

Ellinistik jarayon salavkiylar

davlatidan mustaqil bo'lgan Parfiya va Yunon-Baqtriyada o'zining yuqori rivoji bilan ajralib turadi. Yunon-Baqtriya davlati yunonlar mahalliy sintezi qisqa vaqtda o'zining

ijobiy natijalarini berdi, sharharlar soni tez kunlarda o'sdi, dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa hunarmandchilik rivojlanib bordi. Markaziy Osiyo mintaqasi buyuk ipak yo'li bo'lib, o'sgan xalqaro savdoning markazi sifatida o'ta muhim o'rin egalladi. Tovar-pul munosabatlarini o'sishida Baqtriya shohlarining o'z pullarini zarb qilishi xalqaro savdoning rivojiga ijobiy ta'sir qilish bilan birga, yuksak badiiy darajasi bilan ham ajralib turadi.

Yunon-Baqtriya davridagi Oyxonum (Shimoliy Afg'oniston), Saksonaxur va Taxtisangin (Tojikiston), Dalvarzintepa, Yorqo'rg'on (O'zbekiston) kabi shaharlar qurildi. Yunon harbiy manzilgohlarining aholisi turmush tarzi va madaniyatlari aks ettiruvchi ellinistik uslublar Yunon-Baqtriya sharharlarida ochib o'rganildi.

Inshootlar tosh, xom va pishiq g'ishtdan tiklangan. Ustunlar korinf usulida ishlangan. Saroy va ibodat majmualari, gimnaziya, teatr binolari ochib tekshirilganda ustunlar attik bazalltar, yaproqlari, palmetallar, cheti naqshlangan cherepitsa-antifikslar singari unsirlarni qo'llanilishida aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.<http://www.teatr.uz>.

2.<http://www.bilim.uz>

3.<http://www.ziyo.edu>. uz

4.U.Qoraboyev ,G'.Soatov "O'zbekiston madaniyati"

5.S.To'ychiyeva "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish".

**6. U.U. MANSUROV, A.SH. TO‘XTABAYEV O‘ZBEKISTONNING MADANIYATI
VA SAN‘ATI TARIXI.**

ФИО автора: *G'aybullayev Ruslan Asliddinovich*

Buxoro Davlat universiteti talabasi

Название публикации: «O'RTA ASRLAR DAVRI MADANIYATI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta asrlar davri madaniyatining shakllanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kushonlar, eftaliylar, turk xoqonligi

Kushonlar saltanati inqirozga uchragach, hayot sahnasida yangi bir sulolalar davlatchiligi-eftalitlar davlati paydo bo'ldi. Eftalitlar qadimgi Orolbo'yi ko'chmanchi massagetlar avlodlaridan bo'lib, o'z davrida o'ta jangariligi va hujumkorligi bilan ajralib turganlar. Shu sababli qisqa vaqt ichida sharqiy Turkistondan Kaspiy bo'ylarigacha bo'lgan katta hududlarni o'zlariga bo'ysundirganlar. Hatto, sosoniylardan bo'lgan podshoh Peruzni ham (459-484) mag'lubiyatga uchratib, eroniylarni o'lpon to'lashga majbur qilganlar. Eftalitlarning qisqa muddat ichida kuchli davlat barpo etishida, birinchidan, barcha qabila-urug'larning azaliy an'alariga qat'iy bo'ysunishi, ikkinchidan, umumqabila uchun qabul qilingan huquq va axloq me'yorlarini buzganlarga ko'riladigan jazoning qat'iy qilib qo'yilganligi, uchinchidan, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot kechiruvchi qabilalarning jangarilik xarakteri muhim rol o'ynagan. Eftalitlarda ko'p erlilik (poliandriya) an'anasi, ya'ni aka-ukalarning bir ayo'lni xotinlikka olishi hamda zodagonlarning ko'p xotin olish an'anasi, yuqori tabaqa vakilining 20 va undan ortiq do'stlarga ega bo'lishi va vafot etganda o'zining sevimli oti va do'stlari birgalikda dafn etilishi kabi an'analar qonun darajasida bo'lgan. Qabul qilingan huquq me'yorlari barcha uchun qat'iy qonun tusiga ega bo'lgan. Masalan, o'g'irlik uchun kim bo'lishidan qat'iyi nazar, eng avvalo, o'g'irlangan mol o'n baravar qilib undirib olingan, so'ngra o'lim jazosiga mahkum etilgan. 41 Eftalitlarning kuchli davlatga ega bo'la borishi ularning o'troqlashuviga olib kelgan, sun'iy sug'orish shoxobchalari kengayib, dehqonchilik madaniyati yuksala borgan. Qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan istehkomli qal'alar, qo'rg'onlar soni tezlik bilan ko'paygan. Bu davrda Amudaryo, Surxondaryo,

Qashqadaryo, Zarafshon va Chirchiq daryolari bo'ylarida dehqonchilik rivojlanadi. Mazkur daryolardan suv ichuvchi shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy etadi. Ayniqsa, kulolchilik, chilangarlik, shisha ishlab chiqarish, bo'zchilik va sarrojlik, zargarlik va qurolsozlik yuksaladi. Chorvachilik va dehqonchilik rivojlanib, sun'iy sug'orish tizimlari qurilishi avj oladi. Eftalitlarda hokimiyatni boshqarish maxsus kengash zimmasida bo'lgan. Hokimiyat tepasida kengash ma'qullagan kishi turgan. U taxtni kengash tasdiqlagan qonun asosida boshqargan. Eftalitlar davrida Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya va Shosh viloyatlarida mustahkam va hashamatli qo'rg'onlar vujudga kelgan. Savdo-sotiqning gurkirab rivojlanishi eftalitlar davlatchiligi iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga olib keladi, harbiy qudratini yana oshiradi. Tashqi savdoga ipak, bo'yoq mahsulotlari, rangli shishalar, qimmatbaho tosh, arg'umoq otlar, matolar, qurol-yarog'lar chiqariladi. Albatta, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat mamlakatning madaniy hayotiga, balki unga chegaradosh bo'lgan boshqa davlatlar va mintaqalar bilan bo'ladigan madaniy aloqalariga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Eftalitlar mamlakat ichkarisidagi katta-kichik shaharlarda hashamatli binolar qurdiradi. Eftalitlar davri arxitekturasida ikki qavatli qilib qasrlar qurish odat tusiga kirgan. Qasrlar shaharning markazida, tuproq bilan baland qilib ko'tarilgan joyda (eng baland qismi yoki tuproq bilan sun'iy ravishda ko'tarilgan balandlik tepasiga) qurilgan. Masalan, hozirgi Buxoro viloyati hududida joylashgan qadimgi Varaxsha, Poykand shaharlari, Xorazmdagi Tuproqqal'a shahri, Qashqadaryo viloyatidagi qadimgi Zahoki Moron qasrlari ana shunday sun'iy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, tashqi ko'rinishidan nihoyatda mahobatli bo'lib ko'ringan. Eftalitlar davri arxitekturasida, eng avvalo, ibodatxona yoki qasrning tashqi mahobatlilikiga va uning ichki bezaklariga alohida e'tibor berilgan. Ichki devorlar 42 rangli suratlar, naqshlar va haykallar bilan bezatilgan. Masalan, hozirgi Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi Bolaliktepa shahrida qurilgan qasr devorlarida saqlanib qolgan devoriy suratlar o'zining nafaqat tabiiyligi, rangdorligi, balki maishiy hayotning bir bo'lagini badiiy tasvirlashi bilan ham ajralib turadi. Haykaltaroshlikda ko'proq terrakota va koroplastika haykaltaroshligidan foydalanilgan. Bu davr haykaltaroshligida hudud va unda yashovchi kishilarning kiyim-kechaklari,

taqinchoqlari va o'xshash tomonlari ko'zga tashlanib turgan. Ma'bud yoki ma'budalar haykallari (albatta yirik va ulkan haykallar yasalmagan) da uni yaratuvchi haykaltaroshning diniy dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra, binolar bir necha qavat qilib qurilgan. Uy devorlari turli naqshlar va suratlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, ibodatxonalarga katta e'tibor berilgan. Ularning ichki tomonini bezashda qimmatbaho toshlardan va oltindan foydalanganlar. Eftalitlar davrida Poykent shahri, Tuproqqal'a (hozirgi Xorazm hududida), qadimgi Chochdagi Oqtepa qal'asi, qadimgi Varaxsha qo'rg'onlari shaharsozlikning namunalari hisoblangan. Misol tariqasida Varaxsha qo'rg'onini olib qarajak, eftalitlar davrida me'morchilik san'ati qanchalik rivojlanganligining guvohi bo'lamiz. Varaxsha qo'rg'oni ulkan kvadrat shaklida mustahkam tepa ustiga qurilgan. Binoning devorlari ganch bilan suvalgan va devoriy suratlar bilan bezatilgan. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida Varaxsha haqida shunday deb yozadi: «... Varaxsha ... katta qishloqlar jumlasidan bo'lib, Buxoro singari edi. U podshohlar turadigan joy bo'lib, mustahkam hisorga ega bo'lgan, chunki podshohlar (u hisorni) bir necha marta mustahkamlaganlar. Uning Buxoro shahrining devorlari singari devori ham bo'lgan. Bu qishloq Buxoro devorining ichkarisida joylashgan. Unda shunday bir obod qasr bo'lganki, go'zallikda uni namuna qilib ko'rsatar edilar». Eftalitlar davrida saroylar, ibodatxona va boy-badavlat kishilarning turar joylari ichki bezagida sujetli tasviriy san'at asarlari va turli xil naqshlardan foydalanish odatiy tusda bo'lgan.

Masalan, Bolaliktepa qasri devorlariga 43 tushirilgan ziyofat marosimi nihoyatda yorqin bo'yoqlar bilan chizilgan bo'lib, unda gilamchalar ustida juft-juft bo'lib tiz cho'kib o'tirgan erkak va ayollar tasvirlangan. Erkaklarning egnida uchburchak shaklida keng qaytarma yoqali va hoshiyali uzun kamzul, oyog'ida mahsi, belidagi ingichka kamarga qayirma uchli xanjar osilgan. Birida vaza, ikkinchisida tug'ro tutgan qo'llarining jimjilog'iga bittadan ikkita yirik ko'zli uzuk taqilgan. O'ng qo'lida qadah, so'lida ko'zgu tutgan ayollarning kiyim-kechaklari nihoyatda bashang. Ichki libos ustidan hoshiyali qaytarma yoqali hamda uqali uzun va keng guldor yopinchiq – qabo yelkaga tashlangan. Quloqlarida Buxoroning yakkadur ziragi, jimjiloqlarida esa

yoqut ko'zli uzuk taqilgan. Xullas, Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda eftalitlar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy zodagoni ayollarini eslatadi. Kohinning ta'riflashicha, o'sha vaqtlarda eftalit malikalari juda qimmatbaho matodan tikilgan, orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'ylak kiyar, uning etagini maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar. Eftalitlar davrida diniy e'tiqodlar xilma-xilligi - zardushtiylik, Anaxita va Mitraga, buddaviylik, iudizm va nasroniylik mavjud bo'lgan. Buxoro vohasida esa ko'proq Siyovushga e'tiqod qilish rivojlangan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilishicha, «podshoh Afrosiyob o'z kuyovi Siyovushni o'ldiradi. «Buxoro aholisi Siyovushning o'ldirilishi haqida ajoyib ashulalar to'qiganlar, kuychilar bu qo'shiqlarni «Kini Siyovush» - «Siyovush jangi» deb ataydilar. Siyovushga e'tiqod qiluvchilar Navro'z kuni uning qabri atrofida katta bayram o'tkazganlar. Bu bayram «Navro'zi kishavarzon» – «Dehqonlar navro'zi deb atalgan. Buxoro otashparstlari Siyovush dafn etilgan joyni aziz tutganlar va unga atab har yili har bir erkak Navro'z kuni Quyosh chiqmasdan o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarida mashhur bo'lgan. Kuychilar unga moslab 44 kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytgan. Qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi deb ataganlar. Shuningdek, Eftalitlar davrida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda Monizm keng tarqala boshlaydi. Monizm tasviriy san'atni diniy marosimlarga olib kiradi. Tuproqqal'a (Xorazm), Varaxsha (Buxoro) va Panjikent (Tojikiston Respublikasi) dagi ibodatxonalar bezaklari bu fikrimizning dalili bo'la oladi. Masalan, Panjikentdagi motam marosimining suratda tasvirlanishi bunga misol bo'la oladi. Eftalitlar o'z urf-odatlari, ayniqsa, dafn marosimlariga ko'ra kuchli tabaqalanishga ega bo'lganlar. Oddiy eftalitlar murdasi tuproqqa qo'yilgan. Boy-badavlat kishilar vafot etganda esa, ularning jasadi maxsus tayyorlangan tosh dahmaga qo'yilgan. Urug' boshlig'i vafot etganda, juda katta tantana bilan dafn marosimi o'tkazilgan. Odatga ko'ra urug'ning eng boy-badavlat kishilari 20 va undan ham ko'proq sodiq do'stlarga ega bo'lgan. IV asrda yashagan tarixchi Ammian Marselinning yozishiga ko'ra, Xionit shahzodasi vafot etganda, uning murdasi kuydirilib, uning atrofiga sodiq do'stlarining

terrakota haykalchalari o'tkazib qo'yilgan. Xulosa qilib aytganda, efitlarning 100 yildan oshiqroq hukmronligi davri Markaziy Osiyodagi xalqlarning jipslashuvi, turli qabilalarning qo'shilishi, iqtisodiy va madaniy hayotning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida madaniyatning turli jabhada shakllanishi davlatchilik tizimi bilan bog'liq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.<http://www.bilim.uz>

2.<http://www.ziyo.edu.uz>

3.U.Qoraboyev ,G'.Soatov "O'zbekiston madaniyati"

4.S.To'ychiyeva "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish".

5. U.U. MANSUROV, A.SH. TO'XTABAYEV O'ZBEKISTONNING MADANIYATI VA SAN'ATI TARIXI.

ФИО авторов: *Adambayev Umidbek Xaitbayevich* – TVCHDPI o‘qituvchisi

Jalolova Dildora – TVCHDPI talabasi

Название публикации: «AHMAD YUGNAKIY ASARLARI VA UNDAGI MA’NAVIY ME’ROS»

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ahmad Yugnakiy hayoti, ijodi va hozirgi hayotda tutgan o‘rni. "Hibat ul-haqoyiq" asari, asarning lingvistik manba sifatidagi o‘rni, asarda komil inson tarbiyasi, axloq va barcha yaxshi va yomon xislatlarning yoritilishi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Yugnakiy, "Haqiqatlar tuhfası, shayx, Dod Sipohsolorbek, Bertels, na't, choryorlar, Abdurazzoq Baxshi, adab muallifi, axloq, Qur'oni karim, Hadisi sharif, karvonsaroy, rabot, komil inson.

"Ahmad Yugnakiy 12-asr oxiri, Samarqand viloyati Yugnak qishlog‘ida tug‘ilgan va 13-asr 1-yarmigacha yashab ijod etgan shoir, mutafakkir. Tarjimai holi haqida deyarli ma’lumot yo‘q. «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfası») asari bizgacha yetib kelgan. Uning oxirida Adib Ahmad ismi tilga olinadi. (1)

Kitobi adabdan iborat bo‘lib, nomi —«Hibat ul-haqoyiq». Kitob koshg‘ariy tilda she’riy yo‘l bilan yozilgan. «Qutadg‘u bilig»dan 1—2 asr keyin yaratilgan bu asar o‘zbek mumtoz adabiyotining noyob durdonasi hisoblanadi. Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasida Yugnakiyni O‘rta Osiyoning mashhur shayxlari qatoriga qo‘yib, uning tug‘ma ko‘rligi xususida so‘zlaydi.[1]

Shoir «Hibat ul-haqoyiq»ni tugatib, uni hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi. Mashhur sharqshunos olim Bertels bu asar qadimiy o‘zbek adabiy tilidan mumtoz o‘zbek adabiy tiliga o‘tishda bir ko‘prik bo‘lganini aytadi. Asar tilida qadimiy turkiy so‘zlardan ko‘ra, arab va fors so‘zlarining ko‘p qo‘llangani shundan dalolat

beradi. Yugnakiy bu asari bilan o‘zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan.(2)

«Hibat ul-haqoyiq» 14 bob, 512 misradan iborat. Dostonning 1-bobi Allohga hamd, 2-bobi Muhammad (sav) na’ti va choryorlar ta’rifiga, 3-bobi Dod Sipohsolorbek madhiga bag‘ishlangan. 4-bobda kitobning yozilish sabablari bayon qilingan. Dastlabki 4 muqaddima bobdan so‘ng asosiy qismga o‘tiladi. 5-bob — ma’rifatning foydasiyu jaholatning zarari, 6-bob — til odobi, 7-bob — dunyoning o‘tkinchiligi, 8-bob — saxiylik va baxillik, 9 va 10-boblar turli masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, 11-bob — kitobning xotimasi (asarning 1480 yil Istanbulda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko‘chirilgan nusxasida 11 bob mavjud — 3 bob yo tushib qolgan, yo boshqalariga qo‘shilib ketgan). [3]

Yugnakiy o‘zini shoir emas, balki adab muallifi, deb hisoblagan. O‘ziga xos axloq kitobi bo‘lgan bu asarga Qur’oni karim va Hadisi sharif ma’nolari singdirilgan. U islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan.(4)

«Hibat ul-haqoyiq» ilk bor uyg‘ur yozuvida bitilgan. Hozircha ma’lum qo‘lyozmalardan 3 tasi (biri uyg‘ur yozuvi, ikkinchisi arab va uyg‘ur yozuvi, uchinchisi esa arab yozuvi bilan bitilgan) to‘liq, qolganlari parchalardan iborat.(4)

Hibat ul-haqoyiqning uchinchi bo‘limida:dunyoni o'zgarib turishi haqida fikr yuritiladi.

" Bu ochun rabot ul tushub ko'shguluk,
Rabot tushuklik tushar ko'shguluk
O'ng arkish uzadi qo'pup yo'l tutub
O'ng qo'pmish artisti necha ko'shguyluk." [2]

Bu baytda shunday g'oya ilgari suriladi, dunyo karvonsaroyga karvon esa insonga qiyoslanadi yani karvon rabotga kelib ko'nadi yana ketadi. Shunday ekan ko'ngildan molga bo'lgan suqlikni chiqar faqat kiyim bilan qorin to'qligini ko'zlagin. Dunyo boyliklariga uchib oxiratni unutma, yerdan oyog'i uzilgan insonlar oxiri yana yerga tushadi, shunday ekan kiyguliging yeguliging bo'lsa yetarli ortiqcha tilama ortiqchasi ziyon va ofatdir Rasul dunyoni ekinzor deb atadi. Ekinzordan pishgan yaxshilik

urug'ini ter deb aytadi. Yani faqat yaxshilik qil yaxshi insonlar bilan birga bo'l kabi g'oyalar jamlangan. (5)

Xulosa.

Ahmad Yugnakiyning ijodidan shuni anglash mumkin insonni faqat ezgulik, yaxshilik, samimiylik yaxshilik faqat yomon ustidan g'olib chiqishi, nafsga erk bermaslik kabi ulug' xislat ifodalanadi. Asarda shunday bayt keltirilgan: rasuli (payg'ambar) kim ilmi bo'lsa siz uni maqtang deb aytganlar. Haqiqatdan juda chiroyli so'zlar ilmi deganda faqat o'qigan inson emas hayot saboqlaridan xulosa chiqargan to'g'ri yo'ldan yuradigan va faqat yaxshilik qiladigan inson xislatlari yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <http://ziyonet.uz>
2. Boqijon Tóxliyev O'rta maxsus kasb-kunar ta'limi markazi, 1-kitob. 3-nashr - Tosh. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012;
3. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat " 17j., T., 2001;
4. Abdurauf Fitrat, "Hibat ul-haqoyiq " (Tanlangan asarlar, 3j.li), 2j., T., 2000;
5. Mahmudov Q., Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq " asari haqida, T., 1972;
6. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 898-905.
8. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 125-134.
9. Adambayev, U. X., & Rahimberdiyev, S. U. (2022). NAVRO‘Z BAYRAMI VA UNING ETNOMADANIY AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 175-177.

10. Умидбек Хаитбаевич Адамбаев, (2022). Ишонч – эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири, *SCIENTIFIC PROGRESS* (pp. 348-351).

11. Adambayev Umidbek Xaitbayevich, (2022). Ancient myths and legends. “International scientific research conference”. (20th February, 2022) – BELARUS, MINSK: “CESS”, 2022. Part 1 – 4 p.

12. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.

13. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB /Экономика и социум. – С.18-21.

14. Umid Adambayev. (2021). MILLIY O’ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI / Scientific progress. – pp. 1858-1862.

ФИО авторов: NDPI Umumiy pedagogika psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Oblakulov Anvar Erkinovich

NDPI Ingliz tili va adabiyoti amaliy kafedrası o'qituvchisi

Gapparova Mehribon To'lqinovna

Название публикации: «CHET TILLARINI O'RGANISH JARAYONIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV»

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tilini ya'ni ingliz tilini o'rganishning turli usullari va uning ahamiyati haqida fikr yuritiladi hamda psixologik sular orqali tahlil qilinadi.

Tayanch tushunchalar: ingliz tili, motivatsiya, noodatij uslublar, tasavvur olami, psixologik tondashuv, ong.

Til bu madaniy hodisadir; shuning uchun har mamlakatning merosi uning tiliga bog'liq. Ma'lumki, bugungi ingliz tili xalqaro muloqot tili hisoblanadi, u hayotimizning har bir jabhasiga kirib borgan va siyosiy hamda iqtisodiy masalalarni hal etishni osonlashtiradi, desak adashmagan bo'lamiz. Biroq tilshunos sifatida o'ylashimcha, har bir mamlakat o'z tilini saqlab qolishga harakat qilishi kerak, chunki aynan til uni o'ziga xos qiladi va boshqa mamlakatlardan ajratib turadi. Biz ko'p tilli dunyoni saqlab qolishni istar edik, chunki har bir tilni o'rganishimiz bilan biz yangi bilimlarga ega bo'lamiz, Gyote shunday degan: «Inson nechta til bilsa, u shuncha marta odamdir». Boshqa tarafdin esa bugungi kunda dunyo aholisining katta qismi so'zlashadigan ingliz tilini bilishga yetarlicha baho bermaslik ham to'g'ri emas, chunki u iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida millat, mamlakat va umuman jamiyat rivojlanishiga yordam ko'rsatadi. Inson, eng avvalo, muloqot qiluvchi zotdir, shu bois, fikrimcha millatlarning tilini unutmaslik zarur, biroq rivojlanishimiz va komil bo'lishimiz uchun bir-birimizni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishimiz shart. Butun tarix davomida mamlakatlar ko'pgina masalalarni yechish uchun bir-biriga ehtiyoj sezgan va umumiy til ularning o'zaro muloqotini amalga oshirish imkonini bergan.

Tilning millat, davlat, jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini juda muhim, o'ta zaruriy va dolzarb deb izohlagan bo'lar edim. Zero, bu tushunchalar o'zaro dialektik bog'liq va o'zaro aloqador tushunchalardir. Millat, davlat, jamiyat taraqqiy qilgan ekan, uning tili va tilshunosligi taraqqiy qilib boradi. Davlat, jamiyatdagi o'zgarishlar birinchi navbatda tilda, xususan, uning leksikasida – lug'at boyligida o'z aksini topadi. Modomiki, til ijtimoiy xarakterga ega ekan, ijtimoiy hayotdagi taraqqiyot tildagi taraqqiyotni belgilab beradi. Va o'z navbatida til va tilshunoslikning taraqqiyoti jamiyat, davlat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi... Buning isbotini bugungi kundagi dunyo manzarasidan topish mumkin – qaysi mamlakatda – jamiyatda tinchlik, farovonlik hukm surayotgan bo'lsa, shu yerda til va tilshunoslik taraqqiy qilyapti va buning aksi bo'lgan mamlakatlarda til va tilshunoslik rivoji haqida fikr yuritish amrimahol.

Qolaversa, til, avvalo, millatni millat qiluvchi vosita, u millatning ko'zguvidir. Zero, tilimizda bizning qiyofamiz, ma'naviyatimiz aks etadi, til millat vakilining ma'naviyatini namoyon qiladi. Mustaqillik davrining eng ulug' imkoniyat va ne'matlaridan biri bu o'zbek tilining o'z yerida obro', e'tibor topishi, Davlat tili maqomini olishidir. Bugungi kunda o'zbek tili milliy mafkuramizning tarkibiy qismlaridan va mustaqilligimizning bosh belgilaridan biri bo'lib qolmoqda.

Chet tilini o'rganish «yaxshi taassurot qoldiradigan» tarjimai holga ega bo'lish yoki sayohat qilishda qo'l keladigan vositadan ham jiddiyroq ahamiyatga ega. U sizni aqlliyoq, tez qarorga keluvchi insonga aylantiradi va hatto suhbat olib borish qobiliyatingizni oshiradi. Psixologik tadqiqotlar ham ikki va undan ortiq tilda so'zlashish afzalliklarini namoyon etmoqda. Ikki tilni biladigan odamning miyasi bir tilda so'zlashadigan odamnikidan boshqacha ishlaydi.

Shu o'rinda psixolingvistika tushunchasiga biroz to'xtalishni joiz bildim. Bu tilning grammatik konstruktsiyalarini yaratish uchun zarur bo'lgan bilim qobiliyatlari va jarayonlari bilan bog'liq. Shuningdek, u ushbu konstruktsiyalarni tinglovchi tomonidan idrok etilishi bilan bog'liq.

Psixologvistika til o'rganish jarayonida nihoyatga katta ahamiyatga ega. Nafaqat til balki, o'rganish joiz bo'lgan har qanday tushuncha avvalo aqliy va psixologik jarayonga bog'liq bo'ladi.

Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rganish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Muloqotga kirishishning miqdori va sifati tilni tezroq o'rganishning asosiy sabablari hisoblanadi.

Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rganish yana o'rganganlarni qo'llash uchun imkoniyat bor-yo'qligiga ham bog'liqdir. O'rganuvchilarga shunday vazifalar berish kerakki, toki ular o'rgangan bilimlarini suhbat jarayonida amaga oshirish, qo'llashga majbur bo'lishsin. O'zaro muloqot qilish imkoniyatlari til ko'nikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat, ayniqsa o'rganuvchilar tilning ma'nosini amalda qo'llay olishsa, tilni o'rganish muvaffaqiyatli o'rganishga imkon yaratadi. O'rganuvchi tomonidan ushbu jarayon uchun ma'no va muzokaralar o'tkazish imkoniyati muvaffaqiyatli o'qitishning asosiy shartlari hisoblanadi.

ФИО автора: *Azizbek Qodir o'g'li Rahmatov*

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Tarix fakultetining II bosqich talabasi

Название публикации: «YANGI O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMALAKATLARI BILAN QO'SHNICHILIK MUNOSABATLARINI YAXSHILASHDA TUTGAN O'RNI VA ROLI»

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti va minataqa mamlakatlari bilan munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilganligiga urg'u berilgan. Mamlakatimiz tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transcheгарaviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, qo'shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, tashqi savdo, rivojlanish, taraqqiyot, farovonlik, xalqaro munosabatlar, xalqaro hamkorlik diplomatiya, import, eksport, diversifikatsiya, pragmatik siyosat.

Bugun yangi O'zbekiston tashqi siyosati va iqtisodiy faoliyatidagi o'zgarishlar mamlakatimiz bilan hamkorlik qilayotgan jahon, shu jumladan mintaqa mamlakatlari hayotida yangi sahifa ochmoqda. Avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari qarashlari va intilishlarini bir nuqtada birlashtirish, xalqaro doiradagi jarayonlarda o'zaro bir birini qo'llab quvvatlash prinsipi mintaqa davlatlari tashqi siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqa xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni alohida ekanini tan olmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy yo'nalishi, insonparvarlik, oshkoralik, qadr-qimmat, o'z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lish va har jihatdan mukammal davlat barpo etish asosiy vazifalardan sanaladi.

O'zbekiston 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng dunyo hamjamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida o'zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshira boshladi. O'tgan 30 yil mobaynida o'zbek diplomatiyasi katta yo'lga bosib o'tdi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 134 mamlakati bilan diplomatik aloqalarni o'rnatgan va xorijiy mamlakatlarda 35 ta elchixona, 17 ta bosh konsulxona va xalqaro tashkilotlar huzurida 3 ta doimiy vakolatxona faoliyat olib bormoqda¹³

Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining bu boradagi qonun va qonun osti hujjatlari ham ishlab chiqilgan.

2017-yildan boshlab o'zbek diplomatiyasida sifat jihatdan butunlay yangi sahifa ochilib, respublikamizning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyati yangi bosqichga chiqdi, deb aytish mumkin. Buning asosiy sababi - mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan dunyoga ochiqlik siyosati, birinchi navbatda mintaqadagi mamlakatlar ya'ni, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi.

2012-yil sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi"ni e'lon qildi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy konsepsiyasi - davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O'zbekiston milliy

¹³Dunyo axborot agentligi/ https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=o%E2%80%98zbekiston_-_markaziy_osiyoda_mintaqaviy_hamkorlikni_mustahkamlashning_asosiy_tashabbuskori-ydT

davlatchilik manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlar tizimidir¹⁴.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralari daxlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; ichki milliy qonunlar va huquqiy normaladan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; tajovuzkor harbiy bloklarga va uyushmalarga kirmaslik davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, bir davlat bilan yaqinlashish orqali boshqasidan uzoqlashmaslik kabilar ustuvor yo'nalishlar qilib belgilangan.¹⁵

Davlat Prezidentining Parlamentga har yili murojaat qilish amaliyoti dunyoning ko'plab mamlakatlarida mavjud. Unda yaqin kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan strategik maqsad va vazifalar belgilab beriladi. O'zbekiston tarixida birinchi marta respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil dekabr oyida Oliy Majlisga murojaat qildi va tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi yaqin qo'shnilar bilan konstruktiv muloqot va kuchli tashqi siyosat olib borish ekanligini ta'kidladi.¹⁶

O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi mamlakatlar bilan o'zaro teng manfaatli aloqalarni mustahkamlash bo'ldi.¹⁷ Iqtisodiy sohada, xalqaro moliyaviy institutlar bilan

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi// <https://lex.uz/docs/-39149?ONDATE=11.01.1997>

¹⁵ O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari// <https://hozir.org/reja-ozbekiston-tashqi-siyosatining-asosiy-tamoyillari.html>

¹⁶ O'zb. Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning// <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>

¹⁷ O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko'ptomonlama hamkorligi MDH// <http://hozir.org/ozb-tarix-11-uzb-indd.html?page=137>

hamkorlik aloqalarining tobora kengayishi har qanday davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosi hisoblanadi. O'zbekiston taqraqqiyotning yangi davrini boshlagan bugungi sharoitda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini tobora chuqurlashtirish va yangi bosqichga ko'tarish tashabbusi bilan chiqmoqda. O'zbekiston rahbari Jahon banki, Xalqaro valuta fondi va boshqa nufuzli moliyaviy muassasalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni va o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ko'rmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning tashqi siyosatining vazifalari quyidagilardan iborat:

-siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;

-mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart sharoitlarni shakllantirish;

-Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko'maklashish;

-jahondagi yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish, O'zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;

-O'zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, ma'suliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;

-mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida hal qilish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan prevent diplomatiya chora tadbirlaridan foydalanish;

-milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarini jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;

-O'zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli olib chiqishini ta'minlaydigan ko'p muqobilli transport-kommunikatsiya yo'laklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

-xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoyaga olinishini ta'minlash.¹⁸

2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh assambleyasi Prezident SHavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish"¹⁹ rezolyutsiyasini qabul qildi. Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrikaning 55 mamlakati hujjatga hammualliflik qildi va rezolyutsiya BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab quvvatlandi.

Rezolyutsiya Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqada tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi, shuningdek mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi muhim rolini e'tirof etadi. Hujjatda Bosh assambleya Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y harakatlari va tashabbuslarini ma'qullagan.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy maslahatlashuv uchrashuvlarini tashkil etish to'g'risidagi tashabbuslarini mamnuniyat bilan qayd etgan holda, rezolyutsiya mintaqaning dolzarb muammolarini birgalikda hal qilish uchun bunday maslahat maydonidan samarali foydalanishga chaqiradi. Shuningdek, konferensiyada yana bir muhim masala kun tartibiga qo'yildi. Savdo tranzit va bojxona jarayonlarini raqamlashtirish, bu borada qo'shma harakatlar strategiyasini qabul qilish zarurligini qayd etildi.

¹⁸ O'zbekiston respublikasi tashqi siyosatining maqsad va vazifalari// <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/siyosatshunoslik/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosatining-maqsad-va-vazifalari>

¹⁹ 2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh assambleyasi//<https://www.uwed.uz/ru/news/fulltext/1219>

Butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bois, Prezidentimiz BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti shafeligida mintaqa mamlakatlari qishloq xo'jaligi vazirlarining uchrashuvini o'tkazib, qo'shma dasturlar ishlab chiqarish taklifini ilgari surdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash terrorizm ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlariga ham to'xtalib o'tildi. Bundan tashqari, O'zbekiston rivojlanishining besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishi ochiq, konstruktiv va o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib borishni, shu jumladan, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shniçilik kamarini yaratishni ko'zda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qilib, aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatda o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning bosh maqsadimiz - umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat". Yangi davrdan boshlab, mamlakat tashqi siyosatida ochiqlik siyosati amalga oshirila boshlandi. Xususan, O'zbekiston ichki va tashqi siyosatida mintaqa mamlakatlari bilan xavfsizlik va strategik sherikçilik, transchegaraviy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha bir qator kelishuvlar amalga oshirildi. O'zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan bir necha bor uchrashuvlar o'tkazildi va bundan ko'zlangan maqsad, mamlakat taraqqiyoti, balki butun mintaqani rivojlantirish borasida izchil sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

Mamlakatimiz rahbarining tashabbus va g'oyalari, oqilona tashqi siyosati tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida mutlaqo yangi, pragmatik siyosiy muhit vujudga keldi. Mamlakatimizda tabiiy mahsulotlarni eksport salohiyatini oshirish va bu borada xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik bitimlarini imzolash, tashqi investitsiyalarni mamlakatimizga olib kirish va bu borada keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi oqilona tashqi siyosat O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari o'rtasida keyingi besh yil mobaynida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan yaqin va o'zaro manfaatli qo'shnichilik aloqalarini rivojlantirish borasidagi izchil tashqi siyosatining samarasi va mustaqil o'zbek diplomatiyasining katta yutug'idir.

ФИО автора: Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi

o'quv-metodik bo'lim boshlig'i

Musayev Jasur Tairovich

Название публикации: «XXI ASR KIBERJINOYATLARI HAMDA MAMLAKATIMIZDA KRIMINALISTIKANING RIVOJALANISHI LOZIM BO'LGAN ASOSIY YO'NALISHLARI»

Annotatsiya: Maqolada kompyuterlashtirilgan tahliliy tizimlardan foydalangan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish, taxlil qilish va ularning manbasini aniqlash uchun nanotexnologiyalardan, shuningdek, tergovchilar va ekspert kriminalistlar tobora ko'proq ishlashga majbur bo'lgan uyushgan jinoiy guruhlar va jamoalar a'zolari o'rtasidagi aloqa izlari batafsil ko'rib chiqiladi. Turli zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Turli xil zamonaviy manbalardan olingan kiberjinoyatlarning izlari va xususiyatlari bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *sud-ekspertiza, trassologik izlar, jinoiy faoliyat, uyushgan jinoyatchilik, aloqa izlari, nanotexnologiyalar, elektron izlar, elektron raqamli hujjatlar, raqamli imzo.*

O'zbekiston kriminalistikasini so'nggi yillarda faol rivojlantirish va takomillashtirish davrini keldi. Kriminalistik ekspertizasi jinoyatchilikka qarshi kurashda yetakchi fan bo'lgan holda nafaqat ilmiy-texnikaviy taraqqiyota, balki mustaqillikning ilk davrlarida mamlakat tushib qolgan ijtimoiy regressda ham yutuqlarga erishdi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi o'zgarishlar ham mamlakatdagi jinoyatchilik holatiga har doim ham ijobiy tasir ko'rsatmaydi.

Jinoyatchilikning keskin o'sishi, uning tez kasbiylashuvi, jinoyatchilarning jinoiy guruhlar va jamoalarga birlashishi, qotillik, terrorizm, qurol-yarog', portlovchi moddalar, giyohvandlik vositalari, kontrabanda va boshqalar kabi hujumlarning yangi turlarining paydo bo'lishi jinoyatlarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Huquqni muhofaza qilish organlarining umumiy va O'zbekiston kriminalistikasi oldida, xususan, "jilovlanmagan" yangi jinoyatlarni jilovlaydigan usullar va uslublarni izlash uchun ijtimoiy buyurtma rolini o'ynadi.

Shuni ta'kidlash joizki, mahalliy kriminalistika rivojlanishining asosiy yo'llari, uning mohiyatiga eng mos keladigan narsa virtual haqiqatda ishlash bilan bog'liq bo'lgan yangi ma'lumotlar va nanotexnologiyalarni ishlab chiqishdir. Bularning paydo

bo'lishi va keng tarqalishi mamlakatimiz jamiyati hayotining ko'plab sohalarini kompyuterlashtirish, turli xil zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan huquqni muhofaza qilish va noqonuniy faoliyatda foydalanish bilan bog'liq. Axborot jarayonlarini amalga oshirishning zamonaviy vositalari va usullari xabarlar, tasvirlar, matnlar va boshqalarni uzatish orqali haqiqatning o'ziga xos rasmini taqdim etadigan maxsus virtual haqiqatni yaratadi. Hayotning kompyuter tizimlari va telekommunikatsiyalar bilan to'yinganligi nafaqat jinoyatchilikni sezilarli darajada o'zgartiradi, balki unga qarshi kurashishning yangi imkoniyatlarini ham ochadi.

Kriminalistika fanining barcha tarkibiy qismlariga, birinchi navbatda, kriminalistik texnologiyalariga, xususan, "Trasologiya"ga ta'sir ko'rsatadi va allaqachon qisman ta'sir ko'rsatgan. Qo'llar, oyoqlar, transport vositalari, xakerlik asboblari va boshqalarning an'anaviy va etarlicha yaxshi o'rganilgan izlari bilan bir qatorda, ovozli va majoziy izlar so'nggi paytlarda keng tarqalgan va isbotlashda talabga ega.

Birinchi, ovozli aloqa vositalaridan, asosan, mobil aloqa vositalaridan foydalanishning tobora kengayib borishi, shuningdek, "Suhbatlarni nazorat qilish va yozib olish" kabi tergov harakatini joriy etilishi bilan bog'liq. Ikkinchi televizion kuzatuv tizimlari, jumladan samolyotlarda va hatto sun'iy Yer sun'iy yo'ldoshlarida ham keng qo'llanilishi tufayli keng tarqalmoqda.

Bunday tizimlar tomonidan ishlab chiqarilgan videoyozuvlar turli jinoyatlarni sodir etish (talonchilik va talonchilikdan tortib giyohvandlik o'simliklari plantatsiyalarini etishtirish) va qilmish izlarini yashirish lahzalarini tobora ko'proq aks ettirmoqda va shuning uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'rinuvchanligi tufayli ortiqcha baholash qiyin bo'lgan dalil qiymati. Respublikamiz viloyatlarining barcha shahar-tumanlarida, turar-joylarda, banklarda, davlat va xususiy korxonalarda, savdo markazlarida o'rnatilgan televizion kuzatuv tizimlaridan foydalanish bo'yicha materiallarni aniqlash, olib qo'yish, foydalanishda ekspertizadan o'tkazishning texnik va taktik jihatlarni ko'rinadi. Ushbu masalalar ayniqsa bozorlar, stadionlar, er osti o'tish joylarida, yoqilg'i quyish shoxobchalarida va hokazolar juda dolzarbdir.

Bunday "majoziy" izlardan foydalanish bo'yicha shakllangan taktik va texnik tavsiyalar talonchilik, zo'rlash, terrorchilik harakatlari va izlarini tayyorlash, sodir etish va yashirish mumkin bo'lgan boshqa jinoyatlarni tergov qilish usullarida hisobga olinishi kerak. Kriminalistikada qo'llashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu hozirgi kunda mamlakatimizda tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan turli xil ma'lumotlar bazalarida qoldirilgan elektron izlarni uyali aloqa, kredit, diskont kartalari, magnit kod bilan jihozlangan sayohat hujjatlari, shaxsiy Internetga ulangan kompyuterlar, elektron mahsulot teglari, maxsus chiplar va boshqa shunga o'xshash qurilmalarning o'rganilishi va ulardan tergov harakatlarida foydalanish. So'nggi yillarda ommaviy hodisaga aylangan bunday izlarni aniqlash, dekodlash internet tarmog'ida sodir etilgan

turli xil jinoyatlarni, jumladan, kompyuter jinoyatlarini fosh etish va tergov qilishga xizmat qiladi.

Shuni aytish mumkinki hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kiberjinoyatlarda internet imkoniyatlaridan foydalangan holda jinoiy hujumlarni amalga oshirish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda qoldirilgan elektron izlarning izlari ancha murakkabroq va ularni o'rganishda faqatgina dastlabki qadamlar qo'yilgan.

Kriminalistikada o'rganilish lozim bo'lgan jabxalardan yana biri hozirda mamlakatimizda rivojlanayotgan yo'nalish - bu haqiqiy elektron raqamli hujjatlarga, raqamli imzoga noqonuniy ta'sir qilish izlarini o'rganish, shuningdek, klaviatura qo'lyozmasini tahlil qilish.

Kriminalistik hid tahlili, ayniqsa, hozirda qo'llanilayotgan biologik hid detektorlarining ayrimlarini bartaraf etuvchi tobora sezgir va portativ elektron hid analizatorlari bilan rivojlanishda davom ettirish lozim. Bundan tashqari, hodisa sodir bo'lgan joyda dalolatnomaning issiqlik izlarini aniqlash imkonini beruvchi issiqlik tasvirlagichlarini O'zbekiston amaliyotida qo'llash va yanada takomillashtirish istiqbolli ko'rinadi.

Analitik asboblarning mamlakatimizda keng qo'llanilishi hamda takomillashtirilishi, ularning sezgirligining keskin oshishi va tahlil natijalarini monitor ekranlarida taqdim etish imkonini beruvchi kompyuter bloklari bilan jihozlanishi munosabati bilan moddalar va materiallarni kriminalistik tadqiq qilish uchun qiziqarli istiqbollarni ochib beradi, ayniqsa qalbaki oziq-ovqat, alkogolli mahsulotlar, bozorlarda ichimliklar, konyak va vino mahsulotlari, dori-darmonlar, tamaki mahsulotlari va boshqa kontrafakt mahsulotlarni aniqlab beradi.

Kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan izlar va ob'ektlarni aniqlash, tuzatish, olib tashlash va o'rganish uchun mo'ljallangan yangi texnik vositalardan foydalanish voqea joyini tekshirishda ushbu vositalardan foydalanishning optimal taktikasini ishlab chiqishni talab qiladi. Avvalo, biz raqamli kameralar, diktofonlar, videokameralarni nazarda tutamiz, bu bizga majoziy va ovozli kriminalistik ahamiyatga ega ma'lumotlarni to'g'ri qayd qilish imkonini beradi. Ular yangi tergov harakatlarini ishlab chiqarishda ham zarur bo'lib, ularning ro'yxati va turlari asta-sekin kengayib boradi. Shunday qilib, "Suhbatlarni kuzatish va yozish" nafaqat telefon xabarlarini, balki Internet orqali yangi axborot texnologiyalari tomonidan taqdim etiladigan xabarlarini ovozli va videochatlarni ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy axborot texnologiyalarini kriminalistikaga faol integratsiya qilmasdan turib tergov organlarining samarali ishlashi mumkin emas. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish jinoyatlarni ochish va tergov qilishda tergovchilar va tezkor xodimlarning axborot-tahliliy ishlarining sifati va

samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Misol tariqasida voqea joyidagi vaziyatni qayta tiklash va maxsus kompyuter dastiri yordamida voqea joyini modellashtirish va u erda sodir bo'lgan jinoiy hodisa dinamikasini takrorlash tizimini qayd etishimiz mumkin. U voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi yoki 3D skanerlash ma'lumotlari asosida qayta tiklash uchun mo'ljallangan bo'lib u voqea joyining batafsil rejasini tuzadi, shuningdek, voqeani kompyuter filmi shaklida qayta tiklaydi. Tergov faoliyatini yanada kompyuterlashtirish kun tartibiga tergovchi ishini kompyuterda rejalashtirish va dasturlash, versiyalarni ko'rsatish va tekshirish, tergov harakatlarini amalga oshirish algoritmlarini ishlab chiqish, eng keng tarqalgan jinoyatlarni tergov qilishning kompyuterlashtirilgan usullarini ishlab chiqish masalalarini hal etadi.

So'nggi paytlarda kriminalistik texnologiyalarining "Shaxsni tashqi ko'rinishi bo'yicha aniqlash" va "kriminalistik ekspertizasi" kabi eng qadimgi bo'limlari rivojlanish uchun yangi turtki oldi. Bular kompyuterlashtirilgan bir nechta yangi yozuvlar bilan to'ldirildi, ularning ro'yxati biometrik texnologiyalardan foydalanish tufayli ko'z, ovoz xususiyatlari, nutq, yuz ifodalari, genomik portretlar, tananing rentgenogrammasi va boshqalar.

Ushbu zamonaviy ro'yxatga olish texnologiyalari nafaqat jinoyatchilarni tashqi va ichki (somatik) shaxsiy xususiyatlarning keng doirasi bo'yicha hisobga olish, balki jamoat joylarida (aeroportlarda, temir yo'l stantsiyalarida, metro stantsiyalarida) o'rnatilgan nazorat va xavfsizlik tizimlarini kuzatishda foydalanishga imkon beradi. Bu avvalroq ro'yxatga olingan va inson oqimidagi boshqa shubhali shaxslarni o'z vaqtida aniqlash, terrorchilik harakatlari va boshqa og'ir jinoyatlarga chek qo'yish imkonini beradi.

Kriminalistika texnikasi va taktikasini ishlab chiqishning belgilangan istiqbolli yo'nalishlari muqarrar ravishda an'anaviy va kompyuter vositalaridan faol foydalangan holda sodir etilgan yangi jinoyatlar bo'yicha kriminalistika metodologiyasini yanada rivojlantirishga olib keladi.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, jinoyatlarni ochish va tergov qilish jarayonida qo'llaniladigan maxsus kriminalistik bilimlar tizimida yangi axborot va nanotexnologiyalar hamda ularni amaliy qo'llash ko'nikmalari markaziy o'rinni egallashi kerak.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishning yangi usullarini ishlab chiqish Internetning virtual haqiqatida uning kanallaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoiy hujumlarga, shuningdek, banklar va boshqa moliya institutlarining ishiga xalaqit berish, mijozlarning hisob raqamlaridagi pul mablag'larini o'g'irlash va boshqa noqonuniy

maqsadlarda ularning yopiq fayllariga kirib borish kabi jinoyatlarning kech ochilishi xakkerlarda tergovdan yashirinishga sharoit yaratish bilan bir qatorda jazolanmasligiga ishonch hosil qiladi. Bunday jinoyatlarni aniqlash va ochish uchun yuksak texnologiyalar sohasida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish usullarini chuqurlashtirish va bu boradagi chora-tadbirlarni davom ettirish zarur.

Xulosa qilib shuni yana bir bor ta'kidlash kerakki, tanish voqelik chegaralarini toraytirish orqali virtual haqiqat chegaralarini kengaytirish ijobiy qaytarilmas jarayondir XXI asr kriminalistikasining kelajagini amaliyotda nanotexnologiyalar yordamida jinoyatchilikka qarshi kurashda keng foydalanilishida ko'rish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Овчинский А.С., Чеботарева С.О. “Матрица преступности”.-М., 2006.- С 15-16.
2. Ищенко Е. П. “Перспективные криминалистические средства и методы выявления и предупреждения преступлений // Выявления и предупреждения преступлений криминалистическими средствами и методами”: материалы конференции. – М.,2004. - С 6-10.
3. Ищенко Е. П. “О некоторых подходах к выявлению и расследованию преступлений, совершаемых в виртуальном пространстве // Использование современных информационных технологий в правоохранительной деятельности и региональные проблемы информационной безопасности”: сборник материалов научно-практической конференции. Вып. VII. – Калининград, 2006. – С. 214-226.
4. Полоткин Д.М., Ищенко Е. П. Новейшие методы исследования вещественных доказательств в криминалистике: научно-практическое пособие. – Рязань, 2005.

ФИО автора: *To'xtanazarova Sayyora*

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani

47-DMTT tarbiyachisi

Название публикации: «NAVRO'Z SAYLIDA BOLAJONLAR QUVONCHI»

Annotatsiya: Maskur maqola maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchi bolajonlar uchun bo'lib o'tkaziladigan navro'zi olam bayrami uchun qisqacha spektakl va o'yinlarni uyushtirib bolalarni sog'lom fikrlashi uchun imkoniyatlar yaratish bunda asosan bolalar bilan ishlash va bundan tashqari uylarida ham bu o'yinlardan foydalanish va bunda ota onalari yordam berishlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Navro'z, fors-tojik va turkiy, Bahor va yangi ayyom, Onaqutining saxovati, Burgut qal'a, Jomboq qal'a va Niso qo'rg'onlari, Ot o'yin, chillak, qo'g'irchoq, tosho'yin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, bo'y qizlar sumalak pishirish, Jamiyat, mustaqillik, taraqqiyot, istiqlol, Ta'lim-tarbiya.

Navro'z (Navruz) bayrami fors-tojik va turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, aynan kun va tun teng bo'lgan paytga mos keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko'ra, Navro'zning shakllanish davri – eng qadimgi zamonlardan „zardushtiylik“ning paydo bo'lishigacha davom etgan asrlarni o'z ichiga olgan ekan. Navro'z so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib „Yangi kun“ degan ma'noni bildiradi. Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to'xtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o'tishgan. Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko'pchilikning „Navro'z qayerda va qachon paydo bo'lgan ekan?“ — degan savoliga „Saodat“ jurnalida e'lon qilingan „Onaqutining saxovati“ maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: „Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo'lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro'z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya'ni, ayol shahri poytaxti bo'lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal'a, Jomboq qal'a va Niso qo'rg'onlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan „olov uy“lari yaqqol misol bo'la oladi. Burgut qal'a markazida moviy gumbazli maqbara bo'lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko'tarilgan qo'lida Zumrad tosh bo'lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo'yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo'lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o'txonasiga o't yoqqan“, deyilgan. Firdavsiyning „Shohnoma“sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan

bogʻlanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb oʻrgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim toʻqitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bogʻ bunyod qiladi. Nihoyat, „ishlari gurkirab berganda meva“ bir kuni taxt yasatib, unda osmonga koʻtariladi. Ushbu afsonaga koʻra xuddi shu kuni Navroʻz nishonlangan. Alisher Navoiy „Tarixi mulki ajam“ („Ajam shohlari tarixi“) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari soʻngida ulugʻ Navroʻz ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: „Jamshid „Chihil minor“ nomli odamzod koʻrmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib... „bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yigʻib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtim, quyosh nuqta eʼtiqodli rabiygʻa taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga oʻltirib, adolat sayt va sadosin olamgʻa muntashir qildi va ul kunining otin navroʻz qoʻydi“. Darhaqiqat, Navroʻzning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq koʻrsatish qiyin boʻlsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navroʻzning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, yaʼni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bogʻliq boʻlgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qatʼi nazar navroʻzni uygʻonish bayrami sifatida nishonlash uchun asos boʻlgan. Zero, X asr Buxorolik olimi Narshaxiy, dexqonlarning navroʻzda aytiladigan Siyovush nomi bilan bogʻliq qoʻshiqlari xaqida gapirib, „Bu gaplar boʻlib oʻtganiga hozir uch ming yildan koʻproq vaqt oʻtdi“, - deb yozadi. Bahor va mehnat bayramining paydo boʻlishi haqidagi tarixiy maʼlumotlar davrlar oʻtishi bilan turli oʻzgarishlarga uchrab, shu kunlargacha yetib kelgan. Ana shunday afsonalarning aksariyati Navroʻzi olamning vujudga kelishini afsonaviy Jamshid bilan bogʻlaydi. Navroʻz haqidagi qadimgi afsonalarda esa bu umumxalq bayramining paydo boʻlishi ajdodlarimizning bahor fasli va koʻklamgi dala ishlarining boshlanishiga aloqador udumlariga bogʻlanadi. Navroʻz 21 martdan 22 martga oʻtar kechasi „Qozon toʻla“ udumi bilan boshlanadi. Shu oqshomda kechasi bilan koʻpchilik boʻlib sumalak va xalim ham pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan. Navroʻz „qozon toʻladigan“, yaʼni qut baraka tantana qiladigan xalq bayramidir. Navroʻzda qozon-qozon sumalaklar qaynashi – toʻkin – sochinlik, dalalar serxosilligi, mevaga toʻla bogʻlar saxovatidan dalolat beradi. Hozir Oʻzbekistonda ham Navroʻz umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi, 21 mart dam olish kuni deb eʼlon qilingan. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayillari tashkil qilinadi, konsertlar beriladi. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navroʻzga bagʻishlangan tadbirlar oʻtkaziladi, sumalak, halim va boshqa tansiq taomlar pishiriladi. Navroʻz kunlari hokimliklar, mahallalarning faollari, xayr-ehson tashkilotlari – mehribonlik uylari bolalari, urush va mehnat faxriylari, yolgʻiz keksalar huzuriga tashrif buyurib, ularni qutlab, sovgʻa-salomlar ulashadi Oʻzbekistonda navroʻz 21-mart kuni nishonlanadi va dam olish kuni hisoblanadi. Navroʻz — yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uygʻonishi bilan bogʻliq yangi kunning boshlanishidir. 21-mart kecha va kunduz tenglashgan kun — Yangi yil, yani Navroʻz bayrami sifatida Sharq xalqlaritomonidan keng nishonlanadi. U dehqon uchun ekin-tikin ishlarining boshlanish pallasi hisoblanadi.

Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o'tkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navro'z kunlari qishki manzillari — qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari -yozloqlarga ko'chib o'tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar erga qo'sh solishgan. Jamoa-jamoa bo'lib, hasharlar uyushtirishgan. O'tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ommaviy ravishda me'vali, manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navro'z — yangi yil, yangi hayot qaynagan. Ajdodlarimiz Navro'z bayramiga atab maxsus kiyimlar tikishgan va ularni kiyib, bayram qilishgan. Navro'z taomlari ham o'ziga xos bo'lgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim tayerlash ananaviy tusga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroki juda faol bo'lgan. Ular Navro'z bayramida turli ommaviy bayram o'yinlari o'ynaganlar. Ot o'yin, chillak, qo'g'irchoq, tosho'yin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, bo'y qizlar sumalak pishirish marosimida faol ishtirok etish uchun ancha ilgariroq tayyorgarlik ko'rishgan.

Sharq xalqlarining mushtarak ijodi. - Navro'z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muxtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi ota-bobolarimizning mifologik tassavurlaridan tortib bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo'lgan ma'naviyat olami singib ketgan bo'lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining qar bir yutuqidan doimo kuch va quvvat olib turadi. Sharq xalqlarining eng xayotbaxsh va qadimiy bayrami Navro'zning qachon paydo bo'lgani xususida turli muloxazalar bildirilgan. Atoqli olim Xodi Zarif Navro'zi olamning yoshini kamida uch ming yil, xatto undan ham kattaroqdir deb xisoblaganida to'la xaqli edi. Zero, X asr Buxorolik olimi Narshaxiy, dehqonlarning navro'zda aytiladigan Siyovush nomi bilan bog'liq qo'shiqlari xaqida gapirib, "Bu gaplar bo'lib o'tganiga hozir uch ming yildan ko'proq vaqt o'tdi", - deb yozadi. Bahor va mehnat bayramining paydo bo'lishi haqidagi tarixiy ma'lumotlar davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchrab, shu kunlargacha yetib kelgan. Ana shunday afsonalarning aksariyati Navro'zi olamning vujudga kelishini afsonaviy Jamshid bilan bog'laydi. Navro'z xaqidagi qadimgi turk afsonalarida esa bu umumxalq bayramining paydo bo'lishi ajdodlarimizning baxor fasli va ko'klamgi dala ishlarining boshlanishiga aloqador udumlariga bog'lanadi. Navro'z 21 martdan 22 martga o'tar kechasi "Qozon to'la" udumi bilan boshlanadi. Shu oqshomda kechasi bilan ko'pchilik bo'lib sumalak va xalim ham pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan. Navro'z "qozon to'ladigan", ya'ni qut baraka tantana qiladigan xalq bayramidir. Navro'zda qozon-qozon sumalaklar qaynashi - to'kin - sochinlik, dalalar serxosilligi, mevaga to'la bog'lar saxovatidan dalolat beradi. Ulus kuni, ya'ni navro'zga bag'ishlangan qozoq xalq qo'shiqlaridan birida: Ulus kuni qozon to'lsa, Yil bo'yi sut mo'l bo'lar, Ulug'lardan olqish olsang, U yil o'ljang mo'l bo'lar! Navro'z bayrami, sumalak tantanasi, boychechak, lola sayli bilan bog'liq folklor materiallari - xalq qo'shiqlari, e'tiqodlari, bolalar o'yinlari, afsona va rivoyatlari, marosim va udumlarini to'plab, alohida majmua hoida nashr ettirish navro'zning qadimiy udumlarini saqlab qolishda katta amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Xalqimiz orasida navro'z bilan bog'liq qadimiy qo'shiqlarni, e'tiqod va udumlarni biladigan zukko odamlar ko'p. Eng kichik yoshdagi kitobxonlar uchun bayram ssenariysi

Qadrli mehmonlar, aziz do`stlar sizlarga qorli tog`lar, qir-adirlar, keng dala va bog`lardan salom keltirdim...

Bolalar - Rahmat senga Gulbahor!

Gulbahor - Aziz do`stlar, hozir dugonam Navro`zoy ham keladi, qani uni kutib oling. (qarsak chalinadi) Sho`x kuy yangraydi. Sahnaga aravachada boshida gulchanbar bilan, qo`lida dasta gul bilan, atrofida o`yinchoq qushlar, xashorat va xayvonlar bilan Navro`zoy kirib keladi. Ishtirok etuvchilan uni aravachadan tantana bilan tushiradilar.

Navro`zoy - Salom aziz bolalar!

Salom gul-lolalar!

Salom qadrdonlarim!

Bolalar - Salom Navro`zoy!

Salom qadirjonimiz!

Navro`zoy - Salom ko`m-ko`k bahorim, Soylari sho`x oqarim. Xay-xay go`zal jamoling, Gurkiraydi kamoling...

Gulbahor - qanday go`zal bahor chog`im, Tabiat ham o`zgach Keng Vatan, chaman boqing, Yashnataman kuzgacha!

Qush kelibsiz navbahorim, Bu diyorga marhabo.

Bolalar - Sarpo kiydi bog` dalam, Kirda yoqut piyolam, Oftob shu'lasini alvon, Kamalak ko`kda narvon.

Navro`zoy- Rahmat bolalar ajoyib qo`shiq aytdingiz. Go`zal diyorumiz gullarga boy. Ha aytganday, men bilan birga Boychechak, Chuchmomaxon, Lolaxon ham kelishayotgan edi.

Gubahor- Bolalar ularni qo`shiq bilan kutib olaylik. (Boychechak qo`shig`i ijro etiladi so`ng sahnaga gullar kirib kelishadi)

Binafsha - Salom do`stlar!

Bolalar - Salom Binafsha Gulbahor - Bolalar yana qanday gullarni bilasizlar? Bolalar - Lola, Nastar, atirgul, gulsafsar, gulbeor va boshqalar.

Navro`zoy - Balli bolalar, ko`p gullarni bilar ekansizlar.

Navro`zoy- Bolalar bir topishmoq aytaman kim topadi? Oqib keldi jildirab, Oyna kabi yarqirab.

Bolalar - Navro`zoy, bu topishmoqqa bir she'r orqali javob beramiz. Bog`larda o`ynab oqar, Ko`zgu kabi obi-hayot...

Navro`z umumxalq bayrami bo`lgani uchun uni bolalarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi.
Navro`z, bu nima o`zi?

Navro`z ayyomining tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir - bu kun odamlar bir -birlarini muborakbot etadilar.

Yoshlar ota - onalarini, qariyalarni, bemorlarni yo`qlaydilar.

- Bir-biri bilan arazlashib qolgan qo`ni - qo`shnilar yarashadilar.

- Odamlar bir-birlariga yaxshilik qilishga shirinsuxanlik bilan muomala qilishga oshiqadilar.

Ko`ryapsizki, Navro`zning ma'naviy jihatlari juda chuqur ildiz otgan. O`rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o`zbeklar qadim zamonlardan buyon Navro`z kunini yangi yilning boshlanishi deb quvonch bilan qarshi olib kelganliklarini, u faqat o`yin - kulgi bayrami emas, balki mehnat yilining boshlanishi ekanini, bahorgi kecha - kunduz tengligi 21 martga to`g`ri kelishini ham bilib oladilar. Navro`z - xalqimizning sevimli bayrami. Navro`z bayramini o`tkazish yosh avlodni tarbiyalashda, xalqimiz ijodiyotining eng yaxshi namunalari misolida uning dunyo qarashini shakillantirishda katta ahamiyatga ega. Birgina Navro`z emas, balki har - qanday an'ana yoshlarni insonparvarlik, baynalminalchilik, ezgulik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Navro`z bayramini o`tkazish yuzasidan mahsus tadbirlar ishlab chiqish, yoshlarni xalqimizning milliy madaniyati durdonalari bilan tanishtirish va ularda faol siyosiy va mehnat ko`tarinkiligini uyg`otish imkoniyatini beradi. Navro`zni nishonlashda kutubxonalar, maktablar, turar joylardagi mahalla qo`mitalari, honadonlar atrofidagi tashkilotlar va korxonalar bilan hamkorlikda tayyorgarlik ko`rishlari lozim. Navro`z tantanalari bir oy davom etadi. Bayramda dala, bog` sayllari o`tkaziladi. Anjumanlarga she`rhonlik qo`shiq aytish, katta xashar uyushtirish, xovli va bog`lar, ariq - anhorlarni tozalash, daraxt va gul ko`chatlarini ekish, maktab va maktabgacha bo`lgan muassasalarni ko`kalamlashtirish ishlari olib boriladi. "Navro`z" bayramini o`tkazish ssenariysi Aylabon Lutfiy - karam Navro`zi olam keldilar. O`smadan qoshi qalam Navro`zi olam keldilar. Tadbir o`tkaziladigan zal bayram libosida qilib bezatiladi. Zalning to`rida "Assalom Navro`z" yon tomonlarida bahorni madh etuvchi shiorlar yozilgan plakat va lozunglar ilingan bo`ladi. Zalning har to`rt tomonida stollar to`rt -olti kishi o`tiradigan qilib did bilan qo`yiladi. Dasturxonlar to`shalgan stol usti gul va bahorning tansiq taomlari bilan bezatiladi (Sumalak, ko`k somsa, chuchvaralar, xar-hil o`zbek milliy taomlari). Dinamik orqali bahor faslini madh etuvchi kuy jarangdor sado berib turadi. Bayramga maktab o`quvchilari, o`qituvchilar, faxriylar, mahalla oqsoqollari taklif etiladi. Bayramni olib boruvchi barcha bayram qatnashchilarini bezatilgan dasturxonga taklif etadi. Shu tariqa Navro`z bayrami tantanali ravishda boshlanadi.

Boshlovchi: Ona yurtim bag`ring to`lib ol nafas. Ozodlikning Navro`zlari muborak!
Xar chexrada barq urmoqda istiqloq. Turkistonim istiqboldan ber darak. Erk nasimi elaversin gurkirab. Dala-tuzing chechaklarga burkansin. Alp o`g`loning tuprog`ingga bosh urib. Maysalardan birlashmoqni o`rgansin.

Boshlovchi: Assalomu alaykum Navro`z qatnashchilari! Sizlarni yangi yil bahor bayrami bilan chin qalbidan tabriklayman. Aziz mehmonlar! Navro`zning nozu-ne'matiga to`la bo`lgan dasturxon sizga muntazir. Navro`z dasturxoniga marhamat! Bugungi bayramingiz ko`ngilli o`tsin. Navbat san'atkorlarga beriladi. Navro`zni madh etuvchi qo`shiqlar zal bo`ylab jaranglaydi.

Boshlovchi: Navro`z! Bahor! Asrlardan beri xalqimizning bunday an'anasi bor. Bu an'anasi Navro`z saylidir. Shoirman, mussavirman, san'atkorman degan kishi borki, bu shodiyonani tasvirlashga albatta urinib ko`radi. Bu shodiyona-dan qalbi larzaga kelmagan ijodkor xali tug`ilmagan. Bu fasl muhabbat va uyg`onish fasli, qo`yi baraka, mehnat va jasorat fasli. Bayram qatnashchilari-ni tabriklash uchun mehmonlarga so`z beriladi.

Boshlovchi: To`lg`ondi yer, yengil to`lg`ondi. Bo`sh tuproq bag`rini yorib. Nozik yashil maysa uyg`ondi. To`lg`ondi yer, yengil to`lg`ondi. Navdalarni uchida kulib, Bahor uyg`ondi... - Ha bahor uyg`ondi. Bahor bilan birga odamlar qalbida shijoat uyg`ondi. Dalalar uyg`ondi. Dalalarda jasorat uyg`ondi, mehnat uyg`ondi. Navro`z saylida qaytayotgan dehqon to`g`ri dalasiga yo`l oladi. Navro`z, shu zahmatkash dehqonlar haqqi hurmati qadaming qutlug` bo`lsin. Tabrik so`zi beriladi. San'atkorlar bahorni madh etuvchi qo`shiqlar kuylaydi. Bayram qatnashchilari raqsga tushadilar.

Boshlovchi: O`ynamoq, kuylamoq kerak Kelganda Navro`z bayrami Bog` aro yurmoq kerak. Kelganda Navro`z bayrami Lolalar termoq kerak Kelganda Navro`z bayrami Gashtini surmoq kerak. - Ha, bu faslda somsa-yu sumalak pishirish bilan ovvora bo`ladi. Erkaklar ketmon-u o`roq charxlab yerga kerakli bo`lgan asbob uskunalar tayyorlaydilar. Xuddi ana shu kezlarda og`ilxona mollarini oftoboy joylarga olib chiqiladi. Qish bo`yi ifloslangan junlarini yuvib taraladi. Bu faslda yerga ko`chat o`tkaziladi, urug` tashlanadi. Shundan so`ng bir guruh qizlar "Navro`z" haqida she'rlar mushoirasini davom ettiradi. Qizlar she'r o`qiyotganda "Bahor" valsi kuyi san'atkorlar tomonidan ijro etiladi. Navbat san'atkorlarga beriladi.

Boshlovchi: Lolalar alvon-alvon, Sumalak berar darmon Sumalak yetmay qolgan, Bir umr qilar armon. - Bilasizmi? "Sumalak" ne deganq "Sumalak" aslida "Sumalak" o`ttiz farishta degani. Sumalak pishayotganda qozon boshida o`ttiz malak o`tiradi. Oshpaz emas o`shalar, pari-yu farishtalar pishiradi. Tong maxali hamma charchab uxlab qolganda farishtalar sumalakga tuz soladilar. Farishtalar qo`lidan tuz yegan sumalak shirin bo`ladi. Ha do`stlar, sumalak - qutluqosh, uni yegan savob topadi. - Afsona shunday talqin topgan. Tarixiy guvox berishicha esa "Sumalak" forscha "Samoni" bug`doy maysasi so`zidan kelib chiqqan deb faraz qilishadi. Navbat san'atkorlarga beriladi.

Boshlovchi: Dimoqqa yalpizlar nafasi urar, Yurakda muattar chechaklar Osmonda boshuraziz mehmonim Navro`zing muborak, O`zbekistonim! - Ha, ne-ne davrlar o`tdi boshingdan, O`zbekistonim. Ne-ne zamonlar o`tdi. Ne- ne bo`ronlarda ne-ne g`oyalar yemirilib ketdi. Lekin xalqning asriy bir an'anasi hamon yashab kelmoqda.

Bu mehnat, ezgulikni, bahorni ulug`lovchi umumxalq bayrami "Navro`z" saylidir. Navbat san'atkorlarga beriladi.

Boshlovchi: Turnalar yurtiga qaytgani kabi Bag`ringa qaytmoqda alyor baytlaring Moviyan xayolchang ko`rinish berar Ming shukur tabarruk ulug` zotlari Buyuk daxolarni bergan bo`stonim Yangi yiling qutlug`, O`zbekistonim... - Bu faslda odamlar to`da-to`da bo`lib sayrlarga chiqishadi. Bir - birlarini bahor bilan qutlashadi. Bir - birlariga faqat yaxshilik ulashadi. Gullar ulashadi, birga kuylashadi. Odamlar bir-birlariga faqat baxt tilab kuylagan bunday paytda olam sevinchga to`lib ketadi. Shundan so`ng qiziqarli savol-javob o`yinlari boshlanadi. Boshlovchi: Maysalarning yashil tug`yoni dilda Qalblarda nish urgan orzular go`zal Yurtim tuprog`ingga kirib kelmoqda Xirotdan Navoiy bitgan shox go`zal O`zliging muborak, O`zbekistonim Navro`zing muborak, O`zbekistonim! Navro`z bahorning boshlanishi, boychechak bahorning elchisi. Boychechakni ko`rganda faqat ezgu niyat qilish kerak. Shu Navro`z tongida qo`lida boychechak tutib qiyqirib o`ynayotgan shu bolalar baxti uchun ne-ne urushlardan bag`ri kuygan xalqim ulkan koinotdagi mitti sayyora Ona zaminga tinchlik omonlik tilaydi: Yomon yurmasin, to`zon turmasin. Gullar so`lmasin, inson o`lmasin. Hammasin, hammasin osmon asrasin Dushman hammasin bolalar sasin Sovuq nafasini olov yamlasin. Ko`ngilli o`tayotgan "Navro`z" sayli shu tariqada davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. I.Karimov«Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch».Toshkent 2008y
2. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risidagi qonun» - Toshkent 1997 y.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo`yiladigan davlat talablari. T, O`zPFITI, 2000. Tuzuvchi mualliflar:M.Rasulova, H.Abdurahmonova va boshqalar.
4. Maktabgacha ta`lim jurnali. №1 -2000 y.
5. Kadrlar tayyorlash bo`yicha «Milliy dastur» - Toshkent 1997 y.

ФИО автора: Н.Қурбонов

ДБҚнинг Божхона институти

курсанти

Название публикации: «БОЖХОНА ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ СОДДАЛАШТИРИШ ВА УЙЎНЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ»

***Аннотация:** Ушбу мақолада божхона тартиб-таомилларини соддалаштириши ва уйғунлаштиришида рақамлаштириши сиёсати ва унинг аҳамияти ҳамда шу йўналиш бўйича халқаро тажрибалар ҳамда ушбу соҳада жорий этиш аҳамияти ёритилган, шунингдек олиб борилган тадқиқот жараёнлари асосида керакли амалий тавсиялар келтирилган.*

***Калит сўзлар:**Хавфни бошқариш тизими, PNR ва API технологиялари.*

***Аннотация:** В данной статье описывается политика цифровизации и ее значение в упрощении и гармонизации таможенных процедур, а также международный опыт в этой сфере и важность ее внедрения в данной сфере, а также необходимые практические рекомендации, основанные на исследованиях.*

***Ключевые слова:** Система управления рисками, технологии PNR и API.*

“Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради”.

Ш.М.Мирзиёев

Ҳозирги замонамизнинг энг катта ютуқларидан бири, шиддатли ривожланиш омили иқтисодиётнинг рақамлаштирилишидир. Бу ютуқ айнан илм-фан ва маърифат тараққиётининг мевасидир. Шундай экан, бу икки кучли омилни узвий боғлиқликда кўриб, уни бир занжирнинг икки бўғини сифатида параллел йўналтириш, устувор вазифалар қаторига киритиш, уларнинг натижаларини ҳаётимизга татбиқ қилиш ривожлантириш самарасини янада оширади. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви ва технологик ривожланиш шароитида Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланишини рақамли иқтисодиётнинг жадал ўсишисиз тасаввур қилишимиз қийин. Тадқиқотлар натижасига кўра, 2023-йилга келиб глобал ЯИМнинг чорак қисми рақамли соҳада бўлишини тахмин қилинмоқда. Лекин, халқаро ахборот коммуникация технологиялари ривожлантириш индекси бўйича Ўзбекистон 170 дан ортиқ давлат ичида 103-ўринни эгаллаб туришининг ўзи мамлакатимизда бу

соҳада ҳали ўз ечимини кутаётган масалалар ва қилиниши лозим бўлган ишлар кўплигидан далолат беради. Бугунги кунда мамлакатимизда тадбиркорлик фаолиятини янада либераллаштириш ва кенгайтириш, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш, миллий маҳсулотларимиз экспорт салоҳиятини ошириш, маҳаллий маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш ва тадбиркорларга қулай шарт-шароит яратиш борасида муҳим ислохотлар ўтказилмоқда. Олдимизга қўйган вазифаларимизни муваффақиятли амалга оширилиши асосан божхона органлари фаолияти самарадорлигига боғлиқ. Шунини таъкидлаш керакки ўтган давр мобайнида божхона соҳасида кенг миқёсдаги ўзгаришлар амалга оширилди. Уларнинг орасида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 ноябрдаги – “Божхона маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” ПФ-5582-сон²⁰ ҳамда “Божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш ва Давлат божхона хизмати органлари ташкилий тузилмасини янада такомиллаштириш тўғрисида” ПФ-6310²¹-сон фармонлари алоҳида аҳамиятга эгадир. Ушбу фармонлар асосида божхона маъмуриятчилигини янада такомиллаштириш ва божхона тартиб таомилларини соддалаштириш, божхона органлари фаолияти самарадорлигини ошириш, бизнесни ривожлантириш йўлида бюрократик тўсиқларни бартараф этиш ва мамлакатда инвестиция муҳитини яхшилаш мақсадида қуйидаги ишлар амалга оширилганини мисол қилишимиз мумкин:

- ✓ хавфни бошқариш тизимини амалиётга татбиқ этиш;
- ✓ масофавий электрон декларациялаш постлари ташкил этилиши;
- ✓ замонавий божхона терминаллари;
- ✓ қўшимча ҳисобланган божхона тўловларининг ундирилмайдиган ва қайтарилмайдиган миқдори белгиланганлиги;
- ✓ божхона тўловларини кечиктириб ёки бўлиб-бўлиб тўлашнинг энг кам муддати белгиланганлиги;
- ✓ экспорт контрактларини божхонада ҳисобга қўйишни бекор қилиш;
- ✓ ягона ойна механизми;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 5-июнда қабул қилинган “Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини

²⁰ [“Божхона маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” ПФ-5582](#)

²¹ [“Божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш ва Давлат божхона хизмати органлари ташкилий тузилмасини янада такомиллаштириш тўғрисида” ПФ-6310](#)

такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6005²²-сонли фармонида биноан 2020 — 2023-йилларда божхона маъмуриятчилигини ислоҳ қилиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органларининг фаолияти самарадорлигини ошириш концепсияси тасдиқланган. Мазкур концепсия ижроси доирасида “Божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш ва уйғунлаштириш тўғрисидаги халқаро конвенсияга (Киото, 1973-йил 18-май, 1999-йил 26-июнда қабул қилинган ўзгартиришлар билан) Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни²³ қабул қилинган. Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодексига²⁴ ва “Давлат божхона хизмати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига²⁵ тадбиркорлик субъектларига енгиллик яратиш ва божхона органларининг фаолиятини такомиллаштиришга қаратилган ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Божхона органларининг ташкилий тузилмалари қайта ташкил этилиб, Давлат божхона қўмитасининг марказий аппаратида Рақамли божхонани ривожлантириш ва божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш, Даромадлар ва божхона статистикаси, Контрабандага қарши курашиш ва божхона аудити тузилмалари, Марказий божхона лабораторияси фаолияти йўлга қўйилган. Шунингдек республика ҳудудларида “Масофавий электрон декларациялаш” божхона постлари ташкил этилган. Божхона органларининг инфратузилмаси объектларини ривожлантириш мақсадида замон талабларига мос равишда “Яллама”, “Айритом”, “Фарғона”, “Самарқанд” божхона постлари қайта қурилган, чегара постларига инсон танасини сканер қилувчи 15 та қурилма ва 1 дона “3-портал” инспекциявий-кўрик мажмуаси ўрнатилган.

Божхона органлари фаолиятига жорий этилган ахборот тизимларининг сони 67 тага, тадбиркорлик субъектларига ва жисмоний шахсларга кўрсатилаётган интерактив хизматлар сони эса 33 тага етказилган. Ушбу ахборот тизимлари 21 та назорат органининг тегишли тузилмалари билан интеграциялаштирилиб, маълумотларнинг идоралараро алмашинуви йўлга қўйилган. Давлат божхона қўмитаси томонидан 33 та хорижий давлатнинг божхона органлари билан ҳамкорлик тўғрисида 137 та халқаро шартнома имзоланган. Ҳозирда бир қатор хорижий давлатларнинг (Россия, Беларус, Озарбайжон, Қозоғистон, Тожикистон, Қирғизистон ва бошқалар) божхона органлари билан реал вақт режимда ўзаро электрон ахборот алмашинуви йўлга қўйилган.

²² [“Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6005](#)

²³ [“Божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш ва уйғунлаштириш тўғрисидаги халқаро конвенсияга \(Киото, 1973-йил 18-май, 1999-йил 26-июнда қабул қилинган ўзгартиришлар билан\) Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши тўғрисида”ги ЎРК-654](#)

²⁴ [Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси](#)

²⁵ [“Давлат божхона хизмати тўғрисида”ги ЎРК-502](#)

Божхона органлари фаолиятида “хавфни бошқариш” тизими жорий этилиши натижасида экспорт юқларининг 84 % фоизи, импорт юқларининг эса 74 % фоизи соддалаштирилган тартибда расмийлаштирилиб, ҳар бир товарлар партияси учун сарф этилаётган ўртача вақтни экспортда 1 соатгача ва импортда 4-5 соатгача камайтиришга эришилган. “Хавфни бошқариш” тизими жорий этилгунига қадар ҳар бир экспорт (импорт) товарлар партиясининг расмийлаштирилиши мос равишда 2 ва 3 кунни ташкил этган. Халқаро аэропортларда икки йўлакли тизим жорий этилиши натижасида йўловчиларнинг аксарияти, яъни 95 % фоизи “яшил” йўлак орқали ҳаракатланишига имконият яратилиб, бугунги кунда уларнинг божхона назоратидан ўтиши учун 3 — 5 дақиқа кетмоқда. Ушбу ҳолат икки йўлакли ўтиш тизими жорий этилгунига қадар 30 дақиқа вақт талаб қилган²⁶.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг жорий йилнинг 17-феврал куни “Божхона тизимини ислоҳ қилиш ва коррупсиядан холи соҳага айлантириш масалалари бўйича йиғилиш”идаги²⁷ ўз нутқларида “*Божхона тизимини настдан бошлаб, энг юқори бўгингача ўзгартириш керак*” деб таъкидладилар. Ҳамда 2023-йилга келиб божхона тизимини рақамлаштиришни 100 фоизга етказиш бўйича дастур қабул қилиш вазифаси қўйилганлиги ҳам божхона ишида рақамли технологияларни қўллашнинг нақадар муҳимлигини кўрсатиб бермоқда. Ўзбекистон Республикасининг беш йиллик тараққиёт стратегиясига муофиқ экспортни 30 миллиард долларга ҳамда хорижий туристлар сонини 7 миллионга етказиш белгилаб олинган. Шунингдек, Жаҳон божхона ташкилоти ҳам 2022-йилни “Рақамли божхона трансформатсиясини кенгайтириш”²⁸ йили деб эълон қилганлиги, божхона тизимини рақамлаштириш бугунги кун халқаро ва миллий божхона сиёсатининг муҳим йўналиши эканлигини кўриш мумкин. Бундан ташқари 1 апрелга қадар Самарқанд Халқаро Аэропортида, кейинчалик барча аэропортларда “БОЖХОНАЧИСИЗ БОЖХОНА” тизимини ишга тушуриш бўйича топшириқлар бердилар, бунга муофиқ Самарқанд Халқаро Аэропортида “БОЖХОНАЧИСИЗ БОЖХОНА” концепсияси ишлаб чиқилмоқда. Маълумот ўрнида шуни такидлаб ўтиш керакки 2010 йилгача халқаро аэропортларда 100 % божхона кўриги ўтказилган, ҳозирги кунда эса йўловчилар томонидан қизил ва яшил йўлақлар ихтиёрий равишда танлаш амалиёти жорий этилган бўлиб. Шу ҳолатлар юзасидан бир нечта муаммолар юзага келябди. Бу муаммоларни қуйидагиларда кўришимиз мумкин: ўзаро ҳамкорлик йўқлиги, аэропорт бўйлаб ҳаракатланганда назорат қилувчи

²⁶ Ўзбекистон республикаси давлат божхона қўмитаси раиси м. Азимовнинг “2020 — 2023-йилларда божхона маъмуриятчилигини ислоҳ қилиш ва ўзбекистон республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш концепсияси ижроси тўғрисида”ги ахбороти ҳақида

²⁷ “Божхона тизимини ислоҳ қилиш ва коррупсиядан холи соҳага айлантириш масалалари бўйича йиғилиш”

²⁸ “Рақамли божхона трансформатсиясини кенгайтириш” йили

такрорий функцияларнинг мавжудлиги, аэропортларда тизимлаштирилган видеокузатув имкониятларининг яратилмаганлиги, йўловчилар бўйича олдиндан маълумотлар олиш тизими мавжуд эмаслиги ва бунинг натижаси ўлароқ хавфларни олдиндан аниқлаш имконияти йўқлиги ҳам иш сифатига ўз таъсирини ўтказмай қолмайди. Замонавий божхона концепсиясига муофиқ кутилаётган натижаларни қуйидагиларда кўришимиз мумкин:

- ✓ “БОЖХОНАЧИСИЗ БОЖХОНА” концепсияси йўлга қўйилади;
- ✓ Йўловчилар бўйича хавфни баҳолаш миллий тизими яратилади;
- ✓ Давлат органлари ўзаро интегратсия қилиниши;
- ✓ Божхона назоратини амалга ошириш интеллектуал таҳлилларга асосланади;

“БОЖХОНАЧИСИЗ-БОЖХОНА” концепсияси йўлга қўйиш орқали олдиндан бериладиган маълумотларни таҳлил қилиш механизмини йўлга қўйган ҳолда хориж тажрибаларида қўлланиладиган API (Advanced Passenger Information)²⁹ ва PNR (Passenger Name Record)³⁰ ахборот тизимларидан фойдаланиш мақсадга муофиқ. Бу ахборот дастурларида ҳозирда Россия Федератсияси, Миср, Қозоғистон, Афғонистон, БАА, Германия, Исроил, Қувайт, Покистон каби давлатлар олдиндан маълумотлар тақдим этиш қобилиятига эга. Хориж тажрибасига муофиқ API/PNR таҳлили бир йўловчи ҳақида қуйидаги маълумотларни бера олиш қобилиятига эга.

- ✓ Йўловчининг исми шарифи
- ✓ Йўловчининг ёши, жинси, миллати
- ✓ Учиш йўналиш, вақти
- ✓ Келаётган давлати ҳамда рейс тури
- ✓ Чиптага оид маълумотлар
- ✓ Багажлари сони
- ✓ Бошқа маълумотлар

Хорижий тажрибаларга муофиқ Европа Иттифоқи, АҚШ, Япония, Корея каби давлатлар ушбу ахборот дастурларига олдиндан маълумот тақдим этмаган авиакомпаниялар учун санкциялар қўллайди. Бундан ташқари замонавий назорат тизимининг механизми билан маълумот бир давлат органлари билан ўзаро алоқалар ўрнатиш керак ва бунинг натижаси ўлароқ хавфни аниқлаш мезонларининг қуйидаги

- ✓ Контрабанда бўйича
- ✓ Қидирувдаги шахслар бўйича
- ✓ Махсус рўйхатга киритилганлиги бўйича

²⁹ [API \(Advanced Passenger Information\)](#)

³⁰ [PNR \(Passenger Name Record\)](#)

- ✓ Сафар давомийлиги бўйича
- ✓ Ноодатий ҳаракат йўналиши
- ✓ Чипта ноодатий усулда ҳарида қилиниши
- ✓ Суд ҳукми бўйича қарздорлик мавжудлиги

Йўналишлари орқали амалга ошириш амалиётини жорий этишимиз мумкин. “БОЖХОНАЧИСИЗ БОЖХОНА” концепсиясига муофиқ хавф даражаси йўловчи келгунига қадар аниқланиб, багажлар интеллектуал таҳлил қилиниши амалиёти ҳам жорий этилади.

Замонавий божхона концепсиясини ишлаб чиқиш орқали биз йўловчи бўйича баҳолаш миллий тизимини, ретген таҳлилинини интеллектуал таҳлилинини, видео аналитика (**Face ID**)³¹ тизимини, сезилмас назорат тамойиллари каби математик моделлаштиришнинг³² замонавий наъмуналарини ҳам жорий қилишимиз мумкин.

Йўловчи бўйича баҳолаш миллий тизими. Бунда хавфни баҳолаш Персоналлаштириш маркази, Солиқ, ИИБ, ДХХ, Прокуратура ва бошқа органлар билан биргаликда мавжуд 34 та индикаторлар орқали таҳлил қилинади ва бунда ҳар бир факторга алоҳида эътибор берилади.

Рентген тасвирининг интеллектуал таҳлили. Бу йўналиш орқали **3D тамограф** ва **Body scanner**³³ларнинг рентген тасвири автоматик таҳлил ва огоҳлантириш орқали юз бериши мумкин бўлган ҳолатлар олди олинади.

Видео аналитика (Face ID) тизими. Бу йўналишда махсус камера воситалари орқали махсус кузатув хонасида йўловчиларни кузатиш орқали юзага келиши мумкин бўлган ҳолатларни олдини олиш мумкин.

Сезилмас назорат тамойили. Бу йўналишда божхона ходимлари залларда кўринмайди барча ишлар видеокузатув таҳлили орқали профайлинг намуналари ва хавфни бошқариш тизими билан ҳамоҳанг тарзда мутахассислар томонидан кузатувдаги шахсларга берилган даражаларга муофиқ хавф даражасини яратиш услубиятини ишлаб чиқиб юзага келиши мумкин бўлган ҳолатларни аниқлашга эришиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари томонидан замонавий технологияларни жорий қилиш асносида келгусида улкан натижалар кутилябди хусусан :

- ✓ Мамлакат туристик салоҳияти ошади
- ✓ Ўзаро ишонч-қонунга итоаткорликни рағбатлантиради
- ✓ Куч ва воситалардан самарали фойдаланиш

³¹ [Face ID](#)

³² [Математик моделлаштириш](#)

³³ [Body scanner](#)

- ✓ Ходимлар иш фаолияти тўғри йўлга қўйилади
- Бундан ташқари йўловчилар учун ҳам кўп қулайликлар яратилади хусусан:
- ✓ Йўловчилар вақти тежалади
 - ✓ Аэропорт худудида ҳаракатланиш осонлашади
 - ✓ Хавф аниқланмаган йўловчи божхона ходимлари билан учрашмайди
 - ✓ 99% йўловчи соддалаштирилган тартибда божхона назоратидан ўтади

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” ПФ-5582-сон фармони
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш ва Давлат божхона хизмати органлари ташкилий тузилмасини янада такомиллаштириш тўғрисида ПФ-6310-сон фармони
3. “2020 — 2023-йилларда божхона маъмуриятчилигини ислоҳ қилиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш концепсияси ижроси тўғрисида” ахбороти
4. “Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6005-сонли фармони
5. www.customs.uz/en
6. www.cbp.gov
7. www.wcoomd.org
8. www.lex.uz
9. www.wikipedia.org
10. www.customs.gov.cn

ФИО автора: Namangan davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

Sirojiddinova Maftuna Qosimjon qizi

Название публикации: «ZAMONAVIY TA'LIMDA TABIIY FAN»

Annotatsiya: ushbu maqolada Milliy o'quv dasturining tatbiq etilishi va yangi avlod darsliklarinig yaratilishi vbevosita amaliyotga joriy etilishi,shuning bilan birga yangicha yondashuv,metodlar asosiga qurilganligi,amaliyot bilan uzviy bog'liqlikning amaliy isboti xususida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Milliy o'quv dasturi,science,speralsimon,chiziqli, geymifikatsiya,motivatsiya, optimallashtirish, integratsion;

Bu olam yaralibdiki,o'y-hayollar, fikrlar,g'oyalar,xulosalar shaxslar ongida turlichadir. Faqat fangina butun borliqni ilmiy asoslab beradi.Fanda o'rganamiz,anglaymiz,ishonch hosil qilamiz va nihoyat o'rgatamiz...

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davri dunyoning turli burchaklarida jumladan, mintaqamizda namoyon bo'layotgan yangi qarashlar,kreativ fikrlar qurshovida yashapmiz.Shunday bir jadal g'oyalar o'sishi davrida mamlakatimizda ham ilm ahli tomonidan yangi avlod darsliklari yaratilishi ehtiyoji yuzaga keldi. Joriy o'quv yilining o'zidayoq 1-2-sinf o'quvchilari uchun yangicha tuzulishdagi darsliklar,mashq daftari va audio matnlarning bevosiya amaliyotga joriy etilishi geymifikatsiya metodi (o'yinga o'xshash elementlarning o'yindan boshqa narsalarga qo'shilishi shuningdek,odamlarni yaxshi ko'radigan motivatsiya usullaridan foydalangan holada mavjud tajribani yaxshilaydi) asosida o'quvchilarga erkin va samimiy dars jarajoyini ta'minlab berishga xizmat qilmoqda. Xususan,science fani fizik, kimyoviy geografik, biologik va texnikaviy murakkab ilmiy ma'lumotlarni ham sodda va qiziq tarzda berishi,amaliy mashg'ulotlar bilan isbotlab berilishini guvohi bo'lishimiz mumkin.SCIENCE fani amalga kiritilishidan oldin xalqaro amaliyot, O'zbekistonda ishlayotgan xususiy va xorijiy maktablar tajribasi o'rganildi.Yangi fan o'quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o'qishga rag'batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Buning bilan bola fizika-kimyo qiyin emas, qiziq fan ekanini anglaydi va uni o'rganishga o'zida rag'bat sezadi.SCIENCE fani (tabiiy fanlar) qaysidir fandan voz kechish yoki qaysidir fanning o'rniga joriy etilayotgani yo'q. Aksincha, ta'lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integratsion tarzda o'qitilishini ta'minlaydi.Masalan, yomg'ir haqida o'rganish jarayonida bola uning tarkibi, fizik xususiyatlari, qaysi fasllarda va qayerlarda yog'ishi,

yomg'ir ta'sirida Yerdagi qanday o'zgarishlar bo'lishi, o'simliklar uchun foydasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

SCIENCE fani 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam", 3-4 sinfda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4ta alohida fan, geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7 sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi. Darslik tarkibidagi mavzular "MILLIY O'QUV DASTURI" ga muvofiq chiziqli emas balki sperralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, balki bir-birini to'ldirib borishi bilan o'quvchiga yildan yilga bilimlarini davomli mustahkamlab borishga imkon beradi. Masalan: 1-sinf tabiiy fanida 1-mavzu "Men izlanuvchiman" mavzusi orqali borliq ajoyibotlari haqida ilk taassurotlarini rivojlantiradi; 2-sinf 1-mavzu ham Xuddi shunday nomlanib endi biroz o'quvchi uchun notanish xususiyatlar haqidagi bilimlarga chorlaydi. 1-sinf 2-mavzu: "Jonli va jonsiz tabiatni o'rganamiz"; 2-sinfda 3-mavzu: "Tirik organizmlar va jonsiz tabiat" mavzu bo'lib aynan 1-sinfdagi mavzular ketma ket tarzda mantiqiy davomini anglatadi. 1-sinf 4-mavzu: "O'simliklar o'sishi uchun nimalar zarur?" bo'lsa 2-sinf 4-mavzu: "O'simliklarning xilma hilligi" va boshqalar. Deyarli har bitta mavzuni ko'rar ekanmiz, aynan bir-birini to'ldirib, soddadan murakkabga tomon ilmiy boyitib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyayev O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi munosabati bilan bayram tabrigi.
2. Murabbiy gazetasi 2022-yil, 15-yanvar soni, 3-bet
3. 1-sinflar uchun Tabiiy fanlar darsligi. Toshkent. 2021
4. 2-sinf uchun Tabiiy fanlar darsligi. Toshkent. 2021
5. Internet ma'lumotlari: [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

ФИО автора: *Razzaqov Shohzod Odilbek o'g'li,*

Urganch shahar Yuridik xizmat ko'rsatish

markazi bosh yuriskonsulti

Название публикации: «HUDUDLARNI KOMPLEKS IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'LIDAGI YANGI VAZIFALARI VA BU BORADA QILINAYOTGAN ISHLAR»

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda davlat va jamiyat boshqaruvida qonuniylikning taminlanishini huquqiy nazorat qiluvchi tizimida yuz bergan o'zgarishlar yuridik tahlil qilingan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi orasidagi muammolarni joyiga chiqib o'rganish va hal etish maqsadida hududlar vertikal boshqaruv asosidagi sektorlarga bo'linib, aniq vazifalar belgilab qo'yildi.

Kalit so'zlar: kompleks rivojlantirish, vazifalar, muammolar, fuqarolar yig'ini, huquqbuzarlik.

So'nggi yillarda mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2017 yildagi PQ-3182-son qarori asosida hududlarni sektorlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimi joriy etildi. Ushbu maqsadda hududlarni sektorlarga bo'lib ishni tashkil etish tizimining joriy etilganligi xalq bilan manzilli muloqotning yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019 yildagi "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5633-son Farmoni va 08.01.2019 yildagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-son qarorlari ijrosini taminlash maqsadida hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash va ularning haqli

e'tirozlariga sabab bo'layotgan dolzarb muammolarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi vazifa va topshiriqlar yuklatildi:

birinchidan, uy-joy kommunal va yo'l xo'jaligi, energiya, suv va issiqlik ta'minoti, transport qatnovi, arxitektura, arzon uy-joylar qurish, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, namunaviy mahalla va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini shakllantirish sohasidagi muammolarni aniqlash hamda hal etish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

ikkinchidan, ijtimoiy muhofazaning manzilliligi, iste'mol bozorida narxlarning barqarorligi, ijtimoiy soha obektlari, eng avvalo, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa muassasalarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

uchinchidan, hududlarni jadal iqtisodiy rivojlantirish, shu jumladan, ularning tabiiy, iqtisodiy va inson salohiyatidan samarali foydalanish, qurilishi tugallanmagan obektlardan, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish va yer maydonlaridan oqilona foydalanish, mahalliy budjetlarning daromad qismi va hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, joylarda zamonaviy bozor infratuzilmasini tashkil etish, xizmat ko'rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, tadbirkorlik subektlariga amaliy yordam ko'rsatish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

to'rtinchidan, dehqon xo'jaliklari, tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda fermer xo'jaliklariga ko'maklashish bo'yicha choralar ko'rish;

beshinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlikda huquqbuzarliklarni, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida profilaktika qilish hamda ularni barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan ishlarni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2019 yildagi PF-5700-son Farmonida belgilangan "mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla" prinsipi

asosida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa ob'ektlarni o'rganish orqali muammolarni aniqlash va hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko'rish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatning tuman va shaharlarda fuqarolar yig'ini hududlaridagi xonadonlarda istiqomat qiluvchi fuqarolarning turmush tarzini, oilaviy sharoitini, ularning ijtimoiy muhofazasi, uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash borasida samarali faoliyat olib borilmoqda. Qolaversa, viloyatdagi sektorlarida har bir hududda aniqlangan muammolarni hal etish, tadbirkorlikni rivojlantirish va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ishlarni tashkil etishga qaratilgan "yo'l xaritalari" ishlab chiqilib, ularning ijrosi yuzasidan sektorlar rahbarlarining tegishli xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida hisobotlarini eshitish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarning tuman va shahar sektorlari mingdan ortiq fuqarolar yig'ini hududidagi xonadonlarda istiqomat qiluvchi millionlab fuqaroning turmush tarzini, oilaviy sharoitini, ularning ijtimoiy muhofazasi, uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Hukumat ham mazkur faoliyatni amalga oshirishda sektorlarga har tomonlama amaliy yordam berib qo'llab-quvvatlamoqda. Xususan:

- mahalliy budjet mablag'lari hisobidan sektorlar faoliyatining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, sektorlar shtablari faoliyatini tashkil etish, shu jumladan ular uchun ajratilgan binolarni saqlash va boshqa xarajatlarning qoplanishini uchun moliyaviy mablag'lar ajratilmoqda;

- sektorlari rahbarlari va a'zolarini huquqiy savodxonligi darajasini hamda fuqarolar murojaatlari bilan ish olib borishni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarga doir bilimlarini oshirib borish bo'yicha zarur chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda;

- faol va samarali faoliyat yuritayotgan sektorlar rahbarlari va a'zolarini moddiy rag'batlantirish, shu jumladan, avtotransport vositalari berish, qimmatbaho sovgalar bilan mukofotlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan.

Bir so'z bilan aytganda yshbu tizim orqali hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilashda keng qamrovli

ishlar qilinmoqda, hududlarni sektorlar kesimida rivojlantirishning yangi tizimi o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://www.lex.uz>
2. <http://adliya.uz>
3. <https://president.uz>

ФИО авторов: *Sayfullayeva Ra'no Raufovna* – O'zbekiston Milliy universiteti filologiya fanlari doktori

Tursunova Sarvinoz Telman qizi – Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Название публикации: «SO'Z MA'NOSI USTIDA ISHLASHDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILİYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH (ona tili va o'qish savodxonligi)»

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari asosida so'z ma'nosi ustida ishlashda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: kreativ qobiliyat, so'z ma'nosi, og'zaki nutq, lug'at boyligini oshirish, sinonimlar, antonimlar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilmoqda. Yosh avlodning zamonaviy bilim olib, yuksak ma'naviyatli bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida izchil ishlar davom etmoqda. Buning isboti o'laroq: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, kimning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", -deya ta'kidlagan Prezidentimizning fikrlarini eslab o'tishimizning o'zi kifoya. Hammaga ma'lumki, tarbiya ta'lim bilan uzviy aloqador. Ta'lim berish esa siz-u bizga o'xshagan o'qituvchilarning asosiy burchidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish, so'z ma'nosi ustida ishlash bolalarning so'z boyligini oshirishga va so'zning ma'nolarini bilishga bo'lgan qiziqishlarni yanada orttiradi. O'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishning

asosiy yoʻnalishlaridan biri soʻz ustida ishlash, yaʼni lugʻat ishidir. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida bajariladigan lugʻat ishi nafaqat oʻquvchining soʻz boyligini, qolaversa, soʻzning maʼnosini ham bilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Lugʻat ishi bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1)soʻz maʼnosini tushuntirish(bunda oʻquvchiga soʻz maʼnosi tushuntiriladi);
- 2)soʻzni faollashtirish(bunda oʻquvchiga soʻzni lugʻatida qayd qilish aytiladi);
- 3)soʻzni nutqda qoʻllash(bunda oʻquvchiga soʻzni ishtirok ettirib, gap tuzish aytiladi).

Oʻquvchiga yangi soʻz maʼnosini tushuntirish orqali uning soʻzni toʻgʻri tushunish koʻnikmasi shakllantiriladi va buning uchun , avvalo, oʻqituvchi soʻz maʼnosini tushuntirish usullarini bilishi va ulardan oʻrinli foydalanishi, sinfda oʻquvchilarga oʻrnak boʻla olishi lozim. M.R.Lvov soʻz maʼnosini tushuntirishning quyidagi usullarini ajratadi:

- 1)koʻrgazmali –bu usulda oʻqituvchi soʻz maʼnosini koʻrgazmali vositalar orqali tushuntirib, oʻquvchiga anglatadi);
- 2)kontekstual – asar orqali ifodalash;
- 3)sinonim, yaʼni soʻzning maʼnodoshini keltirish – bu usulda bitta soʻzning maʼnodoshi keltiriladi. Misol uchun, jasur – qoʻrqmas – bahodir kabi;
- 4)mantiqiy taʼrif berish – mantiqiy yoʻllar orqali oʻquvchiga tushuntirish;
- 5)batafsil tavsiflash –batafsil oʻrganishga asoslangan izchil va murakkab jarayon;
- 6)antonim, yaʼni zid maʼnoli soʻzni keltirish – bu usulda bitta soʻzning qarama-qarshi maʼnosi keltiriladi. Misol uchun, jasur – qoʻrqoq kabi.

Boshlangʻich sinf “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsliklarida oʻquvchilarga soʻz maʼnosi tushunarsiz boʻlgan soʻzlar ancha uchraydi. Ularning maʼnosini yuqorida koʻrsatilgan va boshqa usullar bilan tushuntirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda so'z ma'nosini tushuntirishda kreativ qobiliyatlarini shakllantirish uchun o'qituvchi so'z ma'nosi tushuntirish usullaridan foydalanishi, usullarni o'zi mukammal darajada bilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lug'atini faollashtirish usullari" BuxDU dotsenti
S.F.Sulaymonovich

2.www.ziyonet.uz

3.Internet ma'lumotlari

ФИО авторов: *Mukhtarova Shakhnoza Shukurovna*

Bukhara region, Bukhara city, school № 28

Norova Umida Bakhodir kizi

Navai region, Karmana district, school № 28

Tashkent, The Republic of Uzbekistan

Название публикации: «TRANSLATING FEATURES OF UZBEK NATIONAL HOLIDAYS»

ANNOTATION

Topicality of the theme: is conditioned by: 1) about the translating features of Uzbek national holidays; 2) necessity of different aspect of the translation; 3) the importance of analysis of approaches in the topic in English and Uzbek.

Maqola O`zbek milliy bayramlarining ingliz tiliga tarjima qilish xususiyatlari haqida bo`lib, ularni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish usullari va yo`llari aytib o`tilgan.

Mashhur o`zbek bayramlarini ingliz tilidagi tarjimasi tahlil qilingan.

The aim of the article. This paper is devoted to the analysis of linguistic features of Uzbek national holidays. The equivalents of some words in a target language are given for interpreting them in the other language to find out several important innovative ways of translation and contrasting their peculiarities in the English and Uzbek languages. The results and examples of this paper can help to distinguish some differences in the meanings of the English and Uzbek terms about national holidays and to learn linguistic peculiarities of them.

Key words: equivalent, adequate, calque, free translation, borrowing;

Prior to independence, centuries of global influence helped to shape a special group of people known for their hospitality, openness, close-knit culture, and willingness to accept others into their happiness.

In Uzbekistan, holidays are enjoyable festivities that include secular and religious observances, as well as local and foreign observances, as well as ancient and modern

observances. The people of Uzbekistan celebrate every event with presents, home-cooked treats, dancing, and festive gatherings.

New Year's Day (equivalent “Yangi yil” and also given its definition)

The New Year is one of the most common holidays in Uzbekistan. The weeks leading up to the New Year are vexing since plans begin in early December. Since New Year's Eve is a family holiday in Uzbekistan, most people tend to spend it with their family and relatives at home.

National Defenders of the Homeland Day (Men's Day). (Father`s Day or Men`s Day is given adequate that translated as “Vatan himoyachilar kuni” also given its definition)

The newly independent state of Uzbekistan mobilized its Armed Forces on January 14, 1992, prompting the government to declare that day as Homeland Defenders' Day. Homeland Defenders' Day is a significant event in Uzbekistan, despite the fact that it is not one of the country's public holidays. The Ministry of Defense, Ministry of the Interior, National Security Service, and other government departments hold ceremonies in city plazas, where the government issues congratulations and awards.

The 8th of March is Women's Day. (Equivalent “Xalqaro xotin-qizlar kuni” and also given its definition)

The first signs of spring coincide with International Women's Day, which is celebrated on March 8th. The holiday has long been associated with femininity and elegance, and it is a day when men and women give each other special attention, flowers, and presents. Women are honoured in every field of society in Uzbekistan, so jewelry, perfumes, chocolates, cakes, and the like are disappearing from store shelves.

The 21st of March is the Navruz Holiday. It is borrowing for other countries, because it is Uzbek national holiday. That`s why, it is not translated into another language. But translator should give its definition.

Navruz (Nowruz) is without a doubt Uzbekistan's most colorful holiday. It has a three-thousand-year tradition that is rooted in the ancient cults of sun worship and Zoroastrianism that were once popular in Persia and Central Asia. It is now synonymous with nature's regeneration, new life, joy, and kindness.

Folk festivals, lavishly decorated avenues, traditional sports tournaments, home visits, and joyous hospitality are common features of celebrations that last 2-3 days. Many people believe that forgiving your enemies, living in harmony, and supporting the less fortunate during this time of year would bring good fortune in the coming year. Seven special dishes are traditionally served.

Sumalak, a taffy-like treat made from sprouted wheat and flour, is the most common Navruz dish in Uzbekistan. While it is traditionally prepared the night before Navruz, it can be prepared at any time during the early spring.

May 9th is Memorial Day.

In Uzbekistan, Memorial Day is a major national holiday commemorating the heroes who gave their lives in World War II. Hundreds of thousands of Uzbek men fought on the front lines, while their wives and elderly relatives toiled at home. The Uzbek SSR also welcomed a significant number of refugees. Uzbekistan lost more than 450,000 citizens during the war. On May 9, residents of Uzbekistan join with millions of people from the former Soviet Union in congratulating war veterans on their bravery and in laying flowers at memorials and monuments. At the Walk of Fame and Remembrance in Tashkent's Mustakillik Square, the name of every Uzbek who perished in World War II is carved on granite steles. Nearby, a bronze statue of a mourning mother stands as a symbol for the collective grief of Uzbekistan during the war.

Eid al-Fitr (Ramadan Hayit) It is borrowing for other countries, because it is Uzbek national holiday. That`s why, it is not translated into another language. But translator should give its definition.

Eid al-Fitr (Roza or Ramadan Hayit) is an Islamic holiday marking the end of Ramadan, the annual month of fasting. During the battle, Uzbekistan lost over 450,000 people. On May 9, Uzbek citizens join millions of people from across the former Soviet Union in congratulating war veterans on their valor and laying flowers at memorials and monuments. The names of every Uzbek who died in World War II are etched on granite steles in Tashkent's Mustakillik Square's Walk of Fame and Remembrance. A bronze statue of a grieving mother stands nearby as a metaphor for Uzbekistan's collective sorrow during the war. Eid al-Fitr falls on a different day this year (Ramadan Hayit). The Islamic holiday of Eid al-Fitr (Roza or Ramadan Hayit) commemorates the end of Ramadan, the annual month of fasting.

All in all, as you realized we have learned different methodologies to translate words. Among them I think adaptation and explanatory translation are more efficient than others. So, you can easily use explanatory technique when the equivalent of the word is not available.

List of used literature

1. Loescher, W.(1991).Translation performance, translation process and translation strategies.
2. Report on the online talk "The history of the national holidays of Uzbek (XIX-XX centuries) and the social changes" by Dr Gaybullaeva (Webster University, Tashkent)
3. Internet sources: www.google.uz ; www.search.com

ФИО автора: *Razzaqberganov Asrorbek Rajabboy o'g'li*

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi

Название публикации: «MUQIMIY IJODIDA HAJVIYALARNING O'ZIGA XOSLIGI»

Mustaqilligimiz tobora mustahkamlanib, o'zining ijobiy samaralarini bera boshlangan buguni kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma'naviy asoslaridan kelib chiqadigan yangidan-yangi vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san'at, umaman, ma'naviyatning ahamiyati kattadir. O'zbekiston mustaqil bo'lgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy, madaniy adabiy sohalarda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Adabiyotga e'tibor kuchaydi. O'zbekona qadriyatlarimizni yosh avlod ongu-shuuriga singdirishda Milliy uyg'onish o'zbek adabiyotining ahamiyati katta. Shu jumladan, Qo'qon adabiy muhitida yetishib chiqqan o'z o'rne va so'ziga ega shoir Muhammad Aminxo'ja o'g'li-Muqimiy haqida iliq va samimiy fikrlar aytishga xaqlimiz.

Muqimiy satirik asarlarga mavzuni real hayotdan, o'zi guvoh bo'lgan voqealardan jiddiy o'zgarishlar yuz berayotgan davrdan oldi. U shu hayotiy ma'lumot va kuzatishlarni satiric tahlil etdi, salbiy holatlarga munosabat bildirdi, ayniqsa o'z mahoratini oshirishda Gulxaniy, Navoiy, Mashrab, Turdi kabi shoirlar ijodini sevib o'rgandi, ulardan bahramand bo'ldi.

Muqimiy ijodida "Tanobchilar" satirasi katta ahamiyatga molikdir. Ijodkor o'z hajviyasida qishloqdan chiqqan chor amaldorlarining faoliyatini ifodalovchi misralar yozadi. Muqimiy "Tanobchilar" satirasida kuchli epizodlarni yaratishda, ustoz Navoiyning ta'sirida bo'lgan. O'ziga zamondosh amaldorlarning zo'ravonligi va zulmkorligini fosh qiladi.

Qorovul, istarshi-yu mingboshilar,

Chopib keldilar, deb: nachuk kor-zor?!

Bosib kirdilar bu nachuk dod deb,

Qorovulning uyig'a, beixtiyor...

Ko'rub dedilar: boy ekan, qochiring,

Ashur ko'r o'zi ham bo'lub beqaror.

Muqimiy qalamiga mansub ushbu “Voqiai ko’r Ashurboy Hoji “ satirasi Ashurboy hojining og’ir jinoyati haqida so’zlaydi. Misralardagi “Chopib kelishlari”, “ bostirib uyga kirishlar” detallarida amaldorlarning kutilmagan holatida o’zlarini tutishlari yorqin aks etgan: bu detallarda ulardagi hovliqish va tahlika sezilib turadi.Uy egasiga nisbatan zo’ravonlik va boyga nisbatan laganbardorlik ko’rinadi.

...Halayiq Ashurboy hojini qochmoqchi bo’lganida tutib oladi va uni toshbo’ron qilmoqchi bo’ladi.Shu o’rinda hukmron adolatsizlik o’z o’rnini ko’rsatadi. Hatto, pristov va qozilar, hokimlar ham jinoyatchi boy ta’rifiga o’tadi. Muqimiy ushbu satirada hukmron sinflarning bu zo’ravonliklariga norozilik bildiradi, adolatsizlikni qattiq qoralaydi.

Muqimiyning “Saylov” satirasini ko’rib o’tadigan bo’lsak, bu asar o’zbek adabiyoti tarixida ilk siyosiy satira hisoblanadi. “Saylov” satirasida burjua saylov siyosatining oqsoqligini aniq niyat-qoralash maqsadida “Xo’ja ko’rsin”ga qilinayotgan bir tadbir ekanligini aniq fosh etadi. Yetti baytdan iborat bu asarda “erkin” saylovning asl basharsini ochib tashlaydi, amaldor-boylarning saylov jarayonidagi turli xiylanayranglarini ayovsiz fosh etadi. Satirada yakka bir amaldor emas balki har qanday yo’l bilan bo’lsa-da mansab egallashga intiluvchi boy-amaldorlar guruhi fosh qilinadi. Shoir amaldorlarning saylov paytidagi ichki kechinmalarini terak bargi titrashiga o’xshatadi:

Teraklar bargidek titrab jami qozi, mingboshi,

Degaylarkim: “Yuzini teskari qib, ey xudo saylov!”

Xullas, Muqimiyning “Bachchag’ar”, “Qurbaqalar”, hajviyalari ham shu zamon ahvolidan dalolat beradi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan buyuk hajviyatchilar Zavqiy, Maxmur, Gulxaniy, Turdi Farog’iy kabi buyuk shoirlarimizning ijodi keng o’rganildi. Adabiy meroslari haqida risolalar yozildi. Shu jumladan Muqimiy ijodini ham istiqlol yillarida ko’kka ko’tarildi. 1997-yilda adabiyotshunos A.Madaminov “Yangi bayoz” to’plamini nashrga tayyorladi. Adabiyotshunoslardan A.Turdialiev 2010-yilda shoirning “Bog’ aro”, E.Ochilov 2009-yilda “Ko’nglim sandadir” nomli to’plamlarini nashr ettirdilar. Bugungi kunda ham shoir ijodini o’rganish ham davom etmoqda.

Bugungi farovon yurtimizda Muqimiy ijdodiga o’xshash ijodlar kuzatilmagani bu yurtimizda adolat, shaffoflikning bir yo’sinda borayotganligini anglatadi. Yoshlar esa bugungi farovon hayotimizdan zavq olib yashlari hamda o’sha Muqimiy ijodni kuzatib

o'tmishda bo'lgan qora kunlarni ko'ribkechagi kuniga qaraganda yaxshi zamonda yashayotganligiga ming bor shukurlar aytib, ilimga yanada bir chanqoqlik bilan yondashib qoladi deb umid qilamiz.

Muqimiy yoritib bergan o'sha jirkanch siyosiy harakatlar, siyosiy jarayonlar bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik bo'lgani uchun ham bizni davlatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor, ijodkorlarga, adabiyotshunoslarga xar bir soha vakiliga bo'lgan e'tibor juda ham katta tahsinga sazovor!

ФИО автора: *Мамаджонов Улугбек Мадаминзода,*

Ферганский государственный университет,

студент

Название публикации: «КРИОГЕННАЯ УСТАНОВКА ДЛЯ ИЗМЕРЕНИЯ ТЕНЗОЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ТОНКИХ ПЛЕНОК»

АННОТАЦИЯ

Разработана установка для определения тензочувствительности полупроводниковых тонких пленок при температуре 4.2К. Установлено, что относительной изменения сопротивления полупроводниковой пленке при ее деформации в различных температурах и предложена структурная модель, объясняющая механизм определения тензочувствительности при температуре жидкого гелия 4.2К

Ключевые слова: тензочувствительность, потенциальный барьер, коэффициент тензочувствительности, деформация, барьерный механизм, полупроводниковая пленка, тензодатчик

Известно, что коэффициент тензочувствительности в полупроводниковых тензорезисторах связан с константами пьезосопротивления, материала из которого они изготовлены, которые определяются из эффекта пьезосопротивления.

Целью работы является повышение точности измерения тензометрических параметров полупроводниковых пленок с присутствием мелких и глубоких примесей. Криогенная установка содержит корпус с жидким гелием и расположенный внутри него криогенный контейнер, состоящий из верхней и нижней частей, жестко соединенных между собой, и исследуемый образец. Верхняя часть контейнера выполнена из стальной трубы-стержня, расположенного внутри криогенного контейнера, нижняя часть выполнена в виде латунного стакана, установленного дном вверх, в котором выполнены два отверстия. На рис 1. приведена конструкция криогенной установки, Криогенная установка 1 содержит криогенный контейнер 2, состоящий из двух частей. Верхняя часть 3 выполнена в виде, стальной нержавеющей трубы, нижняя часть 4 выполнена в виде латунного стакана, установленного дном вверх. На дне латунного стакана выполнены два отверстия 5,6. Исследуемый образец 7 выполнен в виде полупроводниковой пленки с двумя посеребренными контактами 8 и установлен на стальной подложке 9. Исследуемый образец 7

закреплен посредством планки 10 и бронзовых винтов 11. Стальная площадка 9 установлена на площадке 12 в нижней части стакана. Токопроводы 13 служат для подключения исследуемого образца к первой паре контактов электрической измерительной схемы 14.

Контакты 16 тензодатчика 15 подключены ко второй паре контактов электрической измерительной схемы 14 посредством токопроводов 17. Стержень 18 с заостренным концом 19 и рукояткой 20 расположен в отверстии 5 с возможностью вертикального перемещения.




Рисунок 1. Конструкция криогенной установки: 1-криогенная установка; 2-криогенный контейнер; 3-сталь; 4-латунный стакан; 5, 6-отверстия 7-образец; 8-контакты; 9-стальная подложка; 10-планка; 11-бронзовый винт; 12-нижняя часть стакана; 13-токопроводы; 14-электрическая измерительная схема; 15, 16- контакты тензодатчика; 17-токопроводы; 18-стержень; 19-заостренный конец; 20-рукоятка

Устройство работает следующим образом. На подложке 9 наклеивают исследуемый образец 7, затем посредством планки 10 и бронзовых винтов 11 исследуемый образец 7 жестко закрепляют на подложке. Криогенный контейнер 2 погружают в криогенную установку 1, корпус которой на часть объема заполнен жидким гелием. С помощью электрической измерительной схемы 14 измеряют температуру на исследуемом образце 7. Когда температура образца 7 достигнет 4,2 градуса Кельвина, то его подвергают деформации растяжения или сжатия посредством вертикального перемещения стержня 18. Например, рукоятку 20 стержня 18 вращают до упора так, чтобы острие 19 стержня касалось подложки 9, затем с помощью тензодатчика 15, определяют относительное удлинение исследуемого образца 7, а его электрическое сопротивление определяют с помощью электрической измерительной схемы 14. Температурный коэффициент сопротивления (ТКС) рассчитывают по формуле

$$TKC = \frac{\Delta R/R_0 t_1}{t_1 - t_0}$$

Где $\Delta R=R_1-R_0$; R_0 - сопротивление полупроводниковой пленки при 20°C ; R_1 – сопротивление полупроводниковой пленки в жидком гелии; T_0 – комнатная температура; t_1 - температура жидкого гелия. Коэффициент тензочувствительности (КТЧ) полупроводниковой пленки 3 определяют по формуле

$$K = \frac{\Delta R}{R_0} / \frac{\Delta l}{l_0} \quad (2)$$

$$\frac{\Delta l}{l_0} = \frac{\Delta d \Delta d}{L} \quad (3)$$

Где $\Delta R=R-R_0$, R_0 – сопротивление полупроводниковой пленки без деформации; R - сопротивление полупроводниковой пленки при деформации; $\Delta l=l-l_0$, где Δl – расстояние между упорами; l – длина полупроводниковой пленки при деформации; l_0 - длина полупроводниковой пленки без деформации; $\Delta u=n\Delta S$, где n -число оборотов винта, ΔS – шаг винта, b - коэффициент.

В случае произвольной ионизации примесей, а также при наличии глубоких центров в определенных условиях становятся чувствительными к деформацию наряду с неосновными и основные носители заряда[6]. Необходимо также учесть и зависимость времени жизни носителей от деформации. Все это должно привести к новым зависимостям параметров и характеристик переходов от механического напряжения. Поэтому представляет интерес исследование влияния механической деформации на параметры и характеристики переходов в случае произвольной ионизации мелких и глубоких примесей при низких температурах.

В заключении отметим, что исследованы деформационные явления в полупроводниковых структурах при температуры жидкого гелия дает шанс разработки оптимального режима технологии получения пленочных элементов с уникальными свойствами высокой тензочувствительностью, температурной стабильностью.

Список литературы:

1. Akhmedov T Usmonov Ya Ботиров Қ Khalilov Влияние внутреннего напряжения на деформационные характеристики поликристаллических плёнок PbTe с избытком теллура и свинца M Science and World International scientific journal № 3 (91) март 2021 ISSN 2308-4804 . IF 0,325
2. Рахмонкулов М Халилов М Ботиров Қ Юнусов Effect of group VII elements on strain sensitivity of polycrystalline films PBTE, PBS H European Science Review 2021 № 1-2/ January-February/ Vienna <https://doi.org/10.29013/ESR-21-1.2-35-38>
3. Ахмедов Т Усмонов Я Халилов М Юнусов Optical properties of polycrystalline films of lead telluride with distributed stichiometry H Journal of Physics Conference Series/ 1889(2021)022052 doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022052

ФИО автора: *Navro`zova Sohiba*

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi

1- umumiy o`rta ta`lim maktabi

fizika -astroanomiya fani o`qituvchisi

Название публикации: «ULUG`BEK VA UNING MAKTABI»

Annotatsiya: Xalqimiz qonidagi ilmga tashnalik, zukkolik, ma`naviy go`zallik, intellektual salohiyatni yosh avlodimizda ro`yobga chiqarish uchun ajdodlarimizni ilmiy meroslaridan namuna sifatida foydalansak bo`ladi. XV asr namoyandasi, toju–taxt sohibi, buyuk astronom, matematik, shariat ixlosmandi. Mirzo Ulug`bek olamshumul ilmiy muvaffaqiyatlari tufayli shunday ulug` baxtga erishgan shaxslardandir. Olimning ilmiy merosi XVII - asrdan beri butun dunyo ilmiy jamoatchiligining diqqat e`tiborini o`ziga qaratib kelmoqda. Ulug`bekning betakror ilmiy merosi va uning rahnamoligida tashkil etilgan. Samarqand munajjimlik maktabi o`sha davr ilmiy hayotida juda katta yangilik bo`lgan.

Kalit so`zlar: Mirzo Ulug`bek, Shoxrux Mirzo, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abdurazzoq Samarqandiy, astronom, matematik, geodeziya.

Mashhur astronom, matematik, tarixchi, Samarqand rasadxonasining asoschisi va undagi ilmiy maktab rahbari Ulug`bek, jahonning eng yirik astronomlari qatoridan joy olgan olimdir.

Temurning harbiy safarlarida, uning oila a`zolari ham birgalikda borishlari odat bo`lib qolgan edi. Sharq tomonga ketayotgan shunday safarlarning birida, Sultoniya shahrida dam olish uchun to`xtagan vaqtda, 1394 - yil 22 martda Temurning kichik o`g`li Shoxruxning xotini Gavxarshodbegim o`g`il tug`adi. Unga Muhammad Tarag`ay deb nom berishadi. keyinchalik unga berilgan Ulugbek laqabi uning ismiga aylanib qoldi.

Ulugbek Temurning bir qancha safarlarida, masalan mashhur Hindiston safarida (1397-1398), g`arbga qilgan safarida (1399-1404) saroy a`zolari bilan birgalikda, bobosini kuzatib borgan.

Ulugbekning otasi SHoxrux kitoblarni ko`p sevar va boy kutubxona to`plagan edi. Ulugbek yoshligidanok mana shu kitoblarni mutolaa qilar edi, ko`p vaqtini ana shu kutubxonada o`tkazar edi.

U mashhur yunon olimlari Platon, Aristotel, Gipparx, Ptolomey, vatandoshlari Farg`oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlarning asarlarini o`rgana boshladi. Ulugbekning o`tkir zehni, doimiy va sistemali o`qib borishi uning ilmiy saviyasini kundan-kunga oshirib bordi. O`rta Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri bo`lgan Samarqand Temur davlatining poytaxti edi. U sharqning eng taraqqiy etgan fan va madaniyat markazlaridan biri hisoblanardi. Temur Samarqandni muxtasham va go`zal qilishga intilgan. U xashamatli saroylar, madrasalar, maqbaralar va xonakoxlar qurdirgan. Temur vafotidan so`ng, poytaxti Samarkand bo`lgan Movarounnahrda Ulug`bek hukmdorlik qilgan. Ammo, Ulugbek o`zining bobosi va otasidan tubdan farq qilgan.

Ulugbekni bobosi Temur kabi harbiy yurishlar qiziqtirmas edi. Otasi Shoxrux Hirotda (Xuroson davlatining poytaxti, bu davlatga SHoxruxning o`zi hukmdorlik qilgan) o`z atrofiga ruhoniylarni yig`ib olib, erkin fikr egalarini ta`qib qilgan bulsa, Ulug`bek Samarqandda, o`z atrofiga olimlar va shoirlarni to`plab, fan, adabiyot va san`atning taraqqiy etishiga keng yo`l ochib berdi, tabiiy fanlar bilan uzi bevosita shug`ullandi.

Fan, adabiyot va san`atning mashhur namoyandalari Xofizi Abru, Mavlono Nafis, Sirojiddin Samarkandiy, Xayoliyi Buxoriy, Badaxshiy, Durbek, Sakkokiy, Lutfiy va boshqalar Ulugbek davrida yashaganlar va ijod qilganlar.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy, o`zining «Farhod va SHirin» asarida, Ulug`bek osmon sirlarini ochgan va uni kishilar ko`ziga oynadek ravshan qilgan deb ta`riflaydi:

Temurxon naslidan Mirzo Ulug`bek
Ki olam ko`rmadi sulton oningdek,
Oning abnoi jinsi bo`ldi barbod
Ki davr ahli biridin aylamas yod
Valek Ulug`bek ilm sori topti chun dast,

Ko`zi oldida bo`ldi osmon past.
Rasadkim bog`lamish zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki ondin yozdi «Ziji ko`ragoniy».

Mirzo Ulug`bek astronomiya ilmidan tashqari shikor (ov)ga ham ehtiyoji baland bo`lib, u hatto maxsus ov daftarini tuzib, uzoq yillar davomida ov qilgan sana va joylari qayd qilib borgan. Shuningdek, bu daftarga otib yarador qilgan hayvonlarni tavsifini ham yozib borgan. Ulug`bek safarlarining birida bu daftar yo`qolib qoladi va shikorboshi qattiq jazolanishdan yuragi taka-puka bo`lib turganida, Ulug`bek unga yangi daftar va qalam olib kelishini buyurib, barcha ma`lumotlarni xotirasi bo`yicha tiklashni aytadi. U xotirasidagi barcha narsani xatga tushiradi. Shu orada avvalgi daftar ham topiladi. Solishtirib qarasarlar Ulug`bek bir-ikki joyda yanglishganini hisobga olmasa ikkovidagi ma`lumola bir xilda ekan. Ha, Mirzo Ulug`bek Allohning inoyati bilan shunday noyob qobiliyatga ega bo`lgan.

Mirzo Ulug`bekni she`riyat ham maftun etgan. Mirzo Ulug`bekning adiblar hamda badiiy adabiyotga munosabati haqida manbalarda qiziqarli ma`lumotlar mavjud. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida Ulug`bek ko`proq astronomiya ilmi bilan shug`ullansa-da gohida nazmga mayl qilgani ta`kidlanib, uning qalamiga mansub quyidagi forsiy bayt keltirildi.

Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,
Sho`xi makunki ,chashmi badan dar kamini tust.

Mazmuni: Go`zallik mulki harchand qo`l ostingda bo`lsa-da, Sho`xlik qilmagilki ,yomonlarning ko`zi senga tikilgan. Ulug`bek o`z davrida ko`plab shoirlar bilan yaqindan tanish bo`lib, she`riyat haqida suhbatlar qurgan. Zamondosh shoirlar uning badiiy adabiyot borasidagi fikr mulohazalarini g`oyat qadrlashgan . Masalan o`sha davrning eng yirik shoirlaridan biri bo`lgan Lutfiy o`z devonida shunday yozadi.

Ulug`bekxon bilur Lutfiy kamolin , Ki rangin she`ri salmondin qolishmas. Lutfiy o`zini mashhur forsiy tojik shoiri Salmon Sovajiyga tenglashtirgan bu faxriya bayt bir tarafdin Ulug`bek Lutfiy ijodidan xabardor ekanidan dalolat bersa , ikkinchi tarafdin

Lutfiy Ulug`bekni she`riyat bilimdoni, didi yuksak adabiyotshunos sifatida e`tirof etganini ko`rsatadi.

Mirzo Ulug`bek nafaqat zamondosh adiblar, balki o`z davridan bir necha asr oldin yashab o`tgan ko`plab shoirlar ijodini ham o`qib o`rganib, she`riyatning benazir muxlisi va bilimdoni sifatida nom qozongan. Diqqatga sazovor jihatlardan biri shuki Ulug`bek kitoblarini juda sevinib o`qigan ba`zi shoirlar asarlarida astronomic tushunchalar bayoni, yulduzlar va sayyoralar nomlari hamda ta`rif tavsiflari ko`p uchraydi.

Shoxrux Mirzoning va ayniqsa, Mirzo Ulug`bekning 1449- yilda ro`y bergan fojiali vafotidan so`ng Movarounnahrda hukm surgan tinchlik, osoyishtalik davri o`z nihoyasiga yetdi. Amir Temur davlati taxtiga da`vogarlar bir-biri bilan shavqatsiz urush olib borib, el-yurtini nihoyatda og`ir vaziyatga solib qo`ydi.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha: “Kechagina obod va aholisi zich bo`lgan mamlakat bu kun xarobazor va cho`l-u biyobonga aylanib qoldi”. Bunday sharoitda olim-u ulamolar o`zlariga panoz izlab mamlakatni tark etishadi. Bu hodisa qo`shni davlatlarda ilm-u fan rivojida katta ijobiy rol o`ynaydi. Ammo achinarlisi shundaki, Amir Temurning sa`y-harakatlari bilan yaratilgan va Mirzo Ulug`bek davrida nihoyatda ravnaq topgan ilm-u ma`rifat maktablari yemirilib, tarqalib borayotgan edi. Nihoyat, 1457-yili hokimiyatga Ulug`bek saroyida tahsil olgan hamda ilm-fan va san`atga rahnamolik ruhida tariyalangan Sulton Abu Said keldi. Ulug`bek vafotidan so`ng rasadxonani boshqarish ishlari to`liq Ali Qushchining zimmasiga tushgan edi. U bir necha yil ilmiy risolalar yozdi va Ulug`bek maktabining eng yorqin namoyondasi sifatida katta obro`-e`tibor qozondi. Nasiriddin Tursiyning “Zij”iga yozgan sharhini Sulton Abu Saidga taqdim etganida uni saroyga tantanali ravishda qabul qilishdi va unga 50 ming dinor hadya beriladi.

Shunday sharoitda Ali Qushchi Hirotga o`zining madrasadosh do`sti Abdurahmon Jomiyning yoniga borib, saroydan Istanbulga ketishga izn so`raydi. Jomiy Yoshi bir joyga borganda (Ali Qushchi yetnish yoshni qoralab qolgan edi) iqlimni o`zgartirish yaxshilikka olib kelmasligini aytib, uni bu ishdan qaytarishga urinadi. Lekin Ali Qushchining qarori qat`iy edi. U Alisher Navoiy yordamida ruxsat

olganidan so'ng 1470-yilda Ulug'bek rasadxonasidan olingan risolalar, kitoblar va eng muhimi "Ziji Ko'ragoniy" nusxalari ortilgan karvon bilan Istanbulga yo'l oladi.

Ali Qushchi Istanbulda ikki yilga yetar yetmas umr ko'rdi. Endilikda Ali Qushchi, uning shogirdlari va avlodlarining Turkiyada astronomik ilmiy maktablar yaratishdagi xizmati yaxshi ma'lum. U "Ziji Ko'ragoniy"ni ko'p nusxada ko'paytirdi va turk tiliga tarjima qildi. Bugun o'sha "Zij"ning Ali Qushchi dastxati bilan to'ldirilgan nusxasi Turkiyaning barcha kutubxonalarida mavjud. 2008-yilda Astronomiya institutining direktori Shuhrat Egamberdiyev Turkiyaning Bo'g'ozichi universitetidan Jahon observatoriyalari forumi 212shida "Ulug'bekning Samarqanddagi observatoriyasi" mavzusidagi ma'ruza bilan qatnashishga taklifnomani oladilar. Fursatdan foydalanib anchadan beri niyat qilib qo'ygan Mirzo Ulug'kning eng iste'dodli shogirdi Ali Qushchi qabrini ziyorat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi." Toshkent 2009 y
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 9.Toshkent.
3. Alisher Navoiy "Lison Ut-Tayr" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi .Toshkent 2009y.
4. Fan va Turmush jurnali 2009 yil
5. Ziyonet tarmog'i .

ФИО авторов: *Yusupova Shahzoda*

UrDU Filologiya fakulteti Magistratura bo'limi

lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs talabasi

Madiyorov Shixnazar

UrDU filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Название публикации: «“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMI DOSTONLARI TILINING GENEOLGIK XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR»

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Go`ro`g`li” turkumi dostonlari tilining geneologik xususiyatlariga doir bir nechta mulohazalar haqida so`z boradi

Kalit so`zlar: Xalq og`zaki ijodi, doston, geneologik, folklor, azaliy qadryatlar

O`zbek tilining qadimiy ildizlarini o`rganish bugungi kun tilimizning sofligini va rivojlanishini ta`minlash uchun katta ahamiyatga ega. Tilimizning himoyasi uchun mamlakatimiz miqyosida keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrda bayon etgan nutqi va Farmondagi muhim fikrlar ham mazkur yo`nalishdagi ishlarning ahamiyati va zaruratini belgilab beradi. Jumladan, Farmonda shunday deyiladi: “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o`z milliy manfaatlarini ta`minlash, bu borada, avvalo, o`z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”³⁴.

Milliy manfaatlarimizning eng muhim himoyasi milliy tilimizning himoyalanihidan boshlanadi. Milliy tilimizning asosiy manbalari esa, folklor asarlari, xususan, dostonlar leksikasida saqlanadi va avloddan avlodga yetib keladi. Dostonlar tili shunday muhim lisoniy unsurlarni o`zida saqlab kelmoqdaki, ularni to`plash, o`rganish zamonaviy o`zbek tilimizning rivojlanishida muhim manba vazifasini o`tay oladi.

Folklor asarlari o`zining ko`lami badiiy uslubiy vositalari va eng muhimi lisoniy xususiyatlarining qadimiyligi bilan ahamiyatlidir. Xalq og`zaki ijodiga mansub

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).

asarlar til va adabiyot sohasi nuqtayi nazaridan ham birdek tadqiq qilinuvchi manbalardan hisoblanadi. Ayniqsa, folklor asarlarning lisoniy jihatdan tahlil qilinishi o‘zbek tilshunosligida eng kam o‘rganilgan deyish mumkin. Bunga qo‘shimcha qilib yani shuni aytish mumkin. Tadqiqotchilar Do‘stmurod Abdurahmonov va Habibullo Bektemirovlar “O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi” nomli maqolasidagi o‘zbek xalq dostonlari leksikasidagi atoqli otlar miqdor jihatdan eng kam sonli so‘zlardir³⁵.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida, xususan, onomastika sohasida bir qancha siljishlar, yuksalishlar ro‘y bergani hech kimga sir emas. Folklor asarlarini o‘rganish va har tomonlama tadqiq etishga bag‘ishlangan ko‘plab nomzodlik ishlari yuzaga keldi va shular asosida monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari chop etildi.

Folklor asarlarini o‘rganish ishi o‘zbek olimlari orasida Xodi Zarif tomonidan boshlab bergan deb hisoblansa, ulardan so‘ng mazkur yo‘nalishda samarali izlanishlar olib borgan tilshunoslar sifatida Shonazar Shoabdurahmanov, Ahmad Ishayev, Do‘stmurod Abdurahmonov, Habibullo Bektemirov va boshqa olimlarning xizmatlarini e’tirof etish zarur deb hisoblaymiz.

Keyingi davrlarda ham xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarni o‘rganish tadqiq etish jadal sur‘atlar bilan davom etmoqda. Bugungi kunga kelib, Xorazmda taniqli o‘zbek folklorshunos olimi Safarboy Ro‘zimboyev tashabbuslari bilan “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiqnoma” turkum dostonlari nashr qilindiki, mazkur manbalar hozirgi davr yoshlarini, izlanuvchilarini yangi-yangi tadqiqotlarga chorlab qolmoqda. Ushbu dostonlar leksikasida dastavval ko‘zga tashlanadigan birliklar atoqli otlar tizimi hisoblanadi.

Shuni alohida qayd qilib o‘tish joyizki, tadqiqotchi Q.Olloyorovning 2018-yilda himoya qilgan “Xorazm dostonlari onomastikasi” nomli dissertatsiyasi³⁶ va shu nomdagi monografiyasi³⁷ da biz tekshirish olib borayotgan masala borasida muayyan xulosa va umumlashmalar berilgan.

³⁵ Абдурахмонов Д. Бектемиров Х. Ўзбек халқ дostonлари ономастикаси. Тошкент. 1967.

³⁶ Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. PhD.diss.avtoref. –Samarqand: 2018;

³⁷ Оллоёров Қ.М. Хоразм дostonлари ономастикаси. Монография. –Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2017. 120 бет.

Turkiy xalqlar tili juda qadim davrlardan buyon O‘rta Osiyoda amalda yashab kelgan eroniy tillar bilan doimiy aloqada bo‘lib kelgan. Tarixiy manbalarda VII-VIII asrlarda va undan oldin xorazm yozuvi keng tarqalgani haqida ma’lumotlar bor. Qadimgi davrlarda qo‘llanilgan xorazmiy tili XIV asrlarga kelib o‘zbek tili bilan qo‘shilib ketgan³⁸. Natijada, bu tilga oid ba’zi leksik birliklar hozir ham saqlanib qolgan³⁹.

Boshqa ilmiy-lisoniy manbalarda keltirilishicha, O‘rta Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududida turkiy tilda gaplashuvchi aholi ham qadimdan yashagan. So‘nggi davr tadqiqotlarida “o‘zbeklar ikki xil tilda so‘zlashuvchi – sharqiy eroniy va turkiy qabila va elatlarning qorishuvidan tarkib topgan etnosdir” – deya ta’kidlanadi⁴⁰. Shunday ekan, hozirgi turkiy tillar va o‘zbek tilida uchrovchi so‘g‘d, xorazmiy tillari elementlari qadimiy davrlarda yuz bergan tillararo aloqalar natijasi deb qaralmog‘i kerak.

Dostonlar tili ko‘proq so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lganligi sababli, ularda ham shevaga xos xususiyatlar to‘la saqlangan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, onomastik birliklar ham garchi boshqa tillardan o‘tgan bo‘lsa-da, mavjud sheva vakillari tiliga moslashgan. Xorazm dostonlari onomastikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ulardagi leksik qatlamlar masalasi alohida o‘rin tutadi. Tarixiy-etimologik jihatdan dostonlar tilidagi nomlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, forsiy, arabiy, mo‘g‘ul va boshqa tillarga oid bo‘lgan elementlar turkiy tillarga xos birliklar bilan bir qatorda qo‘llanilgan.

Eroniy tillar bilan aralashgan qadimgi turkiy qabilalar tillari oltoy-mo‘g‘ul tillari bilan ham aloqada bo‘lgan. Bu aloqalar XIII asrda mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoni istilo qilishi davrlarida yanada kuchaydi. O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida o‘zbek-arab tillari aloqasi yuzaga keldi. Bu davrda arab tili davlat va din tili, fan va rasmiy yozishmalar tili sifatida keng tarqaldi. Arab tili mahalliy aholiga davlat va fan tili,

³⁸ Фрейман А.А. “Хорезмийский язык”, М-Л, 1951. – Б.32.

³⁹ Усмонов С. “Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар”. – Навоийга армуғон. Тошкент, 1968. – Б.109.

⁴⁰ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет, 2007. – Б.239.

ayniqsa, din tili sifatida majburan o'qitildi. Natijada, mahalliy aholi vakillari o'z ona tili bilan bir qatorda arab tilida ham yozib, ham gaplashadigan darajaga yetishdi.

Dostonlarimiz onomastik tizimida arabiy tillarga xos bo'lgan birliklar ham ma'lum darajaga ega bo'lgan birliklardan hisoblanadi. Arablar tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi va ularning uzoq davom etgan hukmronligi, hamda bu yerda yashovchi xalqlarning asrlar davomida islom diniga e'tiqod qilishlari va uning ta'sirida bo'lishlari mahalliy aholi tiliga, ayniqsa, uning lug'at tarkibiga arab so'zlarining benihoya ko'p singib ketishiga sabab bo'lgan. Bu holat esa, o'z navbatida, mazkur hududda yashovchi aholining nom tanlash tamoyillariga ham o'z jiddiy ta'sirini o'tkazgan.

Arab tiliga xos so'zlar O'rta Osiyo xalqlari tiliga yozma adabiyot orqali, asosan, eroniy tillardagi adabiyot orqali o'tgan⁴¹. Tarixan arab tilidan o'zlashgan deb qaraluvchi leksik birliklarning ayrimlari tilimizga shu darajada singib ketganki, hozirda ularning ayrimlarining boshqa tildan o'tganligi sezilmas darajaga kelib qolgan. Xuddi shunday xarakter kasb etuvchi atoqli otlar ham talaygina. Ularni mutaxassis bo'lmagan kishilar sof o'zbekcha ismlar deb hisoblashi tabiiy.

Professor F. Abdullayevning qayd qilishicha, "biz bunday so'zlarni tamomila o'zlashtirib, o'z so'zimizdek turlayveramiz, yasovchi qo'shimchalar vositasi bilan ulardan yangi so'zlar yasaymiz"⁴².

Xulosa qilib aytganda, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida tilimizning rang-barang birliklari va turli tillarga aloqador birliklarni uchratamiz. Ularni to'plab, tekshirish orqali zamonaviy o'zbek tilining tarixan qaysi tillar bilan to'qnash kelganligi va o'z qatlam birliklarini qay darajada saqlab qolganligi kabi masalalarga oydinlik kiritish mumkin.

⁴¹ Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Б.41-42.

⁴² Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир. Тил ва адабиёт институти асарлари . 1-китоб, Тошкент, 1948. – Б.89.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).
2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир. Тил ва адабиёт институти асарлари . 1-китоб, Тошкент, 1948.
3. Абдурахмонов Д. Бектемиров Х. Ўзбек халқ достонлари ономастикаси. Тошкент. 1967.
4. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет, 2007.
5. Оллоёров Қ.М. Хоразм достонлари ономастикаси. Монография. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017.
6. Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. PhD.diss.avtoref. – Samarqand: 2018.
7. Усмонов С. “Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар”. – Навоийга армуғон. Тошкент, 1968.
8. Фрейман А.А. “Хорезмийский язык”, М-Л, 1951.

ФИО автора: *Masharipova Intizor Majiddinovna*

Ellikqa'la tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli

7-son Davlat ixtisoslashtirilgan umumun

ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

Название публикации: «O'SMIRLARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH TIZIMI RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK JIXATLARI»

ANNOTATSIYA

Pedagogik tarbiya sistemasini eng muhim vazifalari yoshlarga ta'lim berish shakllari usullari va salomatlikni mustaxkamlash hamda saqlash vositalari, ularda jismoniy takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish hisoblanadi. O'zini - o'zi kamolatga etkazish kishini jismoniy rivojlanishi, jismoniy va funktsional tayyorgarligini, ya'ni to'liq-jismoniy holatini oshirib berishga intilishi deb tushuniladi. O'zini - o'zi kamolatga etkazish, tarbiyalash natijasi sifatida va o'zini - o'zi tarbiyalash elementini tashkil qilish va jismoniy tarbiyani umumiy jarayoni bo'yicha yo'naltiriladi.

Kalit so'zi: O'smirlik davri, jismoniy holat, tarbiyalash, o'zini-o'zi baholash

O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, ahloqiy, ijtimoiy jihatlarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruxiyati, organizmining fiziologik hamda ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga xali «katta» ham emas. Uning o'z ko'ziga va atrofdagilarga

nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini baholashi, qadriyatlari tizimi o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi. O'smir organizmida ruy beradigan o'zgarishlar shundan iboratki, bola rivojlanishining ayni shu davrida biologik, fiziologik yetukligi borasida tub o'zgarishlar amalga oshadi. Fiziologik rivoshlanish va jinsiy balog'atga yetish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishi bilan boshlanadi. Bu davrda ichki sekretsiya (endokrin) bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyalari faollashadi. Uning old qismidan ajralib chiqadigan gormon organizm to'qimalarining o'sishi va boshqa muxim ichki sekretsiya bezlari (qalqonsimon bez, buyrak o'ti va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Ularning faoliyati o'smir organizmida ko'plab o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, jumladan bo'y o'sishining keskin tezlashishi (bir yilda o'g'il bolalarda 4-5 sm, qizlarda 3-4 sm o'sishi kuzatiladi), jinsiy balog'atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo bo'lishi) amalga oshadi. Bu jarayonlar qiz bolalarda 13-15 yoshlarda nisbatan jadal kechadi. Jismoniy rivojlanish va jinsiy yetilishning akseleratsiyalashuvi kuzatilayotgan hozirgi vaqtda ayrim qizlar 9-10 yoshda, o'g'il bolalar esa 11-12 yoshlarida jinsiy balog'atga yetishning boshlanish bosqichida bo'lishi mumkin. Bo'yning o'sishi, vaznning ortishi, ko'krak qafasining kengayishi-bularning barchasi jismoniy rivojlanishining o'smirlilik yoshiga xos xususiyatlaridir. Shular tufayli o'smirning tashqi ko'rinishi bolaning tashqi ko'rinishiga qaraganda farq qiladi: tana proporsiyasi kattalarga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Shuningdek, o'smirning yuz tuzilishi ham o'zgarib bosh suyagining yuz qismi jadal rivojlana boradi. O'smirlilik yoshida umurtqa pog'onasining o'sishi bo'yining o'sish sur'atidan orqada qoladi. Chunki 14 yoshgacha umurtqa pog'onalari o'rtasidagi oraliqlar tog'aylar bilan to'lgan bo'ladi, bu esa ortiqcha jismoniy zo'riqish, tana holatining noto'g'ri turishi tufayli umurtqa pog'onasining noto'g'ri rivojlanishga moyilligini bildiradi. Umurtqa rivojlanishi buzilishining eng ko'p holati 11-15 yoshlarga to'g'ri keladi va ayni shu yoshlarda ruy berishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etish

oson kechadi. Muskul vazni va muskul kuchlarining ortishi jinsiy balogʻatga etishning oxirlarida nisbatan jadalroq amalga oshadi. Bunda oʻgʻil bolalarda muskullarning rivojlanishi erkaklarga xos tipda, qiz bolalarning yumshoq toʻqimalari esa ayollarnikiga xos tipda amalga oshadi. Bu esa xar bir jins vakiliga oʻziga xos erkaklik va ayollik sifatlarini beradi. Bu jarayonlarning nihoyasiga yetishi esa oʻsmirlik davridan keyin amalga oshadi. Muskul kuchlarining ortishi oʻsmir jismoniy imkoniyatlarini kengaytiradi. Buni bolalar juda yaxshi anglaydilar va ularning xar biri uchun bu juda muxim ahamiyatga ega. Birok oʻsmir muskullari kattalarnikiga qaraganda tez toliquvchan boʻladi va davomli kuchlanishlarga dosh berolmaydigan boʻladi. Shuning uchun sport va jismoniy mexnat bilan shugʻullanishda buni inobatga olish lozim. Shunga kura oʻsmirlik davri bir tomondan kuwatning keskin ortishi va ikkinchi tomondan patogen taʼsirlarga oʻta sezgirligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun aqliy yoki jismoniy ortiqcha toliqish, uzoq muddatli asabiy zoʻriqish, affektlar, kuchli salbiy

xissiyotlar (kurkish, gazab, xafagarchilik) endokrin buzilishlarga (mensrual tsiklning vaqtincha buzilishiga) va nerv sitsemasi funksiyasining buzilishiga sabab boʻlishi mumkin. Bunday buzilishlar taʼsirlanuvchanlikning ortishi, uzini tuta bilmaslik, parishonxotirlik, ishda maxsuldorlikning pasayishi, uyquning buzilishi kabilarda namoyon boʻladi. Oʻsmirlik davrida endokrin va nerv sitsemalari faoliyatining bolalik davrida mavjud boʻlgan muvozanati buziladi, yangisi esa endigina urnatilayotgan boʻladi. Bunday qayta qurilishlar albatta oʻsmirning ichki holati, kayfiyati, ruxiyatiga taʼsir koʻrsatadi va koʻpincha uning umumiy noturgʻunligiga, serjaxlligiga, xarakat faolligiga, vaqti-vaqti bilan hamma narsalarga befarq boʻlib kolishligi va lanjligiga asos boʻladi. Bunday holatlarning yuzaga kelishi koʻpincha qizlarda mensrual tsikl boshlanishidan bir oz oldinrok yoki tsikl davrida koʻprok kuzatiladi. Jinsiy balogʻatga etish va jismoniy rivojlanishdagi oʻsish oʻsmir ruxiyatida yangi psixologik tuzilishlarning yuzaga kelishida muxim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu oʻsmir uchun juda sezilarli boʻlgan oʻzgarishlar boʻlib, ular oʻsmirning katta boʻlganini xis qilishining yuzaga kelishining obʻektiv manbai boʻlib xizmat qiladi (uning asosida

o'smir o'zining kattalarga o'xshashligini xis qiladi). Ikkinchidan, jinsiy balog'atga yetish boshqa jins vakiliga qiziqishishni rivojlantiradi, yangi kechinma, xissiyot, tuyg'ularni yuzaga keltiradi. O'smirning ichki bandligi va yangi taassurotlar, kechinmalarga munosabati darajasi ularning o'smir hayotidagi o'rni keng ijtimoiy sharoitlar bilan, o'smir hayotining konkret individual sharoitlari, uning tarbiyasi va muloqoti xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu o'rinda o'smir shaxsi shakllanishiga fakat kattalar uchun muljallangan kitoblar va kinofilmlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bularning barchasi, shuningdek o'rtoqlari bilan sevgi va jins muammolari haqida gaplashishlari o'smirlarda odamlar munosabatlarining intim jihatlariga ko'tarinki qiziqishishni yuzaga keltirishi, erotik an'analar va ilk seksuallikni rivojlantirishi mumkin. Xar ikkala jins o'smirlari uchun bu davrda ilk romantik xislarning yuzaga kelishi «birinchi muxabbat»ga duch kelishi, birinchi bo'sa kabilar me'yoriy hol hisoblanadi. O'smirlik davrining xarakterli xususiyatlaridan yana biri - bu davrda o'smirlarda kuzatiladigan o'smirlik avtonomiyasi holatidir. O'smirlik avtonomiyasining xuquqiy avtonomiya, iktisodiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya kabi turlari farqlanadi. Ma'lumki, bola dunyoga kelgan boshlab kimningder karamog'iga muxtoj bo'ladi. Ota-onasi va boshqa yaqinlari uni oziqlantiradi, kiyintiradi, tarbiyalaydi va uni muntazam nazorat ostida tutadi. Ular bolani xar tomonlama qo'llab-quvvatlashi bois bola bunday e'tiborga, daldalarga muxtojlik xis etib turadi. O'smirlik davrida esa bola o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida mustakillikka erishadi. Endi u o'zini o'zi himoya qila olishi, lozim bo'lsa o'zi o'z imkoniyatlari darajasida mexnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi. Yukorida keltirib o'tilgan xuquqiy avtonomiya ayni vaqtda bola o'smirlik yoshiga yetishi bilan unga qator xuquqiy imkoniyatlar berilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bola yuridik shaxs hisoblanib, ovoz berish xuquqiga ham ega bo'ladi. Mabodo, bu davrda o'smirning ota-onasi ajralib ketgudek bo'lsa, o'smirning kaerda va kim bilan qolishi uning xohishiga qarab xal etiladi. Shuningdek, bola bu davrda o'z imkoniyatidan kelib chikqqn holda rasmiy ravishda jismoniy

mexnat bilan shugullanishi ham mumkin. Lozim bo'lsa, ulardan uz xatti-xarakati, kiliklari uchun javob berishi ham talab kilinadi. Shu kabi xuquqiy imkoniyatlarga ega bo'lish va bundan o'smirning xabardorligi uning xuquqiy avtonomiyasining yuzaga kelishini ta'minlaydi. Bunday avtonomiyaga ega bo'lish o'smirda o'z xatti-xarakati uchun javobgarlik, ma'suliyatlilik xissini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy avtonomiya ham ma'lum darajada xuquqiy avtonomiyaga bog'liq holda yuzaga kelib, bevosita o'smirning o'z moddiy extiyojlarini boshqalar, otaona yordamisiz qondira olishi mumkinligi bilan bog'liq. O'smir endi o'z extiyojlarini kondirish uchun ota-onasiga tula tobe bulmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Gamezo M.V., Domashenko I.A. Atlas po psixologii. M., 2002
2. G'oziev E. Umumiy psixologiya. –T., 2003
3. To`ychieva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar echimi. Manual. T.: 2008

ФИО авторов: *Инахамова Нилуфар Махаммадиброхим қизи*- Наманган муҳандислик–қурилиш институти 15-МСМСМ-20 гуруҳ талабаси

Ортиқов Хайитали Шаробидин ўғли-Наманган муҳандислик–қурилиш институти 17М-МССБ-21 гуруҳ магистранти

Мелибаев Махмуджон-Наманган муҳандислик – қурилиш институти доценти

Название публикации: «МАШИНАСОЗЛИҚДА РЕЗИНАТЕХНИКА МАТЕРИАЛЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ АСОСЛАРИ»

УДК: 621.921.8

Аннотация. Ушбу мақолада машинасозлик соҳасида резина техник материалларининг хусусиятларидан келиб чиқиб ишлатиш соҳалари бўйича олиб борилган адабитлардан таҳлиллар ва ишлатиш ресурсларини ошириш йўллари тўғрисида батафсил маълумотлар ёритилган

Таянч сўзлар: машина, резина, шина, эксплуатация, омиллар, ресурс, техник ҳолат, транспортёрлар, каучук, узатма тасмалари.

Аннотация. В статье рассматриваются основные вопросы использования в машиностроении резино-технические материалы, структуры и путей повышения их срок службы.

Ключевые слова. машина, резина, шины, эксплуатации, факторы, ресурс, технические состояние, транспортеры, каучук, ременный передачи.

Annotation. The article discusses the main issues of using rubber-technical materials, structures and ways to increase their service life in mechanical engineering.

Keywords. machine, rubber, tires, operation, factors, resource, technical condition, conveyors, rubber, belt drive.

2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида маҳаллаий хом-ашёлардан фойдаланишни ривожлантиришга ҳам катта эътибор ажратилди. Ҳозирда резина саноати Республикамиз халқ хўжалигида муҳим рўл ўйнайди. Кўпгина ишлаб чиқариш соҳалар, машинасозлик, озиқ-овқат, трактор, автомобил саноатида ва турли хил резина техник буюмларга эҳтиёжи юқори. Резина саноати ўзига хос ўтмишга эга. Резина техник буюмлар ишлаб чиқарувчи дастлабки корхона резина техника республикамизда 1972 йилда ташкил топган. Резинанинг асосий таркибий қисми ҳисобланган каучук жуда эластик бўлади. Резина жуда кучли (1000 фоизгача) деформацияланиши мумкин, лекин юкланиш олингандан кейин резина аввалги ҳолатига деярли бутунлай қайтади. Бундан ташқари, резинанинг кимёвий чидамлилиги емирилишга қаршилик кўрсатиш қобилияти юқори, яхши электр изоляция хоссаларга эга зичлиги унча катта эмас.

Ҳозирги замон машинасозлигида бир неча юз хил резина деталлар мавжуд ишлаб чиқариладиган каучукнинг анчагина қисми (тахминан 60 %) автотрактор техникаси учун шиналар ишлаб чиқаришга сарифланади.

Ҳар қандай резинали материялнинг асоси каучук бўлиб, замонавий енгил автомобилларда 300 тагача номдаги умумий сони 500-600 та бўлган деталлар (юк автомобилларида эса 200 тадан 500 тагача детали) резинадан тайёрланган бўлиб, бу деталларни тайёрлаш учун 250-400 кг каучук, яни 500-800 кг резина материаллар сарифланади, 40 т юк кўтара оладиган МАЗ маркали автомобилларнинг фақатгина шиналар 4000 кг ни ташкил этади. Автомобилларга сарифланадиган резина материалларнинг умумий массаси автомобил массасининг 8-9 фоизини, шу билан бирга, автомобилнинг умумий таннархининг 10-40 фоизини ташкил этади, бундан кўринадиги резина қимматбаҳо ва камёб материаллардан биридир.

Резинадан техникада кенг қўламда фойдаланишга сабаб қуйдагилардир.

- материалларнинг юқори эластик хусусиятига эгаллиги (юқори сифатли резиналар учун чўзилишидаги солиштирма узайиш 1000 фоизга етади);
- етарли даржада маҳкамликка эгаллиги (резиналарнинг энг яхши тарларининг узулишдаги мустаҳкамлиги 40 МПа га етади);
- газни жуда кам миқдорда ўтказиши ва сувни бутунлай ўтказмаслиги;
- юқори диелетирик хусусиятлари.

Юқорида санаб ўтилган хусусиятларга асосланган ҳолда резинали материаллардан турли-туман резина техник буюмлар: шиналар, бирик шиланглар, амортизаторлар, тасмали узатмалар, қистирмалар салниклар, муфталар, транспорт тасмалари каби турли хил эҳтиёт қисмлар ишлаб чиқарилади. Кабел ўтказгич, электромашиналар жиҳозлар ишлаб чиқаришда эса резиналардан электроизоляцияси сифатида фойдаланилишини такидлаб ўтиш лозим.

Тармоқ корхоналарида синтетик ва табиий каучук асосида турли резина буюмлари тайёрланади. Асосий маҳсулотлари: автомобил, мотоцикл, трактор, велосипед ва бошқа машиналарга шиналар, резина қўлқоплар, транспортёрлар, ташиш ленталари, узатма тасмалари, машиналар ва турли механизмлар учун қуйма ва ноқуйма деталлар, иссиқлик ва электр изоляси материаллари ва бошқа бундан ташқари, резинатехника саноати. Корхоналарида автомобиллар ва қишлоқ хўжалиги машиналари шиналари тикланади, резинали поябзаллар, резина аралаш газмоллар, санитария ва гигиена анжомлари, спорт буюмлари, ўйинчоқлар, хўжаликда ишлатиладиган пластмасса буюмлари ва бошқа резинали маҳсулотлар ишлаб чиқарилади. Резинатехника саноати маҳсулотлари машинасозлик, кимё, кўмир, металлургия ва бошқа саноат тармоқларида, транспорт ва ҳарбий техникада қўлланилади.


Ўзбекистонда бу тармоқнинг илк корхонаси (Биринчи резинатехника) Тошкент резинатехника маҳсулотлар заводи 1944 йилда ишга тушурилди ва тўла қувват билан ишлай бошлади. Илгари асосан, резина маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ихтисослашган “Ўзбекрезинатехника бирлашмаси (1975) 1987 йилдан халқ истеъмоли товарлари ишлаб чиқаришга ўтди.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан сўнг, Резинатехника саноати, корханалари қайта жиҳозланиб, машинасозлик корхоналарига бутловчи қисимлар ишлаб чиқаришга йўналтирилди. 1992 йилдан Ўзбекрезинатехника бирлашмасида енгил автомобил шиналарини тайёрлаш ўзлаштирилди. 1996 йилдан йилга енгил автомобил учун 15 млн. дона, юк автомобиллари учун 200 минг дона шина ишлаб чиқариладиган қувватлар ишга тушурилди.

Бундан ташқари, “Ўзбекрезинатехника” бирлашмаси ва кимё саноатининг бошқа корхоналарида (Самарқанд кимё заводи) калишлар ишлаб чиқарилади 10 мин. дан жуфтга етказилади (1995). Шунингдек, бу тармоқ корхоналари республика машинасозлик саноати учун турли хилдаги резина техника маҳсулотлари ишлаб чиқаради.

Каучук ишлаб чиқариш. Илгари каучукли ўсимлик ширасидан олинадиган табиий каучук (ТК) дан фойдаланилади. “Hancock Hancock” 1826 йилда табиий каучукдан пластмассани олиш учун машинадан фойдаланиш усули ихтиро қилинди.

Табиий каучук эрта топилган, архелогик қазилмалар XI асрда Жанубий Америкадаги одамлар ўйин ва таклифлар учун резина тўплардан фойдаланганлигини кўрсатмоқда. 1493 йилда Италиялик сайёҳ “Columbus” иккинчи сафарда Амеркияни кашф этганида, у ерда жуда баланд бўлиб ўсадиган дарахтдан олинган сутдан тайёрланган қора тўп билан ўйнаган ҳиндуларни кўрди. Ўша вақитдан буён Испания ва Португалия Нессико ва Жанубий Американи босиб олиш жараёнларида каучук ҳақидаги маълумот Европага келтирилди.



1-расм. Каучукнинг дарахдан олиниши

XVIII асрга келиб, Франция Жанубий Америка илмий экспедицияларини жўнатди. 1736 йилда Француз олими Кандаминг (Charlz de Condamine) Жанубий Америка илмий-тадқиқот экиспидициясида, Перудан, Жанубий Америка материк саёҳати “Chronicle” нашри чоп этилган Францияда Франциянинг баъзи каучук маҳсулотлари ва тегишли маълумотларни ёзди

Кейинчалик резина ишлаб чиқариш кўпайиши билан каучук етишмай қолди. Ҳозирги пайитда резиналарнинг анчагина қисми нефтни қайта ишлаш маҳсулотлари ҳисобланган турли синтетик каучуклар асосида тайёрланади. Аммо дастлабки пайитда синтетик каучукдан олинган резиналарнинг физик-механик хоссалари табиий каучукдан тайёрланган резинатехникага қараганда ёмон эди (мустаҳкамлиги, нисбий чўзилиши, ейилишга ва совуққа чидамлилиги паст эди). Лекин нефт-кимё саноатининг ютуқлари табиий каучукдан олинган резиналардан ишлаб чиқариш имконини берди.

Каучук юқори молекула бирикма бўлиб, молекула массаси 100-500 минга тенг (бу рақам молекула водород атомидан неча баробар оғир эканлигини кўрсатади). Полиметирнинг катта узун молекуласи юмалоқланишга ҳаракат қилади, лекин бунга молекулаларнинг ўзаро таъсири кучи қаршилиқ кўрсатади, шунинг учун ҳам каучук жуда эластик бўлади.

Табиий каучук Бразилияда ўсадиган Гевея дарахтининг каучук ташувчилари (шираси) дан олинади. Иқлим шароитига кўра мамлакатимизда Гевея дарахтини ўстириш имкони йўқ, бошқа таркибдаги каучук ташувчилар бўлган ўсимликлар ишлаб чиқариш аҳамиятига эга эмас. Шунинг учун мамлакатимизда резина саноатининг хомашёси сифатида синтетик каучуклардан фойдаланилади. Синтетик каучукнинг 1932 йилда дунёда биринчи марта С.В. Лебедев услубига асосан завод шароитида бутадиеенлик синтетик каучук синтез қилинган. Бу каучук учта ҳарф билан маркаланади СКБ. СКБ ўзининг сифати бўйича табиий каучукдан анчагина ёмон, шунинг учун уни бошқа синтетик каучуклар сиқиб чиқармоқда. Ўтган асрнинг 60-йиллари бошларида стереорегуляторли бутадиеенли каучук СКД ишлаб чиқарилди. Бу каучуклар эластилиги бўйича табиий каучуклардан қолишмайди, ейилишга ва совуқ таъсирга чидамлилигига кўра табиий каучуклардан ҳам яхшироқ.

Стереорегуляторли синтетик каучуклардан энг истиқболлиги изоренли каучук СКИ (масалан, СКН-3)дир. Унинг формуласи, хоссалари табиий каучукники билан бир хил бўлганлиги учун ўрнини унинг тўла боса олади.

Автомобилларнинг резинали деталларини тайёрлашда монометирларни полимеризациялаш маҳсулотлардан кенг фойдаланилади.

Истиқболли универсиал синтетик каучукларга бутулкаучук-изобутиленни-изопрен билан сополимери киради. Бу материаллар автотракторлар учун

пневматик шиналарни (камера) ишлаб чиқаришдаги энг яхши материаллардир (у юқори газ ва ҳаво ўтказмаслик хусусиятига эга).

Ҳозирда 200 турдан ортиқ синтетик каучуклар мавжуд. Каучукларнинг асосий хусусиятлари ва ишлатилиш соҳаси тўғрисида маълумотлар 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Каучукларнинг асосий хусусиятлари

Каучук	Асосий хусусиятлари	Ишлатилиш соҳаси
Табиий каучук (ТК)	Чўзилишида юқори мустаҳкамлик ва эластикликка эга. 60 °С дан 100 °С гача ҳароратларда ишлатишга яроқли	3, 6, 8, 10, 12,
Бутадиенстиролли (СКС)	Чўзилишда юқори мустаҳкамликка эга ва эскирган чидамлилиги 100 °С гача ҳароратда ишлатишга яроқли	11, 12, 13
Бутадиенметил-стролли (СКМС)		3, 6, 10, 12, 14
Изопренли (СКИ)		2, 6, 8, 12, 14
Бутадиенли (СКД)	Жуда юқори механик мустаҳкамликка эга, емирилиш ва совуқ таъсирига чидамли	6, 8
Хлорпренли (натрит)	Юқори эластикликка эга, эскирган чидамлилиги 120-130 °С гача ҳароратда нефть маҳсулотлар муҳитда ишлатишга яроқли. Хомашёсиз вулканизацияланади	1,4,5,7,9,11,
Бутадиеннитрилли	Натрига ўхшаш. Иссиқлик таъсирига чидамлилиги яхшиланган	4,5,7,9,11,13
Диметилсилоксанли (СКТ)	Иссиқлик тасирига чидамли, 60 °С дан 300 °С гача ҳароратларда узок муддат ишлатиш мумкун. Юқори диелектирик хусусиятга эга. Нефть маҳсулотларида тез эриди	3
Фторкаучук (СКФ)	Синтетик каучук табиийга ўхшаш аммо нефть маҳсулотларида эримайди	4,5
Этиленпропиленли (СКЭП)	50 °С дан 130 °С гача ҳароратда ишлатишга яроқли, юқори электроизоляция хусусиятга эга	1

Изоҳ. Учунчи устундаги рақамлар каучукнинг ишлатилиш соҳасини билдиради:

- 1) кабина ойналари ва бошқа деталларни зичлаш учун ишлатилади;
- 2) кабина эшиклари ва бошқа деталларни зичлаш учун ишлатилади;
- 3) ҳаво, сув, кислота ва ишқорларнинг кучсиз эритмалари муҳитида ишлатишга яроқли зичлагичлар (ҳалқалар, қистирмалар, манжетлар ва бошқалар) тайёрлашда ишлатилади;
- 4) нефть маҳсулотлари муҳитида ишлатишга яроқли зичлагичлар тайёрлашда ишлатилади;
- 5) нефть маҳсулотлари муҳутда ишлатишга яроқли клапан деталлари тайёрлашда ишлатилади;
- 6) ҳаво, сув ва амортизаторлар тайёрлашда ишлатилади;
- 7) нефть маҳсулотлари муҳитида ишлатишга яроқли амортизаторлар тайёрлашда ишлатилади;
- 8) ҳаво муҳитида ишлатишга яроқли куч узатувчи деталлар (дисклар, втулкалар, блоклар) тайёрлашда ишлатилади;
- 9) нефть маҳсулотлари муҳитида ишлатишга яроқли куч узатувчи деталлар тайёрлашда ишлатилади;
- 10) ҳаво, сув кислота ва ишқорларнинг кучсиз эритмалари муҳитида ишлатишга яроқли химоя деталлари (устқўймалар, муфталар ва бошқалар) тайёрлашда ишлатилади;
- 11) нефть маҳсулотлари муҳитида ишлатишга яроқли химоя деталлари тайёрлашда ишлатилади;
- 12) ҳаво, сув, кислота ва ишқорларнинг кучсиз эритмалари муҳитида ишлатишга яроқли умумий мақсадлар учун ишлатиладиган ёрдамчи деталлар тайёрлашда ишлатилади;
- 13) шиналар тайёрлашда ишлатилади.

Резинадан материаллар олиш. Табиий ва синтетик каучукдан тоза ҳолда фойдаланиш чегаралангандир (елимлар тайёрлашда, изоляцияловчи ленталар, зичловчи қистирмалар тайёрлашда қўлланилади). Чунки улар бир қатор камчиликларга эга, жумладан, мустаҳкамлигининг етарли эмаслиги. Табиий каучукларнинг мустаҳкамлиги 1,0-1,5 МПа, СКБ ва стиролли синтетик каучуклар учун 0,5 МПа дан ортмайди. Каучукларнинг мустаҳкамлигини оширишнинг самарали усулларида бири вулканизациялашдир.

Вулканизация- каучук молекулаларини олтингугурт атомлари билан боғлаш. Вулканизация натижасида масалан табиий каучук узулиш мустаҳкамлиги 25 МПа атрофида бўлган вулканизациаланган каучук олинади, бу жараён 140-150 °С ҳароратда нисбатан самарали бўлади. Вулканизация жараёнида каучук мустаҳкамлигини оширишга асосий сабаб каучук

молекулалари орасида эквивалент боғланиш (олтингугурт кўприклари) ҳосил бўлишидир.

Каучукка унинг мустаҳкамлигини ва эластилигини ошириш учун зарур бўлган миқдорда олтингугурт қўшилади. Бунда полимернинг узун макро; молекулалари тўрсимон структурага айланиб резинага эластиклик берувчи карказ ҳосил бўлади. Масалан автомобил шиналари ва покришқалари тайёрланадиган резиналарда каучук улушининг 1-3 фоизи миқдорда олтингугурт бўлади. Каучук таркибида олтингугурт миқдорининг ортиб бориши унинг мустаҳкамлигини ошириш билан бир вақтда эластиклигини камайтиради. Каучукка 50 фоиз атрофида олтингугурт қўшиш мумкин, бунда жуда мустаҳкам (чўзилишдаги мустаҳкамлиги 52-54 МПа) бўлган ва умуман эластик бўлмадан (қаттиқ), кимёвий жиҳатдан инерт бўлган материал эбонит олинади. Эбонитдан электротехник мақсадларда фойдаланиладиган деталлар, шу жумладан, аккумуляторлар банкиси тайёрланади.

Резина компонентлари. Ҳар қандай резина материалнинг таркибида каучук ва олтингугурдан ташқари бошқа компонентлар интередиентлар ҳам бўлади.

Вулканизациалаш жараёнини тезлаштириш учун каучук ва вулканизацияловчи восита аралашмасига вулканизация тезлаткичлари (тиуран, каптакс ва бошқалар), мустаҳкамлигини ошириш учун тўлдиргичлар қўшилади. Энг оммавий бўлган кучайтиргич сифатида қурумдан фойдаланилади. Қурум кукун ҳолидаги углерод бўлиб, қисимлари ўлчами 0,003-0,25 мкм бўлади қурум бошқа кучайтиргичлар каби резина материалларига резина таркибидаги каучукка нисбатан 20-70 фоиз миқдорда қўшилади.

Тўлдиргич сифатида қурумдан ташқари рух, магний, кремний оксидларидан, бир қатор тузлар (бор, гипс), синтетик смолалар ва бошқалардан фойдаланилади. Бир қатор оқ рангдаги тўлдиргичлар (оқ қурум, қурум, рух оксиди ва бошқалар)дан ташқари рангли резиналар олишда фойдаланилади, одатдаги қурумдан ўт қора рангда бўлганлиди туфайли фойдаланиб бўлмайди, чунки у буюмларга қора ранг беради.

Хулоса: Қишлоқ хўжалиги машинасозлигида қўлланиладиган асосий материаллардан бўлган резина техника хомашёларида самарали фойдаланиш машина-трактор агрегатларини ишлаш ресурсини оширишнинг ва конструкцион ва эксплуатацион шароитларида сарфланадиган таннарх харажатларининг камайтиришни асосий омили бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1. Шарипов К.А.** Ёнилғи мойлаш материаллари. “Меҳнат”, Тошкент, 2001,–186 б.
- 2. Маткаримов К.Ж.** Транспорт воситаларида ишлатиладиган ашёлар (Ўқув қўлланма). “Талқин”, Тошкент, 2004,–285 б.

- 3.Итинская Н.И., Кузнецов Н.А.** Автомобилларда ишлатиладиган материаллар. “Ўқитувчи”, Тошкент, 1983, –243 б.
- 4.Лишко Г.П.** Топливо и смазочные материалы. “Агропромиздат”, Москва, 1985, –336 с.
- 5.Василев Л.С.** Автотранспортные эксплуатационные материалы (Учебное пособие). “Транспорт”, Москва, 1986,–238 с.
- 6.Кузнецов А.Б., Кулчев И.А.** Практикум по топливу и смазочным материалам (Учебное пособие). “Агропромиздат”, Москва, 1984, –224 с.
- 7.Колобов М.П.** Эксплуатационные материалы для автомобилей и специальных машин (Учебное пособие). –Москва, 1987,–285 с.
- 8.Мелибаев М, Дедаходжаев А,Бобаматов А, Абдусаломов А, Максудов Б.** Машина-трактор агрегатларида пневматик шиналардан самарали фойдаланиш. Наманган вилояти кишлок хўжалиги бошқармаси ва Наманган муҳандислик-қурилиш институти ҳамкорликдаги тавсияномаси. Наманган.НамМҚИ. 2022. -56 б
- 9. Тошболтаев М., Рустамов Р.** Қишлоқ хўжалиги машиналарига худудий фирмавий техник сервис кўрсатиш тизимини такомиллаштиришнинг назарий-статистик тамойиллари. Монография. Тошкент. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2018. -268 б.(133,141 бетлар).
- 10. M.Melibayev., Dadakhozhov A., Mamadzhanov M.M., Khaydarov S.E.** Experimental methods for determining deformations and stresses of tractor wheel tires. Scopus ASCC: 2200. Impact Factor: Sol 1.1/TAS DOL: [10.15863/TAS](https://doi.org/10.15863/TAS) International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science.p-ISSN:2308-4944 (print). e-ISSN:2409-0085 (online). Year:2020. Issue:03. Volume:83/ Published: 30.03/2020. <http://T-Science.org>.
- 11. Мелибаев М.** Capacity of universal-well-towed-wheel tires
Универсал чопиқ трактори юк кўтариш қобилияти. //Scientific-technical journal of FerPi. ISSN 2181-7200. Vol.2. 2019. Fergana. -p. 144-146.
- 12.Мелибаев М., Дедаходжаев А.** Етакловчи ғилдирак шинаси деформация изи чуқурлигини аниқлаш мезонлари. //AGROTEKHNIKA DUNYOSI илмий-амалий журнали. 2019. № 9-10 (22-23) сентябр-октябр. –б 13-15.
- 13.Мелибаев М.** Шина ёйилишини камайтириш. /Янги технологиялар иқтисодий-тараккиётининг асосий омили. Республика илмий-амалий материаллари.-Наманган. НамМПИ. 2003. -76 б
- 14.Мелибаев М., Йигиталиев Ж.А.** Трактор пневматик шиналаридаги ҳаво босимини аниқлаш қурилмаси. //ФарПИ, Илмий-техника журнали, –Фарғона. 2020 й. Т-24. Махсус сони № 2. -б. 69-72
- 15.Мелибаев М., Дедаходжаев А., Раҳманов Ш.В.** Трактор шиналарининг чидамлилиги ва эскириши. //ФарПИ Илмий-техника журнали, Фарғона. 2016. Том 20. № 4. - Б 44-50.
- 16.Мелибаев М.** Универсал чопиқ трактори пневматик шиналарига қуйиладиган эксплуатацион талаблар. //НМТИ илмий-техника журнали. –Наманган, 2019. том 4-махсус сони № 1. –б 161-168
- 17.Методика** сбора информации по наработке машин, проходимости автомобильных, тракторных и сельскохозяйственных шин в базовых хозяйствах. ВИИТИИ.–Тамбов.1985.с - 37.
- 18.Инструкция механику** о порядке выдачи, учёта работы и списанию шин тракторов и сельхозмашин. Ассоциация «Узагромашсервис».
- 19.Инструкция** оператору по уходу за шинами тракторов и сельскохозяйственных машин. Ассоциация «Узагромашсервис». Ташкент. 2001. -8 с.
- 20.ГОСТ 7463-2003.** Межгосударственный стандарт. Шины пневматические для тракторов и сельскохозяйственных машин. Технические условия. -М.: ИПК изд-во. стандартов. 2004.–22 с.

ФИО автора: *Mahmudova Feruzaxon Abduraximovna*

Student at master degree

Uzbekistan State World Languages University

Название публикации: «EFFECTIVENESS OF APPLICATION INTENSIVE METHOD OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE IN LANGUAGE LEARNING COURSES»

Annotation: The article discusses the effectiveness of intensive learning of English languages. The study of English languages in modern society has become an inseparable component of the training of specialists at all levels. The development of intensive methods for teaching English at universities or secondary schools remains an urgent task today. This research defines the tasks of the intensive method of teaching in the university and the main factors confirming the effectiveness of the intensive methods of teaching English language.

Key words: language, intensive learning, teaching, effective, investigation, methodology.

The scope of the methodology of teaching a English language is undergoing constant changes. Experts constantly argue about which method of learning a foreign language is more effective. Proponents of the classical method prefer the traditional way of learning a language, since it is he who trains all four basic language skills: speaking, listening, reading and writing. When this occurs, the expansion of lexical stock and improved pronunciation.

Supporters of the communicative technique point out the shortcomings of this technique. First, with a comprehensive study of the language, there is no time for purely conversational practice, and secondly, teachers, as a rule, are not native speakers. Speaking about the methods of teaching English languages, it should be clarified that they must comply with the conditions of study of the university of this profile. There are many intensive methods and concepts of teaching English languages. Intensive teaching methods are designed not only in the shortest possible time to form a certain set of skills and abilities for the learner, but also to force the learner to overcome the

psychological barrier that inevitably arises when artificially forming secondary language competence. Based on the main task of intensive training of the adult contingent - in the shortest possible time to master the skills of English language communication, we can distinguish two main factors that characterize intensive training:

1) the minimum required training period to achieve the goal (future speech activity) with the maximum necessary for this purpose the amount of educational material and its corresponding organization;

2) the maximum use of all reserves of the student's personality, achieved under conditions of special interaction in the educational group under the creative influence of the teacher's personality.

The features of this technology are as follows:

1) in the use of techniques that activate the conscious and subconscious processes of the psyche to create a vast and solid language base;

2) in the development of tasks that motivate communication;

3) in the optimal organization of the collective interaction of students with each other and with the teacher.

The method of intensive learning of English language was originally created for the conditions of coursework. Experimental work has shown that the intensive method can be used when working with all age groups. However, the senior stage of education provides the most opportunities. The reasons for this are: the greatest degree of personality formation, an extensive information stock, the desire for knowledge of the world through communication with other people, the presence of the original language base. The basis of the intensive teaching methods is the suggestopedic method. In the 60s in Sofia, an absolutely unique method for learning English languages was developed by the Bulgarian psychotherapist **Georgi Lozanov** at the Institute of Specialization and Advanced Medical Studies (ISUL). The main goal of the method was, using means of suggestive influence, to remove the complexes and barriers of people learning English language and further, introducing them into a state of physical relaxation and mental concentration, to achieve the effect of hypermnesia.

In the course of the experiment, G. Lozanov managed to ensure that 1000 words in French were learned in one day. According to the scientist, people use from 5 to 10% of the capacity of the brain, and using its method, these figures could increase by 3-5 times, compared to traditional teaching methods. This form of suggestion was called “suggestopedia” (from Latin *suggestio* suggestion, hint + Greek *paideia* training), I.e. the use of methods of suggestion in learning.

G. Lozanov identifies three types of suggestion, which are used in the educational process to remove all kinds of psychological barriers among students.

The main provisions of suggestopedia are as follows:

- 1) the training should be joyful and relaxed;
- 2) it should be carried out on both conscious and subconscious levels;
- 3) in training, it is necessary to use usually untapped reserves of consciousness in order to increase effectiveness.

These reserves can be identified by suggestion.

Although direct hypnosis is not used in this method, it has caused and continues to elicit a lot of criticism, since it provides sub sensory stimulation and causes unconscious mental activity. Thus, intensive methods have contributed considerable energy to the method of teaching foreign languages in general. Achievements of intensive methods in the field of activating the processes of perception and assimilation of the material basis of communication, in opening up its reserves of motivation and in developing adequate forms of collective interaction should as soon as possible become the property of teaching methods at the university, to increase its effectiveness and efficiency.

The list used literature:

1. Kitaygorodskaya G.A. Intensive teaching of foreign languages /, 2012. № 2. P. 67-73.
2. Denisova L.G. Place of intensive methods in the system of teaching foreign languages in secondary school / - 2015. № 4. P. 6-12.
3. Bancroft W. Jane. From Research and Relaxation to Combination and Creativity: American Versions of Suggestopedia. ERIC Documents on Foreign Language Teaching and Linguistics, 2014. 30 p.

ФИО автора: Саидова Шахризода Адхам Кызы

Бухарский Государственный Университет, 2 Курс Магистр Физики

Название публикации: «ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ ПОЛЕВЫХ ТРАНЗИСТОРОВ К ВНЕШНИМ ВОЗДЕЙСТВИЯМ И ФИЗИЧЕСКИМ ПРОЦЕССАМ В НИХ»

Аннотация:

В данной статье описаны чувствительность полевых транзисторов к внешним воздействиям и физическим процессам в них и некоторые их возможности.


Ключевые слова:

Униполярные транзисторы, мдч-транзистор, проводимость, р-п переход, устройства-тиристоры, трехэлектродный, кремниевый материал, полупроводник.

Введение

Четырехслойные полупроводниковые приборы - тиристоры в настоящее время широко используются в электронике. В основном они изготовлены из

силиконового материала. Полевой транзистор представляет собой трехэлектродный полупроводниковый прибор, в котором исток, затвор, канал и площадь стока, толщина полупроводникового слоя за счет изменения контролируется выходной ток. В настоящее время в электронике широко используются полевые транзисторы двух типов: р-п-переходный управляемый транзистор и mдja-транзистор (металл-диэлектрик-полупроводник).



Структура и подключение р-п-переходного полевого транзистора с затвором показаны на схеме. Основным элементом такого транзистора является п-типа является полупроводником и представляет собой слой сплава г-типа с двух сторон он образуется путем разбавления или диффузии. Подключенный к ним омический контакт называется затвором. Пластина п-типа омик, соединенная с двумя боковыми ребрами один из контактов называется istock, а другой—stock, в котором затворы образуют два р-перехода, образуя между ними тонкослойный полупроводниковый канал.

Принцип работы полевого транзистора основан на затворе и затворе он основан на изменении толщины проводящего слоя канала за счет напряжения.

Предположим, что между istock и stock приложено внешнее напряжение, т. Е. К istock пусть полюс минус полюс подключен. В нем п-тур от истока к стоку по каналу движение электронов под действием разности потенциалов в полупроводниковой пластине. На затвор также подается внешнее напряжение, так что два г-п-переход подается обратное напряжение. N-раунд, изменяя

напряжение, подаваемое на затвор носители в полупроводнике могут быть обеднены. Сделать это причиной увеличения поперечного сечения проводящего слоя транзисторного канала является изменения происходят за счет. Это происходит путем изменения сопротивления канала, которое, в свою очередь, выходной ток полевого транзистора изменяет ис.

Актуальность темы:

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Chunki zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. Yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yod illatlarga qarshi imuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi. Malumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma’naviy-marifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini shakillantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalari davlat siyosati darajasida e’tiborga olindi.

«Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-ahloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi

bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan»-deya takidlaganlar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakillanib kelgan asil milliy va diniy qadriyatlarimizni ahamiyati nechog‘lik muhim ekanini ko‘rsatib bermoqda. Ayniqsa, yangilanayotgan O‘zbekistonda “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslanib, milliy g‘oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yanada dolzarb ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Sharq taronalari” o‘n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so‘zida shunday degan edilar: “Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi o‘ta murakkab zamonda millati, tili va dini turlicha bo‘lgan millionlab odamlarni hech qanday tarjimonsiz do‘st qiladigan, ular o‘rtasida hamkorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydigan musiqa san’atining o‘rni va ta’siri tobora ortib bormoqda”.

Biz yashab turgan jamiyat taraqqiyotida musiqa va san’atning o‘rni beqiyosdir. Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan an’analarimizni mustahkamlaydigan ham mana shu hisoblanadi. Har qanday ko‘ngilni o‘ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug‘ini ekib boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqa desak mubolag‘a emas. Shu o‘rinda o‘z-o‘zidan sezilib turibdiki musiqa san’ati qanchalik beqiyosligi hamda tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanligini.

Bu boradagi ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda xalq musiqa me’rosi tarkibidagi folklor, mumtoz va maqom kuy-qo‘shiqclarini yuksak tarbiyaviy ta’sirchanlikka ega ekanligi, ularni yoshlar ma’naviy olamiga chuqurroq singdirish, badiiy-estetik

tarbiyasida to'g'ri va maqsadli foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishishi mumkinligi asoslab berilgan. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: "Agar biz asl, xaqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak. Agar biz san'atni ma'daniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz musiqa san'atini ko'tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatimizni safarbar etishimiz zarur"

Haqiqatdan ham xalq musiqa merosida eng ommaviylik kasb etuvchi qo'shiqchilik ijodiyotiga oid folklor, mumtoz va maqom asarlarining badiiy mazmuni tahlil qilinsa, ularda "xalq donishmandligi"ning eng ulug' va oliyjanob g'oyalari mujassamlanganligini ko'rish mumkin. Masalan, folklor yo'nalishidagi xalq qo'shiqlari o'z mazmunida xalqning eng muhim, o'ziga xos turli ko'rinishlari va qirralarini aks ettiradi. Shu sababli musiqa darslarida ularni o'rganish o'quvchi-yoshlarni milliy o'zligini anglashda ahamiyat kasb etadi.

Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi avvalo milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqlol sharofati bilan milliy musiqiy merosimizga milliy-ma'naviy qadryatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analarini tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi go'zal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yo'lida tinmay mehnat qilatotgan xalqimizga, jamiyatimiz ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban birbiriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayotgan, tarixan qadrli an'analarimizga

bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida ehtirol etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'laki bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Ashula, musiqa, raqs ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va

tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Musiqaning ana shunday o'tkir tarbiyaviy kuchidan foydalanish, san'at vositasida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash umumta'lim maktablari zimmasidagi eng muhim va doim dolzarb bo'lgan vazifalardan biridir. Davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish hamda mustaqilligimizni yanada mustahkamlashda o'tmish me'rosimiz milliy musiqa merosimiz o'rni alohida.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy madaniyatimizning xalq ma'naviy hayotidagi o'rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o'zining ma'naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro maqom san'ati anjumani ochilishidagi nutqi. www.gazeta.uz. 2018-yil 6-sentabr.
2. S. G'oziyev "Ma'naviy komillik sirlari". – T., Istiqlol, 2005.
3. Sharipova G.M. «Musiqqa o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanma T. 2008-yil.
4. O. Ibrohimov . Musiqqa darsligi. V-VII sinf. T. 2008-yil.
5. E. Fayzullayev. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi. T. Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2007-yil.
6. S. Yo'ldosheva. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogic asoslari. Toshkent 2007-yil.

7. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. (13.00.01.), 2006-y.

8. Begmatov S, Q.Mamirov. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti. 2004-yil.

9. O. Ibrohimov, Sh. Sodiqov. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. T. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti. 2004-yil.

ФИО автора: *Ne'matov Feruzbek Nurmatjon o'g'li*

Qo'qon shahar 5-Bolalar musiqa va san'at maktabi

Название публикации: «AFG'ON RUBOBI TARIXI VA IJRO TEXNIKASI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek xalq cholg'ularining shakllanishi va musiqa tarixi va Sharq musiqashunoslarining cholg'u musiqasi, ularning musiqiy va ilmiy merosi haqidagi qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalq asboblari, tarixiy qo'lyozmalar, musiqiy risolalar, etnograf, tarix, kapelmeyster.

Kirish

Tarix o'zbek xalq cholg'ulari rang - barang va noyob ekanligini ko'rsatdi. Barcha musiqiy shakllar yo'nalishlarga muvofiq shakllangan va asrlar davomida rivojlangan.

Buyuk allomamiz Abu Nasr Al-Farobiy (to'qqizinchi asr) o'zining "Buyuk notalar kitobida" kitobida, Safiuddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolasida, Abdulqodir Maragi (14 asr) o'zining Jomiy "Al-alxon Fi-ilm al-musiqiy", Ahmadi (XIV asr) risolalarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Amuli (XVI), Darvesh Ali changi (XVII asr) kitobchalarida "Hikoya va amaliy musiqa Qonuni" risolasida o'z davrining musiqiy asboblarini tasniflashni tasvirlab, tadqiqot savollarining turli jihatlariga e'tibor qaratdi. O'tmishning buyuk shoirlari o'zlarining asarlarida musiqiy asboblar nomlari va ularning iste'dodli ijrochilarini qo'lladilar. Xususan, o'z ijodi bilan ma'rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning asarlari musiqashunoslikning eng nozik va mumtoz bo'limlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Xusrav Dehlaviy ijodida afg'on rubobi shoirning eng sevimli cholg'u asbobi sifatida e'tirof etilgan. XX asrning ikkinchi yarmida ushbu cholg'u yakkasoz yoki jo'rnavoz sozi sifatida respublikamizning ijrochilik madaniyati va zamonaviy, yangi musiqa ta'lim tizimi kirib keldi. Ilk bor maxsus afg'on rubobi sinfi

1960- yilda R.M. Glier nomidagi Respublika o'рта maxsus musiqa maktabida va 1964- yilda Toshkent Davlat konservatoriyasida ochildi. Bu esa davlat ta'limida zamonaviy (yozma manbalari asosida) yo'nalishdagi ijrochi- sozandalarni tayyorlash borasida birinchi dadil qadam edi. Yigirmanchi asrga kelib, Eichorn, Abdurauf Fitrat va Viktor Belyaev kabi olimlar musiqa asboblarini o'rganish va ularning o'yinlarini samarali o'rganishdi. Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalar Markaziy Osiyo xalqlarining musiqiy amaliyotida paydo bo'lgan asboblar nomlarini o'z ichiga oladi. Musiqiy asboblar (asboblar ishlab chiqarishda ishlatiladigan shakl, tuzilish, simlar nisbati, sozlash mezonlari, daraxtlar va materiallar) haqida ma'lumot beradi. Navxa, Nuzha, Low, Chang, Afg'on Rubob, Tanbur, Dutor; **Puflab chalinadiganlar:** ruhafzo, Shammoma, Organun, Sibizgi, Naya anbon, Chagon, Boulamon, trubka, Flute, qushnay, trubka; perkussiya asboblari: buben, doira, baraban, safoyl va boshqalar.

Mavzuning dolzarbligi

Afg'onistonning rubobi va kurdcha so'zlari, shuningdek, asbobning o'ziga xos jozibasi bilan alohida o'rin tutadi. Musiqa asboblari ijrochilarining ta'rifi, shakllari, tuzilishi, tarkibi va ma'lumotlari o'рта asrlardan boshlab badiiy va musiqiy risolalarda yoritilgan. Bu shuni anglatadiki, o'рта asrlarda qadim zamonlardan buyon shakllangan va takomillashgan xalq cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topdi.

Afg'on rubobi, asosan, kosa, dasta, bosh qismdan tashkil topgan. Kosa bir-biriga yopishtirilgan bir nechta taxtachadan, pastki va yuqorigi qopqoqdan, torlarni mahkamlashga mo'ljallangan ilmoqlardan iborat. Ustki qopqoqqa baliq teri qoplangan bo'lib, unga xarrak o'rnatiladi. Hozirgi vaqtda ustalarimiz kosani tut daraxtidan o'yma yoki qovurg'asimon qilib ham ishlamoqdalar. Pastki qopqoq yog'ochdan tayyorlanib kosaga zich qilib biriktiriladi.

Sozandaning barmoqlarini cholg'u asbobi dastasida qulay joylashishi va ularni maqul tarzda almashtirishi, ijro etayotgan asarlarini mazmunini bemalol qiynalmasdan tinglovchiga yetkazadi va o'zi ham orom oladi.

Afg'on rubobida chalishga o'rganayotgan sozanda, barmoqlarini soz dastasida to'g'ri joylashtirish bilan birga, uni dasta bo'ylab harakat qilishi uchun tovush qatorlarda chap qo'l barmoqlarini joylashishini bilishi shart. Sozandaning chap qo'l barmoqlarini cholg'u asbobi dastasidagi joylashish holati pozitsiya deb ataladi. Afg'on rubobida 9 ta pozitsiya bor. Pozitsiyalari afg'on rubobining uchta torlarida qanday joylashishini havola qilmoqdamiz. Ijrochining ko'rsatkich barmoq bilan jimjiloq barmog'igacha bo'lgan masofa bir pozitsiya hisoblanadi. Misol tariqasida birinchi tordagi si-do-re notalari chap qo'lining 1, 2, 4 barmoqlari bilan ijro etiladi. Ikkinchi tordagi fa-di- sol-lya notalari 1, 2, 4 barmoq bilan ijro etiladi. Uchinchi tordagi do-si-re-mi notalari chap qo'lning 1, 2, 4 barmoqlari bilan ijro etiladi.



Sozandaning ijrochilik holatini keng ma'noda olganda unga ijrochining o'tirish holati, sozning joylashishi, chap va o'ng qo'llarning joylashishi va harakati. Noxun (mediator)ni ushlab torlarga chertib ohang chiqarishi kiradi. Umuman olganda, yakkanavoz sozanda afg'on mbobida o'tirib chaladi. Ijrochi kursining yarmiga o'tirib, yaxshi joylashishi kerak. O'ng oyoq chap oyoq ustiga qo'yilgan holda, rubobni chalishga quluq joylashtirishi lozim



Sozlanishi

Diapazon





Orkestrda oʻrta registrni afgʻon rubobi ijro etadi. Bass guruhlariga yaqinlik bor. Bass-guruhlar ijro etayotgan kuylarga afgʻon ruboblari qoʻshilsa, ularning har biri ohang jihatidan oʻziga xos boʻladi. Boshqacha aytganda, past jarangli kuy oʻrta jarangli afgʻon rubobi tovushlari bilan toʻldiriladi. Asarga yanada boyroq ohang beradi. Orkestrda afgʻon rubobi ham bu janrga katta hissa qoʻshgan. Orkestrda rr, ff, interval, arpedjio chalishni biladi.

Afgʻon rubob + qashqar rubob + dutor + tanbur

Afgʻon rubob + bas dutor

Afgʻon rubob + gʻijak alt

Afgʻon rubob + gʻijak boshi mukammal bir butunlikni tashkil qiladi. Yozilganidan bir oktava pastroq eshitiladi.

Afgʻon rubobi sharq xalqlarining juda qadimiy cholgʻu asbobidir. Bu soʻz oʻziga xosdir. Oʻzining tashqi koʻrinishiga koʻra oʻzbek xalq cholgʻu asboblari oilasida alohida oʻrin tutadi. Nogʻora tembri boshqa cholgʻu asboblaridan zarbli cholgʻu asboblari qatoriga koʻra farqlanadi. Afgʻon rubobi Afgʻoniston, Hindiston, Pokiston, Misr, Oʻzbek va tojik xalqlari orasida Xitoy kabi mamlakatlarda, shuningdek, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan bu soʻz hozirda Toshkent, Buxoro, Samarqand,

Xiva, Termiz, Farg‘ona vodiysi, Afg‘on ruboboning kelib chiqishini aniqlash qiyin, chunki u turli manbalarda turlicha tasvirlangan.

Xulosa

Milliy musiqa madaniyatimizning har qachongidan chuqurroq va atroflicha o‘rganish, uni xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Binobarin o‘zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan cholg‘ular va cholg‘u musiqasi qadim qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir.

O‘zbek musiqasida ko‘plab cholg‘u asboblari qatori afg‘on rubobi ham alohida o‘rin tutadi. Bu cholg‘u o‘zining jarangdorligi va inson qalbiga yaqinligi, o‘rganish va chalish uchun qulayligi bilan xalqimizning sevimli cholg‘u asboblaridan biriga aylangan. XX asrga kelib cholg‘u ijrochiligi san‘atida xalq cholg‘ularini o‘rganish va o‘rganish jadal rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch .- T.: Manaviyat, 2008
2. Semenov A. Sredneaziatskiy traktat po muzike Dervisha Ali (XVII veka) .- 1946
3. Karomatov F. Uzbekskeya instrumentalnaya muzika.- T., 1972
4. Vizgo T.S. Muzikalniye instrumenti Sredney Azii.- Moskva, 1980
5. Petrosyans A.I. Instrumentovedeniye.- T., 1980
6. Akbarov I.A. Muzika lug‘ati.- T., 1987
7. Azimov K.T. Metodika raboti s samodeytelnim orkestrom uzbekskix narodnix instrumentov.- T., 1988
8. Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi.- T., 1993

9. Ruziev, D. Y. (2021). Ways Of Working On Musical Compositions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 436-440.
10. Ruziev, D. Y. (2021). THE ROLE OF THE CONDUCTOR IN ORCHESTRAL PERFORMANCE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 1(01), 66-71.
11. Ruziev, D. Y. (2021). DESIGNING THE LEARNING PROCESS FOR MUSICAL WORKS. International Engineering Journal For Research & Development, 6(ICDSIIL), 6-6.
12. Norova, S. U. (2021). Imam Abu Hamid Al-Ghazali. Teacher-Student Coaching Relations. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 441-445.
13. Норова, Ш. У. (2020). Повышение профессиональной компетентности путем подготовки молодежи к хоровой деятельности. Наука, техника и образование, (10 (74)).
14. Umirzakovna, N. S. (2021). WAYS TO IMPROVE LEARNING EFFICIENCY USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 1(01), 41-47.

ФИО авторов: *Urinova Sabina Shuxrat qizi*

Jizzax davlat pedagogika

instituti magistranti

Xolmurodova Nigora Ixtiyor qizi

Jizzax davlat pedagogika instituti

“Musiqqa madaniyati” fakulteti talabasi

Название публикации: «O‘ZBEKISTON UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMIDA MUSIQIY TARBIYA (MAKTABGACHA TA‘LIM-TARBIYA VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MISOLIDA)»

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston uzluksiz ta‘lim tizimining bo‘g‘inlarida musiqiy tarbiyaning qay tarzda yo‘lga qo‘yilganligi xususida so‘z boradi. Jumladan, o‘quvchilar kichik yoshidanoq musiqiy tarbiya oladigan maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarida musiqiy ta‘lim-tarbiya haqida yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: musiqqa, ta‘lim, uzluksiz ta‘lim, tarbiya, estetika, did, maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, maktabdan tashqari ta‘lim, oliy ta‘lim.

Musiqqa komil inson tarbiyasida uni ezgulikka yetaklovchi, ma‘naviy dunyosini boyituvchi, axloqiy tarbiyalovchi, estetik didini oshiruvchi muhim omillardandir. Shu tufayli ham bola kamol topishida, uning tarbiya, ta‘lim olish jarayonlarining har qanday bosqichi va ko‘rinishlarida musiqiy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston har tomonlama rivojlanish jarayonlarida o‘z oldiga bir qator muhim vazifalarni qo‘yar ekan, musiqqa madaniyati uzluksiz ta‘lim tizimining bo‘g‘inlarida qay tarzda amalga oshirilish muammolarini ham dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab oldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “...madaniyatimizni tiklab bormasak, ertaga ma‘naviy ozuqa bo‘lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo‘lmaydi”⁴⁷, - deb ta‘kidlar ekan, bu sohada bir qator farmon, qarorlarning qabul qilinishidan musiqaning yoshlar tarbiyasida naqadar muhim o‘rin tutishini anglash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020-yildagi PF-6000-sonli “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori shular jumlasidandir.

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Namangan viloyati faollari bilan o‘tkazgan yig‘ilishidagi nutqidani. 2020-yil 27-iyun.

O'zbekistonda ta'lim turlari quyidagilar:

- "Maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- Professional ta'lim;
- Oliy ta'lim;
- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Maktabdan tashqari ta'lim."⁴⁸

Ta'lim turlaridan maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim turlarida bolalar musiqa saboqlarini olishadi.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy- axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi."⁴⁹ Musiqaga kichik yoshdan uyg'ongan qiziqish, bolaning kelajakda ham musiqa orqali shakllanishi zarur bo'ladigan ijobiy fazilat va jihatlarini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyada musiqa orqali avvalo, bola axloqiy jihatdan tarbiyalanib boradi. Uning estetik didi, badiiy ijodkorligi, tasavvur dunyosi aynan musiqa tarbiyasi orqali rivojlanadi. Bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishda bir qancha vazifalar mavjud bo'lib:

"- bolalarni tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;

- Estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- Hayotda go'zallik tushunchasini to'liqligicha anglashni o'rgatish;
- Bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
- Bolalarda go'zallikni o'z hayotlariga, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish va hokazo."⁵⁰

Maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarini olib borishda musiqa tinglash orqali bolada musiqaning mazmunini tushinishga o'rgatish mumkin. Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish oddiy qo'l, oyoq harakatlaridan boshlab o'rgatiladi. Bu orqali ilk musiqiy ritmik ko'nikmalarni hosil qilishga erishish mumkin. Kuylash asosan, jamoaviy tarzda olib borilib, kuylash jarayonida to'g'ri nafas olish, musiqiy cholg'uga jo'r bo'lish kompetensiyalarini bolalarda rivojlantiradi. Bog'cha yoshidagi bolalar kuylash bilan birgalikda qo'shiq mazmunini yanada yaxshiroq tushunishlari uchun so'zlarga mos harakatlar bajarishi maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim va tarbiyada musiqa mashg'ulotlari jarayonida bolalarni musiqiy cholg'ular bilan tanishtirib borish ham yo'lga qo'yilishi zarur.

⁴⁸ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi [O'RQ-637-son Qonun.7-modda.](#)

⁴⁹ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi [O'RQ-637-son Qonun.8-modda.](#)

⁵⁰ "Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiya metodikasi" fanidan ma'ruza matni. Termiz., 2018-yil. 14-bet

Umumiy o'rta ta'limda "musiqa madaniyati" fani orqali bolalarga musiqiy bilimlar va musiqiy tarbiya berib boriladi.

"Musiqa madaniyatini o'quvchilar ongida shakllantirish asnosida fan o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi:

- O'quvchilarga berilayotgan musiqiy ta'lim-tarbiyani hayotga bog'lab olib borish;
- O'quvchilarda musiqa san'atiga mehr, qiziqishni o'stirish;
- O'quvchilarda musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- Musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;
- Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish;
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish;
- Musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash"⁵¹.

Demak, musiqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'alarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini xurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"⁵²

Maktablarda musiqa darslari boshlang'ich va o'rta sinflar kesimida olib borilib, "boshlang'ich sinflarda musiqa darsi beshta faoliyat turidan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
5. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lishdan iborat"⁵³.

"O'rta (V-VII) sinflarda esa, dars faoliyati birmuncha kamayadi. Chunki, o'quvchilar ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Dars mazmuni chuqurlashib o'quvchilar bilim va malakalarni kengaytirishga xizmat qiladi. O'rta sinflarda musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

1. Xor bo'lib qo'shiq kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash"⁵⁴

Bugungi kunda prezidentimiz tomonidan umumiy o'rta ta'limda bolalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2022-2023-o'quv yilidan boshlab "milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi

⁵¹ Ho'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil. 10-11-bet.

⁵² Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent., 2010-yil, 4-bet.

⁵³ Sharipova G. Asamova D. Xodjayeva Z. "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari". Toshkent. 2014-yil. 15-bet.

⁵⁴ Gulnora Sharipova. G'ayrat Najmekdinov. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» o'quv qo'llanma. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent., 2014-yil. 11-bet.

hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi”⁵⁵

O'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun milliy cholg'ularda kuy ijro qilishni o'rgatish uchun turli to'garaklar tashkillashtirish ham qarorda belgilab berilgani, umumiy o'rta ta'limda musiqiy ta'lim-tarbiyaga qaratilayotgan e'tiborning yaqqol namunasi.

Bola kichik yoshidanoq butun umri davomida kerakli bo'ladigan bilim, ko'nikmalarga ega bo'lib borar ekan, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'limda musiqa madaniyati bola ma'naviyati, tasavvur dunyosining shakllanishida yetakchi o'rin egallaydi. Ta'lim tizimining bu bo'g'inlarida musiqa tarbiyasining qay tarzda yo'lga qo'yilganligi esa, ertangi avlod axloqiy tarbiyasi, estetikasi, ma'naviyat-u madaniyatini belgilab beradigan omillardan bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi [O'RQ-637](#)-son Qonun
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida” gi 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori.
3. Gulnora Sharipova. G'ayrat Najmekdinov. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi” o'quv qo'llanma. “Turon-Iqbol” nashriyoti. Toshkent., 2014-yil
4. Ho'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil
5. “Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiya metodikasi” fanidan ma'ruza matni. Termiz., 2018-yil
6. Mavlonova R, Abdurahimova R. “Pedagogik mahorat”. Fan va texnologiya nashriyoti. Toshkent, 2009-yil.
7. Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent., 2010-yil
8. Sharipova G. Asamova D. Xodjayeva Z. “Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari”. Toshkent. 2014-yil.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida” gi 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori.

ФИО авторов: *Ibragimova Sayyora Alimjanovna*

Islamova Nigora Abdurashidovna

A.Qodiriy nomli JDPI magistranti

Название публикации: «BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIMDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI»

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida muammoli ta'limdan foydalanishning o'rni va ahamiyati xususida fikr mulohazalar bildirilgan.

ANNOUNCEMENT: This article discusses the role and importance of using problem-based learning in primary school.

ОБЪЯВЛЕНИЕ: В этой статье обсуждается роль и важность использования проблемного обучения в начальной школе.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, ta'lim sifati, muammoni samarali yechish, muammoli vaziyat, mustaqil fikrlash jarayoni.

Keywords: problem-based learning, quality of education, problem-solving, problem-solving, independent thinking.

Ключевые слова: проблемное обучение, качество образования, решение проблем, решение проблем, независимое мышление.

**Yangi O'zbekiston-maktab ostonasidan,
ta'lim tarbiya tizimidan boshlanadi.
Sh.Mirziyoyev.**

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni yanada oshirish, o'sib borayotgan yosh avlodni XXI asr ilmiy texnika talablariga javob beradigan tarzda tarbiyalashni talab qilmoqda. Buning uchun yashlarimizni dunyoqarashini boyitish, ularning bilim va salohiyatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Yoshlarimiz bugungi kun talablariga to'laqonli ravishda javob bera oladigan shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Muxtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida aynan ta'lim sohasiga alohida to'xtalib o'qituvchi pedagoglarning o'z ustida tinimsiz ishlashi zamonaviy talablarga javob bera oladigan pedagog kadrlar ta'lim tizimimiz uchun

zarur ekanligini, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ta'kidlab o'tdilar.

Jumladan, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda uchunchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak." Bunda avvalo ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyalarimizning asasiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim .

Bugun jamiyat maktab oldiga: maxsus qolibiyatini mustaqil ravishda yuzaga chiqara oladigan, zamonaviy fikrlaydigan, dunyoqarashi keng yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'ymoqda.

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi yetakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lim bu mantiqiy fikrlash operatsiyasini yuzaga chiqarish, dunyoqarashni shakllantirish, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish og'zaki nutq madaniyatini boyitishni ta'minlaydi.

Muammoli o'qitish yangi yo'nalish sifatida XXasrning 70-80-yillarida yuzaga keldi. A.M.Motoshkin, T.V. Kudrashev, M.I.Mahmudov, I. Ya.Lernerlar muammoli o'qitish qonuniyatlarini chuqur o'rgandilar.

Amerikalik olim U.Gordon o'quvchilarga muammolarni uning tashkil qiluvchi elementlarini shakllantirishni o'rgatishni, izlanishning bosh maqsadini ajrata bilishni, turli tuman xarakterdagi masalalar yechimidaning o'xshashlarini qidirishni o'rgatish muammoli ta'lim jarayoni uchun muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi muammoni qo'yishni bilibgina qolmay uning yechimini topish usullarini o'quvchilarga o'rgatishi kerak

Muammoni yechishda uni to'g'ri muayyan masalaga o'xshash masalalar qanday yechiladi, shaxsiy muayyan masalaga berilgan obrazga kirishgan holda mulohaza yuritishga urinib ko'rish, fantastik, bu masalani ertak qahramonlari qanday yechgan bo'lar edi. Shu va shunga o'xshash ko'rinishda muammoni yechishga harakat qilib ko'rish nazarda tutiladi.

Muammoli vaziyatni bunday usulda yechishga o'rgatish orqali o'quvchilarni og'zaki nutqini boyitish, fantaziya qilish, faraz qila olish, o'zgalarni eshitish,

oddiydan g'ayri oddiyga, g'ayrioddiydan oddiyini topish, o'xshatishlardan mohirona foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinishini boshqarish ishonchli dalillar asosida o'z fikrida tura olish, muxolif tomonning fikrini munozara qilish, malakasini rivojlantirish, o'quvchining faol fikrlash faoliyatini tarkib toptirish, masalani dolzarb tomonlarini ko'rish, o'z fikrinigina emas balkim boshqalarni ham eshitish mahoratini rivojlantirish o'quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotlar olish va zarur xulosalar chiqarishni talab etadi. Shu va shunga o'xshash jarayonlar natijasida o'quvchilar ixtirochilik, tadqiqotchilik loyihachilik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirib borishga zamin xozirlaydi.

Muammoli ta'lim metodiga asoslangan ta'lim jarayoni quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

-Muammoli vaziyat hosil qilish

-Muammolarni shakllantirish va muammoni yechish uni umumiy tahlil qilish;

-Taxmin qilingan yechimni tekshirish;

-Amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo'llash ularni tartibga solish, hamda hayotda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lish;

Bugungi kunda muammoli o'qitish o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni yaratishni va ularni hal qilish uchun talabalarning faol mustaqil faoliyatini o'z ichiga olgan o'quv mashg'ulotlarni tashkil qilishning bunday shakli sifatida tushuniladi, buning natijasida bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtiriladi va rivojlanadi.

Muammoli o'qitishda o'qituvchining faoliyati shundan iboratki, u zarur bo'lganda eng murakkab tushunchalarning mazmunini tushuntirib, muammoli vaziyatlarni muntazam ravishda yaratadi, o'quvchilarga faktlarni yetkazadi va ularning o'quv bilish faoliyatini tashkil qiladi. Faktlarni tahlil qilish asosida o'quvchilar mustaqil ravishda xulosa va umumlashtiradilar, tushunchalar, qoidalarning ta'riflarini shakllantiradilar yoki mustaqil ravishda ma'lum bo'lgan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llaydilar.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinishini boshqarish, ishonchli dalillar asosida o'z fikrini munozara qilish, malakasini rivojlantirish, o'quvchini aktiv fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish, o'z fikrini bayon qilishnigina emas, balki boshqalarni ham eshitish

mahoratini rivojlantirish, o'quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotni olish va zarur xulosalar chiqarish va o'quvchilar ixtirochilik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirishdir.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keladi. Yangi pedagogic faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi. Muammoli ta'limda bilimning deyarli kata qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarda egallab olinadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning birinchi navbatdagi vazifalaridan biridir.

Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki dars o'quv tarbiya jarayoning asosiy formasidir. Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga "Murojaatnomasi" T, 2020-yil 29-dekabr
2. S. Matchonov, G'.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov 4-sinf O'qish darslik T 2017-yil
3. To'qliyeva M "Muammoli talim metodidan foydalanish"

ФИО автора: *Niyazmetova Guliston Ro'zmetovna*

A teacher of specialized state general education school № 37, Khorazm district

Название публикации: «USING FAIRY TALES IN TEACHING AT PRIMARY SCHOOLS»

Annotation: The following article illustrates information and methods as well as techniques for teaching primary school children with the help of fairy tales. Moreover, it gives several categories of fairytales that is considered as a folklore.

Keywords: teaching method, category of fairy tale, strategies, methods, national fairy tales and international fairy tales.

Main part

Children are the youngest as well as main part of the society. So teaching children in effective ways is really essential for the country. Using different methods in teaching process is very important for the lesson. Using fairy tales in primary schools can be effective, because fairy tales are fun to read. They can attract not only young children, but also elder people. A fairy tale is a story, often intended for children, that features fanciful and wondrous characters such as elves, goblins, wizards, and even, but not necessarily, fairies. The term “fairy” tale seems to refer more to the fantastic and magical setting or magical influences within a story, rather than the presence of the character of a fairy within that story. Fairy tales are often traditional; many were passed down from story-teller to story-teller before being recorded in books.

Fairy tales are important because they spark the imagination. They give us an outlet for experiencing things in our minds before we experience them in the real world. It is where the troubles of the real world can meet the supernatural and mix things up. In a fairy tale anything can happen and any kind of creature can exist, and when anything can happen, we can find solutions to things in our real lives. Through imagination, we learn about our world. We can explore outcomes and possibilities.

Fairytales are categorized as following:

1. Supernatural Adversaries: Hansel and Gretel, Red Riding Hood

2. Supernatural or Enchanted Relatives: Sleeping Beauty, Beauty and the Beast
3. Supernatural Helpers: Cinderella, Puss In Boots
4. Magic Objects: The Magic Ring, Aladdin
5. Supernatural Power or Knowledge: The White Snake, Ali Baba
6. Religious Tales: The Three Green Twigs, The Flower of Lily-Lo
7. Realistic Tales: The Falsely Accused Wife, Ariadne
8. Tales of Fate: The Robber Bridegroom, Oedipus (Aarne-Thompson)

Fairy tales are important because they spark the imagination. They give us an outlet for experiencing things in our minds before we experience them in the real world. It is where the troubles of the real world can meet the supernatural and mix things up. In a fairy tale anything can happen and any kind of creature can exist, and when anything can happen, we can find solutions to things in our real lives. With the help of imagination, children can learn about the world around them. Moreover, they can explore outcomes and possibilities when they need. As fairy tales are interesting and attract people's attention, they are so essential to use as a method of teaching process. With the help of fairy tales, an educator can teach his students at school didactically and for good behavior.

Fairy tales, fables proverbs are extremely essential as they are rich of words and descriptions. With the help of usage of fairies, students can be taught for everything. For instance grammar, vocabulary, analyzing meaning, giving own opinion, listening and discussion. Fairy tales exist in every culture in the world and there are elements of the fairy tale going back for as long as people have been telling stories. In Western culture, there are a few authors who were particularly important in the formal recording of fairy tales. We can find fairy tales in every element of our culture. They are, in many ways, given life through popular culture. They appear in books, movies, music, and art. As the fairy tale is such a creative art-form, itself, it is understandable that it would appear in all creative mediums. With each new interpretation or retelling of a fairy tale, we learn a little bit about the story-teller, the audience, the culture and the time in which it is told.

In Uzbek literature, a lot of fairy tales can be used in the lessons during teaching process like “Zumrad and Qimmat” which teaches readers for being a hardworking and friendly, “Ur to’qmoq” which shows the advantages and disadvantages of lying people around you, “Egri and To’gri” and many other stories, fairy tales help children to take good knowledge.

Literature plays an important role in our life. Fairy tales as a part of the children’s literature could be a valuable source for teaching English as a foreign language. Fairy tales might be considered one of the possible supplementary teaching materials for learners. It is not only the atmosphere of mystery, thrill and wonder which makes fairy tales so unique and valuable but they can bring the whole magic world to a young reader and learner. They can open the old wisdom and knowledge of humankind which we often forget about. Literature provides wonderful source material for eliciting strong emotional responses from students and using it in classroom is a fruitful way of involving the learner as a whole person.

All in all, Fairy tales may contribute to the enrichment of a young reader’s knowledge in a number of ways. They teach moral and values highlighting the most universal norms and standards of language existence. In addition to that, fairy tales are a particular type of text which can be adapted to suit the child’s age, whereas their composition of sentences and plot is simple and understandable. Fairy tales are considered to be a part of folklore. It is a well known fact that before computers and television were invented reading was the primary free time activity. People could read hours and travel lands far-far their minds away. Stories offer the whole imaginary world, created by language that children can enter and enjoy, learning language as they read. Good stories provide a study of universal values and needs and capture students’ interest and challenges them to explore new roads of meaning.

Bibliography:

1. Maria Lepin, FAIRY TALES IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE SKILLS AND VALUES IN SCHOOL STAGE II. UNIVERSITY OF TARTU.

Faculty of Social Sciences and Education Institute of Education Curriculum of Educational Science (Humanities 2008/2009). Tartu 2012.

2. Rajapova Malika, EFFECTIVE WAYS OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 3, March 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> **ACADEMICIA**

3. <https://www.pinterest.com/corrynm/teaching-fairytales/>

4. <https://literaryterms.net/fairy-tale/>

ФИО автора: *Karimova Oydinjon Bazarboyevna*

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining Fizika fani o'qituvchisi

Название публикации: «NYUTON QUNUNLARI»

Annotatsiya:

Nyuton matematik hisoblarni qo'llab ko'p asrlik muammo bo'lgan koinotdagi samoviy jismlar harakati muammolarini hal etdi. Yerning tortish kuchi borligini isbotladi, Aytishlaricha uning bu boradagi izlanishiga sabab: daraxt tagida o'tirganda boshiga olma tushgani ekan. O'zi kashf qilgan butun olam tortishish qonunini Nyuton muvaffaqiyatli ravishda osmon jismlarining harakatini tushuntirishga tadbiiq qildi. U ishlab chiqqan mexanika va fizikaning asosiy vazifalari zamonasining ilmiy muammolari bilan uzviy bog'langan edi. Masalan, optika sohasidagi tadqiqotlar optik asboblarning kamchiliklarini bartaraf qilishga qaratilgan edi. "Yorug'lik va ranglarning yangi nazariyasi" (1672) nomli optikaga oid qarashlarini bayon qildi. Bu ish qizg'in bahsga sababchi bo'ldi.

Kalit so'zlar: Optika, koinot, samoviy jismlar, mexanika, tortishish qonuni, sanoq sistemasi, yorug'lik, formula

Аннотация:

Используя математические расчеты, Ньютон решил многовековую проблему движения небесных тел во Вселенной. Он доказал, что у земли есть гравитация, и говорят, что причиной его исследований было то, что яблоко упало ему на голову, когда он сидел под деревом. Ньютон успешно применил закон всемирного тяготения для объяснения движения небесных тел. Основные задачи механики и физики, которые он разрабатывал, были неразрывно связаны с научными проблемами того времени. Например, исследования в области оптики были направлены на преодоление недостатков оптических приборов. Он

выразил свои взгляды на оптику под названием «Новая теория света и цвета» (1672 г.). Дело обсуждалось бурно.

Ключевые слова: Оптика, вселенная, небесные тела, механика, закон всемирного тяготения, система счисления, свет, формула.

Annotation:

Newton used mathematical calculations to solve a centuries-old problem of the motion of celestial bodies in the universe. He proved that the earth has gravity, and it is said that the reason for his research was that an apple fell on his head while sitting under a tree. Newton successfully applied the law of universal gravitation to explain the motion of celestial bodies. The main tasks of mechanics and physics, which he developed, were inextricably linked with the scientific problems of the time. For example, research in the field of optics was aimed at overcoming the shortcomings of optical instruments. He expressed his views on optics, entitled *The New Theory of Light and Color* (1672). The case has been hotly debated.

Keywords: Optics, universe, celestial bodies, mechanics, law of gravity, number system, light, formula

Nyutonning birinchi qonuni. Nyutonning birinchi qonuni quyidagicha ta'riflanadi: har qanday jism, boshqa jismlar ta'siri boshlang'ich holatini o'zgartirishga majbur etmaguncha, o'zining tinch yoki to'g'ri chiziqli tekis harakati holatini saqlaydi.⁵⁶

Futbol to'pining futbolchi tepmaguncha maydonda tinch turishi, avtobus harakati boshlanganda orqa tomonga, harakatlanayotgan avtobus to'xtaganda oldinga qarab silkinishimiz bu qonunning kundalik hayotimizda o'rinli ekanligini ko'rsatadi.

⁵⁶ 1. Kudryavsev P.S, *Kratkiy kurs istorii fiziki*, Moskva, 1974

Shu bilan birga, Nyutonning birinchi qonuni “inertlik” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Inertlik. Inertlik deb, jismning tinch yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakat holatini saqlash xususiyatiga aytiladi.⁵⁷ Shuning uchun ham Nyutonning birinchi qonunini inersiya qonuni ham deyishadi. Nyuton qonunlari faqat inersiyal sanoq sistemalarida bajariladi.

Inersiyal sanoq sistemasi. Nyutonning birinchi qonuni bajariladigan sanoq sistemalariga inersial sanoq sistemalari deyiladi. Inersiyal sanoq sistemasiga nisbatan tinch yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakat qilayotgan har qanday sistema inersiyal sanoq sistemasi bo‘ladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, geliotsentrik (koordinata boshlari quyoshning markazida) sistemani inersial sanoq sistemasi deb hisoblash mumkin. Fizikada jud ko‘p sistemalar inersial sanoq sistemalari sifatida qaraladi, chunki bu hollarda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar e‘tiborga olmaydigan darajada kichik bo‘ladi.

Nyutonning qonunlari bajarilmaydigan har qanday sanoq sistemasiga noinersial sanoq sistemasi deyiladi.

Endi dinamika uchun juda zarur bo‘lgan massa va kuch tushunchalari bilan tanishaylik.

Massa. Jismning massasi materiyaning asosiy karakteristikalaridan biri bo‘lib, uning inertligining miqdoriy o‘lchovidir.

Boshqacha aytganda, tinch yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakat holatini saqlash xususiyati kata bo‘lgan jismning massasi ham kata bo‘ladi. Fizikada massani m harfi bilan belgilash qabul qilingan. SI sistemasida massa birligi bir kilogramm, yani $[m]=1\text{kg}$. Jismning tinch yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakat holatini o‘zgartirish uchun unga

⁵⁷ 2. M.N.Rahmatov, Vatanimiz fiziklari, Toshkent, 1983

tashqaridan ta'sir ko'rsatilishi kerak. Bunday ta'sirni harakterlash uchun kuch tushunchasi kiritiladi.

Kuch. Kuch ta'sirida jism o'zining harakat tezligini o'zgartiradi, ya'ni tezlanish oladi. Bu kuchning dinamik namoyon bo'lishi deyiladi. Shuningdek, kuch ta'sirida jism deformatsiyalanishi, ya'ni shakli va o'lchamlarini ham o'zgartirishi mumkin. Bunga kuchning statik namoyon bo'lishi deyiladi.⁵⁸ Kuch vektor kattalik bo'lib, nafaqat son qiymati bilan, balki yo'nalishi va qaysi nuqtaga qo'yilishi bilan ham xarakterlanadi.

Kuch – vektor kattalik bo'lib, jismga boshqa jismlar va maydonlar tomonidan ko'rsatilayotgan mexanik ta'sirning o'lchovi hisoblanadi va bu ta'sir natijasida jism yoki tezlanish oladi, yoki o'zining shakli va o'lchamlarini o'zgartiradi.

Fizikada kuchni F harfi bilan belgilash qabul qilingan.

Kuch ta'sirida jismning mexanik harakati qanday o'zgaradi? Bu savolga Nyutonning ikkinchi qonuni javob beradi.

Turkiy va forsiy zabon xalqlarning turmush tarzi ifodalangan ma'naviy madaniyat yodgorliklari grek tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya», M. Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» kabi manbalarida saqlangan. Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

Tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham, insoniyat jamiyatning tarkib topishiga yordam bergan. Insonning o'z-o'zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan. Kishilar va kishilik jamiyati vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson sifatida takomillashib borgan. Qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu umidlari, fazilatlari va qadimgi eposlarda o'z ifodasini topgan.

Qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda uch manbaga tayaniladi:

1. Xalq og'zaki ijodi materiallari.
2. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.
3. Arxeologik qazilma ashyolar.

Tarixchilar va pedagoglarning xabar berishicha, kishilarning mehnat faoliyati yosh jihatdan uch guruhga bo'lingan.

1. Bolalar va o'smirlar.
2. Hayot va mehnatda to'la qatnashuvchilar.
3. Keksalar.

Ibtidoiy jamiyatda bolalar o'zlari uddalay oladigan faoliyatga qo'shilib, u hayot kechirish va mehnat qilishga o'rgangan. O'g'il bolalar ov qilish, qurol yasash bilan shug'ullanganlar, qizlar esa ayollar mehnati bilan tanishganlar.

Urug'chilik jamoasida kasb-hunarga intilish kuchaydi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga yozuvga ham o'rgana boshlaganlar. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarini oldini olish, kishilarni davolash usullariga oid bilimlarga intilish avj oldi. Natijada maktablarga va yozuvga ehtiyoj sezildi. Dastlab sur'atkashlar rivojlanib «Piktografik xat» paydo bo'lgan, keyinchalik yozuvlar takomillashgan. Oromiy, Yunon, Xorazm, Sug'd, Kushan, Run, Uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'lgan. Bu esa ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

Yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning ta'lim-tarbiyaviy qarashlariga oid ma'lumotlar berilgan.

Forslarning ulug'laydigan narsalaridan jasurlikdir, -deydi olim, shunga ko'ra ular ko'proq o'g'illariga ega bo'lishdan faxrlanishgan. Podshoh ham kimning o'g'li ko'p bo'lsa, har doim sovg'a salom yuborib turgan. O'g'il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshgacha otda yurishga, kamondan otish, to'g'rilikka o'rgatilgan. Bola besh yoshgacha otasiga ko'rsatilmagan, ayollar tarbiyasiga bo'lmagan. O'g'il hech qachon ota-onasini behurmat qilmagan. Ular ota-onasiga hurmatsizlikni nikohsiz tug'ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin deb bilganlar.

Gerodot forslar uchun yolg'onchilik va qarzdor bo'lish sharmandalik hisoblangan deydi. Yana ular daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo'l yuvmaganlar. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar: bu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, bizning ajdodlarimiz farzandlarini jasoratli, o'z vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir qilib tarbiyalashga e'tibor berganlar. Ayollar ham jasorat ko'rsatganlar. Plutarxning xabar berishicha, Podshoh Kir forslarni shoh Asitaga qarshi otlantirganicha ular jangda engiladilar va fors jangchilari shaharga qarab qocha boshlaydilar. Dushman ularni

quvlab shaharni egallashga yaqin qolganda ularga qarshi darvozadan ayollar chiqib shunday xitob qiladilar: «Ey, noinsof bandalar, qayoqqa qochmoqchisiz? Endi siz dunyoga kelgan joyingizga qaytib yashirina olmaysiz-ku?» Forslar ayollarning bu hayqirig'idan ta'sirlanib, qaytib jangga tashlanadilar va dushmanni uloqtirib tashlaydilar.

Bu hodisaga xotira sifatida Kir shunday qonun ta'sis etadi: bu shaharga agar qaysi shoh qadam qo'ysa, har bir ayolga bittadan oltin sovg'a qilinsin. Qadimgi Samarqandda ta'lim-tarbiya yaxshi tashkil etilganligi haqida ma'lumotlar bor. Samarqandda o'g'il bolalar besh yoshga to'lgach, unga savdo ishlari o'rgatilgan, o'qishni o'rganishi bilan savdo ishiga o'rgatila boshlangan. Boshqa bir tarixchi Samarqand aholisining axloqiy va xulq odob qoidalariga rioya etishi boshqalarga o'rnak bo'lganligini qayd qiladi.

Qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlar xalq og'zaki ijodi namunalari-afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda o'z ifodasini topgan.

Epik rivoyatlarda ajdodlarimizning vatanparvarlik kurashi o'z ifodasini topgan. Jasurlik, kuchlilik, mardlik, qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan fazilat sanalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek pedagogikasi, antologiyasi 1- qism. Tuzuvchi mualliflar: K. Xoshimov, S. Ochilov. Toshkent, «O'qituvchi» 1995
2. Mo'minov. I. «Mirzo Bedil». T. : «O'qituvchi» 1974.
3. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. T.: «Fan», 1997

4. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(1), 898-905.
5. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(2), 125-134.
6. Adambayev, U. X., & Rahimberdiyev, S. U. (2022). NAVRO‘Z BAYRAMI VA UNING ETNOMADANIY ANAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(2), 175-177.
7. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев, (2022). Ишонч – эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири, *SCIENTIFIC PROGRESS* (pp. 348-351).
8. Adambayev Umidbek Xaitbayevich, (2022). Ancient myths and legends. “International scientific research conference”. (20th February, 2022) – BELARUS, MINSK: “CESS”, 2022. Part 1 – 4 p.
9. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.
10. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB /Экономика и социум. – С.18-21.

ФИО автора: Surxondaryo viloyati

Muzrabot tumani 19-maktab

Geografiya fani o'qituvchisi

Qurbonova Oydin Rustamxonovna

Название публикации: «OROL FOJIASI»

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Orol dengizi haqida ilmiy faktlar, uning qurib borishi sababi va bunga nuqta qo'yish, Orol dengizini qayta tiklash chora tadbirlari haqida so'z borgan.*

Annotation: *This article discusses the scientific facts about the Aral Sea, the reasons for its drying up and how to put an end to it, measures to restore the Aral Sea.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются научные факты об Аральском море, причинах его высыхания и способах положить этому конец, меры по восстановлению Аральского моря.*

Kalit so'zlar: *Amudaryo, Sirdaryo, relyef, delta, suvombor, posyolka, Mo'ynoq, kubokilometr, metr kub, metr kvadrat, gramm/litr.*

Keywords: *Amudarya, Syrdarya, relief, delta, reservoir, settlement, Moynak, cubic kilometer, cubic meter, square meter, gram / liter.*

Ключевые слова: *Амударья, Сырдарья, рельеф, дельта, водохранилище, поселок, Мойнак, кубический километр, кубический метр, квадратный метр, грамм/литр.*

Orol dengizi — O'rta Osiyodagi eng katta berk sho'r ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubiy-g'arbiy qismi O'zbekiston (Qoraqalpog'iston), shimoliy-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoliy-sharqdan janubiy-g'arbga cho'zilgan, uzunligi 428 km, eng keng joyi 235 km (45° shahrik.) bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km², suvining hajmi 1000 km³, o'rtacha chuqurligi 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizi yuqori pliotsenda Yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan. Tubining relyefi (g'arbiy qismini hisobga olmaganda) tekis. Orol dengizida juda ko'p yarim orol va qo'ltiqlar bo'lgan. Shimoliy qirg'oqlarida eng katta qo'ltiqlaridan Chernishev, Paskevich, Sarichig'anoq, Perovski, janubiy-sharqiy va

sharqiy qirg'oqlarida Tushbas, Ashshibas, Oqsag'a, Suluv va boshqa, Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladigan joylarida Ajiboy, Tolliq, Jiltirbas qo'ltiklari, Qulonli va Mo'ynoq yirik yarim orollari bo'lgan. Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Keyingi geologik davrda Sariqamish va O'zbo'y orqali Orol dengizi suvi vaqt-vaqti bilan Kaspiyga quyilgan, suv sathi ancha baland bo'lib, janubiy va janubiy-sharqidagi bir necha ming km² maydonli sohil suv ostida bo'lgan. Orol dengizi unchalik chuqur emas. Chuqur joylari g'arbiy qismida. Qoraqalpog'iston Ustyurt yonida chuqurligi 69 m gacha yetgan. Ko'lining sayoz joylari uning janubiy, janubiy-sharqiy va sharqiy qismlariga to'g'ri kelgan. Orol dengizi qirg'oqlarining morfologik tuzilishi juda murakkab. Ular bir-biridan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Shimoliy qirg'og'i baland, ayrim yerlari past, chuqur qo'ltiqlar bor. Sharqiy qirg'og'i past; qumli, juda ko'p mayda qo'ltiq va orollar bo'lgan. Janubiy qirg'og'i Amudaryo deltasidan hosil bo'lgan.

G'arbiy qirg'og'i kam qirqilgan va Ustyurt chinkidan iborat. Orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lgan. Ularning 80% dengizning janubiy -sharqiy qismida. Eng kattalari Ko'korol (273 km²), Vozrojdeniye (216 km²) va Borsakelmas (133 km²) edi. Dengizga Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladi. 60-yillargacha yiliga Amudaryo Orol dengizi ga 38,6 km³, Sirdaryo esa 14,5 km³ suv olib borgan. Suv balansida yog'inlar ham muhim o'rin egallagan. Dengiz akvatoriyasiga yiliga 82–176 mm yog'in yog'adi. Atrofdan dengizga yiliga 5,5 km³ yer osti suvlari qo'shib turgan. Dengiz cho'l zonasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bug'lanadi. Bu esa keyingi davrda dengizga daryolar olib kelgan suv, yog'in va yer osti suvlaridan ortiqdir. Shuning uchun ilimiy o'zgarishlar natijasida Orol dengizi suvining sathi yillar davomida o'zgarib turgan. Masalan, 1785 yildan dengizda suv sathi ko'tarila boshlagan bo'lsa, 1825 yildan pasaygan, 1835—50 yillarda yana ko'tarilgan, 1862 yili kamaygan. Ko'korol 1880 yilda yarim orolga aylanib qolgan. 1881 yil suv sathi pasaygan. 1885 yildan Orol dengizida suv sathi yana ko'tarila boshlagan. 1899 yilga kelib Ko'korol yarim orol bo'lib qolgan. 1919 yil dengiz maydoni 67300 km², suv miqdori 1087 km³ bo'lgan bo'lsa, 1935 yilga kelib maydoni 69670 km², suvning miqdori 1153 km³ ga ko'paydi. Keyingi bir yarim asr mobaynida dengiz suvi sathi ancha o'zgargan. Dengizda navigatsiya mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoqkabi yirik portlari faoliyat ko'rsatgan. Orol dengizi atrofida aholi kam bo'lgan. Aholi, asosan, baliqchilik bilan va qisman, chor-vachilik, ondatra urchitish va sabzavot-polizchilik bilan shug'ullangan. O'tgan asrning 90-yillarigacha dengizdan baliq ovlangan. Aralsk va Mo'ynoq shaharlari va bu shaharlar atrofida ko'p sonli baliq ovlash xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan, Amudaryo deltasida, Avan posyolkasida (Ko'korol o.), Bugun posyolkasida (sharqiy sohil), Uyali va Uzunqir

orollarida baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan. Orol dengizini birinchi marta A. I. Butakov 1848—49 yillarda tadqiq etgan va xaritaga tushirgan. Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog‘liqligidan, bu ikki daryo suvi sug‘orishga qancha ko‘p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o‘tgan asrning 60-yillaridan sug‘oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan yilga kamaya bordi. Oqibatda dengizda suv sathi jadal sur‘atlarda pasaya boshladi. Orol dengizida suv sathi pasayishining uning suv yuzasi va suv sig‘imiga ta’siri Orol dengizi da suv sathining pasayishi suv balansi elementlarining qiymatlariga ham keskin ta’sir ko‘rsatdi: 1911—60 yillarda dengiz sathi o‘rtacha 53,04 m ni tashkil etib (Boltik, sistemasida), daryolar dengizga quyadigan suv miqdori 56 km³, dengiz yuzasiga yog‘gan atmosfera yog‘inlari miqdori esa 9,1 km³ ga teng bo‘lgan. Sarflanish, ya’ni chiqim esa, asosan, bug‘lanishdan iborat bo‘lib, shu davrda o‘rtacha 66,1 km³ ni tashkil etgan. Shu davr ichida suv balansida salbiy farq qayd etilgan: dengiz har yili 1 km³ dan, 1911—60 yillar davomida 50 km³ hajmdagi suvni yo‘qotgan. Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo‘lakka bo‘lingan: birinchisi — kichik va sayoz shimoliy qismi (sho‘rligi — 8—13g/l); ikkinchisi — nisbatan kattaroq maydonga ega bo‘lgan va sayoz sharqiy qismi (sho‘rligi — 69—72 g/l); uchinchisi — eng chuqur hisoblangan g‘arbiy qismi (sho‘rligi — 68-69 g/l). Rossiya konferensiyasi Orol dengizi qurishi sekinlashganini xulosa qilib uni shu holatda saqlashga chaqirdi.

Orol dengizi asosan Amudaryo va Sirdaryodan suv oladi. So‘ngi yillarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to‘ldirishga va sug‘orishga foydalanilishi tufayli Orol dengiziga etib bormaydigan bo‘ldi. Amudaryo va uning irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko‘p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshlandi. [Buning oqibatida Zarafshon](#), Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga etib bormaydigan bo‘lib qoldi. Hozirgi davrda Amudaryodan suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig‘imi 16-17 mld kubokilometrni tashkil etadi. Suv zahiralardan noo‘rin foydalanish — Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimlaridagi hududlarda sizot suvlarining ko‘tarilib, tuproqdagi namlik bug‘lanishining ko‘chayishi va buning oqibatida tuproqlarning sho‘rlanishining ortishiga olib keldi. Orol bo‘yi hududlarida esa sizot suvlari yuzasi pasayib, er yuzasi sho‘rhok tuproq bilan qoplana boshladi. Orol dengizi suv sathining pasayishi bilan qirg‘oq chizig‘i 100 km dan ortiqroq orqaga chekindi. Dengiz tubi o‘rnida 4 mln gektardan ortiq maydonni egallagan yosh Orolqum cho‘li paydo bo‘ldi. Ana shunday qilib, Amudaryo va Sirdaryo suvidan noo‘rin foydalanish 20 asr oxirida 3 mln dan ko‘proq aholi yashaydigan hududda „Orol fojiasi“ deb atalgan global ekologik halokatni paydo qildi. Orol dengizi o‘rnida

paydo bo'lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplangan. Shamol esganida tuz va tuproq zarrachalaridan iborat chang havoga ko'tarilib, uzoq masofalarga tarqaladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan maydonlarning har gektariga bir yil davomida 250 kg, ayrim hududlarda 500 kg gacha tuzli chang yog'iladi. Qurigan dengiz tubidan bir yil davomida 15 mln dan 75 mln tonnagacha chang ko'tarilishi mumkin. Tuzli chang to'fonlarning kengligi 40 km ga; uzunligi 400 km ga etadi. Tuzli chang Orolqumdan o'nlab, hatto yuzlab km masofaga tarqalib, tabiiy o'tloqlar, vohalardagi ekinlar, bog'lar, shaharlar va qishloqlar ustiga yog'iladi. Orol changi hatto Tyanshan va Pomir tog'lari cho'qqilaridagi muzliklarga ham etib borib, u erdagi muzliklarning erishini tezlashtirib yuborgan.

Dengiz cho'l mintaqasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bug'langan. O'tgan asrning boshlaridan suv sathi pasaya boshlangan. Masalan, 1911—1960-yillar davomida Orol dengiziga daryolardan yog'in bilan birga bir yilda, o'rtacha 65 kub, km suv kelib turgan; suv yuzasidan esa 66,10 kub, km suv bug'langan. Shunday qilib, har yili dengiz 1 kub km 50 yil davomida esa 50 kub, km suvni yo'qotgan. Suv sathi ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sug'orishga ishlatilishi tufayli keskin kamaya boshlagan. O'tgan 40 yildan ko'proq vaqt davomida Orol dengizining maydoni deyarli 4 marta, suv sathi 1,8 marta, undagi suv hajmi 9 martaga yaqin kamaydi. Dengiz suvining sho'rlanishi 9-10 g/l dan 70-84 g/l gacha ortdi. Hozirgi kunda dengiz chuqurligining kamayishi yiliga 80-110 sm ni tashkil etadi. O'tgan 40 yil mobaynida qirg'oq chizig'i 80–100 km pasaygan. Buning oqibatida 4,5 mln gektardan oshiqroq dengiz tubi ochilib qoldi. Hozirgi kunda Orol dengizi uch qismga bo'linib ketgan. Uning sayoz kichik shimoliy qismining suvi kuchsiz minerallasgan (8-13 g/l), birmuncha kattaroq sayoz sharqiy qismi ancha kuchli sho'rlangan (68-72 g/l). Yalang'och qishlog'idan 24 chaqirim janubga yursangiz, Tastubek ovuli keladi. Dengiz bu yerga 4-5 chaqirimcha yaqin qolgan. Suv sho'rli kamayib, ayrim baliqlar qaytmoqda. Baliq ortidan esa baliqchilar ham kelishmoqda. Tastubeklik Duzboy ham dengiz qurigach, Qozog'istonning boshqa hududlariga borib baliq tutgandi. Ammo ovoragarchilikdan bezib, ot, qo'y va tuya boqa boshlaydi. So'nggi yillari dengiz sho'rli pasayib, baliq paydo bo'ldi. "Qalqonbalik ko'paygach, qalbimizda yana umid uchquni miltilladi" - deydi Duzboy - "Hozir zog'orabaliq, laqqa va sudak ham bor". Nega Orol dengizi quridiyu endi qaytmoqda? Orolga quyiladigan ikki daryo - Sir va Amu suvlarini Sovet Ittifoqi qo'riq yerlarni o'zlashtirish uchun ishlata boshlaydi. Sho'rolar [Markaziy Osiyoni](#), to'g'rirog'i, O'zbekistonni ulkan paxta maydoniga aylantiradilar. O'zbekiston - hamon dunyoning yirik paxta xomashyo bazalaridan

biri. Mustaqillik davrida mamlakat paxta ekishni kamaytirdi. Lekin paxta ko'p mehnat va suv talab qiladi. Hukumat har yili yuz minglab fuqarosini paxta dalasida ishlashga majburlaydi. O'zbekiston uchun gaz va oltin qatorida paxta ham xaridori tayyor muhim mahsulotdir. Mintaqada yetishtiriladigan ekinlardan aynan paxta va sholi uchun ko'p suv sarflanadi. Markaziy Osiyoning eng sersuv daryosi bo'lmish Amudaryo esa so'nggi yillar ichida Orolga yetmay, qurib qolmoqda. Amudaryo - qadim yunon, arab va mo'g'ullarni lol qoldirgan Buyuk Oksus, hadislarda zikr etilgan jannatiy Jayxun...

Sirdaryo esa mintaqaning eng uzun daryosidir. Iskandar Zulqarnayn tezoqar Yaksartedan o'tolmaganini yozgan. Chingizxonga qarshi kurashgan Temurmalik uchun aynan Sayxun qo'l kelgan. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi maxsus shartnoma tufayli, Sirdaryo bugun Orolga, to'g'rirog'i, dengizning Qozog'iston tarafidagi kichikkina qismiga quyilmoqda. Orol qurirkan, paxtazorlardan oqib kelib, dengiz tubiga cho'kkan pestitsid va boshqa zaharli kimyoviy o'g'itlar havoga ucha boshlagan. Xullas, Markaziy Osiyoni o'z xomashyo bazasiga aylantirgan Sovet Ittifoqi shu asno Orol dengizini, uning tubidagi baliqlarni, atrofidagi tabiat va jonzotlarni xarob qilgan. Orol dengizi kichrayib, ikkiga ajraladi. Qozog'istonda mo'jazgina shimoliy Kichik Orol, janubda esa aksar O'zbekiston hududida joylashgan Katta Orol paydo bo'ladi. Janubdagi Katta Orol yanada qurib, Sharqiy va G'arbiy ko'llarga bo'linib ketadi. 2014 yil kuzida esa sun'iy yo'ldoshdan olingan suratlar asosiy qismi O'zbekistonda joylashgan Sharqiy Katta Orol butunlay qurib bitganini ko'rsatdi. Britaniyalik yozuvchi Tara Fittsjerald Orolbo'yi xalqlari haqida kitob yozmoqda. U bir necha muddat oldin endi yo'qolib, Orolqum sahrosga aylangan Katta Orol bo'yiga, O'zbekistonga borib kelgan. "Paxtazorlarda ishlatilgan pestitsid va boshqa zaharli o'g'itlar odamlar ichadigan suvga tushgan" - deydi Tara - "Qoraqalpog'istonda hatto ayollarga yosh bolasini emizmaslik tavsiya qilingan paytlar ham bo'lgan". "Dengiz o'rnidagi jonsiz sahro manzarasi achinarli, ammo uning go'zalligini ham inkor etolmaysan. O'zingni xuddi Mirrix yo Oy ustida yurgandek his qilasan kishi..."

"O'zbekiston tarafida qolgan dengiz o'ta fusunkor, feruzarang" - eslaydi Tara. "O'zbekistondagi dengiz qoldig'ida tuzlar shunchalik zichki, qo'lingni qimirlatmasang ham suv seni tepaga ko'taradi, unda cho'kmaysan, sho'r suv esa teringni chimchilay boshlaydi". "O'zbekistondagi dengiz butkul o'lik. Unda baliq ham yashamaydi" - deydi Tara - "Daryolar quyilmaydi, yog'in-sochin esa kam". Ammo shimolda, Qozog'iston tarafida dengizning mittigina qismi, Kichik Orol kengaya boshlagan. Buning ikkita sababi bor. Avvalo, Sirdaryo hozir Kichik Orolga

quyilmoqda. Ikkinchi omil esa - Kichik Orol suvini tutib turadigan to'g'on qurilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil*
2. *Ma'lumotnomalar, Geografiya, geologa. Adhamjon Mamadiyorov T-2020.*
3. *Alibekov L.A. Geografiya, geologiya, Ekologiya, O'quv va metodik qo'llanmalar*

ФИО автора: *Abdurazzoqov SHuhratbek Zafarjon o'g'li*

Andijon davlat universiteti

Umumiy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Название публикации: «O'SMIRLARDA SOG'LOM E'TIQOD SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI»

Annotatsiya: Ushbu maqola o'smirlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishning potentsial imkoniyatlari ochib berildi. O'smirlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishda o'zbek milliy-ma'naviy merosidan foydalanishning psixologik imkoniyatlari o'qituvchi uchun ham, ota-ona uchun ham ta'lim – tarbiya jarayonida keng imkoniyatlar eshigini ochib beradiki, bu o'zaro munosabatlarning samarali tizimini hosil qiladi.

Kalit so'zlar: xulq namunasi, milliy-ma'naviy meros, psixologik imkoniyatlar, ta'lim – tarbiya, ma'naviy harakat, nutqiy aloqalar, umuminsoniy qadriyat, shaxs, jamiyat.

Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni, tanlagan yo'li – kasbi-koriva e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir. Shaxs ma'naviyati uning dunyoqarashi insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui, asosan, oilada shakllanadi. Shu ma'noda yoshlar tarbiyasi hayotiy zarur masaladir. Tarbiyalash yashashga o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Farzandlarimizning turli radikal va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik – asosiy vazifamizdir. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirishimiz kerak."⁶¹ – deya ta'kidlaydi. Shuning uchun o'smirlarda sog'lom e'tiqodni rivojlantirish, ularda milliy g'ururni tarkib toptirish davlat ahamiyatiga molik masala.

Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi."⁶²Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin.

Masalaga psixologik nuqtai nazardan yondashilganda iymon ham, vatanparvarlig-u milliy g'urur ham tug'ma emasligi, ularning qanday tushuntirilishi va qanday tushunilishiga, sodda qilib aytganda, turli shakllarda amalga oshiriladigan tarbiyaga bog'liq ekanini unutmaslik shart. "E'tiqod bu - shaxsni o'z qadriyatlari tizimidan kelib chiqib harakatga qo'zg'atadigan anglangan ehtiyoj". E'tiqod ishonch bilan qarash, til va dil bilan iqror qilish shaklida ham talqin qilindi. Qur'onda: "Inson mukarram zot" degan oyat bor. Uni to'laligicha keltiradigan bo'lsak, u shundaydir. "Biz inson zotini mukarram qilib yaratdik va uni yer yuzida, suvda pok narsalardan rizqlantirdik, yerda,

⁶¹ "Niyatiulug' xalqningishi ham ulug', hayotiyorug' kelajagifarovonbo'ladi".«3» «O'zbekiston ». NMIU, 2019. 34 bet.

⁶²"Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' kelajagi farovon bo'ladi".«3» «O'zbekiston ». NMIU, 2019. 34 bet.

suvda yuradigan qilib vaqtlarini yaratib berdik va o‘zimiz ham qilgan ko‘pgina narsalarimizdan afzal qilib qo‘ydik.”⁶³

E’tiqod (arabcha - ishonch, iymon, amin bo‘lish) - inson faoliyati uchun ma’naviy asos, yo‘l-yo‘riq va mo‘ljal bo‘lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilimlar, g‘oya va tasavvurlar ifodasi bo‘lgan tushuncha. E’tiqod insonning voyaga yetishi jarayonida shakllanadi. Bilim va g‘oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o‘zlashtirib olingandagina e’tiqodga aylanadi.

Sog‘lom e’tiqod tarbiyasi, eng avvalo, ota-onalarda, o‘qituvchi-tarbiyachilarda sog‘lom e’tiqodni shakllantirishdan boshlanadi.

Bugungi kunda islom omiliga nisbatan jahon hamjamiyatining qiziqishi katta. “Ilm ham, imon ham maqsad emas, balki, vositadir. Unday bo‘lsa, maqsad nima? Dunyodagi jamiki narsalar insonga qurbon, hammaning yuzi Ka’baga o‘girilgan. Ka’bani olib qo‘ysak, ma’lum bo‘ladikim, insonlar bir-birlarining qalbiga sig‘inurlar. Birining qalbi boshqalar uchun sajdagohdir.”⁶⁴

O‘zbekistonda psixologiya sohasida kechayotgan islohotlar samaradorligini ko‘zlangan darajaga ko‘tarishda din va e’tiqod erkinligining o‘rni hamda bu boradagi muammolar yechimini tizimli o‘rganish ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. .

Bugungi kunda, nafaqat, alohida mamlakat yoki mintaqani, balki bugun jahon hamjamiyatni tashvishga solayotgan muammolardan biri diniy ekstremizm va uning milliy mintaqaviy havfsizlikka tahdidi masalasidir. Globallashayotgan dunyoda diniy ekstremizm muammosi ham transmilliy, transchegaraviy xarakter kasb etayotgani va keskinlashayotgani hech kimga sir emas. Ammo ba’zi mintaqalar, jumladan, aholisining ko‘pchiligini asosan musulmonlar tashkil qiladigan hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida siyosiy ijtimoiy mafkuraviy ma’naviy tub o‘zgarishlarni boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mintaqasi uchun bu muammo ayniqsa dolzarbdir

Shu o‘rinda o‘smirlik davriga to‘xtalib o‘tsak. Yosh davrlari ichida o‘smirlik davri shaxs hayotida tub burilishni yasaydigan davrdir. Bu yoshda o‘smirda har tomonlama ham ruhiy, ham ma’naviy anatoma-fiziologik o‘zgarishlar, keskin rivojlanish kuzatiladigan davrdir. O‘smir o‘zidagi bu o‘zgarishlarni niqoblashga urinadi. Uning nazdida atrofdagilar uning faqat shu tomonlarini ko‘rayotgandek tuyuladi. Shuning uchun bu yoshni o‘tish davri sensor davrlari deb yuritiladi.

O‘smirlarda yuzaga kelgan qon tomirlardagi o‘zgarishlar tabiiyki ruhiy o‘zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Bunga ulardagi asabiylik tajanglik bunga misoldir. Bu o‘smir bilan munosabatga kirishuvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari olimlar tomonidan o‘smirlik davri uch qismga bo‘linadi. Yana R.Kullening fikricha agar bola o‘z oldiga yuqorida ko‘rsatilgan probletallarni, sifatlarni ham qo‘ymas ekan necha yil yashaganidan qat’iy nazar bu bola bolalik davrida bo‘ladi. Shuning uchun bu sifatlarni ma’lum darajada zaruriy holatdir. Bu biologik jarayondir. O‘smirlik davri hammada turlicha o‘tadi. O‘smirlarda o‘zini anglash yangi bosqichga ko‘tarilgach, ular o‘ziga hos ahloqiy na’munani tanlaydilar. O‘quvchi o‘ziga namuna bo‘lgan shaxsning hulq atvori bilan o‘zining xatti-harakatini solishtiradi va o‘zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadi. O‘smir o‘zini-o‘zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilm ishtirokchilaridan o‘rnak olib goh ularga taqlid qilib butun iroda kuchi va xarakter xislatlarini ishga solib har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo‘lda uchraydigan to‘siq hamda qiyinchiliklarni yengadi. O‘smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat voyaga yetish

⁶³ A. Avloniy. turkiy guliston yohud axloq. T. O‘qituvchi. 18-19-betlar.

⁶⁴ Yaxshilikurug‘lari. Sharqallomalaribisotidan. Farg‘ona. 1991 yil. 34-bet.

yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy axloqiy sohada aqliy faoliyatda qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida xulq atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda asabga tegadigan rahbarlikdan, o'rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amho'rlikdan xoli bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon, o'z navbatida, kattalar bilan munosabat va muloqatda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi anglashilmovchilik g'ovini yo'qotadi. Sir emaski, bugungi kunda o'smirlar orasida sotsial xulqning ko'rinishlariga ko'plab duch kelmoqdamiz. Sog'lom e'tiqod esa anashunday ko'ngilsizliklarni oldini oladi. Bu holatni V.I.Karimova va B.Umarovlar ham o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tganlar. Bu tadqiqotlarda O'smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari kabi dolzarb masalalarga to'xtalib o'tiladi. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, sog'lom e'tiqodni shakllantirish bugungi kundagi psixologika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shu ma'noda O.Musulmonovning tadqiqoti katta e'tiborga molik. Olima o'smirlar ma'naviy madaniyatini shakllantirish borasidagi qator psixologik muammolarni yechishga harakat qiladi.

Ota-onalarning o'smirlar ruhiyatini yaxshi bilmasligi oilada o'z farzandlarini erkalatib o'stirishlari hamda ularni haddan tashqari asrab avaylab ardoqlashi oilada bola hulqini buzilishiga olib keladigan omillardandir.

Bunday tarbiyalangan bolalar va o'smirlarda xulq o'zgarishi ko'rinishlari tez shakllanib mustaqil fikr yuritish va moslanuvchanlik qobiliyatlari yaxshi rivojlanmaganligi tufayli ular unchalik murakkab bo'lmagan oddiy nizoli vaziyatlardayoq o'zlarini yo'qotib qo'yadi.

“Shaxsning ichki ma'naviy dunyosi ma'naviy ehtyoj, ma'naviy qiziqish va faoliyat, ma'naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iboratdir.”⁶⁵

Haqiqatdan ham tadqiqotchi qayd etgani kabi shaxsning axloqiy ma'naviy qarashlari tasavvurlari fan, adabiyot, san'at, maorif, din kabi vositalar orqali tarbiyalanadi.

Zero, ana shu tarbiyaviy vositalar yordamida insonda ma'naviy axloqiy ehtiyojlar tug'iladi va bevosita unga intilish asosida ma'lum maqsadlarga intilishlar yuzaga keladi. Yuqorida qayd etilgan ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki hozirgi kunda oilaviy sharoitni va oilada o'smir tarbiyasiga munosabatni turli toifaga bo'lib o'rganish mumkin.

Masalan, ijtimoiy ilg'or oilalarda tarbiya olayotgan o'smirlarda sog'lom e'tiqodning shakllanganlik darajasi ancha yuqori. Buning aksini ham ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Maktab muqaddas maskan. Bu maskanda inson ta'lim olish bilan birga tarbiya ham oladi. Aslida bu ikki tushinchani bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bu ish dialektik birlikda olib boriladi va amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida axloqiy tarbiya zamirida sog'lom e'tiqodni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Xalq ta'limi tizimida o'qitish o'quvchilarni axloqiy mukammallashtirish bilan bog'lab olib boriladi. Buning natijasida o'quvchilar axloq odob xulq atvor to'g'risida bilimga ega bo'ladilar. Zero, insonning ma'naviyati uning odobi xulqi madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy axloqiy huquqiy iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib boyib borishga olib keladi.

⁶⁵G.B.Shoumarov. “Muhabbat va oila”.T. Ibn Sino. 1994 yil 47-bet.

Mana shunday ijobiy sifatlarning kamol topishida maktab yetakchi bo'g'in hisoblanadi. Sog'lom e'tiqodga doir tushunchalar ilk darsdan boshlab ta'lim bilan birga olib boriladi. Hozirda sog'lom e'tiqodni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki bu bilan yosh o'smirlarda vatanparvarlik ongli intizom mehnatga, atrofdagi kishilarga axloqiy munosabatlarni shakllantiradi. Demak, sog'lom turmush tarzini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etar ekan uni to'g'ri va tushunarli holda berish lozim. Buning uchun avvalo o'qituvchilar diniy bilimga ega bo'lishlari lozim. Ayniqsa boshlang'ich sinfda sog'lom e'tiqodga doir tushunchalar berib borilishi maqsadga muvofiq.

Zero ko'pgina shaxsiy xususiyatlar mana shu davrda paydo bo'lib rivojlanadi. Shunday ekan, bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari o'qituvchilar qo'lida. Avvalo, o'qituvchi bolalarni ahillikka bir-birlari bilan inoq intizomli bo'lishga hamda hamjihatlikka o'rgatmog'i lozim. Chunki ilk damlardan oq ahillik, inoqlik, intizomlilik, hamjihatlikni o'rgangan bolalar kelajakda ham shunga intiladilar. Bu, o'z navbatida, sog'lom e'tiqodni shakllanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi va jamiyat uchun ham yutuq hisoblanadi. Buyuk nemis pedagogi A.V.Disterberg aytganidek yaxshi o'qita bilgan o'qituvchi yaxshi tarbiyalaydi ham. Bu o'qituvchilarning sog'lom e'tiqodni shakllantirishda muhim o'rin egallashini bildiradi. Xususan, ko'pgina o'smirlar o'z ustozlarining yurish-turishi, o'zini tutishi kabi holatlariga taqlid qiladilar. Shuning uchun, avvalo o'qituvchining o'zi ahloqli sog'lom e'tiqodli bo'lishi lozim. Demak, aytish mumkinki, sog'lom e'tiqodni shakllantirishning eng birinchi usuli, o'qituvchining sog'lom e'tiqodliligiga bog'liq.

Maktabda tarbiyaviy ishlar rejali va tartibli, hamjihatlik bilan amalga oshirilgan taqdiridagina sog'lom e'tiqodni shakllantirishning muvaffaqiyati ta'minlanadi. O'smirlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishda "Tarbiya", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" va tarbiyaviy soat darslari saviyasini oshirmoq lozim. Eng avval tarbiyaviy soat haqida gapiradigan bo'lsak, bu dars shunchaki suhbat yoki kundalik daftarini tekshirish bilan o'tkazilishi kerak emas. Bu darsning nomidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu tarbiya soati, bunda faqat tarbiya to'g'risida va diniy tushunchalar, diniy yangiliklar, shuningdek, o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berib borilishi lozim. Shuningdek, sinf rahbari tarbiyaviy soatda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini olib borsin, o'quvchilarga halollik, adolat, e'tiqod haqidagi ma'naviy-axloqiy milliy tushunchalarning, bilimlarning, ma'lumotlarning, ko'nikma va odatlarning tarkib topishiga zamin yaratadi. "Odobnoma", "Tarbiya", "Тарихга keladigan bo'lsak, bu darslar ham maktablarda yuqori saviyada o'tilmayapti desak, xato bo'lmaydi. Chunki bu darslar ham quruq suhbat bilan cheklanmoqda. Bu darslar o'quvchilarning sog'lom e'tiqodi uchun juda muhim hisoblangani uchun, soatlarini oshirish lozim. Darsning saviyasini oshirish uchun malakali o'qituvchilarni jalb etmoq maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dars jarayonida interaktiv metodikalardan, fan-texnologiya yutuqlaridan keng ko'lamda foydalanilsa, dars keng ma'noda zamon talablariga javob beradi. Bunda mavzuga doir turli lavhalardan, videofilmlardan, xujjatli filmlar, buyuk insonlarning hayot faoliyatiga oid filmlar ko'rsatilsa, o'quvchilarning e'tiqodi mustahkamlanadi va o'zini qiziqtirgan savollarga jonli tarzda javob oladi. Natijada har xil oqimlarga kirib ketish hollariga ancha chek qo'yiladi. Chunki bugungi kunda axborot ko'lamining kengligi shuni taqozo etadi.

O'smirlarda sog'lom e'tiqodni rivojlantirish orqali uning psixologik imkoniyatlarini nafaqat dars jarayonida, balki, darsdan tashqari tarbiyaviy jarayon bilan uzviy ravishda olib borish ayni maqsadga muvofiqdir. Bunda tanlab olinishi kerak bo'lgan metodikalar, usullar o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi aloqalar orqali oydinlashadi. Ya'ni, o'qituvchining tanlab olib qo'llashi kerak bo'lgan metodikalari ota-ona tomonidan bolaga nisbatan qo'llaydigan metodikaga mos bo'lishi, bir-birini to'ldirishi lozim. Bu o'z navbatida ota-ona bilan o'qituvchi o'rtasida hamisha uzviy aloqa bo'lishini taqozo etadi va ta'minlaydi.

Dars jarayonida e'tiqod tushunchasini, ma'naviyat va ma'rifatning uyg'unligini sharhlab o'rganish o'quvchilarda ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muhim usul hisoblanadi. Bu usul o'quvchiga o'rganiladigan mazmunini chuqur o'zlashtirishga yordam berish bilan bir qatorda, o'quvchi ko'z o'ngida o'tmish ajdodlarning milliy madaniyatini to'liq gavdalantirishga xizmat qiladi. Biz olib borgan tajribalar natijasi dars jarayonida o'quvchining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning quyidagi tizimini aniqlash imkonini berdi:

O'smirlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishning psixologik asoslarini o'rganishga ijodiy munosabat, faollik, o'tmish adabiyoti, tarixi, urf-odatlar, san'ati, an'analarining mohiyatini puxta o'rganish asosida ma'naviy ehtiyoj, talabni qondirish, qiziqishni o'stirish mustaqil ishlar orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ishlar o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining uzviy bog'langan tomonlaridir. Mustaqil ishda o'quvchi o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtai nazari, qarashlarini shakllantiradi, dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi. Qolaversa, o'quvchilar do'stlik munosabatiga asoslangan jamoaviy faollikka erishadi. Bunda o'qituvchi va otana, jamoat tashkilotlarining hamkorligi asosiy tayanch vazifasini o'taydi. O'quvchilarni asoratiqalarga sayohatlarga olib borish ham samarali natija beradi.

Tarbiya va Milliy istiqlol g'oyasi darslarini o'qitish jarayonida amalga oshiriladigan mustaqil ishlar og'zaki (savollarga og'zaki javob tayyorlash, islom diniga oid, ya'ni kishilar uchun ham farz, ham qarz bo'lgan payg'ambarlar o'gitlarini, yozib qoldirgan hikmatlarini yodlash va mazmunini tahlil etish, asardan ma'lum parchalar o'qish va hikoya qilish, darslik bilan ishlash, mavzuga mos hayotiy misollar topish va so'zlab berish va h.k.) va yozma (o'qituvchi qo'ygan savollarga yozma javob topish, jadval, diagramma, rasmlar chizish, ma'ruza, referat, tezis, konspekt tayyorlash, ijodiy insho yozish, kartochkalarga yozma javob berish, avlodlar shajarasini tuzish va h.k.) shaklda amalga oshiriladi. Yuqoridagi jarayonga tizimli yondashsak, o'quvchilarni faollashtiribgina qolmay, ularda milliy ongini o'stirishga, milliy gu'rurli va o'zligini anglagan yoshlar bo'lib voyaga yetishlarini ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Hozirgi kunda G'arb dunyosida erkinlikni niqob qilib olgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy an'analarimizni, balki barcha xalqlar uchun qadrlil bo'lgan insoniylik aqidalariga to'g'ri kelmaydigan turli buzg'inchilarni ommaviy axborot vositalari, internet orqali ochiqdan-ochiq targ'ib etganini barchamiz guvohi bo'lib turibmiz. Bizga tahdid solayotgan mafkuralarning maqsad, vosita, usullari ham kuchli moliyaviy ta'minlangan puxta, ilmiy-texnologik asosda olib borilmoqda. Bu jihatdan ularning targ'iboti oldingi mafkuraviy kurash usullariga o'xshaydi. Faqat g'oya, maqsad o'zgargan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oilada tarbiyadagi asosiy mas'uliyat ona zimmasida bo'ladi. Shuning uchun, onaning islomiy tarbiya olganligi, sog'lom e'tiqodligi farzandlar tarbiyasi uchun, o'smirlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirish uchun suv va havodek zarurdir. O'smirlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishda milliy va ma'naviy qadryatlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Tarbiya masalasiga jiddiy yondashib, uning barcha mos turlarini integratsiyalash, ota-onalarning tajribasi va hamkorlik madaniyatidan unumli foydalanishlari, diniy bilimlarga egaligi o'smirlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O'smirlarimizni shaxs sifatida tan olib bilsak, ular yuqori cho'qqilarni albatta zabt etadilar.

Zero, o'smirning o'qishi jamoat ishida ishtiroki va xulqi-atvori, yurish-turishi va xatti-harakati birgalikda olib qaralgandagina o'smir shaxsiga har tomonlama yondashilgan bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'smirni shaxs sifatida tan olish juda muhimdir. Masalan: Bendjamin Spok "shaxs "yo'q" degan so'zdan boshlanadi" deb aytgan edi. Boshqa bir olim - "shaxs o'zidan tashqarida taassurot qoldirish qobiliyatiga ega ekanligini tan olishidir", deydi. Yana biri, "mening

o‘z mehnatiga tarixiy madaniyat nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, u holda men fikrlayman, demak, men insonman”, deydi.

Yoshlarni sog‘lom e‘tiqodli qilib tarbiyalash vazifasi hamma davrlarda jamoatchilik diqqat markazida bo‘lib, u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni hohlar ekanmiz, bu borada to‘plagan tajribamizga murojaat qilishimiz shart.

Ajdodlarimiz e‘tiqod tarbiyasining negizi sifatida ahloqiy uchlik: o‘y, niyat-so‘z-ish birligini yaratishgan. Misol uchun “Avesto” dagi shunday fikrlar, ya‘ni ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etilgani bizning bugungi ma‘naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e‘tiborlidir.

Demak, o‘smirlarda sog‘lom e‘tiqodni shakllantirish ta‘lim muassasalarida tarbiya yo‘nalishlarini psixologik asoslarini yaratilishi, davr talabidan kelib chiqib, g‘oyaviy tarbiyaning barcha imkoniyatlaridan to‘la foydalanishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Amir Temur o‘g‘itlari. T. Navro‘z. 1992, 64-bet.
2. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T. “Fan”, 1992, 160-bet.
3. O.Bo‘riyev. Oila va yangi an‘analar. T. “O‘qituvchi”, 1988, 16-bet.
4. O.Musurmonova. O‘quvchilarning ma‘naviy madaniyatini shakllantirish. T. “Fan” 1993, 102-bet.
5. G.Mardonova. Nur to‘la uy. T. “Mehnat”, 1992, 86-bet.
6. T.Javliyev. An‘analar – hayot sabog‘i. T. “O‘zbekiston”, 1992, 90-bet.
7. M.Inomova. Oilada bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash. T. 1999 yil.
8. I.Mirziyotov. Diniy bag‘rikenglik va ma‘rifat. Hidoyat , T. 2001, 18-bet.
9. Axloq – odobga oid hadis namunalari. T. “Fan”, 2008, 170-bet.

ФИО автора: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat

Pedagogika universiteti talabasi

Muhiddinova M.N.

Название публикации: «МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARDA QO'RQUVNING YUZAGA KELISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK OMILLARI»

Аннотация: Insonning ruhiy holatiga ijtimoiy omillar ta'sir etmasdan qolmaydi. Shu o'rinda bolada qo'rquvning namoyon bo'lishi ham tashqi ijtimoiy ta'sirlar orqali sodir boladi. Bolaning normadan ortiq qo'rquvga tushishi turli xil stressli vaziyatlarni va kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Go'dakning qo'rquv holati o'z o'zidan jur'atsizlikni yuzaga keltiradi. Chunki bunda bolakayning irodasi susayib, o'ziga nisbatan ishonch yo'qoladi. Farzandlarimizni qo'qitib yoki unga dag'dag'a qilib emas, yaxshi muomala va shirin so'zlar bilan yo'lga solishimiz kerak. Unutmaylikki qo'rquq bola jur'atsiz bo'lib, biror maqsad yo'lida kurashishga o'zida kuch topa olmaydi. Qo'rquv hissi asoratlari keyinchalik bolaga aziyat yetkazmasligi uchun uni salbiy voqea-hodisalar asrab yashamog'imiz kerak

Калит so'zlar: ruhiy holat, ijtimoiy omil, o'lim qo'rquvi, ijtimoiy qo'rquv, jismoniy zo'riqish, giporopeya, nevroz, stress.

Аннотации: Социальные факторы не остаются незамеченными в психическом состоянии человека. При этом проявление страха у ребенка также происходит через внешние социальные воздействия. Чрезмерный страх у ребенка может привести к самым разным стрессовым ситуациям и болезням. Состояние страха ребенка обречено на провал. Потому что в этом случае у ребенка ослабевает воля и теряется уверенность в себе. Нам нужно воспитывать наших детей хорошими манерами и ласковыми словами, не запугивая их и не угрожая им. Не будем забывать, что трусливый ребенок робок и не может найти в себе сил бороться за цель. Мы должны ограждать ребенка от отрицательных эмоций и ситуаций, для того чтобы чувство страха не сказывалось на нем в последующем.

Ключевые слова: настроение, социальный фактор, страх смерти, социальный страх, физическое напряжение, гипоропия, невроз, стресс.

Annotation: Social factors may effect people's spiritual position. Also fear in children appears by social influences. Extremely extra fear of children may be cause different stresses and illnesses. Children's horror brings to be indecision, because children lose their determination and belief and this factor. That's why we should show the way them with polite instead of fighting.

We should not to forget that fearful child can not find power for achieving and obtaining something in life. We should save them from accidents and negative situations in order not to be fearful.

Key words: mood, social factor, fear of death, social fear, physical stress, hyporopia, neurosis, stress.

Shaxsning ruhiy kamoloti masalasi barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu jumladan shaxs psixoemotsional holatida muhim ahamiyatga ega. Statistik tadqiqot natijalariga ko'ra 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning 43%i ko'plab qo'rquv va hissiyotlarni boshdan kechirmoqda. O'rta o'smirlik davriga kelib qo'rquv kamaymasa, ular ko'payib bu qo'rquvlar kuchli doimiy stresslarga, uning natijasida fobiya va obsesif qo'rquvlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bolada qo'rquvning oldini olish, uning kelib chiqish sabablari o'rganish zarur. Ayniqsa bunda ota-onalarning o'rni muhim.

Bola dunyoga kelganda u uchun hamma narsa no'malum bo'ladi. U nima yaxshi-yu nima yomonligini hali anglay olmaydi. Shu sababli hali ongida bu narsa zararli degan tushuncha shakllanmaganligi bois bolada qo'rquv bo'lmaydi. Shunday ekan bolalarda qo'rquv qay yo'sinda namoyon bo'ladi?

Bola dunyoni organishga kirishganda uning ota-onasi va yaqinlari bunga yordam beradi. Bolaga nima yaxshi ekanligini aniqlash qiyin. Ba'zan biz uchun odatiy narslar bolada yoqimsiz hislarni paydo qilishi va qo'rquvga olib kelishi mumkin.

Bolada asosan qo'rquvning ilk shakllari og'riqli vaziyatlar orqali hosil boladi. Masalan, bola issiq choynakka qo'lini tekkizib oldi. Buning oqibatida bolada issiq yuzadan qo'rqish hissi paydo boladi.

Ko'pincha ota-onalar o'zlari bolalarda qo'rquv hissini shakllantirib qo'yadilar. Ular turli xil ertak qahramonlari, tish doktori va boshqalar bilan bolasini qo'rqitadi. Buning natijasida bolada ularni ko'rmasdan turib qo'rquv shakllanadi. Ko'pgina bolalarda buning oqibatida xonada yo'lg'iz qolish va qorong'ulikdan qo'rqish kabi salbiy qo'rquv hissiga olib kelishi mumkin.

Shunga ko'ra bolarda qo'rquv turlari ham turlicha bo'ladi.

► Ijtimoiy qo'rquv asosan ota-onalar, boshqa odamlar yoki xayolot bolalarda qo'rquvni yuzaga keltiradi. Ya'ni dunyoni endi anglayotgan bola ota-onaning, yaqinlarining so'zlar orqali borliqni tasavvur qiladi.

Shunday ekan “doktor amakiga aytaman, ukol qilib qoyadi”, “o'qituvching urushib beradi”, “militsiya olib ketadi”, degan nato'gri tushunchalar orqali bolada ularga nisbatan ijtimoiy qo'rquvni shakllantirib qo'yamiz.

► Yopiq qo'rquv -bu bolaning psixik holati bilan bog'liq. Yopiq qo'rquv asosan tarbiyasida kamchilik bor, oilasida muhit beqarorligi bor bolalarda uchraydi, ya'ni bunday bolalar e'tibordan chetda bo'lishadi. Shu sababli ular qorong'u xona va yopiq joydan qo'rqishadi. Bu albatta bolani stresli vaziyatga tushurib qo'yishi mumkin. Buning oqibatida bolada ishonchsizlik, havfsirash, atrofga gumon ko'zi bilan qarash, xavotir yuzaga kelishi mumkin. Chunki bolalarning fantaziyasi keng va chegarasiz. Shuning uchun ham oddiy narsalar ularga qo'rqinchili bo'lib ko'rinishi mumkin.

Albatta qo'rquvni yengishda ko'p narsa ota-onaga bog'liq. Katta yoshdagilarga ularning qo'rquv qanchalik oddiy va kulgili tuyulmasin ular bunga jiddiy qarashi lozim. Shunda salbiy oqibatlarni oldin olish mumkin.

► Yaqin insonini yo'qotish qo'rquvi. Bola dunyoga kelganida tashqi olam bilan ota-onasi, yaqinlari tanishtiradi. Ya'ni bola olamni ular orqali idrok qiladi. Buning ilk ko'rinishlari bola yolg'iz qolganida yig'laydi, baqiradi. Chunki unda yaqin atrofdagi

g'amxo'rlikni yo'qolishi ajralish qo'rquvi sodir bo'ladi. Bolalar o'z ota-onasini o'lmaydi deb o'ylashadi. Ammo ertaklarda o'lim haqida eshitishadi. Ko'chada qandaydir kapalakning o'lganini ko'radi va unda o'lim qorquvi yaqinlardan ajralish qo'rquvning boshqa shakllari namoyon boladi.

► Jismoniy zarar yetishidan qo'rquv. Bola tashqi olamni anglashda, albatta, ota-onaning gap-so'zi, hukmi muhim ahamiyat kasb etadi. Bola nima yaxshiy-u nima yomonligini shu yo'sinda anglay boshlaydi.

Masalan: "to'xtang, yiqilasiz", "ushlamang, kuyasiz", "it bilan o'ynamang, u sizni qopadi", "suvga tushmang, cho'kasiz" kabi. Natijada bolada shunday tushuncha hosil bo'ladi va bu narsa bola uchun qo'rquvchi hisoblana boshlaydi.

Bunday holatlar bolada qo'rquvning namoyon bolishiga tabiiy hol bo'lishi mumkin. Lekin ayrim oilalarda bu qo'rquvning haddan oshiq shakllanish natijasida oddiy jismoniy zuriqishlarga nisbatan ham ularda yuqori qo'rquv ko'rsatkichi namoyon bo'lishi mumkin. Ammo ota-onalarimiz shuni bilishlari kerakki qo'rquvni shakllantirish, oson lekin uni yo'qotish va yengish qiyin kechadi.

Bolalarda qo'rquvni kelib chiqish sabablari.

► Gieropiya-bu bolaning ota-ona tomonidan haddan tashqari nazoratga olinishi natijasida kelib chiqadi. Katta hayotga o'zi qadam qo'yishga qo'rqadi. O'ziga nisbatan ishonchsizlik va o'zini himoyasiz his qiladi.

► Ota-ona e'tiborining yetishmasligi-bu ayrim zamonaviy oilalarda ota-onaning bolaga kam vaqt ajratishi, uning moddiy ehtiyojlarini qondirgan bo'lsada, e'tiborsizlik oqibatida unda surunkali tashvish, befarqlik, loqaydlik va qo'rquv shakllanadi.

► Oilada muhitning beqarorligi. Oila a'zolari o'rtasidagi nizolar, janjallar bolaning ko'z o'ngida yuz berishi oilada psixologik muhitning buzulganligi bolada qo'rquv, havotirlanish va xavfsirashni keltirib chiqaradi.

► Bolada nevrozning mavjudligi qoʻrquv kelib chiqishining bosh sababi boʻlishi mumkin. Chunki nevroz darajasi yetgan bolada patologik qoʻrquv shakllari namoyon boʻladi. Buni albatta ota-ona shifokorlar bilan birgalikda nazoratga olish lozim.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda ,bolada qoʻrquvning namoyon boʻlishi, shakllanishiga har bir ota-onalar eʼtibor berishlari lozim. Qoʻrquvning oldini olish ,uni yengish chora tadbirlarini bilishi kerak. Albatta,bu bolaning psixoemotsional sohasiga taʼsir etmasdan qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. Психология мотивации и эмоций / Под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер и М.В. Фаликман. – М.: ЧеРо, 2006.

2. Психология эмоций: учеб. пособие для студентов вузов / авт.-сост. В. Вилюнас. – СПб.: Питер, 2007.

ФИО автора: *Qirjgitova Xumora Mirsalovna*

Samarqand olimpia zaxiralari kolleji ingliz tili o'qituvchisi

Название публикации: «INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNI QO'LLASH»

Аннотация: Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda innovatsion metodlarni qo'llash haqida ma'lumotlar berilgan. Ta'limdagi innovatsion faoliyatni olib borishning ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan.

Калит so'zlar: innovatsion metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik, axborot texnologiyalari, o'quv jarayonlar, O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori.

Аннотация В данной статье представлена информация об использовании инновационных методов в обучении иностранным языкам. Существует краткий обзор важности инноваций в образовании.

This classification is nearly the same as the definition of the term “authentic materials” given by A.Savinova who identifies the authentic texts as the texts that are taken from the communicative practice of the native speakers. She subdivided two types of authentic texts, performed by diverse genre forms:

- Functional authentic materials that do the instructional, explanatory, advertising and warning functions (direction cards, road signs, schemes, diagrams, pictures etc.)

- Informative authentic materials that do the informational function which consists of updated data (articles, interviews, the readers’ letters to the publishing centers, advertisements, explanations to the graphics, comments, etc.)

According to Sam the text that wasn’t firstly devoted to learning goals and was written for the native speakers by the native speakers themselves is considered to be authentic. As our specialists say the authentic materials are the texts or other resources made by the native speakers for themselves; that is all the original materials with no adaptation features.

The important thing to start with is to narrow down the meaning of authentic materials. Yes, it is obviously a worthwhile thing for the students to have meaningful experiences in the classroom, to make language learning an educational process of self-development and discovery as well as the learning of a language tool. But this has little or nothing to do with authentic materials. For using authentic materials simply means using examples of language produced by native speakers for some real purpose of their own rather than using language produced and designed solely for the classroom. Anybody who takes into the classroom a newspaper article, an advertisement, a pop song, a strip cartoon, or even a bus ticket, is using authentic materials. Teachers have

always introduced such realia into their classrooms, and always will. The question really is whether it is helpful to their students. Sources for Authentic Materials:

•*Newspapers and Magazines.*

•*Radio.*

•*Television/Video.*

•*Internet.*

•*Authentic texts, story books.*

Example of Authentic Materials:

Spoken: TV commercials, films, news items, weather forecasts, airport and station announcement, radio talks, interviews, and debates.

Written: recipes, articles, train timetables, advertisements, brochures, poems, application forms, and instruction for use of equipment.

Using authentic materials is one of the mainstays of an imaginative and motivating higher level course, but rarely features at levels lower than intermediate. There are several reasons for this, primarily a kind of fear that students will panic faced with language that is largely unfamiliar. This is an unnecessary fear, as using the authentic materials can be rewarding and stimulating for both teachers and students.

Authentic materials are different to the usual formal learning materials in that they may be more relevant, visually stimulating and target different learning styles. As a result these materials can make lessons more interesting, motivating and memorable for learners.

The list of used literature:

1.N.A.Savinova “Аутентичные материалы как составная часть формирования коммуникативной компетенции”. Tomsk, 2006

2.SamShepherd “Using authentic materials”.NewZealand, April, 2004

3. Ferit Kilickaya “Authentic Materials and Cultural Content of Classrooms”. Turkey, 2004

ФИО автора: *Soliboyeva Nigora Odilbekovna,*

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani, 8-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Название публикации: «MILLIY TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISH VA MODERNIZATSIYALASH MAMLAKAT TARAQQIYOTINING GAROVIDIR»

Tayanch so'zlar: jamiyat, taraqqiyoti, islohot, modernizatsiya, konsepsiya, ta'lim muassasasi, xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, barkamollik, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Ключевые слова: общество, развитие, реформа, модернизация, концепция, образовательное учреждение, развитие системы народного образования, компетентность, информационно-коммуникационная система, внедрение педагогических технологий.

Key words: society, development, reform, modernization, concept, educational institution, development of the public education system, competence, information and communication system, introduction of pedagogical technologies.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida demokratik xuquqiy jamiyat yaratish borasida keng ko'lamli islohatlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan islohatlarda muximi bu ta'lim soxasidagi o'zgarish va yangilanishlardir.

Xozirgi kunda insoniyat jamiyati taraqqiyoti shuni ko'rsatmoqdagi qaysi mamlakat ta'lim-tarbiya sohasiga katta e'tibor qaratar ekan, ushbu mamlakatning kelajakda jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Global o'zgarishlar davrida ta'lim tarbiyaga extiyoj ortib boradi. Chunki xayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar xayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jixatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiyanin «sovetcha» modeli o'rniga yangi, hozirgi zamonda ushbu sohada dunyo miqyosida erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan xolda ta'limni amalga orishga, ta'lim sohasiga yangi innovatsilarni joriy etishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda.

Hozirda yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi, «Milliy dastur» ishlab chiqildi. Unga ko'ra yangicha dunyoqarash, g'oya va mafkuralar xilmaxilligiga asoslangani shaxsning ta'lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuv madaniyatiga ega bo'lgan, yangi avlod kadrlarni tayyorlash ta'lim – tarbiya soxasida muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratildi:

- ta'lim –tarbiyani tubdan isloh etish va modernizatsiyalash;

-pedagog-o'qituvchilarni pedagogik jarayondagi asosiy vazifalarini o'zgartirish.

- tinglovchi yoshlarning oldiga muxim vazifa belgilanadi, ya'ni kerakli bilimlar mustaqil ishlash va qidirib topish, axborot to'plash va ularni ishlata bilishlarini rivojlantirishdir. Mazkur masala va vazifalarni amalga oshirish orqali milliy t'lim tizimi yaratildi.

Umuman olganda glaballashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayoni zamon ko'yayotgan talablarga javob berishi, undan orkada kolmasligi muxim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda xalq qituvchi ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasidagi yutuqlar tarakkiyotning kaliti bo'lsa , tarbiya sohasidagi o'ziga xoslik O'zbekistonni mustakil tarakkiyot yo'lida rivojlanishini kafolatlab beradi.

Mamlakatimizda 2017 yil tarakkiyotning yangi bosqichga o'tdi. Bu esa olib borilayotgan islohatlarning xam jadallashtirishni talab etadi. Ushbu talabdan kelib chiqib ta'lim-tarbiya sohasida xam yangicha yondashuvlar, modernizatsiyalash va integratsiya jarayonlarini amalga oshirilmoqda. Xozirgi kunda ta'limda amalga oshirishimish zarur bo'lgan vazifalarni Xurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kabul qilinganligini 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda —Xozirgi davrda yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash muximdir. Bu borada farzanlarimiz uchun zarur sharoitlarni yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya , madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlangan ishlarimizni yangi yuksak bosqichga ko'taramiz. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz|| deb alohida ta'kidlab belgilab bergan.

Mazkur belgilab berilgan vazifadan kelib chiqib mamlakatimiz ta'lim tizimi 2017 yilda davlat tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan tanqidiy o'rganildi. O'rganish natijasiga ko'ra bir qator ishlarni amalga oshirishga qaratish kerakligiga xulosa qilindi. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasida, umuta'lim maktablari, litsey va kasb-xunar kollejlari xamda oliy o'quv yurtlarida o'qitishning sifati, Kasb-xunar kollejlarini oqilona joylashtirish , oliy o'quv yurtlarini ilm-fanni rivojlantirish va nixoyat kitoblarni chop etish va tarqatish mavjud mummolar mavjudligi aniqlandi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda shu kungacha Prezidentimiz va davlat xukumati tomonidan yuzdan ortiq farmon va

qarorlar qabul qilindiki , ushbu qonun xujjalari jadallik bilan ta'limni barcha bo'g'inlarining faoliyatini sifati jixatdan yangi bosqichga ko'tarishni belgilab beradi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son —Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti to'g'isidagi 187-sonli qaroridir. Ushbu Davlat ta'lim standartining xalq ta'limi tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini maqsadini, ya'ni— umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat belgilab beradi.

Shu bilan birgalikda Xalq ta'limini kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi yana bir muhim xujjat bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi" PF-5712son Farmoni .

Mazkur Kontsepsiyaning strategik maqsadlari;

1. Umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish;

2. Inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish.

Istiqbolda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarga;

-ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

- iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish:

- o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

- o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni ta'minlash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishi:

- imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash:

- innovatsion iqtisodiyot sharoitida yoshlarni tarbiyalash hamda ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy metodlari va yo'nalishlarini keng joriy etish:

- xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish: - xalq ta'limi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmini yaratish:

- xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni byudjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish:

- xalq ta'limini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib ilg'or yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish:

- davlat-xususiy sheriklik asosida umumta'lim tarmog'ini rivojlantirish hisobiga xalq ta'limi tizimida raqobat muhitini kengaytirish

- yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etishetishdir.

Mazkur yo'nalishlarni amlaga oshirish natijasida kutalayotgan natijalar;

- STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetentsiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etiladi.

- xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar)da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanadi;

- ta'lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish uchun O'zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro birlashmalarga kirishi ta'minlanadi; xorijiy til, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar va multimedial mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlanadi;

- muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan umumta'lim muassasalari negizida tarmoq maktablari yaratiladi va ushbu tarmoqqa o'quvchilarni qamrab olish koeffitsienti past bo'lgan boshqa maktablar ham kiritiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bittadan Prezident maktablari tashkil etiladi; 4 860 umumta'lim muassasasi tasdiqlangan baholash mezonlariga muvofiq «Zamonaviy maktablar»ga aylantiriladi;

- davr talabidan kelib chiqib, pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarining o'quv dasturiga asosan o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish maqsadida elektron resurslar yaratiladi;

- maktabdan tashqari ta'lim sifatini oshirish va bolalarni maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari bilan qamrab olish o'quvchilar umumiy soniga nisbatan 50 foizga yetkaziladi;
- oliy ta'lim muassasalarida «Xalq ta'limi sohasida boshqaruv» yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;
- umumta'lim fanlari bo'yicha 3 mingga yaqin pedagog ixtisosligi bo'lmagan kadrlar pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash kurslarida o'qitiladi;
- xalq ta'limi tizimidagi barcha ta'lim muassasalarining elektr energiyasi, tabiiy gaz, ko'mir, ichimlik suvi va boshqa kommunal xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlanishi tashkil etiladi;
- barcha ta'lim muassasalarining internet tarmog'iga to'liq ulanishi ta'minlanadi;
- barcha umumta'lim maktablarida o'zlashtirish jurnallari va kundalik yozuvlarning elektron shakllaridan foydalanish, davomatni masofadan monitoring qilish, o'quvchilarning kelish va ketish vaqtlari nazorati bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonini avtomatlashtirish tizimi joriy etiladi;
- barcha umumta'lim muassasalarida o'quvchilarni qabul qilish va boshqa ta'lim muassasalariga o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmi joriy etiladi;
- barcha umumta'lim maktablarida o'quvchining identifikatsiya kartalari (ID-karta, NFC belgisi va boshqalar) joriy etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
2. 2020 yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son «Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti to'g'risida»gi 187-sonli qarori. <https://lex.uz>

ФИО автора: *Soliboyeva Nigora Odilbekovna,*

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani, 8-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Название публикации: «RIVOJLANISHNING YANGI BOSQICHIDA O'QUVCHI YOSHLARNI MA'NAVIY HIMOYALASH»

Tayanch soʻzlar: jamiyat, taraqqiyoti, islohot, modernizatsiya, konsepsiya, ta'lim muassasasi, xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, barkamollik, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Ключевые слова: общество, развитие, реформа, модернизация, концепция, образовательное учреждение, развитие системы народного образования, компетентность, информационно-коммуникационная система, внедрение педагогических технологий.

Key words: society, development, reform, modernization, concept, educational institution, development of the public education system, competence, information and communication system, introduction of pedagogical technologies.

O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida tinchlik va osoyishtalikni yanada mustahkamlash, iqtisodiy ko'rsatqichlarni oshirish hamda axolini kuchli ijtimoiy himoya qilishi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar andozasini olmoqda. Birinchi navbatda Markaziy Osiyo hamda MDH davlatlari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ikkinchidan, mintaqadatinchlik, osoyishtalikni ta'minlash, xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash borasida qator tizimli ishlar olib borilyapti. Bunda qo'shni davlat Afg'oniston misolida muzokoralar olib borilib, tinch axoli madaniy hayotini izga solish orqali ijtimoiy-siyosiy muammolarni hamkorlikda hal etishga erishilgani ayni vaqtda Maraziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi salmoqli ishlardan bo'ldi.

Eng avvalo O'zbekistonning so'ngi uch yilda erishgan yutuqlaridan yana biri xalq birlashib, yanada qudratli kuchga ega bo'ldi. Xalq va davlat o'rtasidagi ishonch mustahkamlandi. Xalqni hoxish-istaklari, orzuomidlarini uzoq kelajakda emas, balki bugun ro'yobga chiqarilmoqda.

O'zbek xalqining ko'pyillik milliy va diniy qadriyatlari bardavomligi ta'minlanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida bizda —Jaholatga qarshi ma'rifatl tamoyili asosida yoshlarni diniy ekstremizm va terrorizm tahdididan himoyalash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotganligini aytdi .

Ushbu sessiyadagi butunjahon hamjamiyatiga qarata O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida aytilgan so'zlar ayni vaqtda hayotimizning mazmuniga aylandi. Bunga muqaddas Islom dini aslida ma'rifat dini ekani, odamlarni tinchlikka, hamjixatlikka chaqiradigan insonparvar ta'limotlari yoshlar ongiga singdirish borasidagi ishlar misol bo'la oladi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 25 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatida ayni masalalarga to'xtalib, shunday degan edi: «Sizlarga ma'lumki, keyingi yillarda yurtimizda olib borilayotgan insonparvar siyosat tufayli to'g'ri yo'ldan adashgan, bilib-bilmay xatoga qo'l urgan fuqarolarni sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda ham diniy ekstremistik yo'lga kirib qolganidan chin dildan pushaymon bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va hal etish, ularni jamiyatga moslashtirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi».

Bunda eng avvalo O'zbekistonda insonparvarlik siyosati hamda mahkumlarning oilasi, ayniqsa, farzandlari uchun zarurligiga e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligini yanada kuchaytirish va oilalarda farzandlar tarbiyasiga keng jamoatchilikni kirib borishi choralari ko'rilmogda.

Shu bilan birga o'quvchi yoshlarga milliy g'oya va yot g'oyani qiyoslash, taqqoslash orqali to'g'ri yo'lni topa olishga oid bilimlarini oshirish mafkuraviy tarbiyaning asosiy maqsadi qilib belgilab berildi.

Diniy ekstremizmning vayronkorlik, tajovuzkorlik, jinoyatkorona harakatlari tushuntirilsa, yoshlar aslo unga ergashmaydi. Shuning uchun ularga ekstremizmning yoshlar qalbini egallashga qaratilgan zararli ta'sirlari mavjudligini tushuntirish kerak.

Yoshlarning ekstremist bo'lib qolishiga diniy oqimlarning zararli ta'sirlari



Ekstremizmning bunday tahdidlarini bilmagan yoshlar to'g'ri yo'lni topa olmaydi. Bundan shaxs aziyat tortadi, jamiyat ziyon ko'radi. Adashganlarga yordam ko'rsatish insonparvarlik belgisi. 2019 yil may oyida Suriyadagi jangohlardan 156 nafar vatandoshimizning terrorchilar iskanjasidan olib kelinishi ana shunday tadbirlarning natijasidir. Ramazon hayiti arafasida Prezidentimizning farmoni bilan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazo o'tayotgan, o'z ayblariga chin dildan pushaymon bo'lgan va sog'lom turmush tarziga qat'iy o'tgan 575 nafar fuqaro avf etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil Toshkent viloyati faollari bilan bo'lgan yig'ilishda «Mehr» operatsiyasiga to'xtalib, 156 nafar vatandoshimizning Suriyadagi jangohdan samolyotda keltirilganligini, Suriyada ayollarni sotishganligini, 5 ta bolani 5 ta otadan topganligini, 14 yoshli qiz tuqqanligini aytib, bunday holat millatimizga yarashmaydi, dedi. Bunday salbiy ko'rinish sodir etilishi jamoatchilikni, nuroniylarni o'ylantirishi, qiynashi lozimligini ta'kidladi. E'tibor bering: o'sha 14 yoshida tuqqan qiz maktab yoshida. Bu salbiy holatning sababi – mafkuraviy immunitet yetarli emasligidan. Ayrim umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi past. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida ham maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiya berishda ayrim bo'shliq va kamchiliklar mavjudligi ko'rsatib o'tildi.

O'quvchilar o'rtasida har o'quv yilida milliy g'oya bo'yicha tarbiyalanganlik hamda aqidaparastlik, ekstremizm ta'sirini aniqlashga qaratilgan kuzatuvlar olib borish shart va majbur. Buning uchun ma'rifiy ta'sir jarayonlari tartibga solingan maxsus reja tuziladi. So'ng o'quvchilar o'rtasida mafkuraviy bilimlarini o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqot o'tkaziladi. Uning natijalari asosida diniy oqim ta'siriga berilish hollari sezilgan o'quvchilar bilan profilaktik-tarbiyaviy ishlarni olib borish dolzarb vazifa qilib olinadi. Mutaxassislar diniy oqim ta'siriga berilgan o'quvchini sog'lom dunyoqarash egasi qilib qayta tarbiyalash mumkin, deb hisoblaydilar. Ya'ni —Mafkuraviy klinikal tashkil qilish, unda tadbir mavzusini —diagnoz-retsept-terapiya"asosida belgilashni tavsiya qiladilar [7, 8-9-b]. O'quvchining mafkuraviy dunyoqarashidagi bo'shliqni zaruriy bilimlar bilan to'ldirish orqali uni hayotda o'z o'rnini topishga erishiladi. Jamoaviy yoki induvidiual tarzda - zamonaviy usulda mafkuraviy bilim, mafkuraviy tarbiya beriladi.

Yosh xususiyatlariga nisbatan tarbiyada xavfli sanaladigan V-VII sinf o'quvchilarining ma'naviy bilimlarini qiyosiy o'rganish albatta zarur. Buning uchun o'quvchilarning milliy g'oyaga, dinga bo'lgan munosabatlarini, aqidaparastlik, diniy

ekstremizm, qo'poruvchilikka oid shaxsiy tushunchalarini aniqlash dasturi tuzib olinadi.

5-7-sinf o'quvchilarining mafkuraviy bilimlarini aniqlash uchun savollar.

1. Milliy g'oyaning mazmun va mohiyatini tushunadimi?
2. Din va diniy e'tiqod yuzasidan qanday tasavvurlarga ega?
3. Diniy oqimlarning zararlari haqida nimalarni biladi?
4. Qo'poruvchilik, buzg'unchilikning zararli ekanligini biladimi?
5. Ogoh bo'lib yashyaptimi?
6. Diniy ekstremizming zararli g'oya ekanligini biladimi?
7. Vijdon erkinligini qanday tushunadi?
8. Diniy aqidaparastlikning qanday zararlari bor?
9. E'tiqod erkinligi nima?
10. Kamikadzelik haqida qanday tushunchaga ega?

Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarning mafkuraviy immunitet shakllanishi darajalarini uch xilga: yuqori darajadagi mafkuraviy immunitet, o'rta darajadagi mafkuraviy immunitet, qoniqarsiz darajadagi mafkuraviy immunitetga ajratiladi. SHuni nazarda tutish kerakki, bolada aniqlangan diniy oqim ta'siriga berilish xususiyati o'nglab bo'lmaydigan fatal hodisa emas va u yo'l-yo'riqlar, suhbatlar, mafkuraviy profilaktik tadbirlar orqali to'g'ri izga solinib, sog'lom dunyoqarashga ega qilib, qayta tarbiyalanishi mumkin. Maxsus dastur asosida respondent bilan yakka yoki jamoaviy tarzda diniy aqidaparastlikka qarshi zaruriy profilaktik tadbirlar olib borish rejalashtiriladi. Maktab amaliyotchi-psixologining maslahati asosida mafkuraviy immuniteti o'rta va qoniqarsiz darajada, deb belgilangan o'quvchilarga tabaqalashgan reja va dasturlar tuziladi. Va maktab direktorining buyrug'i bilan birlashtirilgan nazoratchi-pedagoglar tomonidan maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Natijada, har bir yosh jamiyatimizdagi turli ma'naviy tahdidlardan samarali himoya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
2. 2020 yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori. <https://lex.uz>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son «Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti to'g'risida»gi 187-sonli qarori. <https://lex.uz>

ФИО автора: *Toshqulov Zafar Safar o'g'li*

Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti talabasi

Название публикации: «TALABALARNING BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI VA SAMARALI O'TKAZISH»

Annotatsiya: Ushbu maqolada universitetda talabalarining har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Talabalar muommolarini bartaraf etish bo'yicha to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: o'quv faoliyati, o'quv tadqiqot ishlari, darslik

Barcha narsaga qiziqish bo'lganidek siz talaba bo'lib oliy o'quv yurtiga qadam qo'yganingizdan so'ng, ilmiy faoliyat sizni qiziqtirib qo'yadi. Biroq talaba bu savollarning birortasiga hali to'g'ri javob bera olmaydi.

Psixologik nuqtayi nazarda talabaning o'quv faoliyati deganda-o'z-o'zining nazorati, o'zining o'quv faoliyati borasida aniqligini ta'minlovchi spetsifik o'quv faoliyati shakli tushuniladi. o'z-o'zini nazorat qilishning pedagogik tushunchasi esa o'quv faoliyatini vaqti-vaqti bilan tekshirib, borishni emas balki o'zlashtirish natijalari bo'yicha o'quvchi tomonidan tashkillashtirilgan o'quv faoliyatidir. Hozir esa, biz o'z-o'zini nazorat qilishning o'z-o'ziga boshqarishga talabaning o'quv faoliyati sifatida qaramoqdamiz. Bundana kelib chiqib, 1-kurs talabasining (iloji boricha tezroq, shaxsiy o'quv faoliyatini shunday to'g'ri va aniq tashkil etishi kerakki, unda o'quv materialini o'zlashtirish davomida zudlik bilan kechiktirmay o'zlashtirilsin. Nazoratning o'quv faoliyatiga o'rgatish bo'yicha alphiida tashkillashtirilgan mashg'ulotlari odatda, o'tkazilmaydi, chunki belgilangan faoliyatiga o'qitish jarayonining o'zi darslar davomida amalga oshiriladi. Bir vaqtning o'zida topshiriqning shartlarini o'ylab chiqish, tahlil qilish va talabalarni baholash, yechimlarini rejalashtirish va qabul qilish bo'yicha o'quv faoliyatini birgalikda bajarish bilan amalga oshiriladi. Biroq, o'quv faoliyatlari o'qituvchi shunday tashkillashtirilishi kerakki, uni amalga oshirish jarayonida o'quvchining qanday qilib o'rganilayotgan nazariyaning me'yorlari, qoidalari, qonunlari va boshqa talablarini qilishiga butunlay bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, topshiriqlar shunday tuzulishi kerakki, uning yechimi aniqligi shu talablarga rioya etishga bog'liq bo'lsin.

O'quv- tadqiqot ishlarini vazifasi talabalarni o'quv mashg'ulotlariga faol qatnashishiga erishish, o'z mutaxassisliklarining barcha qarorlari bilan to'liq tanishtirish, lektsiyalar, laboratoriyalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar jarayonida berilgan topshiriqlar, vazifalarni o'z vaqtida bajarishga erishish, ularning mustaqil ishlash va ta'lim olishning usullari va shakllari bilan puxta tanishtirish kabi ishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan hamda bo'lajak mutaxassisning ma'naviy-

axloqiy, g'oyaviy-tarbiyaviy fazilatlarini topshirishga mo'ljallangan va shularni hal etishga qaratilgan. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining eng keng tarqalgan shakli-bu talabalar ilmiy to'garaklaridir. Odatda ilmiy to'garakda ko'pi bilan 20-30 talaba shug'ullanadi. Ular bir to'garakda bitta yoki bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha ilmiy mavzular bo'yicha ish olib boradi. Yaxshi ishlaydigan ilmiy to'garakni talabalarning birlamchi ijodi deb hisoblash mumkin. Ular bir ilmiy to'garak kafedra qoshida tashkil etilgani sababli unga shu kafedrada tayinlangan o'qituvchi rahbarlik qiladi. Talabalar saylaydigan to'garak sardori ilmiy rahbar o'qituvchiga yordamchi bo'ladi. Ilmiy to'garaklar reja asosida ish olib boradi. Rejani bir semestrga, butun o'quv davriga mo'ljallab tuzish mumkin. Talabalar universitetda o'zlari egallayotgan ixtisosliklari xususiyatlaridan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga ijodiy faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi yangi texnika, texnologiya va uslublarni tavsiya etish ham ilmiy asosdagi tadqiqotlar bo'lib talabalar ilmiy texnik konferensiyalarda o'z ma'ruzalari bilan qatnashadilar. Talabalarning ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlari o'quv mashg'ulotlarining davomi hisoblanib, ular talabalar o'quv jarayonida o'zlashtirgan bilimlarni chuqurlashtirish va boyitishda katta rol o'ynaydi. Universitetda talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va amalga oshirish usullari xilma-xil bo'lib ular:

- Ijtimoiy, umumilliy va maxsus kafedralarda tashkil qilinadigan talabalar ilmiy to'garaklari ishini;
- professor-o'qituvchilarning davlat va xo'jalik shartnomalar asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalarning alohida guruhlariga birlashib va yakka tartibda ishtirok etishini;
- talabalar konstruktorlik, ilmiy-texnik tarjima qilish, talabalar modalar uyidagi ishlarni;
- aholi o'rtasida fan-texnikaga oid bilimlarni tarqatishga qaratilgan faoliyatni;
- universitetda va ishlab chiqarish korxonalarida, ilmiy laboratoriyalarda tadqiqotchi sifatida ish olib borishni ko'zda tutadi.

Shu sabab talabalar barcha sohalarda faol bo'lishlari kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xaydarov F. N. Xalilova "Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi". "Aloqachi" 2007
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" T. 1992
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.
4. Jamolxonov H. Grafika va ortografiya. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 1999

ФИО авторов: *Inoyatova Zulfiya Xamdamovna*

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Xojimurodova Dilfuza - TDPU, BT 2-bosqich talabasi

Abduroziqova Gulnora - TDPU, BT 2-bosqich talabasi

Название публикации: «TARBIYA FANINI TASHKIL ETISHNING METOD, SHAKL VA VOSITALARI»

Аннотация: Ushbu maqolada tarbiya fanini tashkil etish shart-sharoitlari, qonuniy asoslari, darsni tashkil etishning metodologiyasi, qo'llash mumkin bo'lgan vositalari, shakllari xususida so'z yuritiladi.

Калит so'zlar: ta'lim, boshlang'ich, tarbiya, fan, o'qitish, klaster, usul, o'quvchi, o'qituvchi, yangilik, malaka.

O'zbekistonda 2020-2021 o'quv yilidan boshlab amalga kiritilgan yangi "Tarbiya" fani mutlaqo yangicha asoslarda o'qitilishi taqozo etiladi. Ana shunday o'qitishning yangi usullaridan biri klasterdir.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini interfaol metodlarda o'qitish bir necha xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarning asoslari quyidagilardan iborat.

1. *Qo'yiladigan talablar:*

- o'qituvchining bilimli va malakali bo'lishi;

"Tarbiya" fanining mavzularini tushuntirish, sharhlash va o'rgatish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jismoniy, yosh va ruhiy xususiyatlarini hisobga olish;
- majburlash, jazolash kabi usullarni qo'llamaslik.

2. *O'qitish tizimi:*

- darslarda ilmiy haqiqatlarga asoslanish;
- fanlar bog'liqligiga amal qilish;
- ta'lim ishtirokchilari bilan hamkorlik etish;
 - ta'lim samarasini baholab borish.

3. *O'qitish monitoringi:*

- rag‘batlantirish usuliga asoslanish;
- o‘quvchi ongi, qalbi va ruhida bo‘layotgan o‘zgarishlarni kuzatib borish;
- erishilgan samaralarni ommalashtirish;
- muammolarni oshkora hal qilish.

Bu o‘rinda “odob” – o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro muomala hamda munosabatida axloq qoidalariga rioya etishini, “suhbat” – tushuntirish va ko‘niktirishni, “ilm” – haqiqatga tayanishni, “amal” esa o‘rgatiladigan va o‘rgangan narsalarga bo‘ysunishni anglatadi. Shu jihatdan, boshlang‘ich ta‘limda (1-4 sinflarda) “Tarbiya” fanini o‘qitish yuksak odob, o‘zaro suhbat, haqqoniy ilm va qat‘iy amalga tayanadi.

Usmon Makkiy (X asr) tarbiyani insonga muruvvat ko‘rsatish muhim metoddeb biladi. U deydi, “Muruvvat – do‘stlarning qusur va kamchiliklaridan ko‘zyumushdir”. Demak, muruvvat – dushmanga emas, do‘stlarga ko‘rsatiladi. Shu ma‘noda, “Tarbiya” fanini boshlang‘ich ta‘limda o‘qitishda o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona va qolgan barcha ta‘lim ishtirokchilari o‘zaro do‘st hisoblanadi. Muruvvat ana shu jihati bilan muhim metod hisoblanadi va muruvvatda faqat *ma‘naviy manfaat* ustuvor hisoblanadi⁶⁶.

Mumshod Dinovariy (X asr) tarbiyada quyidagi metodlarga asoslanishitavsiya qiladi:

- 1) ustozlarni hurmat qilishga o‘rgatish;
- 2) o‘zgalarga xizmat qilishga ko‘niktirish;
- 3) hayotsevarlikni tushuntirish.

Bu metodlar “Tarbiya” fanini o‘qitishda juda qo‘l keladi va ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida (7-11 yoshli shaxslarda) hurmat, xizmat hamda Istiqomat ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli ularni o‘zlashtirish taqozo etiladi.

Aziz avliyolarning inson tarbiyasi metodlariga oid keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, tarbiya-ta‘limdan farq qiladi. Buning uchun quyidagilarni idrok etish taqozo etiladi ekanligi: “Tarbiya” fani o‘quv predmeti bo‘lsa-da, lekin u o‘quvchilarda bilim vositasida aqliy, ahloqiy, jismoniy va estetik ko‘nikmalarini hurmat, izzat hamda rag‘bat asosidashakllantirildi.

⁶⁶ Jabborova Onahon Mannapovna. (2019). Psychological and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 9-14.

“Tarbiya” fanini o‘qitishning klaster usulida quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘qituvchi, psixolog va maktab shifokorining hamkorligi;
- maktab jamoasining maslahatchi sifatida faol ishtirok etishi;
- ota-onalar vakillarining tarbiya jarayoni monitoringida qatnashishi;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga mos amaliy tadbirlar tashkil qilish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining layoqat va ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor berish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimdonlik darajasini jamoaviy tarzda tahlil qilib borish.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat

tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishning klaster usulida yangi tashkil etilayotgan "Ijodiy-madaniy targ'ibotchi" mutaxassis ko'magidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu lavozimda taniqli ijodkorlar, madaniyat namoyondalari va olimlar guruhi faoliyat ko'rsatadi. Ularning asosiy vazifasi o'quvchilarning ijodiy layoqati va madaniy ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli mazkur mutaxassislar faoliyati bilan yanada chuqurlashuvi kutilmoqda.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishning interfaol usullar bu yangi hodisa. Shu sababli unga oid tajribalar dastlabki bosqichda ekanligini eslatib o'tish joiz. Bizning kuzatishimizga ko'ra, o'qitishning klaster usuli amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatgaega. Lekin bu usulni jamoaviy o'qitish sifatida qabul qilmaslik kerak. Aksincha, ushbu fanni o'qitishda o'qituvchi va murabbiylarning maqomi ustuvorhisoblanadi⁶⁷.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli Qarori. // [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz). 2020 yil 7 iyul.
2. Muxamedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif.-Chirchiq., 2019

⁶⁷ Karimjonov Alijan, Jabborova Onakhon Mannapovna. Improvement of cluster training system. *Academicia An international multidisciplinary research journal, Kurukshetra (India)*, 2020, Issue 10, pp. 584-589.

3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul – muhabbat. // To‘la asarlar to‘plami. 10-TOM. -T.: "Fan". 2001.87-500-betlar.
4. Jabborova Onahon Mannapovna, Jumanova Fotima Uralovna, Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of artistic perception of future teachers. International journal of pssycological and rehabilitation, 24(4), 4087-4095.
5. Jabborova Onahon Mannapovna. (2019). Psycholocial and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 9-14.
6. Jabborova Onahon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, may). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.
7. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M. Zadachi urokov izobrazitelnogo isskustva v nachalnoy shkole. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862-870.
8. Tojiboeva Gulmira Rifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 209- 215.
9. Musurmonov Raxmatulla, Musurmanova Maluda. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar. Academic research in educationalsciences, Issue 3, 2020, pp 777-783.
10. Karimjonov Alijan, Jabborova Onakhon Mannapovna. Improvement of cluster training system. Academicia An international multidisciplinary research journal, Kurukshetra (India), 2020, Issue 10, pp. 584-589.

ФИО автора: *Axrorbek Shuxratbek o'g'li Axmadjonov*

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti Tarix

(mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

yo'nalishi 301-guruh 3-bosqich talabasi

Название публикации: «BIZ BUYUK TARIXIY YURT FARZANDIMIZ, YANGI TARIXNI BIRGALIKDA YARATAMIZ»

Annotatsiya: *Ushbu maqola tarix fani o'rganish uning yosh avlodga yetib borishi, yosh avlodni tarix faniga qiziqtirish qolaversa o'zining ota bobolari ularning qilgan ishlari qoldirgan o'chmas tarixiy merosini o'rganish va tadqiq etishga bag'ishlanadi. "Tarixiy xotirasiz –Kelajak yo'q" deb bejiz aytilmaydi. Biz buyuk tarixga egamiz buni hech kim rad eta olmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimiz professor olimlari tarixni o'rganishda bir qancha yo'nalishlar usullar, tadqiq etmoqdalar. Tarixni o'rganishda chet el olimlari bilan hamkorlik qilish bu boshqa yurt olimlarini ham bizning tarixga bo'lgan qiziqishlaridan darak beradi.*

Kalit so'zlar: *Tarix fani, Orta asrlar, Gerodot, „Fozil odamlar shahri“, „Zafarnoma“, „O'zbek xalqining shakllanish jarayoni“*

Tarix fani — insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o'rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san'atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o'rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o'rgansa, tarix fanining tadqiqot ob'yekti — aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o'tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig'ish, taxlil qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o'tmishda sodir bo'lgan jarayon va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o'tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko'ra bilishdek muhim vazifani xal qiladi.

Tarix fani asrlar davomida qo'lyozma asarlarda ifodalangan maishiy hayot, voqea-hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy

bayonchilikdan, muayyan tarixiy kontekstda tarixiy hayot yo'lining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo'lni bosib o'tdi.

O'zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorliklari va arxeologik topilmalar ma'lumot beradi. Mil. av. I mingyillikka oid yozma manbalar, zardushtiylarning muqaddas Avesto kitobida, ahamoniylar davri kitobalarida (Behistun, Naqshi Rostam va boshqalar) Turon va Movarounnahrning tabiati, xalqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonning qadimgi tarixi haqida Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek, xitoy, arman, arab mualliflari yaratgan yozma manbalarda ma'lumotlarni uchratish mumkin. Asrlar davomida O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayoti tarixi haqidagi ma'lumotlar saroy yilnomachilari, tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan yozilgan qo'lyozma manbalar shaklida jamlana bordi. O'rta asrlar tarixnavisligida sulolaviy tarixga bag'ishlangan Bayhaqiyning „Tarixi Bayhaqiy“, Nasaviyning „Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mankburni“, Nizomiddinning „Zafarnoma“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“, Fazlulloh ibn Ruzbexonning „Mehmonnoma Buxoro“, Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma“, Muhammad Yusuf Munshiyning „Tarixi Muqimxoniy“, Muhammad Amin Buxoriyning „Ubaydullanoma“ kabi asarlari yaratildi.

Ya'kubiyning „Kitob albuldon“ („Mamlakatlar xaqida kitob“), Tabariyning „Tarixi Tabariy“, Beruniyning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“; ma'lum bir xudud tarixiga oid — mintaqaviy uslubdagi Narshaxiyning „Tarixi Buxoro“, Nasafiyning „Kitob alqand fi tarixi Samarqand“ („Samarqand tarixi haqida qanddek kitob“) kabi nodir qo'lyozma manbalarda O'rta Osiyo mamlakatlarining geografik holati, yirik shaharlari va aholisi, ularning turmush tarzi va mashg'ulotlari, karvon yo'llari, urushlar, g'alayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga doir turli ma'lumotlar bayon etilgan.

O'rta asrlar tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ayniqsa, mufassal yoritilgan. Usha davrda yaratilgan „Temur tuzuklari“, Nizomiddin Shomiyning „Zafarnoma“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“, Abdurazzoq Samarqandiyning „Matla' us sa'dayn va majma' ulbahrayn“ („Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish o'rni“); Mirxondning „Ravzat us O'zbekistonda tarix fani safo“ asarlarida Amir Temur va temuriylar saltanatining tashkil topishi, ichki va tashqi siyosati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan.

O'rta asrlarda davlat ishlari, boshqaruv tizimi haqida ma'lumot beruvchi Forobiyning „Fozil odamlar shahri“, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“, Nizomulmulkning „Siyosatnoma“, Xondamirning „Dastur al-vuzaro“, Muhammad Boqirxonning „Muvazayi Jahongiriy“ asarlari yaratildi.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish bugungi kunda tarix fanining eng muhim muammosidir. O‘zbek xalqi shakllanishining asosiy bosqichlari, ularning etnogenetik jarayonlarda qatnashuv darajasi, mintaqaning qadim avtohton axoliyey bilan tarixiy vorisiyligi va genetik aloqalarini o‘rganishda K. Shoniyozovning „O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni“ (tarix, 2001) monografiyasi ilk qadam bo‘ldi.

Hozir O‘zbekistonning eng qadimgi davrlaridan boshlab to bugungi kunga qadar davrini qamrab oluvchi ko‘p jildli fundamental tadqiqot ustida ish olib borilmoqda. Mustaqillikning asosini mustahkamlashda jamiyat tarixiy ongini shakllantirish zarurligi e‘tiborga olinib, tarixiy bilimlarni targ‘ib qilish yo‘lga qo‘yildi. Mustakillik davrida O‘zbekiston tarixchilarining maxsus „O‘zbekiston tarixi“ jurnaliga asos solindi (1998). Tarix fanining eng dolzarb muammolarini muhokama etuvchi Yahyo G‘ulomov nomidagi „O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi“ respublika muntazam ilmiy seminari tashkil etiddi. O‘zbekiston Respublikasi tarixchilar jamiyati tuziddi (1999). Ilk marotaba „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ga ko‘ra, tarix fanining ta‘lim tizimi bilan hamkorligi amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Fan va ta‘lim mushtarakligi maktab partasidan boshlab, tarixchi kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan. Mustaqillik-yillarida tarixchilarning xalqaro ilmiy hamkorligining keng imkoniyatlari vujudga keldi. O‘zbekiston tarix fanining aktual muammolari bo‘yicha ilmiy anjumanlar o‘tkaziladigan markazga aylanib bormoqda. O‘zbek olimlari xalqaro grantlarda, ham faol ishtirok etmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” yo‘q deb bejiz aytilmaydi. Tarixi yo‘q ota bobosi kimligini bilmagan yurtidan yaxshilk ham kutib bo‘lmaydi. Tarixni o‘rganishni tizimli yo‘lga qo‘yilib tarix darslari maktabning kichik sinflaridan o‘qitiladi. Bu sohada ilmiy ishlar olib boruvchilar uchun ham keng yo‘llar ochildi ko‘pab imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston tarixni o‘rganish bilan bir qatorda jahon tarixi ham yurtimizda keng ko‘lamda o‘rgatiladi. O‘zbekiston tarixi bilan jahon tarixi birgalikda o‘qitilishi bu tarixni bir biriga solishtirish imkonini beradi. Biz buyuk tarixga egamiz jumladan vodiyy farzanti shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburni keltirishimiz mumkun uning qilgan ishlari qurgan davlati qoldirgan asarlari biz uchun juda katta malumotlar bylik hisoblanadi. Boburning Farg‘ona vodiysi haqida yozilgan “BOBURNOMA”asari juda juda katta ma‘lumotlar bazasi hisoblanad. Ushbu kitobda Farg‘ona, Namangan, Andijon hududlari haqida juda kerakli va foydali bo‘lgan ma‘lumotlar qoldirilgan. Mevalar, poliz ekinlar, daraxtlar, vodiylar, daryolar, tog‘lar, o‘rmonlar, qushlar, hayvonlar, va hokazo ma‘lumotlar qoldirilgan. Zahiriddin Muhammad Boburdek buyuk zotlarni sanasak ro‘yhati anchaga cho‘ziladi. Boburning bir g‘azalidan parcha keltiraman

<<Jonimdin o`zga yoi vafodor topmadim>>

*Jonimdin o`zga yoi vafodor topmadim,
Ko`nglumdino`zga mahrami asror topmadim.*

*Jonimdek o`zga jonni dilafgor ko`rmadim,
Ko`ngkum kibi ko`ngulni girifdor topmadim.*

Men buyuk tarixiy yurtida tug`ulganimdan hamisha mamnun bo`laman kelajakda bizndan ham shunday buyuk tarix qolishiga, bel bog`lab sitqidildan hizmat qilish barcha yurt farzandining vazifasi hisoblanadi. Buning uchun men ham mehnat qilishdan aslo to`xtamayman. So`zim yakunida shuni aytamanki bizni nuyukligimizga ishinmasanggiz bizning tarixga boqing.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov , „Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz“ ["Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q"], 7j., tarix, 1999;
 2. Axunova M., Lunin B., Istoriya istoricheskoy nauki v Uzbekistane, tarix, 1970;
 3. O`rta Osiyo xalklari tarixining tarixshunosligidan lavhalar, 1-kitob, tarix, 1993;
- Foydalanilgan internet sayt: uz.wikipedia.org

ФИО автора: *Muxayyo Qo'chqarova Abduvaxob qizi*

Samarqand Davlat Chet tillar instituti

Roman-german tillar fakulteti

203-guruh magistr talabasi

Название публикации: «TARJIMADA YOZUVCHI USLUBINING SAQLANISHI XUSUSIDA»

Аннотация

В этой статье обсуждается, как писатель может переводить, сохраняя при этом свою индивидуальность и стиль. Статья состоит из аннотации по запросу, ключевых слов, введения, основной части, заключения и списка литературы.

Ключевые слова: стиль, искусство, оригинальность, личность, личностные качества, мировоззрение, переводческое мастерство, целостность мысли, разнообразие мысли

Annotation

This article discusses how a writer can translate while maintaining his or her identity and style. The article consists of an on-demand annotation, keywords, introduction, main part, conclusion and a list of references.

Keywords: style, art, originality, personality, personal qualities, worldview, translation skills, integrity of thought, diversity of thought

Barchamizga ma`lumki, to`g`ri va chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san`at asari bo`la oladi. Bunday tarjima yaratishning o`zi esa chinakam san`atdir. Bunday san`at tarjimondan to`g`ri tarjima qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va chiroyli tarjima etish doirasida to`g`ri tarjima qilish mahoratini egallashni talab etadi.

Tarjima amaliyotida quyidagi xilma-xilliklar uchrab turadi.

1. Tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e'tiqodi bir-biridan jiddiy farq qilishi natijasida kelib chiqadigan tafovutlar.
2. Tarjimonlarning tarjima qilish prinsiplarini har xil talqin etishlari tufayli kelib chiqadigan tafovutlar.
3. Tarjimonlarning uslubi muallif uslubiga ta'sir etishi natijasida tabiiy ro'y beradigan tafovutlar.

Ana shu uchta sabab tufayli muayyan bir asarni masalan o'nta tarjimon o'z tiliga o'girsas, natijada bir-biridan farq qiladigan o'n xil tarjima hosil bo'ladi.

Badiiy tarjimada muallif uslubini har bir tarjimon o'ziga xos uslub bilan tiklashga intilishi tarjimachilik amaliyotida yuz berayotgan ana shu tafovutlarga sabab bo'ladi. Agar tarjimada muallif uslubi to'g'ri berilmagan bo'lsa, bunday tarjimaning asl nusxaga mosligiga aslo ishonib bo'lmaydi. Unda tarjimon, beixtiyor muallifning o'rniga o'zini qo'ygan bo'ladi. Tarjimonning ikki tilni mukammal bilishi, turmush tajribasi, badiiy mahorati hamda yozuvchi uslubini to'la egallashi va buni tarjimada qayta tiklay olishi qanchalik zarur ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

«Uslub» tushunchasi tor ma'noda talqin qilinganda asarda tasvirlangan personajlar nutqining o'ziga xos uslubi tushuniladi. Har bir so'zning o'z uslubi borki, albatta imlo lug'atidan so'zlarga qarab, ularning uslub xususiyatlarini aniqlayman deyish behuda urinish bo'lar edi. So'zlarning uslub xususiyatlari badiiy matn ichida, so'zlarning birikishida ochiladi. Masalan: «o'lmoq» so'zi «dunyodan o'tmoq, oyoq cho'zmoq, ko'z yumdi, abadiy uyquga ketdi, joni uzildi, kuni bitdi, bandalikni bajo keltirdi, asfalasofilinga jo'nadi» kabi birikmalarning har birida o'ziga xos stilistik ma'noga ega. Bu stilistik variantlarning har birini o'z o'rnida ishlatishning katta amaliy ahamiyati bor, basharti ular noo'rin qo'llansa qo'pol xato kelib chiqishi mumkin. Masalan «dunyodan o'tdi» o'rniga «joni chiqdi» deb bo'lmaydi.

Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug‘at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar terminlari, dialektal, eskirgan va vulgar so‘zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, matal va idiomalarni hamda so‘zlarning musiqiyliyiyu, ohangdorligini, ko‘p ma’nodlilikini, tilning talaffuz normalarini, mubolag‘a va kichraytirish xususiyatlari, yumor-hazil-mutoyiba formalarini bilish zarur.

Tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov, badiiy asarni qayta yaratish jarayonida amalga oshadigan uch bosqich to‘g‘risida to‘xtalib, shunday fikrni keltiradi:

1. Asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi).
2. Asarni real, avtorning maqsad-muddaosi va uning o‘ziga xos uslubini qanday talqin qilishi.
3. So‘z san’ati namunasini o‘z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita topa olishi.

Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, adabiyotga qiziqadigan, ko‘p o‘qiydigan talabalarda badiiy tarjimaga ham qiziqish katta bo‘ladi. Ular murakkab matnlarni ham bemalol tarjima qilishadi, uslubiy xatolari ham kam bo‘ladi, ma’nodosh so‘zlardan keng foydalanishadi, so‘zlarni o‘z o‘rnida, matn mazmuniga mos holda qo‘llashga urinishadi. Ular bilan ishlash ham oson, ham maroqli.

Matn mazmunini to‘g‘ri ilg‘ab etish va tahlil qilish uchun talaba, avvalo, o‘zi o‘rganayotgan tilning leksikologiya va stilistikasidan yaxshi xabardor bo‘lmog‘i lozim. Ayniqsa, qiyosiy stilistikaga e’tibor bergan holda qilingan matn tarjimasi o‘zgacha chiqadi. Matn tahlilida talabaning so‘zlar ma’nosini yaxshi o‘zlashtirganligi ham katta ahamiyatga ega. So‘zlarning mavhumlik darajasi, to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarda berilishi, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish qoidalariga amal qilib matnga yondashish kerak. Matnda uchraydigan o‘xshatish, istiora, metonimiya, kinoya, frazeologik birikmalar, jumladan, maqol, matal, idiomalar va shu kabi leksik, stilistik usullar ancha mulohazali tarjimani talab qiladi.

Polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli so'zlar matn mohiyatini to'g'ri ilg'ab olish uchun qator muammolar keltirib chiqaradi. Bunday so'zlarni kontekst mazmunidan kelib chiqib tarjima qilish lozim, aks holda kulgili holatlar yuzaga kelib qoladi.

Masalan, "Father" so'zining birinchi bosh ma'nosi "Ota" bo'lsa, qolganlari "yoshi ulug' a'zo", "qabila boshlig'i", "ruhoniy" va hokazo ma'nolarida ishlatiladi. Yoki bo'lmasa: 1) It is a fox. – Bu tulki. (hayvon ma'nosida); 2) He is a fox – U ayyor. (shaxs ma'nosida). 3) She will fox him – U uni aldadi. (laqillatdi).

Mana shunga o'xshash hollarda tarjimon so'zning dastlabki ma'nosi bilan bir qatorda uning turli ma'no qirralarini ham bilsa, shularni hisobga olib tarjima qilsa, matn mazmuni, tarjima o'quvchiga ham to'g'ri etib boradi.

Albatta, bunda ustozning zarur joyda bergan maslahati talabaning chet tilidagi tushunishi qiyin bo'lgan uslubiy hodisalarni ilg'ab olishga va asliga mos tarjima qilishga yordam beradi.

Odatda, tarjima darslarida badiiy matn ustida ishlaganda, mukammal tarjimani ro'yobga chiqarish uchun turli-tuman usullardan foydalanish mumkin. Chunonchi, badiiy-tasviriy vositalarga boy matn parchalarining eng yaxshi tarjimasi uchun tanlov o'tkazish va eng mukammal tarjimani yuqori reyting bali bilan rag'batlantirish "Mohir tarjimon" to'garaklari tashkil etib, unda qilingan tarjimalarni muhokama qilish, yaxshi deb topilgan tarjimalarni gazeta-jurnallarda bosib chiqarishga tavsiya etish, qalami o'tkir, el orasida tanilgan tarjimonlar bilan uchrashuvlar uyushtirish, ularning ijodiy laboratoriyasi, so'z va matn ustida ishlash usullari bilan tanishtirish va hokazo.

Masalan, quyidagi parchani olaylik. U xilma-xil badiiy vositalarni; o'xshatish, mubolag'a, jonlantirish va boshqalarni o'z ichiga olgan. Bunday matnlarni bir pasda maromiga yetkazib o'girish, albatta, oson emas. Biroq chinakamiga mehnat va talant evaziga amalga oshmaydigan ish yo'q. Ushbu parchada kollej talabalarining imtihon

natijalarini kutish daqiqalaridagi ular qalbidagi his-hayajon, “o‘tamanmi-yo‘qmi” degan qo‘rquv aks etgan:

One minute to twelve. The room had suddenly come to a brightening, unexpected silence and stillness like an unexploded bomb. A clock tingled twelve in the distance. My palms were as wet as sponges. Someone coughed and I expected the windows to rattle.

Tarjimasi: “Bir daqiqa kam o‘n ikki. Xona portlamay qolgan bomba singari favqulodda sukunat, muayyan qo‘rquv bilan to‘la edi. Birozdan so‘ng uzoqda soat 12 ga bong urdi. Kaftlarim terga botgan edi. Kimningdir yo‘talidan oynalar zirillagandek tuyuldi. (Tarjima maqola muallifiniki.)

Birinchidan parchada ulkan, beqiyos sukunat timsoliga e‘tiborni qaratish lozim. Talabalar yuragidagi qo‘rquv, tahlika shu qadar kuchliki, nimadir sodir bo‘ladigandek tuyuladi kishi nazarida. Har bir daqiqaning o‘tishini hisoblab borilishi, kimningdir yo‘talidan go‘yo derazaning zirillagandek bo‘lishi, xonadagi jimjitlikning portlamay qolgan bombaga qiyoslanishi butun tasvir maromi sukunatni yanayam kuchaytirishga hizmat qiladi. Bunday hollarda tarjimonga ancha-muncha ter to‘kish lozim bo‘ladi.

Quyidagi satrlarda esa, imtihon natijasini e‘lon qilish uchun bosh yordamchi (kotib) tomonidan talabaning tartib raqami aytilganida uning qay holatga tushgani o‘ta mubolag‘ali, obrazli qilib tasvirlangan, parcha o‘xshatishlarga behad boy: My pulse shot in my ears. My face was burning hot and I felt my stomach had been suddenly plucked from my body. “Number three oh six?”. R. Gordon “Yes, I croaked.” The world stood still. The traffic stopped, the plants ceased growing, men were paralysed, the clouds hung in the air, the winds dropped, the tides disappeared, the sun halted in the sky. “Pass”, he muttered.

Tarjimasi: “Yurak urishim qulog‘imga aks-sado berardi. Yuzim qizib, oshqozonim tanamni to‘satdan tark etgandek bo‘ldi. “306-raqam?” so‘radi Gordon.

“Men” dedim zo‘rg‘a. Dunyo harakatdan to‘xtadi. Harakatdan hamma tingandek, go‘yo daraxtlar o‘shishni unutgandek, odamlar misli falajdek, bulutlar osmonda ilinib qolgandek, shamol pastga tushib ketgandek, quyosh xira tortgandek bo‘ldi men uchun. “O‘tding”, - dedi pichirlab”.

Keltirilgan parchada talabaning ichki kechinmalaridagi oddiy tahlika emas, so‘z bilan ifoda etib bo‘lmaydigan juda dahshatli tahlika, qo‘rqinch bir holat aks etganki, barcha-barcha tasviriy vositalar muallifning butun diqqat-e‘tibori shu tahlikani yanada bo‘rttirib, o‘quvchi ko‘zi o‘ngida behad hayajonli bir holatni gavdalantirishga qaratilgan. Bunday matnlar o‘ta mulohazakorlik bilan tarjima qilishni talab etadi.

Biz yuqoridagi matn parchalarini yuksak badiiylikka boy bo‘lgani uchun misol tariqasida, shunday usluban qiziqarli matnlar ustida ishlash talabalarda badiiy tarjimaga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirish mumkinligini ta’kidlash maqsadida keltirdik. Eng yaxshi tarjima uchun tanlovlar mana shunday mazmundor matnlar asosida o‘tkazilsa, bo‘lg‘usi tarjimonlarning qalami yanada o‘tkirlashadi.

Maxsus tarjima darslarida badiiy matnni leksik-grammatik jihatdan aynan tarjima qilish mumkin emasligi, xar bir til o‘ziga xos xususiyatga, o‘ziga xos ichki qonuniyatlarga ega bo‘lganligidan badiiy asarni tarjima qilinayotgan tilning qonun-qoidalariga rioya qilgan holda o‘g‘irish kerakligini, bunda nafaqat to‘g‘ri jumla tuzilishi, so‘z va iboralarning to‘g‘ri tarjimasi, balki xar bir tinish belgisi katta rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Yaxshi tarjima yaratish uchun faqat ikki tilni bilishning o‘zi kifoya qilmaydi. Tarjimon, avvalo, badiiyligni his etishi, adabiyotni sevishi, ko‘p o‘qib o‘rganishi, so‘zga boy bo‘lishi kerak.

Sinonimik vositalar va tarjima. Asliyatda mantiqiy-erkin ma’nodagi so‘zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug‘aviy ma’noga ega lisoniy vositalar asliyatdagi vositaga moddiy jihatdan yaqin xam-da undan leksik tarkibi farq qiladigan til birliklari yordamida ifoda etiladi. Kontekstual sinonimik qator tashkil

etadigan bunday variantlarning moddiy jihatdan asliyatdagi birlikka yaqini ko'proq o'zga tillar ta'sirida hosil qilingan bo'ladi. Uning nutqda, aniqrog'i, tarjimada uchrashi, so'zlarning o'zaro mantiqiy asosda birikuvi, fikrning me'yor doirasida ifoda etilishi nuqtai nazaridan, xech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Undan leksik tarkib jixatidan farq qiladigan birikma esa asosan tarjima tilining azaldan «o'ziniki» hisoblanadi. Tarjimada aynan shu variantga murojaat qilish tarjima tilining tabiiyligi yuzaga keltiradi. Chunki bu yo'l nafaqat fikrning to'g'ri talqin etilishini, balki ifodaning sof o'zbekona jarangdorligini xam ta'min etadi. Masalan, rus kishisi farzand ko'rmagan odamga nisbatan «ОН БЫЛ БЕЗ ДЕТЕЙ» birikmasini ishlaysa, o'zbek bu o'rinda jo'ngina qilib «u befarzand edi» deyishi mumkin. Ifoda xech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Ammo ona tilini barcha nozikliklari bilan his qilgan o'zbek bunday noqulay vaziyatda «U tirnoqqa zor edi» birikmasidan foydalanishni afzal ko'radi.

Piter Abraxamsning «Qabrdagi gulchambar» romani personaji shikoyatomuz oxangda «I didn't sleep last night» degan ekan, uning so'zma-so'z talqini bo'lmish ruscha «Proshluyu noch sovsem ne spal» ifodasini uzbek tiliga moddiy jixatdan anik «Kecha mutlaqo uxlamagan edim» tarzida o'girish xam tabiiy jaranglagan bo'lar edi. Ammo san'atkorning o'z mas'uliyatiga ijodiy yondashib, mazkur fikrning sof uzbekcha ma'nosi hakida uylashi jumlaning og'zaki nutqqa xos «Kecha mijja qoqmagan edim» shaklidagi namunali talqinini yuzaga keltirgan:

It gave me chance to sleep, I didn't sleep last night WU, 131 //

Зато я успел выспаться. Прошла ночь совсем не спал -VMU, 122 '/'

Xechqisi yuk, qaytanga uxlab oldim, kecha mijja qoqmagan edim - KG, 136.

Shunday qilib, barcha unsurlari to'g'ri ma'noda qo'llanilgan so'z birikmalari, xatto jummalarni tarjima qilishda xam moddiy-aniqlik yo'lidan borish xamma vaqt xam zaruriy ta'sirchanlikka olib kelavermaydi. Pragmatik adekvatlikka erishish asliyat matnini tashkil etuvchi barcha til xodisalari tarjimasiga ijodiy yondashgan xolda, tarjima tilida mavjud sinonimik variantlarning qaysi biri ushbu matniy xolatga

ko'proq mos kelishini muayyan qilish zarurati to'g'iladi. Zero, muayyan fikr asliyat tilida bir ifoda vositasi yordamida bayon etilsa, tarjima tilida moddiy jixatdan o'zgacha ifoda vositasi orqali maqbulroq aks ettiriladi.

Ona tili boyligi bilan yaxshi qurollangan tarjimonlar odatda lug'aviy ekvivalentlikdan ko'ra vazifaviy uyg'unlikka ko'proq e'tibor berganlari xolda, badiiy matnning estetik xususiyatini qayta yaratadilar. Shunday xol ayniqsa dialogik nutq tarjimasida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Bu xususan madaniyat darajasi va bilim saviyasi bilan bir-birlaridan ajralib turadigan personajlar nutqi tarjimasida ko'proq namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilgan obrazli yoki xissiy-ta'sirchan lisoniy vositani, balki odatda amaliy jixatdan kiyinchilik to'g'dirmaydi, deb tasavvur kilinadigan u yoki bu erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmasini utirishda ham xar doim o'sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so'z yoki so'z birikmasi aniqroq va to'laroq ifoda etishi mumkinligi xaqida bosh qotirishi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruxiga ko'proq mos kelishi xaqida o'ylashi, o'ziga doim nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etish mumkin, degan savolni berishi zarur.

O'zbek tilida «Bunisi xolva» frazeologik birligi mavjud bulib, u asosan biror tashvishning, azob-uqubatning kelajakda muqarrar sodir bo'ladigan tashvish va uqubatlar oldida zarracha xam emasligini obrazli ifoda etadi. Shu fikr ingliz va rus tillarida erkin ma'nodagi so'zlar yordamida basn etilgan ekan, o'zbek tilida xam uni shu tariqa ifoda etish imkoniyati mavjud, matn mazmuniga putur yetmaydi. Ammo muqobil nutqiy vaziyatlarda o'zbek tilida odatda, quyidagi misol tarjimasidagidek, eslatilgan frazeologizmdan foydalanish tabiiy o'zbekona jarangdorlik yuzaga keltiradi:

Does that sting? Good, that's nothing to how it will feel later. The pain hasn't started yet - FA, 45 //

Nima, kuydiryatimi ? Bunisi xolva. Hamma hunarini keyin ko'rsatadi - AK, 69.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, birinchidan har bir badiiy yodgorlik va uni tashkil etadigan har bir element shakl va mazmunning dialektik birligini tashkil etar ekan, uning tarjimasida ham ayni shu holat to'la to'kis saqlanishi lozim. Bu aslo asliyat tili vositalarining tarjima tiliga ko'r-ko'rona, so'zma-so'z ko'chirilishi lozimligini anglatmaydi, balki tarjima tilida asliyat vositalarga funksional mos shakl va mazmun birligini tanlash zaruratini bildiradi.

Ikkinchidan, asliyat vositalarining shakli hech qachon tarjimomni asir qilmasligi, u asliyat shaklini o'z ona tili hususiyat va imkoniyatlari yo'l qo'ygan darajadagina moddiy aks ettirishi zarur. Uchinchidan, yozuvchi tomonidan personajlarning ataylab individuallashtirilgan nutqi ta'sirining ham, asar badiiy-ekspressiv asosini tashkil etadigan stilistik va badiiy-tasviriy vositalar funksiyalarining ham tarjimada muvofiq shaklda muqobil til va nutq vositalarida aks ettirilishi shakl va mazmun uyg'unligini yuzaga keltiradi. To'rtinchidan, har bir birlikning muayyan shaklda, ma'lum ma'no va stilistik funksiya ifodasi uchun qo'llanilishi sababli tarjimada birlik shaklining deformatsiya qilinishi (islovatxona-xarobatxona) mazmun to'laqonligini ham, muallif ko'zda tutgan stilistik effektning ham qayta yaratilmay qolishiga olib keladi.

Beshinchidan, stilistik maqsadlarda, ya'ni badiiylikni obrazlilik va emotsionallikni oshirish maqsadida ataylab adabiy til normalaridan chekinish, asliyatda yangicha til birliklarini vujudga keltiradi. Tarjima jarayonida asliyatning bu hususiyatlarini e'tiborga olmaslik, an'anaviy shakllardan foydalanish muallif ko'zlagan stilistik maqsadlarni yo'qqa chiqarib, shakl va mazmun birligiga putur yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) - Toshkent: 1995- yil
2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilm-fan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. Chernov, Ghelly. 2004. Inference and Anticipation in Simultaneous Interpreting: A probability-prediction model. Amstredam/Philadlphia: John Benjamins. Christoffels, Ingrid. 2004. Cognitive Studies in Simultaneous Interpreting. Amsterdam: EPOS Collados Aís Ángela. 1998. La evaluación de la calidad en interpretación simultánea: La importancia de la comunicación no verbal. Granada: Comares.

ФИО авторов: *Mamasodiqova Mohlaroyim Rahimjon qizi*

Andijon davlat universiteti San'at shunoslik fakulteti TSMG yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Xakimova Mashxura Orifjon qizi

Andijon davlat universiteti San'at shunoslik fakulteti TSMG yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Boqiyeva Durdona Abduvali qizi

Andijon davlat universiteti San'at shunoslik fakulteti TSMG yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Название публикации: «TASVIRIY SAN'AT, UNING MOHIYATI HAMDA
TUR VA JANRLARI»

Annotatsiya: *ushbu maqolada rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, tasviriysan'atobrazlari, jimjimadorustun, eshik, darvozalar, devorlarningtashqivaichkitomonigaishlanadiganranglinaqshhamdabo'rtmatasvirlar, O'zbekiston tasviriy san'ati galereyasi haqida so'z boradi.*

Kalitso'zlar: *haykaltaroshlik, tasviriysan'at,obraz,grafika, rangtasvir, naqsh, bo'rtmatasvir, galereya.*

Barchamizgma'lumki,
tasviriysan'atdeyilganidako'pchilikko'zoldigafaqatchiroylitasvirlanganrasmlarkeladix olos. Ammo, aslidatasviriysan'at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirganna fissan'at turi hisoblanib, voqelikni uning osongina ilg'abolinadig an fazoviy shakllardako'rgaz mali obrazilarda aksettiradi.

Tasviriysan'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud sifatleri — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nur havomuhiti, harakat va o'zgarishlari hissiniyaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretliligidan illyuzionizm gao'tish mumkin.

Tasviriysan'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ginasvirlab qolmay, balki asarlarda hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yokibu qismi (fabula),

erkinhikoyanavislik, dinamikharakatlarni ham aksettirib, dunyonig‘oyaviyo‘zlashtirishimkoniyatlarinikengaytiradi.

Tasviriysan‘atinsonningruhiyqiyofasini, uning‘zgalarbilano‘zaromunosabatlarini, tasviriyyoholatningpsixologikvaemotsionalmazmunini ham yoritadi.

Ba‘zanmavjudbo‘lmagan, rassomtasavvuriningmahsulibo‘lganobrazlarni ham yuzagakeltiradi. Insoniyattarixidagiturlidavrlarniaksettiradi.

Davrningfaqathissiyholatiginaemas, balkiuningg‘oyaviymohiyati, siyosiy, falsafiy,estetikvaetikg‘oyalari ham tasviriysan‘atningmazmunigaaylanadi.

Tasviriysan‘atobrazlariningko‘rgazmaliligirassomgahayotningmuayyanhodisasigao‘z munosabatiniyuksakdarajadaifodalashigaimkonberadi. Shu

tufaylihayotnibilishningfaolshaklisifatidajamiyatningijtimoiyhayotida, ma‘lumtizimningommaviyonginiqarortopishidamuhimrolo‘ynaydi.

Olamnibilishningshakllaridanbirisifatidajtimoiyongnishakllantiradihamdaxalqorzu-umidlariniifodalashshaklisifatida ham kattaahamiyatkasbetadi.

Zamonaviysharoitdaumung‘oyaviykurashlarningbirbo‘lagisifatidanamoyonbo‘ladi.

Shuni ham alohidata‘kidlashkerakki, tasviriysan‘atdeyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshliksan‘atiturlaridantashqarime‘morchilikvadekorativ-amaliysan‘atasarlari ham tasviriysan‘atgakiradi.

Biroqlardamavjudborliqtasvirlanmaydi. Lekinbusan‘atasarlaridajodkorningmaqsadi, fikri, his-tuyg‘ulari, orzu-istaklarior‘zaksinitopadi. Tasviriysan‘atninghammaturlaribir-birigajudayaqinvaularningbirqatoro‘xshashliklari bor. Lekinshubilanbirga, ulardanharbiriningo‘zigaxostasviriyslublariivatexnikasimavjud. Bundantashqari, ularningharbiriishlatilisho‘rni, aksettiradiganmavzusi, ishlanishuslubigaqarabbirqator tur vajanrlargabo‘linadi.

Grafika. Hozirgizamonsan‘atiningkengtarqalganturlaridanbirigrafikasan‘atidir. Tasviriysan‘atningbuturigaoddiyqoraqalamdachizilgansur‘at, mavzulikkompozitsiyalar, kitobningichkivatashqitomonigaishlanganturlirasm, illustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibrisvaboshqalarkiradi. Grafikasan‘atiasarlarihajmjihatdanunchakattabo‘lmay, ko‘phollardaqog‘ozgaishlanadi. Grafikaningxarakterlitomonlaridanbiri, uningseriyaliqilibishlanishi,

ya'nivoqeanibirnechaqog'ozdatasvirlanishidir.
biribilanbog'liqbo'lib,
Grafikasan'atihozirjavobsan'atdir.

Bundayseriyalirasmlaro'zarobir-
ma'lumbirmazmunni ochibberadi.

Rangtasvir. Tasviriysan'atningikkinchibirturirangtasvirsan'atidir.
Devorlargaishlanganturlirasmlar, polotnolargachizilgansur'at,
kinovateatrdekoratsiyalarishusan'atturigakiradi. Rangiasvirda rang
muhimo'rinniegallaydi. Agar grafikasan'atida rang shunchakiyordamchivazifanio'tasa,
rangtasvirniesarangsiztasavvurqilibbo'lmaydi. Rassom rang
orqaliborliqniko'rinarliobrazlardatasvirilaydi, makonningcheksizligini,
undaginarsalarning rang-barangligini, moddiyigini, hajminiko'rsatadi.
Rangtasvirasarlariyanao'ziningvazifasivaishlanishuslubigako'ra monumental,
dastgohvadekorativturlargabo'linadi.

Haykaltaroshlik.

Tasviriysan'atningturlaridanbiribog'lganhaykaltaroshlikasarlaridaborliqhajmgagabo'lg
anshakllarorqalimakondatasvirlanadi. Stolustigaqo'yiladiganhaykalchalar, park
vaxiyobonlargaor'natilganturlihaykalvayodgorliklar, binolarningdevorlariga, tanga,
belgi, medal
kabibuyumlarningyuzasidagibo'rtmatasvirlarhaykaltaroshlikisan'atiningturliko'rinishih
isoblanadi.

Dekorativ-

amaliysan'atasarlariodamlarningkundalik turmushehtiyojlariniqondirish, tevarak-
atrofga, park-bog',
uylarningtashqi vaichkiko'rinishigago'zallikkiritishvazifalarigaxizmatqiladi. Bu
san'atdastgohsan'atidano'ziningbevositaxalqehhtiyojigamoslanganligibilanfarqqiladivai
nsonhayotidaishlatiladiganbuyumlarningmazmunidankelibchiqadivashungabo'ysunad
i. Dekorativ-amaliysan'atda real voqeliklar (masalan, gullar,
hayotiy lavhalar vahokazolar), aksetishimumkin,
lekinularmustaqilxaraktergaegabo'lmaydihamdama'lumbirbuyummazmunivashaklibil
anbog'liqbo'ladi. Tasvirlanganvoqealardashartlielementlarkengo'rinniegallaydi.
Dekorativsan'atbuyumlaribirmunchaerkin,

ijodkorfantaziyasigabog'liqholdayaratiladivaengavvalo, tevarak-atrofgafayzkiritishgaqaratilganbo'ladi. Masalan, jimjimadorustun, eshik, darvozalar, devorlarningtashqivaichkitomonigaishlanadiganranglinaqshvabo'rtmatasvirlarnibunga misolqilibko'rsatishmumkin.

Ganchkorlik. Bu san'at turi O'zbekistonda amaliysan'atning eng sevimli va qadimiylaridan biridir. Amaliysan'atning buturida Buxorovatosh kentlik ustalar samaralimehnat qilganlar.

Me'morlik. Inson hayot bilan uzviy bog'liq bo'lgan san'at me'morlik san'atidir. Bu san'at ham san'atning boshqaturlarining ariozida inson aqliy faoliyati, tabiatiga bog'lgan munosabatlarini aks ettiradi, ijtimoiy tuzum xarakterini ochib beradi, jamiyat ideologiyasini o'zida ifodalaydi. Bu san'at inson bilan birga paydo bo'ldi. U o'zida astlab yog'in-sochindan, issiq-sovuqdan himoya qilish, tunlarixotirjam yotish uchun joylar qurdi. Bu joylar tosh, yog'och, loylardan qurildi, tabiiy g'orlarturar-joy manzillariga aylantirildi. Vaqto'tishi, insonning taraqqiyotini hisoblab, saroy va ibodatxonalar vujudga keldi. Istehkom, qal'a, shaharlar, ko'priklar va keng yo'llar qurildi. Zavod-fabrikalar, yirik kosmodromlar - bular ham davr taqozosini bilan maydonga kelgan me'morlik san'atining turlaridir. Me'morlik san'ati ham san'atning boshqaturlarining ariozida inson psixologiyasiga ta'sir etadi, uning kayfiyatini belgilaydi, ishqobiliyatiga, dunyoqarashiga, fikrlashiga ta'sir etadi. Shu boisdan busan'at ham juda qadim va insoniy xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum xarakterini o'zida ifodalab kelgan. Bu holni biz gacha saqlanib kelgan turlida virlarga mansub bo'lgan me'morlik yodgorliklarini taqqoslab bilish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, 20-asr tasviriysan'atimurakkab vaziddiyat-likechdi. Shuning uchun ham birtomondak klassik realistika san'atning talab va uslublarisizlangani holda uning ifodaviyligiga e'tibor qaratilishida, ishlangan harbiy o'zbek tashkiloti uchun mazmunlar bilan to'ldirilishga intilish kuzatilsa, aksinchanoan'anaviy tasviriysan'at uslubida yangi ifodaviy vositalarini topishga, butunlay yangi hasan'at yaratishga intilish xarakteratik kuchliligini namoyon bo'lmoqda.

ФИО автора: O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti magistranti

Pirnapasova Nigora Azamatovna

Название публикации: «THE IMPACT OF WORLD WAR II ON SOCIAL LIFE AND LITERATURE»

Annotation:

This article covers the impact of world war II on social life and literature effects and its relevance, significance.

Keywords: people's life, social, culture, country, horrible, Many people, killed, war, they lost, world war II on, social, life, literature.

Introduction

Some say that the war is not as terrible as it seems, others think differently. Which of them is right? You can read the text of Leonid Nikolaevich Andreev and think about it endlessly.

How does the war affect people's lives? This is the problem that the author has set. This question has long worried society. This has maintained its significance to this day and is of great importance to all, because in our country there is no family that does not touch the war. To draw the attention of students to such an important problem, the writer tells about a person who returned from the war as a disabled person. Thinking about the raised question, Andreev pays special attention to the fact that his relatives are worried about him: "and his mother sucked next to the chair and did not scream anymore, just grinned ...". As the writer showed, the hero does not understand why his relatives behave so strangely: "Why Are you all pale and silent and follow me as shadows?"

World history actually filled by war. In the history of the world, the war becomes the most dominant than other events. The war actually happened from primitive time until now. The difference such as different of culture, different way of life and different interests make the war happen. That kind of differences actually

normal in this life, but it creates conflict if there is no solution. The war always has the negative impact on the people's life, social, culture, and also the country. The war is too horrible. Many people were killed by the war, they lost their hope to live because of the physical defect that they get by war, poverty threatens their life and also the country, suburban area everywhere, and everything has changed because of the war that makes peoples' life become a trouble.

Relevance of the topic:

The impact of world war on social life and literature. There was the most phenomenal war that ever happened in this world. There was the World War. The World War was one of the phenomenal wars in the 20th century and as the biggest and involved almost all of the country in this world. The World War actually began in Western countries, with their conflict and problems, and then Asia such as Japan became an axis powers in the World War. This war has the impact of almost of the country in this world, the impact on person such as physical and mental, and the impact on social life.

Importance of the topic:

Literature is a reflection of human life. Literature is an imagination of human life. Literature is an experience of human life. Literature is a document of people's life, who has experience, suffer, and adventure in their life. Literature as usually related to social condition and life of the author. It is possible if the author makes his story in their works. Literature and social has deep connection. Literature also related to the history of the time, which the literary work was made. Literature and social condition, also history, complete each other. Taylor in his book entitled *Understanding the Elements of Literature* (Taylor, 1981:1) says

Conclusion

By reading this article and looking at your heart, you will come to the conclusion that I fully agree with this idea above.

L. N. Andreeva. War can touch each of us. Both the fate of the soldiers who went to fight for Vatan, and the fate of the loved ones who were waiting for them, will be disturbed. In world literature, there are many writers who say that there is nothing worse than war. Let's turn to the story of Elena Ilyina "the fourth height". The author tells us about Gula Koroleva, who went to the front. The hero is very worried about the death of his loved ones, but despite the fact that he is young, he decides to fight for his homeland. The girl is killed heroically. If you read this work, your heart will be very painful. This story will not leave anyone indifferent.

I will bring you another proof. M. A. In the story of Sholokhov's "the fate of Man" the writer tells about the soldier Andrei Sokolov, who lost all his loved ones and fought for his life every day. The hero meets a more disabled, lonely boy with a Destiny dictator on the way. Sholokhov shows the whole horror of the suffering experienced by the protagonist in the image of his eyes, as if covered with ashes. The boy, tired of such difficult moments without his parents, without their warmth and care, immediately recognized his father in Andrei Sokolov. The writer says that the war does not spare anyone, it is inhuman in its essence.

So the impressionable text made me think seriously about the horrors of war. Thanks to the author for this. There is nothing worse. After all, even returning soldiers can not always continue to live peacefully. I hope that the world will never face war.

Bibliography

- 1.Primary Sources --- Germany 1944: The British Soldier's Pocketbook (Kew: National Archives, 2006). Anonymous, A Woman in Berlin, translated by P. Boehm with an introduction by A. Beevor (London: Virago Press, 2005).
- 2.Secondary Sources Becker, J., Hitler's Children (London: Pickwick, 1989). Beevor, A., 'Introduction', in Anonymous A Woman in Berlin, translated by P. Boehm, (London: Virago Press, 2005), 1-12.

3. Behrenbeck, S., 'Between Pain and Silence: Remembering the Victims of Violence in Germany after 1949', in R. Bessel & D. Schumann (eds) *Life After Death: Approaches to a Cultural Change and Social History of Europe During the 1940s and 1950s* (Cambridge: Cambridge University Press, 2003), 37-64.

4. Bessel, R., 'Hatred after War: Emotion and the Postwar History of East Germany', *History & Memory*, 17, (2005), 195-216.

5. Confino, A., 'Dissonance, Normality, and the Historical Method: Why Did Some Germans Think of Tourism After May 8, 1945?' in R. Bessel & D. Schumann (eds) *Life After Death: Approaches to a Cultural Change and Social History of Europe During the 1940s and 1950s* (Cambridge: Cambridge University Press, 2003), 323-48.

ФИО автора: Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani 14-umumiy

o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani

o'qituvchisi *Bozorova Nargiza Hakim qizi*.

Название публикации: «ТОГ'АЙ МУРОДНИНГ “YULDUZLAR MANGU YONADI” QISSASIDA QO'LLANGAN MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI»

O'zbek xalqi purma'no so'zga o'git-u nasihatlariga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o'zining hayotiy muammolarini mehnat mashaqqati, g'am-anduhi rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari hamma-hammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko'zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi - uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan o'lchanadi. Har bir inson milliy an'analar, tarix va adabiyotni o'z ichiga olgan muayyan milliy madaniyatga tegishli bo'ladi. Madaniyatlararo kommunikatsiya til va madaniyat aloqalari til xususiyatlarini o'rganishda mamlakatlar va ulardagi xalqlarning iqtisodiy va ilmiy aloqalari muhim mavzulardan hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda Lingvokulturologiya (lingvomadaniyat) – lingvistik tadqiqotlar orasida bosh, yetakchi yo'nalishlardan biridir. U tilning ruhidan lisoniy mentallik (o'ziga xoslik) bilan bog'liq u yoki bu hodisalardan kelib chiqib nutqiy muloqot tuzilishining milliy, madaniy o'ziga xos qonuniyatlarni o'rganadi. Tilda aks etgan milliy ruhni ko'rsatadi.

Demak, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti lingvokulteremalar – o'zbek xalqining milliylikni ko'rsatib turuvchi maqol, matal, urf-odatlar, iboralar shevaga xos so'zlar va boshqalar kiradi.

Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy ifodalalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi ustunlik qiladi. Maqollarda ma'lum ma'noda millatning madaniyati aks etadi.

Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy, jaydari yozuvchisi Tog'ay Murodning “ Yulduzlar mangu yonadi “ qissasida qo'llangan maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlilga tortishga harakat qilamiz.

O'zbek millatiga xos bo'lgan soddalik, samimiylik, to'g'rilik, ochiqko'ngillilik kabi bebaho xislatlar bu qissada ortiqcha jimjimaga o'ralmay, alohida bo'rttirilmay aks ettiriladi. Faqatgina o'zbeklar uchun xos bo'lgan or, nomus, g'urur, uyat, andisha, kamtarlik, halollik, mardlik singari hislar lingvomadaniyatimizning yuksak bir ko'rinishlaridandir.

Qissada qo'llangan maqollar o'zbek xalqining turmush tarzi hayotiy faoliyatini yaqqol ifodalab keladi. Masalan, “Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor “. Bu maqolni eshitgan har bir inson xayoliga g'iybatchi ayol haqida fikr yuritilgan degan o'y keladi. Lekin bu maqol bunday ayollar haqida emas. Aslida bu maqolda xalqimizga xos bo'lgan o'zga millatlarda takrorlanmas xususiyat aks ettirilgan. Negaki bir insonni ko'rgan o'zbek ayollari o'sha insonning oilasi, farzandlari, hattoki qarindosh-urug'larining ham hol-ahvolini so'raydi. Bu diniy manbalarimizda ham aks ettirilgan, ya'ni musulmon kishining boshqa bir musulmon kishidan ahvol so'rashi uning islomdagi farzi hisoblanadi.

O'zbeklarning qon-qoniga singib ketgan qo'lidan kelmagan ishga chiranmaslik, o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda ish ko'rishlik kabi xususiyatlarni o'ziga singdirgan “ Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan” maqoli qissada go'zal ma'no tashishga xizmat qilgan. Faqatgina bizning xalqimizga xos bo'lgan kamtarinlik xususiyati aks ettirilgan “ Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi” maqolining ma'nosi shunday keltiriladi. Ushbu maqol xalqimiz orasida kamtarinlik ma'nosini bildirib, biror narsaga ancha mehnat qilib, mashaqqatlar bilan

yetganda, undan ayrilib qolgan hollarda qo'llanilgan. O'zbek xalqi azaldan boy xalq hisoblanadi. Fikrimizning isboti sifatida Erkin Vohidovning quyidagi misralarini keltiramiz:

“ To'y xarjida yuzta boy yapon ,
Bir kambag'al o'zbekcha bo'lmas”.

Xulosa qilib aytganda, Tog'ay Murod qissalari sof milliy o'zbek qissalaridir. Uning qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham ma'naviyati ham, madaniyati ham boshqa xalqqa also o'xshamaydi.

Tog'ay Murod o'z ona tilini benihoya yaxshi biladi, bilganda ham butun ranglari bilan biladi. Shu bois sof o'zbekcha bitadi. U o'zbek tilini kuylatdi. O'zbek tilining jami jilvalarini oftobga solib ko'rsatdi. Milliy madaniyatimiz ko'zgusi hisoblangan barqaror birikmalarni o'rganishda Tog'ay Murodning asarlari boy adabiy manba hisoblanadi.

ФИО авторов: *Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li*

Chirchiq davlat pedagogika institute

Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Ахролов Фаррух Асадулло ўғли

Название публикации: «ТА'LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK MAZMUNI»

ANNOTATSIYA

Ta'lim motivatsiyasi o'quvchilarning o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishiga shaxsiy qiziqishini anglatadi. O'qituvchining faqat moddiy qiziqishlarini qondirish, yoki ishsiz qolmaslik, qisqarishga tushmaslik uchungina ta'lim berishi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, bunda pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim mahsuldorligini oshirishdagi dastlabki vazifa uni chuqur va ko'p motivatsiyali jarayonga aylantirishdir. O'qituvchi o'quvchilarni o'qitish jarayonida o'z hayotining asosiy mazmuni va maqsadini ko'ra boshlaganida ta'lim samarali bo'ladi.

Kalit so'zi; ta'lim, pedagogic psixologiya, samaradorlik

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolaning rivojlanishi muammosi Yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri:

1. Aqliy xatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.YA.Galperin).

P.YA.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

Motivatsiya.

Tushuntirish.

Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish.

Baland ovozda xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.

Bajariladigan xatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmaybajarish.

Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

- birinchi turda - xatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material etarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib etmaydi;

- ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;

- uchinchi tur - tez, samarador va bexato xatti-harakatlar-ni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

2. V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishini tashkil qiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnida xususiyan umumiy bilimlarga o'tilishni ta'minlaydi.

3. Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

Ta'limning psiholik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi.

Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, Shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib kolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar.

O'tkazilgan tajribalar o'quvchilar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega, chunki, birinchidan,

ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham salbiy munosabatda bo'lgan ishga esa, hech qanday hafsala bo'lmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat - haqiqiy ijod, quvonch manbai. Maktab o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijobiy munosabat uyg'otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashishi kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaganlar: "Talaba -to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Zero, o'qituvchi biz yuqorida ta'kidlab o'tgan ta'lim metodlari: muammoli ta'lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo'llanishi kerak. Ta'lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish bo'lib, yuqorida aytib o'tilgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash'allar paydo bo'lishini ta'minlab beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilishga qiziqishlari g'oyat katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo'nalishidir.

Ma'lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga faol munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy

turtkilar - motivlardir. Qiziqishlar maktab o'quvchisiga fan asoslarini durustroq o'zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o'sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O'qituvchilarning vazifasi o'quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o'zi bilan shug'ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug'ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir.

O'quvchilarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni enga olishida, ishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olishida, unda o'qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo'ladigan iroda, ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo'lida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni o'z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta'lim jarayonida o'quv materialiga bo'lgan diqqatning barqaror bo'lishida irodaviy zo'r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta'limda iroda o'quvchida maktab va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tayyor turishda namoyon bo'ladi. O'quv materialini o'rganish, eslab qolish va o'quvchining irodaviy zo'r berishiga bog'liq. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani echishga, qo'yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchilarda ko'nikma, va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o'quvchilar tomonidan berilgan materialning o'zlashtirilishi ko'p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog'liqdir. Irodaviy aktivlik ta'limning zarur shartidir. O'quv muassasasidagi ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilardan irodani o'stirish omillaridan biridir. Bunda o'quvchilarning kundalik rejimi, o'qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to'g'ri almashtirib turish katta rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Zero, bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo'lib, unda jonli mushohadadan mavhum tafakkurga, mavhum tafakkurdan esa amaliyotga o'tiladi, ana shundan so'ng ob'ektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgan narsa o'quv materialini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta'sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo'lishi bo'lib, idrok etish jarayoni ta'limda turli formalarda o'qituvchining og'zaki hikoya qilishida, suhbat o'tkazishda, ma'ruza o'qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va ko'rgazmali qurollar ko'rsatish, ekskursiyalar o'tkazish, o'quvchining o'ziga darsliklar hamda boshqa ko'llanmalarni o'qitish tarzida o'tishi mumkin. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, idroknı tarkib toptirishda o'quvchilarning Yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. CHunki, fazoni, vaqtnı va harakatlarnı idrok etishda ham Yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M., «Yosh va pedagogik psixologiya». T. TDPU, 2004
2. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: 2009.
3. Yugay A.X. Laboratorno-prakticheskie zanyatiya po psixologii. T.: TDPU, 2008.

ФИО автора: *Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li*

Chirchiq davlat pedagogika institute

Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Название публикации: «TURISTIK SAYOHATLARNING INSON SOG'LIG'I VA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI»

ANNOTATSIYA

Atmosfera bosimining tushishi, yog'ingarchilik, havoning amligi, havoharoratining yuqoriligi yoki pastligi atrof-muhit ta'siri omillari hisoblanadi.

Turizm tashkil qilishda qulay faslni tanlash, turistik tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay kunlamini, turistik yo'nalish uchun trassani maqsadga muvofiq holda tanlash, ob-havo va shart-sharoitlarini hisobga olish, yog'ingarchilikdan bekinish uchun joy bo'lishi kerak. Binolarni konditsioner, avtomatik nazorat va signalizatsiya bilan ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatar va qutqarish chora-tadbirlari haqida turistlarni vaqti-vaqti bilan ogohlantirish lozim.

Kalit so'zi: *ruhiyat, sog'liq, kayfiyat*

Turistga berilgan ta'rifdan ma'lumki, u boshqa bir joyga yoki mamlakatga sayohat qiladi. Ayniqsa, eng xatarli omillar turistning boshqa iqlim mintaqasiga, ya'ni odatdagi yashash sharoitidan farqli o'laroq boshqa joyga borishidan yuzaga keladi. Turistik sayohat qisqa bo'lganligi sababli, ham ma'vaqt ham turistning organizmi

borgan yerdagi ob-havo sharoitlariga o'rganilgan olmaydi.

Mahalliy vaqtning to'g'ri kelmasligi sababli turist yaxshi uxlay

olmaydi va o'zini yomon his qiladi, ekskursiyalarda ma'lumotlarni

yaxshi esda olib qola olmaydi va unga qizil ko'zlar degan ta'rif ham

beriladi. Ob-havosi issiq bo'lgan joyga borganda organizmga issiq

havo ta'sir qiladi. Masalan, agar Isroilda yozda ma'lum bir miqdorda

suv ichilmasa (kuniga 5 litrgacha), unda organizm suvsizlanadi va

og'ir oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun tur yaxshilab ishlab chiqilishi va tu

ristning jismoniy holatini hisobga olishi, turistni o'rtiqcha zo'riqtirmaslik va unga

joy sharoitlariga moslashish uchun ma'lum bir vaqt (va albatta dam) ham berish

kerak. Turist 1000 AQSH dollariga yoMIanma sotib olib, sarflagan puliga yarasha

dam olishni xohlaydi. Lekin, kundalik hayotda es-hushi joyida bo'Mgan odamlar

kuniga besh marta dengizda cho'milmaydi, sakram aydi va uncha ko'p

yugurmaydi, issiqda ko'p soatli ekskursiyalarga har kuni boravermaydi,

ertalabgacha ashula aytib, raqsga tushmaydi, har xil va o'rganilmagan

ovqatlar iste'mol qilmaydi. Ba'zan turizm da organizm zo'riqadi, masalan, ko

'p ekskursiyalar, to'qqacha chiqish, dengiz va uzoq muddatli avtobus

ekskursiyalari. Bu lar jismoniy jihatdan ba'q u v v at odamlarga mo

'ljallangan, ya'ni qisqa muddatli zo'riqishlarni ko'tara oladigan

odamlarga. Qarib qolgan kishilar, yosh bolalar, sog'lig'i yomon bo'lgan,

surunkali kasali bor odamlar, shuningdek balanddan qo'rqadigan va dengiz

chayqalishini ko'tara olmaydiganlar shifokor bilan maslahatlashishi va ehtimol bu

turdagi safar va turlarga borishdan bosh tortishi kerak bo'ladi. Ayrim turlarga

turistlarni qabul qilishda turistlardan sog'lomligi haqida ma'lumotnoma talab qilinishi

kerak.

Yo‘nalishni tashkil qilishda odamlarning ma‘lumot qabul qilish qobiliyatini hisobga olish kerak, dam olish uchun ularga bo‘sh vaqt berish va mustaqil o‘zlari turistik resurslar bilan tanishishlarini ta‘minlash kerak. Ishni, turistlarni joyga yetkazish jadvalini va tadbirlarining keltirilgan har bir soniyaga yaxshilab rejalashtirish kerak.

Turistlarning bir me‘yordagi hayot tarzini ta‘minlash uchun zarur va yetarli vaqt oraliklarini obdon hisobga olish kerak (masalan, uyqu, ovqatlanish, gigiyenik, maishiy va sanitar ehtiyojlar). Ekskursiya ishining to‘g‘riligini belgilashda turistlarning intellektual qobiliyatini, turistlar guruhining psixofizik tayyorgarligini, hamda ularning an‘analarini, urf-odatlarini, dinini hisobga olish ham muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Алиева М.Т. Развитие индустрии туризма.
«Международные Плехановские чтения», 19 апреля РЭА. им.
Г. В. Плеханова, 2006.
2. Hospitality, Tourism and Leisure Management: Issues in
Structure and Culture. London, 2003. 265 p.
3. Дурович А.П. Реклама в туризме. Учебное пособие. —
М.: Финансы и статистика, 2009. 254 с.

ФИО автора: *Ismatillayev Ilhomjon Shamsiddin o'g'li*

Мировой опыт освоения пород фундамента. На данном моменте время развития нефтегазопроисхождения работ почти на всех континентах мира (за исключением Антарктиды) открыты и открываются скопления углеводородов, приуроченные к разным по возрасту и генезису породам фундамента: осадочно-метаморфизованным, метаморфическим, магматическим (изверженным и эффузивным) и вулканокластическим. При этом, необходимо отметить, что там, где открыты месторождения в породах фундамента, в породах осадочного чехла также открыты залежи УВ (за исключением месторождения Малоичское, расположенного в Западной Сибири, в пределах Нюрольской впадины, где продуктивны только породы силур-девонского возраста) [12: с.30-37; 13: с.20].

В данное время в мире открыты и разрабатываются около 500 месторождений в породах фундамента. Среди них отмечаются гигантские, крупные, средние и небольшие. В их числе месторождения: в Кылуонгском бассейне Вьетнама месторождения Белый Тигр, Дракон, Ранг Донг, Рубин и другие (на сегодняшний день их более 45); Хьюгтон-Панхендл в США, Ла-Пас, Мара в Венесуэле; более 100 месторождений в Сиртском бассейне Ливии; более 100 месторождений в Западной Сибири в разных по генезису и вещественному составу породах; Уилмингтон и другие месторождения в сланцах в Калифорнии; в пределах Центрально-Канзасского свода в кварцитах; приуроченные к

бассейну Купер в Австралии в метаморфических и первично вулканогенных образованиях; в пределах Северного Китая в карбонатах месторождений Ляохэ, Дуншин, Женцю и др.; на территории Кубы в ультраосновных породах; в пределах поднятия Южный Мангышлак Карабогазского свода в Казахстане выявлены месторождения, включающие Оймашу, Северное Ракушечное и др. в гранитах; в Сердджипском бассейне Бразилии месторождение в породах фундамента Кармополис с начальными извлекаемыми запасами нефти 150 млн. т; в Канаде месторождение Пис-Ривер; в Египте месторождения Хуркада и Гемза; в Днепровско-Донецкой впадине месторождения Хухрянское, Юльевское и др.; в фундаменте Панонского бассейна Центральной Европы месторождения Кикинда и Хайдусобосло; в Ассамско-Араканском бассейне Индии месторождения Борхолла-Чангпанг, Бомбей Хай в гранитах, гранито-гнейсах и базальтах и др. Этот список можно ещё продолжить. Рассмотрим наиболее крупные месторождения, открытые в породах фундамента, по данным опубликованных работ [14: с.4, 25, 28, 29-52; 15: с.250; 16: с.4, 6, 8; 17: с.2-6; 18: с.90-94; 19: 242с.; 20: с.7; 21: с.38-40; 22: с.25-28; 23: с.22-25; 24: с.53-55; 25: 113с.; 26: с.63-64].

Важно, что отметить, что получение промышленных притоков нефти и газа из трещиноватых гранитных пород фундамента произошло ещё в начале прошлого столетия, в 1918 году на месторождении Хьюгтон-Панхендл (США), начальные запасы которого составляют 223 млн. т нефти, 2 трлн. м³ газа. Разрез продуктивной части этого месторождения приурочен к докембрийскому фундаменту, сложенному биотитовыми гранитами, реалитовыми и диабазовыми порфирами.

В 1925 году на гигантском месторождении Ла-Пас (Венесуэла) в разуплотненных метаморфических породах и гранитах выявлены залежи нефти. Средняя глубина вскрытия фундамента от его кровли составляет – 500 м, максимальная – 940 м, вскрытие пород фундамента на глубину 332 м. Средний начальный дебит составлял 572 м³/сут, максимальный 1828 м³/сут. [27: 242с.]. На северо-восточном продолжении антиклинали Ла-Пас расположено

месторождение Мара, в пределах которого фундамент вскрыт на толщину 363 м и разрез его представлен интенсивно трещиноватыми гранитами и метаморфическими породами. Трещины субвертикальные. Средний дебит нефти 350 м³/сут., максимальный – 1828 м³/сут.

Наиболее крупным нефтяным бассейном, приуроченным к фундаменту, является Сиртский бассейн (Ливия), в котором насчитывается более 100 месторождений, разрезы которых сложены метаморфическими и магматическими породами. Наиболее крупное месторождение Нафора-Ауджила, приуроченное к погребенному выступу Ракб, сложенному трещиноватыми гранитоидными породами докембрийского возраста. Месторождение Белый Тигр открыто в 1988 году. Залежь нефти приурочена к мезозойскому гранитному массиву, интенсивно разбитому на отдельные блоки. Массив представляет собой горстантиклинальное поднятие сложного строения размером 22x9 км, состоит из трех сводов – Южного, Центрального и Северного. Вскрытая толщина магматических пород достигает 2000 м. Нижняя граница залежи установлена условно, так как скважина № 905, пробуренная до глубины 5014 м, водонефтяной контакт не вскрыла. Пластовые воды вскрыты только в одной скважине. Нефтедержащими являются трещинно-кавернозные породы, пустотность которых представлена макро- и микротрещинами, изометрическими кавернами и пустотами. Уникальность месторождения заключается в огромном этаже – 1950 м нефтегазоносности продуктивного разреза позднемеловых гранитоидов, с суточными притоками до 1600 м³/сут. Наличие поглощений промывочной жидкости, данные газопоказаний, керны, материалы ГИС указывают на наличие коллекторов до глубин порядка 5000 м. Начальные запасы этого месторождения оценены в количестве более 500 млн. т нефти [28: с.1-17; 29: с.1-5];

Важно, что особенность строения гранитных массивов в Кыулунгской впадине. Коры выветривания гранитоидных пород здесь отмечаются во многих скважинах, вскрывших фундамент, но они встречаются фрагментарно, подчиняясь особенностям палеорельефа. Мощность этих кор по материалам ГИС не превышает 50 м [30: с.4-13]. По мнению исследователей, пустотное

пространство фундамента месторождения Белый Тигр представлено блоковой, трещинной и кавернозно-трещинной типами пустотности, а область развития этих пустот-коллекторов можно считать каркасом нефтенасыщенного, отдающего нефть, резервуара.

Список литературы

1. Кудрявцев Н.А. Генезис нефти и газа. - Ленинград: «Недра», 1973. - 216 с.
2. Кропоткин П.Н. Проблемы происхождения нефти. // Советская геология. - 1955. - № 47. - с. 104-125.
3. Менделеев Д.И. Гипотеза происхождения нефти. // Журнал Русского химического общества. – 1877. - т.9., отд. 1, вып. 2. - 36 с.
4. Кудрявцев Н.А. Генезис нефти и газа. - Ленинград: «Недра», 1973. - 216 с.
5. Иванников В.И. Миграция углеводородов и её движущие силы. // Геология, геофизика и разработка нефтяных месторождений. – 2000. - № 3. - с. 21-27.
6. Иванников В.И. Флюидодинамика нефтегазовых скоплений. // Геология, геофизика и разработка нефтяных месторождений. – 2002. - № 7. - с. 27-30.
7. Кудрявцев Н.А. Генезис нефти и газа. - Ленинград: «Недра», 1973. - 216 с.
8. Иванников В.И. Миграция углеводородов и её движущие силы. // Геология, геофизика и разработка нефтяных месторождений. – 2000. - № 3. - с. 21-27.
9. Иванников В.И. Флюидодинамика нефтегазовых скоплений. // Геология, геофизика и разработка нефтяных месторождений. – 2002. - № 7. - с. 27-30.
10. Авилов В.И., Авилова С.Д. Концепция перманентного нефтегазообразования. // Сб. Дегазация Земли: геотектоника, геодинамика, геофлюиды, нефть и газ, углеводороды и жизнь. – Москва: 2010. – ГЕОС. - 712 с.
11. Баренбаум А.А. Научная революция по Куну в нефтегазообразовании. Дегазация Земли: геодинамика, геофлюиды, нефть, газ и их парагенез. //

Материалы Всероссийской конференции. - Москва: 2008. - 625 с.

12. Запивалов Н.П., Амбросимова О.О., Попов В.В. Геолого-геофизическая модель Малоического месторождения в палеозое Западной Сибири и особенности его освоения. // Геология нефти и газа. - 1997. - № 2. - с. 30-37.

13. Кузнецов Р.О., Беляев С.Ю., Жидкова Л.В. Опыт реконструкции времени начала генерации нефти в осадочных бассейнах (на примере восточной части Нюрольско-Колтогорского суббассейна, Западная Сибирь). // Геология, геофизика и разработка нефтяных и газовых месторождений. - 2006. - № 1. - с. 18-30.

14. Алиева Е.Р., Кучерук Е.В., Хорошилова Т.В. Фундамент осадочных бассейнов и его нефтегазоносность. - Москва: 1987 г. «Обзор ВНИИЭМС, (геология методов поисков и разведки месторождений нефти и газа)», 64 с.

15. Арешев Е.Г., Гаврилов В.П., Донг Ч.Л. Геология и нефтегазоносность фундамента зондского шельфа - Москва: «Нефть и газ», 1997. - 250 с.

ФИО авторов: *Адамбаев Умидбек Хаитбаевич* – ТВЧДПИ ўқитувчиси

Артикова Зумрад Ихтиёр қизи - ТВЧДПИ талабаси

Название публикации: «АҲОЛИ МУАММОЛАРИ БИЛАН ИШЛАШДА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ РОЛИ»

АННАТАЦИЯ

Ушбу мақолада тадқиқотчи бугунги куннинг энг муҳим масалаларидан бири бўлган маҳалла институтининг мамлакатимиз ривожига йўлида халқ ва давлат ўртасидаги муносиб кўприк вазифасини бажарувчи энг асосий бўғин ҳисобланиши, маҳалланинг асосий негизи эса оила ва унинг энг муҳим манбаси таълим-тарбияни назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилиб, ундаги моҳият ва аҳамият тўғрисида қисқача ўз мулоҳазаларини билдирилган.

Калит сўзлар: оила, маърифат, ватан, таълим-тарбия, миллий қадриятлар.

Мамлакатимизни барқарор ривожлантириш, халқимиз фаровонлигини ошириш, фуқароларимизнинг ўз ҳаётидан рози бўлиб, эртанги кунга қатъий ишонч билан муносиб ҳаёт кечиришини таъминлаш бўйича олдимизга қўйган мақсад ва вазифаларни изчил амалга оширишда жамиятнинг энг муҳим бўғини ҳисобланган маҳалла институтининг ўрни ва аҳамияти тобора ортиб бормоқда.[1]

Маҳалла жамиятда тинчлик-тотувлик, ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат ва ҳамжиҳатлик муҳитини мустаҳкамлаш, миллий урф-одат ва қадриятларни асраб-авайлаш, оилалар жипслилигини таъминлаш, соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, аҳолининг кундалик муаммоларини ҳал этишда халқимизга энг яқин ижтимоий тузилма ҳисобланади.

Шу билан бирга, фуқаролар йиғинларининг уйма-уй юриб аҳоли муаммоларини аниқлаб, оғирини енгил қилиш борасида давлат идоралари, шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Халқ қабулхоналари ва ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича секторлар

билан ҳамкорлигини кучайтириш, моддий-техника таъминотини яхшилаш ҳамда соҳа ходимлари меҳнатини муносиб баҳолаш юзасидан аниқ чора-тадбирларни амалга ошириш талаб этилмоқда.[1]

Маҳалланинг жамият бошқарувидаги ўрни ва фаолияти самарадорлигини ошириш, фуқаролар йиғинлари ишини ташкил этишнинг замонавий механизмларини жорий қилиш, соҳага малакали, бой ҳаётий тажрибага эга ва фидойи кадрларни жалб этиш лозимлигини кўришимиз мумкин.

Охириги уч йилда маҳалла институтини ривожлантириш борасида қатор амалий ишлар амалга оширилди.[1]

Хусусан, маҳалла институтига оид 38 та қонун ва меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди, 50 дан ортиғи такомиллаштирилди. Жамият ҳаётида жонбозлик кўрсатган соҳа ходимлари давлат мукофотлари билан тақдирланди.[1]

Сўнги уч йилда 624 та маҳалла идораси янгидан қурилди, 2 минг 265 таси реконструкция қилинди ва таъмирланди. 102 та туман ва шаҳар марказида “Маҳалла маркази” мажмуалари барпо этилди. Ҳар бир фуқаролар йиғинида “Кексалар маслаҳати” гуруҳлари, 4 мингдан зиёд маҳалла биноларида кутубхоналар ташкил қилинди[1].

Маҳалла фаолларининг масъул ташкилотлар ва профилактика инспекторлари билан ҳамкорлигида охириги уч йилда 87 мингга яқин кам таъминланган оила эҳтиёжмандлик даражасидан чиқарилди[1].

Президентимиз маҳалла тизимидан халқ ҳам, давлат ҳам тўла рози эмаслигини, бу соҳада камчилик ва долзарб масалалар кўплигини таъкидлаб ўтганлар.[1]

Хусусан, маҳаллаларда 18 мингдан ортиқ ходим фаолият кўрсатиб келаётган бўлса-да, уларнинг иши самарали ташкил этилмаган. Оилаларда ижтимоий-маънавий муҳитга салбий таъсир кўрсатувчи ҳолатларнинг олдини олиш бўйича тизим йўлга қўйилмаган. Оқибатда айрим маҳаллаларда нотинч оилалар, ҳуқуқбузарликлар кўпайган. Шунингдек, хотин-қизлар ва вояга етмаганлар орасида ўз жонига суиқасд қилиш ҳолатлари учраётгани жуда ачинарли[1].

Тизимда оилавий ажримлар, ёшлар саломатлиги, эрта туғруқлар, маънавий-ахлоқий тарбия билан боғлиқ муаммолар мавжуд.

“Оила – муқаддас” деган азалий ва эзгу ғоя қадрсизланиб, минг йиллик миллий қадриятларимиз завола топар экан, бу каби оғриқли ҳолатларни камайтириб бўлмайди. Бунинг учун маҳалла катта ижтимоий куч сифатида майдонга чиқиши керак. Чунки фаоллар, кўпни кўрган оқсоқоллар, тажрибали нурунийларимиз, агар истаса, жамоатчилик билан биргаликда ҳар қандай муаммони ҳал қилишга, хато қилган ёшларни тўғри йўлга солишга қодирлигини Президентимиз ҳам таъкидлаб ўтганлар.

Афсуски маҳаллаларнинг ўзида ҳам қатор муаммолар борлигини қайд этишимиз лозим, масалан, бугунги кунда 1 минг 234 та фуқаролар йиғини турли ташкилотлар ёки тадбиркорларга тегишли биноларда жойлашган. Яна мингдан зиёди ижтимоий муассасаларда, 78 таси қўшни маҳалла йиғинлари биноларида фаолият кўрсатмоқда, 48 та маҳалла биноси авария ҳолатида. Маҳалла бинолари учун коммунал тўловларни тўлаш бўйича мақбул ва ягона тартиб ишлаб чиқилмаган[1].

Маҳалла фуқаролар йиғинлари зиммасига 200 дан ортиқ вазифа юкланган. Лекин бор-йўғи 2 та штат бирлиги билан шунча вазифани бажариш мумкинми, деб ўйлаб кўрилмаган.

Президентимиз Шавкат Миромонович Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида маҳалла тизимини ўзгартириш, “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилини жорий этиш зарурлиги тўғрисида фикр билдирган эдилар.

Давлатимиз раҳбари маҳаллаларда тўпланиб қолган муаммо ва камчиликларга самарали ечим топиш, тинчлик-осойишталикни асраб-авайлаш йўлида барча саъй-ҳаракатларни бирлаштириш шартлигини таъкидлаганлар. Ушбу улкан соҳага масъул алоҳида давлат идораси сифатида 2020 йил 18 февралда “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» ПҚ-4602-сон [қарори](#) билан Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ташкил этилди[1].

Қайд этилганидек, янги вазирлик маҳалладан тортиб республика даражасигача 40 мингдан ортиқ ходимни бирлаштирган ва уларнинг “бир ёқадан бош чиқариб”, ягона мақсад йўлида фаолият кўрсатишларини таъминлайди. Бир сўз билан айтганда, жойларда муаммоларни ҳал қилишнинг яхлит ва таъсирчан вертикал тизими яратилди.[1]

Маҳаллалардаги турли йўналишлар бўйича ташкил этилган, бироқ кутилган самарани бермай келаётган 12 та жамоатчилик комиссия ва тузилмалари ҳам оптималлаштирилди.

“Ҳар бир оила тадбиркор”, “Ёшлар – келажагимиз”, “Хунармандчилик” дастурлари доирасида маҳаллаларга тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш учун арзон кредит маблағлари ажратилади. Бу маблағлар ҳисобига сартарошхона, новвойхона, шунингдек, хунармандчилик, тикув, қандолатчилик цехлари, оталар чойхонаси, гузар масканлари ташкил этилиши белгиланган.[1]

Маҳалла фуқаролар йиғинлари эндиликда “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилини амалиётга жорий этиш, ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлиги ва осойишталикни таъминлаш, аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш, томорқалардан унумли фойдаланиш, ер участкаларини ноқонуний эгаллашнинг олдини олиш, ҳудудни ободонлаштириш каби масалалар билан шуғулланиши белгиланган.

Маҳалла раисига қўшимча ҳуқуқлар берилиб, мақоми ва обрўси кучайтирилиши белгиланган.

Маҳаллаларда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш бўйича таъсирчан тизимни шакллантириш мақсадида профилактика инспектори кўриб чиқадиган маъмурий ҳуқуқбузарликлар сонини ошириш белгиланган.

Давлат-хусусий шериклик шартлари асосида фуқаролар йиғинлари комплексларини қуриш, бўш турган биноларга маҳалла идораларини жойлаштириш масалалари ҳам белгиланган.

Маҳаллаларда аҳиллик ва ўзаро меҳр-оқибат муҳитини мустаҳкамлаш, ёш авлодда ватанпарварлик, меҳнатсеварлик туйғуларини кучайтиришда кексалар тажрибасидан фойдаланиш муҳимлиги белгиланган.

Давлатимиз раҳбари маҳаллалар миллий менталитетимиз кўзгуси эканини, жамият ҳаётида катта ўрин тутишини таъкидлар экан, Наврўз байрамига ҳамоҳанг тарзда 22 март санасини “Маҳалла тизими ходимлари куни”[1] деб эълон қилиганлар.

Маҳалла раисига икки қанот сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3-декабрь кунидаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-31-сонли ва 2022 йил 19-январь кунидаги “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-92-сонли Қарорлари билан ҳар бир маҳаллага ҳоким ёрдамчиси ва ёшлар етакчиси лавозимлари ташкил этилди.

Президентимиз фармонида асосан Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси тузилиши муносабати билан Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги номи ўзгартирилиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1-март кунидаги “Маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-147-сонли Қарори билан Маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги сифатида қайта ташкил этилди. Қолаверса, 2022 йилнинг 1 июль кунига қадар «Маҳалла тўғрисида»ги қонун лойиҳаси ишлаб чиқирилиши ҳам белгиланган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкунки, маҳалла институти халқ ва давлат ўртасида муносиб кўприк, мамалакатимиз келажаги ҳамда тараққиётидаги асосий устунлардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланилган.

2. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 898-905.

3. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(2), 125-134.
4. Adambayev, U. X., & Rahimberdiyev, S. U. (2022). NAVRO‘Z BAYRAMI VA UNING ETNOMADANIY AHAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(2), 175-177.
5. Умидбек Хаитбаевич Адамбаев, (2022). Ишонч – эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири, *SCIENTIFIC PROGRESS* (pp. 348-351).
6. Adambayev Umidbek Xaitbayevich, (2022). Ancient myths and legends. “International scientific research conference”. (20th February, 2022) – BELARUS, MINSK: “CESS”, 2022. Part 1 – 4 p.
7. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.
8. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB /Экономика и социум. – С.18-21.
9. Umid Adambayev. (2021). MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI / *Scientific progress*. – pp. 1858-1862.

ФИО авторов: Ўзбекистон Журналистикаси ва оммавий

коммуникациялар Университети

*Мухтор Худойқулов (Медиа назарияси ва амалиёт
кафедраси ф.ф.д.проф.)*

Зухраҳон Раҳимова Махмудовна (ОЖК магистранти)

Название публикации: «ҲОЗИРГМ ЗАМОН БОСМА МАТБУОТИДА
ПУБЛИЦИСТИКАНИНГ ЎРНИ»

АННОТАЦИЯ: Мазкур тадқиқот ишида оммавий ахборот воситалари ва уларнинг асосини ташкил этувчи босма матбуот нашрлари фаолиятида публицистиканинг ўрни ва аҳамияти масалалари кўриб чиқилади. Маълумки публицистика ижтимоий ҳаётни акс эттиришнинг ўзига хос, алоҳида бир кўриниши бўлиб, шу замоннинг энг муҳим муаммоларини кўтариб чиқади ва шу замон кишиларига, оммага етказиб беради ҳамда жамоатчилик фикрини уйғотишда муҳим ўрин тутади..

Калит сўзлар: Хабар, мақола, публицистика, информация, репортаж, суҳбат, хат.

Аннотация: В данной исследовательской работе рассматривается место и значение публицистики в деятельности узбекских печатных изданий которые составляют основу средств массовой информации. Как известно публицистика является одним из видов освещения общественной жизни и поднимает насущных злободневных вопросов сегодняшней жизни, доводит до современных читателей и занимает особое место в возбуждению общественной мнения.

Ключевые слова: Новости, статья, журналистика, информация, репортаж, интервью, письмо.

Публицистика (лотинча: публикус - иж-тимоий) — давринг ижтимоий-сиёсий ва бошқа долзарб масалаларига бағишланган адабий ижод тури. Публицистиканинг вазифаси ижтимоий фикр уйғотиш ва уни шакллантириш, маълум мақсадга йўналтириш, хужжатли факт маълумотлар асосида воқелик манзарасини яратишдан иборат.

Ҳозирги замон ижтимоий ҳаёти, унга алоқадор ўтмиш ва келажак фактлари Публицистиканинг предметиدير. Ҳаётда ижтимоий фаолият, онг қарашларнинг салмоғи ортган сари публицистнинг , яъни ижодкорнинг воқеликка фаол аралашуви, фикрни бевосита ошқора, дангал ифодалаш тамойили ҳам ошди.

Публицистик услубнинг оғзаки турига эса нотиклик киради. Ўтмишнинг машҳур нотиклари кишиларнинг ижтимоий алоқа қуроли бўлган тилдан маълум ғоявий мақсадни ифодалаш ҳамда эстетик таъсир этиш воситаси сифатида моҳирона фойдаланиб келганлар. Публицистик услубнинг оғзаки турига кундалик воқеаларга доир мақолалар ёки халқаро обзор билан радио ва телевиденияда чиқаётган шарҳловчиларнинг нутқлари ҳам киради.

Юқоридагилардан маълум бўлдики, тилни пухта ўрганиш, унинг луғавий бойлиги ва грамматикасини пухта эгаллаш, мантиқли сўзлашни ўрганиш, нутқнинг ички(мазмун) ва ташқи(шакл) кўринишига бирдай эътибор бериш, гўзал ва таъсирчан нутқ туза билиш, тил бойликларини мақсадга мувофиқ ҳамда ўринли ишлатиш вазифаларини кўяди.

¹Ўзбекистоннинг Давлат тили ҳақидаги қонуни. Тошкент —Ўзбекистон|| нашриёти.1989 йил 6- бет

90-йиллардан сўнг ўзбек миллий журналистикасида ҳам ўзига хос ўзгаришлар кузатилди. Анъанавий шарҳлаш журналистикаси ўрнига янгиликлар журналистикаси пайдо бўлди. Натижада публицистик жанрлар ахборот жанрларига кўпроқ ўрин бера бошлади. Публицистика кейинги йилларда юқори босқичга кўтарилди. Озод Шарофиддинов, Ўткир Ҳошимов, Иброҳим Ғафуров, Наим Каримов, Хуршид Дўстмуҳаммад, Эркин Аъзам, Султонмурод Олим ва бошқа ўзларининг долзарб публицистик мақолалари билан ўзбек Публицистикасига муносиб ҳисса қўшиб келмоқдалар.

Публицист илм-фан хулосаларини оммалаштирадимми ёки ўз тадқиқоти натижаларини эълон қиладими, у буни ўргатиш учун эмас, балки ўргатиш, билимни етказиш учун эмас, балки жамоатчилик фикри деб аталадиган сиёсий кучга таъсир ўтказиш учун қилади. Бинобарин, журналистика соҳасига фақат бугунги ҳаёт йўналишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган ҳаётий масалалар киради.

Бу ҳозирги вақтда соф назарий савол бўлиши мумкин, у вазиятларнинг бошқа комбинациясида фақат илмий аҳамиятга ега. Ўз етакчиларидан ҳамиша аниқ ва тайёр фикрни талаб қиладиган ижтимоий ҳаётнинг тезлашган зарбаси журналистикада шубҳа ва иккиланишга ўрин қолдирмайди. Ижтимоий-сиёсий тараққиётнинг у ёки бу йўналиши учун курашда, яъни борлиқ учун курашнинг мураккаб шакли холос, фанда маълум предметни аниқ ўрганиш тугалланганми ёки йўқми, бу билан курашишнинг иложи йўқ.

Кўпинча мажбур бўладиган ўзига ишонч билан журналистика эҳтиёткор илм-фан хулосаларидан олдинда ва у ёки бу тарзда дарҳол ҳал қилиниши керак бўлган саволларни ҳал қилади. Ҳар доим субъектив, у ўтмишни ўрганишдан эмас, балки келажак идеалдан келиб чиқади. Душман билан баҳслашар экан, у зарурат туфайли унда нотўғри назариётчини эмас, балки тарқалиши ва маъқулланиши жамият учун зарарли бўлган зарарли қарашларнинг ташувчиси ва ҳимоячисини кўради; шу асосда душманнинг қарашларидан унинг шахсиятига ўтиш осон, шунинг учун ҳам публицистиканинг бутун борлиғи давомида биз унинг энг ёрқин мисолларини рисола шаклида топамиз.

Публицистиканинг моҳияти, субъекти ва предмети» дея номланиб, унда публицистика назариясига оид жаҳон журналистикасида мавжуд илмий-назарий қарашлар умумлаштирилган. «Публицистика ижтимоий институт сифатида», «Публицистика субъекти» ҳамда «Публицистика предмети» деб номланган учта фаслдан ташкил топган.

Публицистикани ижтимоий институт деб қараш майли илмий жамоатчилик ўртасида кескин баҳс-мунозаралар келтириб чиқаради. Жорий масала бўйича диссертант ҳам ўз позитив муносабатини билдиради. Аксар мутахассислар ижтимоий институтни фақат тизимлаштиришган тузилма сифатида тушуниши одатий ҳодисага айланган. Аслида публицистик талқин тарқоқ тушунча, унинг

ижтимоий йўналтирилганлик даражаси ҳамда қамров имконияти масалага яна қайтиш ва теран таҳлиллашга ундайди.

Одатда, ижтимоий институтлар – муҳим бир моддий структуралардан иборат бўлган уюшмалар мажмуасигина эмас, шунингдек, номоддий, қадрият шаклидаги ижтимоий муносабатлар узлуксиз тизими деб қаралса, тавсиф анча ойдинлашади, деган фикрдамиз.

Публицистика ижтимоий институт мақомига эга, бинобарин, у барча аҳоли қатламлари томонидан эътироф этилган, ижтимоий алоқани тартиблаштирадиган, даъват этиш кучига эга бўлган, одамларни жамият акцияларига жалб этиб, ялпи сафарбарликка йўналтирилган тармоқлараро қадриявий ижтимоий институт (тармоқлараро журналистика, тарғибот, адабиёт, шеърият ва бошқа соҳаларга хос бўлган ижод тури). Журналистика жамият ташкилий структурасини қарор топтирадиган ижтимоий институт ҳисобланади, публицистика эса руҳий маданиятга даъват этадиган, ишонтирадиган ижтимоий институтни тавсифлайди. Публицистика кенг миқёсда тарқалган ҳодиса тарзида ижтимоий институт даражасига кўтарилади.

Публицист илм-фан хулосаларини оммалаштирадими ёки ўз тадқиқоти натижаларини эълон қиладими, у буни ўргатиш учун эмас, балки ўргатиш, билимни етказиш учун эмас, балки жамоатчилик фикри деб аталадиган сиёсий кучга таъсир ўтказиш учун қилади. Бинобарин, журналистика соҳасига фақат бугунги ҳаёт йўналишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган ҳаётий масалалар киради.

Бу ҳозирги вақтда соф назарий савол бўлиши мумкин, у вазиятларнинг бошқа комбинациясида фақат илмий аҳамиятга эга. Ўз етакчиларидан ҳамиша аниқ ва тайёр фикрни талаб қиладиган ижтимоий ҳаётнинг тезлашган зарбаси журналистикада шубҳа ва иккиланишга ўрин қолдирмайди. Ижтимоий-сиёсий тараққиётнинг у ёки бу йўналиши учун курашда, яъни борлиқ учун курашнинг мураккаб шакли холос, фанда маълум предметни аниқ ўрганиш тугалланганми ёки йўқми, бу билан курашишнинг иложи йўқ. Кўпинча мажбур бўладиган ўзига ишонч билан журналистика эҳтиёткор илм-фан хулосаларидан олдинда ва у ёки бу тарзда дарҳол ҳал қилиниши керак бўлган саволларни ҳал қилади.

Ҳар доим субъектив, у ўтмишни ўрганишдан эмас, балки келажак идеалидан келиб чиқади. Душман билан баҳслашар экан, у зарурат туфайли унда нотўғри назарийтчини эмас, балки тарқалиши ва маъқулланиши жамият учун зарарли бўлган зарарли қарашларнинг ташувчиси ва ҳимоячисини кўради; шу асосда душманнинг қарашларидан унинг шахсиятига ўтиш осон, шунинг учун ҳам публицистиканинг бутун борлиғи давомида биз унинг энг ёрқин мисолларини рисола шаклида топамиз.

Публицистика тур ва хилларга бўлинишдан ташқари ички-таркибий жиҳатдан турли жанрларга ҳам бўлинади. Маълумки, жанр сўзи французча хил, тур маъносини билдиради ҳамда адабиёт ва санъат асарларининг маълум мазмуний ва шаклий турини билдиради. Масалан, бадий адабиётнинг насрий туридаги ҳикоя, қисса, роман, шеърӣ туридаги шеър, ғазал, баллада, достон, тасвирий санъатдаги натюрморт, портрет, пейзаж ва бошқалар бунга мисол бўла олади.

Инсон ижодининг бир тури бўлган публицистика ҳам худди шу каби ўз жанрларига эга бўлади ва бу жанрлар публицистиканинг вазифаси, изчил хусусиятларидан келиб чиқади. Жумладан, информацион публицистика хабар (информация), репортаж, интервью, ҳисобот каби жанрларга эгадир. Бу жанрлар ҳаётдаги факт ва ҳодисаларни, янгиликларни тезкорлик билан ёритишга хизмат қилади. Мазкур жанрларнинг асосий вазифаси ўқувчиларни жамиятда юз бераётган воқеа ва ҳодисалардан хабардор қилиш ҳисобланади.

Публицистика тур ва хилларга бўлинишдан ташқари ички-таркибий жиҳатдан турли жанрларга ҳам бўлинади. Маълумки, жанр сўзи французча хил, тур маъносини билдиради ҳамда адабиёт ва санъат асарларининг маълум мазмуний ва шаклий турини билдиради. Масалан, бадий адабиётнинг насрий туридаги ҳикоя, қисса, роман, шеърӣ туридаги шеър, ғазал, баллада, достон, тасвирий санъатдаги натюрморт, портрет, пейзаж ва бошқалар бунга мисол бўла олади.

Инсон ижодининг бир тури бўлган публицистика ҳам худди шу каби ўз жанрларига эга бўлади ва бу жанрлар публицистиканинг вазифаси, изчил хусусиятларидан келиб чиқади. Жумладан, информацион публицистика хабар (информация), репортаж, интервью, ҳисобот каби жанрларга эгадир. Бу жанрлар ҳаётдаги факт ва ҳодисаларни, янгиликларни тезкорлик билан ёритишга хизмат қилади. Мазкур жанрларнинг асосий вазифаси ўқувчиларни жамиятда юз бераётган воқеа ва ҳодисалардан хабардор қилиш ҳисобланади.

Публицистик матнни яратишда ишонтириш эҳтиёжи керакли семантик ва стилистик заҳираларни жалб этишни тақазо этади. Масалан, баҳолаш орқали ишонтириш, матндаги стилистик оҳангнинг адресатга таъсири ва ундаги асосий ғояни талқин этиш услуби кабилар муҳим аҳамиятга эга.

Техника табиатшуносликка тегишли бўлганидек, журналистика ҳам жамият ва давлат ҳақидаги фанга тегишли, дейишимиз мумкин: у фандан умумлашмаларни олиб, кўрсатмаларга айлантиради. Публицист илм-фан хулосаларини оммалаштирадими ёки ўз тадқиқоти натижаларини эълон қиладими, у бунини ўргатиш учун эмас, балки ўргатиш, билимни етказиш учун эмас, балки жамоатчилик фикри деб аталадиган сиёсий кучга таъсир ўтказиш учун қилади.

Биобарин, журналистика соҳасига фақат бугунги ҳаёт йўналишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган ҳаётӣ масалалар киради. Бу хозирги вақтда соф

назарий савол бўлиши мумкин, у вазиятларнинг бошқа комбинациясида фақат илмий аҳамиятга эга. Ўз етакчиларидан ҳамиша аниқ ва тайёр фикрни талаб қиладиган ижтимоий ҳаётнинг тезлашган зарбаси журналистикада шубҳа ва иккиланишга ўрин қолдирмайди.


Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. М Худойқулов ва Т.Қозоқбоев “ Журналистикага кириш” 2018й
2. Газетные жанры, М., 1971; [Тоғаев О.](#), [Публицистика](#) жанрлари, Т., 1976; [Зоҳидов В. Й.](#), Танланган асарлар, 3 ж. ли, Т., 1976-78
3. Абай. Стихотворения поэмы. М.-Л.: 1966. 3. Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870—1917). — Т.: «Академия», 2000.
4. Абу Муслим жангномаси. Б. Саримсоқов таҳрири остида. - Т.: «Ёзувчи», 1992.
5. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Лойиҳа муаллифи ва ижодий гуруҳ раҳбари Н. Жўрайев. Т.: «Шарқ», 2001.
6. Алтынсарин И. Избранные произведения. Алма-Ата: АН Казахстана, 1957.

ФИО автора: *Рахматуллаева Хушбарой Илхомжон қизи*

Андижон давлат университети Филология факультети Тилларни ўқитиш: ўзга тилли гуруҳларда рус тили йўналиши 211 гуруҳ талабаси

Название публикации: «АЛИШЕР НАВОИЙ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИ»



Бутун турк дунёси Алишер Навоийни «шамс ул-миллат» — миллат куёши деб ҳамма даврларда эъзоз билан тилга олади. Бутун умрини туркий тил мавқейини кўтариш, туркий адабиёт имконият-ларини дунёга тан олдириш, туркий давлатчилик асосларини мустаҳкамлашга, жамиятда ҳақиқат ва адолат мезонларини қарор топтиришга бағишлаган бобокалонимиз бу эътирофга тўла-тўқис муносиб ва ҳақлидир. У ҳақидаги биографик маълумотлар, ёзмишларининг деярли барчаси тўлиқ сақланиб қолган. Халқ ичида бу зотнинг ҳаёти ва фаолияти билан боғлиқ ривоят ва афсоналар ҳам талайгина. Чунки одамлар ўзларига ва келгуси авлодга яшаш тарзи, қилмишлари ибрат, айтмиш ва ёзмиш сўзлари ҳақиқат бўлган зотлар тўғрисида ҳам ҳурмат, ҳам ҳикмат маъносида мана шундай оғзаки ижод намуналарини тўқиб оладилар.

Алишер Навоий 1441-йил 9-февралда Хуросон ўлкасининг пойтахти Ҳиротда туғилди. Замондошлари уни «Низомиддин Мир Алишер» деб улуғлаганлар. «Низомиддин» — дин низоми деганидир. Кўпинча, мансаб эгаларига нисбатан айтилган «мир» — амир демакдир. Чунки у Ҳусайн Бойқаро саройидаги энг нуфузли амир бўлган. Алишер болалиқдан маърифатли оила муҳитида тарбия топди. Навоийнинг отаси Ғиёсиддин Муҳаммад (уни «Ғиёсиддин кичкина» ҳам дер эдилар) темурийларга яқин амалдорлардан бўлиб, ўз даврининг обрўли ва маърифатли кишиларидан саналган. Адабиётшунос Давлатшоҳ Самарқандийнинг ёзишича, у ўғли Алишернинг тарбиясига, келажакда фазилатли одам бўлиб етишмоғи учун астойдил ҳаракат қилган.

Онаси Кобул амирзодаларидан Шайх Абусаид Чангнинг қизи бўлган. Бўлажак шоирнинг тоғалари Мир Саид (Мирсайид) Кобулий яхши шоир, Муҳаммад Али Ғарибий шоир, созанда ва хаттот эдилар. Алишер оилада учинчи ёки тўртинчи фарзанд бўлиб, мактабда бўлажак султон Ҳусайн Бойқаро билан бирга ўқиди. У ерда савод чиқарди, шеър ўқиш ва ёд олиш, шеър битишга болалиқдан ҳавас уйғонди. Кичик мактаб ёшида форс шоири Фаридиддин Атторнинг катталар ҳам тушуниши қийин бўлган «Мантиқ ут-тайр» достонини

форс тилида ўқиб ҳам уқиб ёд олгани унинг ёшлик истеъдодининг муҳим кирраларидан эди.

1447-йилда подшоҳ Шохрух Мирзо вафот этиб, пойтахт Ҳирот нотинч бўлиб қолади. Алишерлар оиласи Ироққа кўчиб кетади. Йўлда Тафт шаҳрида Алишер машҳур тарихчи Шара-фиддин Али Яздий билан учрашади, тийрак ва ақлли болакайнинг зукколигидан мамнун бўлган кекса олим унинг ҳаққига дуолар қилади. Халқ орасидаги «Улуғлар дуоси қабул бўлади» деган нақл бежиз эмас.

Алишерлар хонадони 1451-йилда Ҳиротга қайтади. Кўп ўтмай, тахтга Абулқосим Бобур Мирзо ўтиради. Алишернинг отаси Ғиёсиддин Муҳаммад Сабзаворга ҳоким қилиб тайинланади. Алишер эса, ўқишни давом эттиради.

1453-йилда Алишернинг отаси Ғиёсиддин Муҳаммад вафот этди. Алишер Абулқосим Бобур хизматига кирди. Аввал Сабзаворда, сўнг Машҳадда яшади. Икки мактабдош дўст — Ҳусайн ва Алишер яна бирга бўлдилар. Бу йиллар ҳам ёш Алишер учун ўқиш ва билим эгаллаш йиллари бўлди.

Шеърга меҳр Алишерни ижодга ундади. У 7-8 ёшларидан шеър ёза бошлади. Ўзбекча шеърларига «Навоий», форсча шеърларига «Фоний» тахаллусини кўйди.

Ўсмирлик даврларида Алишер ўқишда ва ёзишда тиним билмас, шеър мутоаласидан чарчамас эди. «Муҳокамат ул-луғатайн» асарида ўзининг ёшлик чоғида машҳур ўзбек ва форс шоирлари назмидан 50 минг байт (100 минг мисра) шеърни ёд билганини сўзлайди. Болалик вақтларидаёқ ўз даврининг Амир Шоҳий, Лутфий, Камол Турбатий каби шоирлари билан яқиндан алоқада бўлди. Отаси вафотидан сўнг таниқли илм ва адабиёт, санъат арбобларидан Саййид Ҳасан Ардашер, Пахлавон Муҳаммад кабилар оталик қилдилар. Сабзаворлик олим ва шоир Дарвеш Мансурдан аруз бўйича таълим олди.

1457-йилда Абулқосим Бобур Мирзо вафот этди. Унинг ўрнини Абусаид Мирзо эгаллади. Ҳусайн Бойқаро тахт учун курашга шўнғиб кетди. Навоий эса Машҳад мадрасаларида ўқишни давом эттирди. 1464-йилда Ҳиротга қайтиб келган шоир ҳаётида нохушликлар бошланди. Абусаид Мирзо тахтга даъвогар Ҳусайн Бойқаронинг яқин кишиларини таъқиб остига олади. Алишернинг ота мулкини мусодара қилади, тоғалари Кобулий ва Ғарибийларни қатл эттиради.

Навоий 1460-йилларнинг иккинчи ярмида Самарқандда яшади. Темурбек пойтахт қилган бу кўхна шаҳар унинг ҳаётида ўчмас из қолдирди. Бу ерда ўз даврининг етук олимларидан, хусусан, шу кунгача асарлари Ислом оламида мўтабар саналиб келаётган Фазлуллоҳ Абулайс Самарқандийдек алломадан сабоқ олди. Кейинчалик бу шаҳарни ўз асарларида «фирдавсмонанд» (жаннатмисол) деб таъриф этди. Бу ерда шоир сифатида жуда катта шуҳрат топа борди. Бир девонга етиб ортадиган асарлари бўлишига қарамай, камтарлик туфайли бўлса керак, ўзи тартиб бермаганлиги учун 1465-1466-йилларда унинг мухлислари шеърларини тўплаб, «Девон» туздилар. Бу китоб бугунги кунда шартли равишда «Илк девон» деб номланади.

1469-йилда Ҳирот тахтига Ҳусайн Бойқаро чиқади ва Самарқандга хат йўллаб, Алишер Навоийни ўз ёнига чақириб олади. Давлат ишларига жалб этади,

аввал мухрдор, сўнг вазир қилиб тайинлайди. Мухрдор — давлат ҳужжатларини расмийлаштирувчи амалдор. 1487-1488-йилларда Астрободга ҳокимлик қилди. Ҳусайн Бойқаро ҳокимият ишларида Навоийнинг ақл ва садоқатига таяниб иш кўрди. Унинг қаршилигига қарамасдан, шоирни юқори мартабаларга тайинлади. Буюк шоир «амири кабир» (улуғ амир), «амир ул-муқарраб» (подшоҳга энг яқин амир) унвонларига мушарраф бўлди. Унинг вазирлик йиллари Ҳиротда ободонлик ишлари авж олган, маданият гуллаб, яшнаган, адолат ва ҳақиқат туғи баланд кўтарилган давр бўлди. «Илгимдан келганича, — деб ёзади «Вақфия» асарида Навоий, — зулм тиғин ушотиб (синдириб), мазлум жароҳатиға интиқом малҳамини (қасос малҳамини) қўйдум. Ва илгимдин келмагани ул Ҳазрат (Ҳусайн Бойқаро) арзиға еткурдим».

Давлат ишлари билан бир қаторда ўзининг севимли машғулоти — бадий ижодни ҳам тўхтатмади. 1472- 1476-йил-ларда «Бадое ул-бидоя» («Бадиийлик ибтидоси»), 1476-1483- йилларда «Наводир ун-нихоя» («Туганмас нодирликлар») номлари билан икки девон тузди.

1483-йилда туркий тилда биринчи бўлиб «Хамса» ёзишга киришди ва мисли кўрилмаган қисқа муддат — икки йилда беш йирик дostonдан иборат асарни ёзиб тугатди. Илм ва ижод аҳли бу воқеани зўр шодликлар билан қарши олди. Абдурахмон Жомий Навоий «Хамса»сига юксак баҳо берди. Ҳусайн Бойқаро буюк шоирни ўзининг оқ отига миндириб, унга жиловдорлик қилиб, Ҳирот кўчаларини айлантирди. Бу инсоният тарихида камдан кам учрайдиган ҳодиса эди: қудратли давлатнинг шавкатли подшоҳи бир шоирга жиловдорлик қилса. Мазкур ҳодиса айни пайтда Ҳусайн Бойқаронинг маънан юксак, маърифатли ва ҳақиқатпеша ҳукмдор бўлганлигининг далилидир. Навоий «Ҳайрат ул-аброр» достонида бежиз уни Шоҳ Ғозий дея улуғламаган эди.

1489-1493-йиллар шоир учун айрилиқ, оғир жудолик йиллари бўлди. Дўстлари, устозларидан Саййид Ҳасан Ардашер, Абдурахмон Жомий, Паҳлавон Муҳаммад кетма-кет вафот этдилар. Навоий уларнинг хотирасига бағишлаб учта мемуар — эсдаликлардан иборат насрий асарлар яратди.

Навоий фаннинг бир неча соҳаларида қалам тебратиб, забар-даст олим эканлигини ҳам исбот этди. Ўтмиш мавзусида «Тарихи мулки Ажам» («Ажам, яъни араб бўлмаган мамлакатлар тарихи»), «Тарихи анбиё ва ҳукамо» («Пайғамбарлар ва донишмандлар тарихи») асарларини ёзган. Туркий адабиётшуносликда ҳам унинг алоҳида ўрни бор. Арузга доир «Мезон ул-авзон» («Вазнлар ўлчови»), тазкирачиликка оид «Мажолис ун-нафоис» («Нафис мажлислар») каби асарлар яратди. Булар ўзбек (турк) тилида шу соҳалардаги биринчи асарлар эди. Буюк шоир тилшунослик билан ҳам қизиқди. Луғатшуносликка оид «Сабъату абҳур» («Етти денгиз») номли китоб ёзди. Айниқса, «Муҳо-камат ул-луғатайн» («Икки тил муҳокамаси») асарида турк (ўзбек) ва (форс) тилларини солиштириб, ўз она тилининг туганмас имкониятларини илмий асослаб берди.

Навоий 1490-йилларда адабиётимиз тарихидаги яна бир катта ҳодиса — «Хазойин ул-маоний» («Маънолар хазинаси») мажмуасини тузди. Тўрт девондан иборат бўлган бу улкан шеърий тўплам шоирнинг туркий тилда ёзган деярли

барча лирик шеърларини қамраб олган эди. Шунингдек, форс тилини мукамал билган ва унда ҳам баракали ижод қилган шоир бу тилда ёзган шеърларини тўплаб «Девони Фоний»ни тузди.

Тазкира — ижодкорлар ҳақида ихчам маълумот ва айрим асарларидан намуна келтириладиган тўплам.

Буюк адиб умрининг охирига қадар илм-у ижод билан қизгин ва самарали шуғулланди. Шарқда ўтган машҳур шайхлар, сўфийлар ҳаёти ҳақида маълумот берувчи «Насойим ул-муҳаббат» («Муҳаббат шабадалари») асарини ёзиб тугатди. Сўнг умр бўйи ҳаёлини банд этган «Лисон ут-тайр»ни қоғозга туширди. Бошқалар билан олиб борган ёзишмалари — хатларини тўплаб «Муншаот» («Хатлар») тузди. 1500-йилда буюк му-тафаккирнинг яхшилик ва ёмонлик ҳақидаги қарашларини ўзида ифодалаган «Маҳбуб ул-қулуб» («Кўнгилларнинг севгани») асари майдонга келди. Бу буюк адибнинг сўнгги асари эди.

Алишер Навоий 1501-йилнинг 3-январида вафот этган. Ғарбда чиғатой адабиёти ҳисобланмиш ўзбек адабиётининг энг йирик намоёндаси. Умуман олганда, бутун туркий халқлари орасида у каби йирик шахс йўқдир.

*Мувофиқ кийдилар, бўлмиш магар Наврӯз ила байрам,
Чаман сарви ёшил хилъат, менинг сарви равоним ҳам.*

*Чаман сарви қолиб ҳайрон, менинг сарвим қилиб жавлон,
Анинг шайдоси бир деҳқон, мунга шайдо бари олам.*

*Чаман сарви қолиб бебар, менинг сарвим бўлуб дилбар,
Ани ел айлабон музтар, бу елдин секретиб адҳам.*

*Кўнуб ул сарв уза булбул, чекиб гул шавқидан гулгул,
Бу сарв узра очилиб гул, анга тердин тушуб шабнам.*

*Қилиб оҳим сари парво, бу ён майл этмадинг қатъо,
Сабодин, эй, қади раъно, бўлур ҳам сарв гаҳ-гаҳ ҳам.*

*Бу боғ ичра, эй, соқийки бормен асру муштоқи —
Ки, анда сарв ҳам боқий эмас, гул аҳди ҳам маҳкам.*

*Навоий, кўйин эт манзил, юзу қаддига бўл мойил —
Ки, боғ этмас сени хушдил, гулу сарв айламас хуррам*

Алишер Навоий

Фойдаланилган адабиётлар

1. <http://navoiylik-ijodkor.uz/kutubxona/navoiy/71-alisher-navoiy-aeti-va-izhodi.html>
2. <https://arboblar.uz/uzkr/people/alisher-navoi>
3. <http://www.myshared.ru/slide/1412351/>

ФИО автора: *Рахматуллаева Хушбарой Илхомжон қизи*

Андижон давлат университети Филология факультети Тилларни ўқитиш: ўзга тилли гуруҳларда рус тили йўналиши 211 гуруҳ талабаси

Название публикации: «ВОҲИДОВ ЭРКИН ВОҲИДОВИЧ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИ»

Воҳидов Эркин Воҳидович (1936.28.12, Фарғона вилояти Олтиариқ тумани – 2016.30.05, Тошкент) – шоир, драматург, жамоат арбоби. Ўзбекистон халқ шоири (1987), Ўзбекистон Қаҳрамони (1999).

ТошДУ филология факултетини тугатган (1960). «Ёш гвардия» нашриётида муҳаррир, бош муҳаррир (1960–63; 1975–82), Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётида муҳаррир, бош муҳаррир (1963–70), директор (1985– 87), «Ёшлик» журнали бош муҳаррири (1982-85) бўлиб ишлаган.

Илк шеърий тўплами – «Тонг нафаси» 1961 йилда нашр этилган. «Кўшиқларим сизга» (1962), «Юрак ва ақл» (1963), «Менинг юлдузим» (1964), «Муҳаббат» (1976), «Келажакка мактуб» (1983), икки жилдли сайланма («Муҳаббатнома» ва «Садоқатнома», 1986), «Куй авжида узилмасин тор» (1991), «Яхшидир аччиқ ҳақиқат» (1992) асарларига кирган дoston ва шеърларида замондошларимиз ҳаёти, қувонч-изтироблари тўғрисидаги ҳақиқат юксак самимият ва маҳорат билан тараннум этилган.



Тошкент зилзиласи воқеалари билан боғлиқ «Палаткада ёзилган дoston» (1966)да халқнинг сабот-матонати, руҳий оламининг гўзаллиги, халқлар дўстлиги ифодаланган. «Ёшлик девони» (1969)да мумтоз адабиётининг энг яхши анъаналарини давом эттирди, кўхна ғазалга янги, замонавий руҳ бағишлади. 70-

йилларнинг охири – 80-йилларнинг бошида ҳаётда рўй берган ўзгаришлар, янгилашнилар шоирнинг «Тирик сайёралар» (1978), «Шарқий қирғоқ» (1982), «Бедорлик» (1985) каби тўпламларига кирган шеърларида ўз ифодасини топган.

Эркин Воҳидов шеърлятида 20-асрнинг 2-ярмининг маънавий муҳити бадиий таҳлил этилади. Унинг шеъри ҳаёт гўзаллиги маърифатини кашф қилиб боради. Зиддиятли, мураккаб дунёда инсоннинг асил ўрни ва яшамоқнинг асил маъно-мазмунини аниқлайди. Эркин Воҳидов шеърлятида инсон шуниси билан қимматлики, у ҳаётнинг аччиқ ҳақиқатларидан, қарама-қаршиликларида, ҳаёт диалектикасидан асло кўз юймайди, юз ўгирмайди, балки шу тинимсиз ҳаракатдаги диалектика ичида ҳаёт оқимиға, атроф муҳитға, ўзини қуршаган борлиққа дадил, матонат билан фаол таъсир кўрсатишға интилади. Шоирнинг шеърлятида даврнинг безовта, изловчан руҳи ўзига хос, такрорланмас образларда акс этади. Изтиробли ўйлар, ўткир публицистик руҳ, кескин кинояли оҳанг билан тўлиқ етук асарларида ўз даврининг адолатсиз тузумидан норозилик, ижтимоий турғунлик, эгасизлик, қулчилик, машъум якка ҳукмронлик ва маккорона кўринишдаги истибдод найранглариға қарши исёнкор ва туғёнли сўзини айтади. Миллатнинг уйғониши, ўзини таниши, маърифатли оламда бошқа илғор халқлар қаторидан ўз тарихий ўрнини топиши учун қайғуради. Озодлик, зиёлилик ва ҳақиқат Эркин Воҳидов ижодининг етакчи ғояларидир. Бу жиҳатдан Эркин Воҳидов Бехбудий, Чўлпон, Авлоний, Қодирий сингари маърифатпарварларнинг 60-йиллардаги ижодий давомчиси сифатида майдонға чиқди.

Эркин Воҳидовнинг **«Орзу чашмаси», «Нидо» (1964), «Қуёш маскани» (1970), «Бахмал» (1974), «Рухлар исёни» (1978– 79), «Тошкент садоси» (1983)** каби асарлари ўзбек дostonчилигининг етук намуналаридандир. «Рухлар исёни»да оташин бенгал шоири Назрул Ислом сиймоси орқали ватан озодлиги ва миллий истиқлол ғоялари тараннум этилган. **«Ўзбегим» қасидаси (1968)** коммунистик мустабид тузум даврида миллий уйғонишимизға баракали таъсир кўрсатди. «Донишқишлоқ латифалари» туркум шеърий асарлари социал сатиранинг ёркин намунаси бўлиб, уларда халқчил Матмуса сиймоси орқали давр ва ҳаётнинг маълум бир ҳодисалариға ўткир қулгили, ҳажвий муносабат билдирилган.

Ўзбекистон миллий мустақилликни қўлга киритганидан сўнг мамлакатда бошланган маънавий-маърифий юксалиш даврида Эркин Воҳидов шеърлятининг аҳамияти янада ортиб, ёруғ келажакка ишонч, миллий кадрлятларға хурмат ҳамда ватанпарварлик руҳида тарбияляйдиган юксак маънавий омил бўлиб хизмат қилмоқда. Эркин Воҳидов драматург сифатида ҳам элга танилган («Олтин девор», 1969; «Истанбул фожиаси», 1985; ва б.). «Олтин девор» комедиясида турли комик ҳолатлар тасвирланади, инсон руҳиятининг турфа хил товланишлари енгил қулги қилинади, «Истанбул фожиаси»да асар қаҳрамонларининг қисмати даврнинг энг муҳим воқеалари – 2-жаҳон уруши, урушдан кейинги ижтимоий-маънавий ҳаётдаги ўзгаришлар, муаммолар билан боғлиқликда ёркин ва таъсирли ифодаланган.

Эркин Воҳидовнинг «Шоиру шеъру шуур» (1987), «Изтироб» (1992) китобларига кирган мақолалари, суҳбатлари, мумтоз ва ҳозирги адабиётимиз намояндалари ижодини таҳлил этувчи тадқиқотлари ўзбек публицистикаси ва адабиётшунослиги ривожига муносиб ҳисса бўлиб қўшилди.

У И. Гётенинг «Фауст» асарини, С. Есениннинг шеърларини ўзбек тилига таржима қилиб, алоҳида китоб ҳолида нашр эттирган. Бундан ташқари Ф. Шиллер, Иқбол, Улфат, Р. Ҳамзатов, Л. Украинка, А. Блок ва бошқа турли халқлар шоирлари асарларини ҳам ўзбек тилига таржима қилган.

Эркин Воҳидов асарлари чет эл (немис, француз, рус, инглиз, урду, ҳинд, араб ва б.) ҳамда қардош туркий халқлар тилларида («Олтин девор», «Сайланма», «Нидо» ва б.) нашр этилган. Асарлари («Олтин девор», «Истанбул фожиаси») Ҳамза театри, вилоят театрларида сахналаштирилган, «Олтин девор» комедияси Покистоннинг Лахор шаҳри театрида қўйилган.

Эркин Воҳидов Ўзбекистон Олий Кенгаши депутати (Ошкоралик масалалари қўмитаси раиси; 1990–95); 1995 йилдан Ўзбекистон Олий Мажлиси депутати ва Халқаро ишлар ва парламентлараро алоқалар қўмитаси раиси бўлган.

Эркин Воҳидов «Буюк хизматлари учун» ордени билан мукофотланган (1997). Ҳамза номидаги Ўзбекистон Давлат мукофоти лауреати (1983).

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/erkin-vohidov-1936/>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_Vohidov

ФИО автора: *Рахматуллаева Хушбарой Илхомжон қизи*

Андижон давлат университети Филология факультети Тилларни ўқитиш: ўзга тилли гуруҳларда рус тили йўналиши 211 гуруҳ талабаси

Название публикации: «ZULFIYA ISROILOVA HAYOTI VA IJODI (1915 - 1996)»

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Zulfiya Isroilova hayoti va ijodi yoritilgan. Zulfiya Isroilova o‘zbek shoirasi hisoblanadi. O‘zbekistonda 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar uchun “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilgan.

Kalit so‘zlar: Shoir, rassom, Hayot sahifalari.



Zulfiya Isroilova — taniqli va iqtidorli o‘zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o‘tkir his qilgan - mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Zulfiya she’riyatining nufuzi — bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o‘ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir.

Zulfiya (1915 - 1996) hunarmand-degrezchi oilasida Toshkentda tug‘ilgan. Shunga qaramay, ota-onasi yuqori madaniyatli odamlar bo‘lishgan.

“Onam ohista va xotiramda saqlanishicha, ma’yus bo‘lganlar. Lekin ularda qullik horg‘inligi bo‘lmagan... Ular qanchadan-qancha qo‘shiq va afsonalar bilganlar, ularni mohirona aytib, kuylab bera olganlar, biz-farzandlarini sehrli ertaklar bilan qiziqтира olganlar, - eslaydi Zulfiya, onasini xotirlar ekan. - Mo‘jizalarga sabab bo‘luvchi, dunyoni fosh qiluvchi, insoniyatni ajoyibotlar sari yetaklovchi “so‘z”ga bo‘lgan mehrni oddiygina ayol - onam uyg‘otganlar...”.

Tabiiyki, onamlar farzandlari o‘qimishli, madaniyatli insonlar bo‘lishini istaganlar. Ularning orzusi ro‘yobga chiqdi ham. Zulfiya o‘rta maktabni va ayollar pedagogika bilim yurtini tamomlab, respublika gazeta va oynomalari nashriyotida ish faoliyatini boshladi, she‘riyatga qiziqib qoldi va she‘rlar yoza boshladi. Uning ilk she‘rlari “Yangi yo‘l” oynomasi va “Qizil O‘zbekiston” hamda “Yosh leninchi” gazetalarida chop etila boshlagan.

1932 yil 17 yoshni qarshi olganida, uning “Hayot sahifalari” nomli ilk she‘riy to‘plami omma yuzini ko‘rdi. Bular — yoshlar, do‘stlik, inson qalbining go‘zalligi haqidagi she‘rlar edi. So‘ngra, she‘rlari, dostonlari va hikoyalari e‘tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko‘rinishida chop etila boshladi.



1938 yildan u turli yirik nashriyotlarda ishlaydi, respublika va respublikalar aro har xil tashkilotlar a‘zosiga aylanadi.

Mashaqqatli urush yillari Zulfiyaning iqtidori butunlay ravnaq topadi va o‘ta yorqin tus oladi: uning she‘rlarida vatanparvarning serg‘ayrat ovozi jaranglaydi, Vatani mustaqilligi uchun qo‘liga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta‘minlayotganlarga nisbatan lirik iliqligi seziladi. “Uni Farhod derdilar” she‘rida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g‘alabaga ishonch ifodalangan. G‘animga qarshi kurashga chorlov askar-o‘g‘il haqidagi ona qo‘shig‘i, xotini va onasini sog‘ingan jasur frontchi, paxlavon eri uchun qayg‘urayotgan ayolning qayg‘uli xavotiri bilan bog‘lanadi.

Vataniga, ona yeriga bo‘lgan muhabbati - vatanparvarlikning oliy tuyg‘usi bo‘lib, harbiy janglarning saodatli yakuniga ishonch bilan birlashadi - bu shunchaki, Zulfiyaning shoirona qalbiga xos o‘ylargina emas, balki o‘zbek xalqining tabiatiga xos milliy fe‘l-atvor qirralari bo‘lib, shoiraning she‘rlarida yorqin ifodalanadi.

Shoiraning eng mashhur she‘rlari: “Xulkar” (1947), “Men tongni kuylayman” (1950), “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Yurak yo‘lda” (1966), “Mening bahorim” (1967), “Sharshara” (1969) kabilardir.

Zulfiyaning ayrim she'rlari rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, “Men tongni kuylayman” (1950) (“Ya poyu zaryu”), rus tiliga 1951 yil tarjima qilingan.

1984 yil “Jamiyat mehnat qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgan. SSSR davlat mukofoti laureatiga aylangan.

2004 yil O‘zbekistonda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’ sis etilib, adabiyot, san’at, ilm-fan, madaniyat va ta’lim sohalaridagi muvaffaqiyatga erishgan, yoshi 14 dan 22 yoshgacha bo‘lgan qizlarga har yili 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami kuni taqdim etiladi. Bugungi kunga kelib, Zulfiya mukofoti laureatlari 98 kishini tashkil qiladi.



Zulfiyaning butun she'riy ijodi — O‘zbekiston diyorining ilhom madhiyasi, inson mehnati madhiyasi, sevgi va yerdagi adolat uchun madhiyasidir.

Zulfiyaning qoyilmaqom ijod mehnatiga ko‘p yillar bo‘ldi, respublika hayoti va uning xalqi taqdirida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, lekin “sevgining alangali kuchi bugun ham o‘quvchining qalbini isitadi, yuragini va ongini hayajonlantiradi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kitobxon.com/ru/yozuvchi/zulfiya>
2. <https://arboblar.uz/uz/people/zulfiya>
3. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%97%D1%83%D0%BB%D1%8C%D1%84%D0%B8%D1%8F_\(%D0%BF%D0%BE%D1%8D%D1%82%D0%B5%D1%81%D1%81%D0%B0\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%97%D1%83%D0%BB%D1%8C%D1%84%D0%B8%D1%8F_(%D0%BF%D0%BE%D1%8D%D1%82%D0%B5%D1%81%D1%81%D0%B0))

ФИО автора: *Ибодуллаева Ширина*

магистр 1 курса факультета филологии

Каршинского государственного университета

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси божхона чегарасини кесиб ўтаётган автотранспорт воситалари ва товарларни божхона назоратидан ҳамда божхона расмийлаштирувида хавфни бошқариш тизими ишга туширилган. Мазкур хавфни бошқариш тизими автотранспорт воситалари ва товарларни Ўзбекистон Республикаси божхона чегараси орқали олиб ўтаётган шахслар томонидан олдиндан юбориладиган дастлабки электрон ахборотни қайта ишлаш, таҳлил қилиш, мониторинг қилиш асосида хавфни баҳолайди ва йўлақларга бўлиб, божхона назорати тартибини белгилаб беради. Хавфни бошқариш тизими мазкур жараён давомида автотранспорт воситаси ва товарларни инспекцион кўрик мажмуасидан ўтказиш топшириғини бериши мумкин. Ҳозирги кунда авто чегара божхона постларимизга бириктирилган инспекцион кўрик мажмуаларида авротранспорт воситаларини ва товарларни рентген қилиш ва ва уни рангсиз тасвирини чиқариш имкониятигагина эгамиз. Мазкур тасвирларнинг таҳлилинини эса божхона ходимлари томонидан амалга оширилиб келинмоқда. Яъни хавфни бошқариш тизими фақатгина рақамларни ўқий олганлиги сабабли, расмларни таҳлил қила олмайди, бу эса иш ҳажмини анчгина кенгайтиради.

Дания давлатининг бу соҳадаги тажрибасини ўрганадиган бўлсак, чегарада *ягона дарча* тамойили яхши ташкил қилинган бўлиб, халқаро юк ташишда товарларни чегарадан олиб ўтишда, талаб қилинадиган зарур рухсат этувчи хусусиятга эга ҳужжатларни бевосита чегарани ўзида олиш имконияти мавжуд.

Франция давлатининг тажрибасини ўрганадиган бўлсак, мазкур мамлакатда халқаро юк ташувчи транспорт воситаларига бир қатор имкониятлар берилган бўлиб, улардан бири бу халқаро юк ташиш асосида товарларни божхона чегарасидан олиб ўтишда, мазкур товарларнинг божхона назорати ва расмийлаштируви соддалаштирилган тарзда замонавий дастурларлар ва технологияларга асосланган ҳолда амалга оширилади. Мазкур жараён “**SMART BORDER**⁹⁴” деб аталади ва қуйидаги 3 тамойилга асосланади:

1. ANTICIPATION
2. IDENTIFICATION
3. AUTOMATION

Anticipation – мазкур жараён шундан иборатки, автотранспорт воситасида олиб ўтилаётган товарнинг барча ҳужжатларини божхона расмийлаштируви чегарага келгунча амалга оширилади. Ҳамда товарларни олиб ўтаётган автотранспорт воситасига махсус штрих-код берилади.

Identification – идентификация жараёни бевосита чегаранинг ўзида махсус видеокузатув воситалари ва божхона ходимлари томонидан амалга

⁹⁴ Smart border-ақлли чегара.

оширилади ва бу автотранспорт воситасини давлат рақамини, берилган махсус штрих-код ва маълумотларни бирлаштириб дастур томонидан тахлил қилиш орқали давлатга кириб келаётган ҳамда чиқиб кетаётган автотранспорт воситалари ва уларда олиб ўтилаётган товарларни руйхатга олиб, яшил ва қизил йўлакка бўлиб беради ҳамда кейинги жараёнга ўтказди.

Automation – мазкур жараёнда идентификациядан ўтган автотранспорт воситаларини дастур икки хил тартиб таомилга бўлиб беради:

- Биринчи ҳолатда, товар ва автотранспорт воситаси автоматик равишда дастур томонидан расмийлаштирилади ва тўхтатилмасдан ўтказиб юборилади.(яъни яшил йўлакка тушганда)

- Иккинчи ҳолатда, товар ва автотранспорт воситаси чегарада махсус худудга ўтказилиб белгилан тартибда тегишли назорат органларидан назоратдан ўтказилиши талаб қилинади.(яъни қизил йўлакка тушганда)

Мазкур технологиянинг афзаллик томони автотранспорт воситаларини чегаралардан соддалаштирилган ва тезлаштирилган тартибда ўтиши бўлиб, ҳеч қандай хавф аниқланмаган товар олиб ўтаётган автотранспорт воситалари чегарадан ўтишида автоматик равишда олдиндан берган маълумотлари асосида расмийлаштирилиб, чегарада тўхтамасдан ўтиб кетади.

Америка ва Канада давлатларининг тажрибаларини кўрадиган бўлсак, АҚШ Божхона ва чегара хавфсизлиги ҳамда, Канада Чегара хизматлари агентлиги автотранспорт воситалари ва товарларга нисбатан божхона назоратини ва расмийлаштирувини ўтказишда сунъий интеллект⁹⁵ли инспекцион кўрик мажмуаларидан фойдаланган ҳолда амалга оширади. Мазкур инспекцион кўрик мажмуаларига бошқа давлатларнинг хавфни бошқариш тизими ўрнатилган бўлиб, инспекцион мажмуалари жуда катта ҳажмдаги маълумотлар билан ишлайди ва “**image recognition**”⁹⁶ тамойили асосида ишлайди. Яъни мазкур сунъий интеллектга алгоритм тузилади ва алгоритмга база киритилади. База деганда ҳар хил бир неча минг автомобиллар, контейнерларнинг расми, расмларда еса ҳар хил шакллар қайси товарни англатишини, шунингдек органик ва ноорганик моддаларнинг ранги қандай бўлиши, қайси ранг қандай товарни билдиришини киритилади. Сунъий интеллект еса бу нарсаларни қайта ишлайди, математик моделлаштиради ва ўрганиб олади. Ҳар бир янги товарларни автоматик базасига юклаб боради. Шу жумладан, мазкур давлатларда чегарадан ўтишда барча зарур маълумотлар электрон тақдим етилади. Товарларга нисбатан ваколатли шахс автотранспорт воситалари давлат чегараси орқали ўтишидан олдин товар, автотранспорт воситаси, шунингдек автотранспорт воситаси

⁹⁵ Сунъий интеллект – маълумотлар омборини тахлил қилган ҳолда инсон омилисиз ишловчи алгоритмларни қўлловчи машина.

⁹⁶ **Image recognition**- расмларни ўқиш, тахлил қила олиш.

тегишли бўлган логистик компания, ҳайдовчи ҳақидаги зарур маълумотларни электрон олдиндан белгиланган тартибда божхона ва чегара хавфсизлик хизматига юборади. Сунъий интеллектга эса бевосита мазкур электрон маълумотлар автоматик равишда келиб тушади. АҚШ ва Канада мамлакатлари қўшни бир неча давлатлар билан ўз мамлакати чегара божхона ҳудудидан ўтган автотранспорт воситалари тўғрисида зарур бўлган ахборотларни алмашишни ҳам йўлга қўйган. Сунъий интеллект мазкур маълумотларни ва олдиндан олинган электрон маълумотларни мантикий назоратдан ўтказиш орқали юкка нисбатан дастлабки йўлакни аниқлаб беради. Кейинги босқичда, сунъий интеллект автоматик равишда олинган электрон маълумотларни, рентген тасвирини ва базадаги маълумотларни мантикий наторазатдан ўтказди, математик моделлаштириш асосида уларни ўзаро солиштириб хавфни баҳолайди. Сўнг, сунъий интеллект ходимга аниқланган хавфлар тўғрисида хабар беради. Мисол сифатида, ҳужжатда кўрсатилган товарлардан бошқа яширинган нарсалар бор-йўқлиги, автотранспортда олиб ўтиладиган товарлар ҳужжатларда кўрсатилган товарга мос ёки эмаслигини, товар миқдори ҳужжатдаги миқдорига тўғри ёки ортиқча-камчилиги тўғрисида анализ қилиб беради. Сунъий интеллект зарур деб топганда, ходимга автотранспорт воситасининг қайси қисмида хавф борлигини ва шу жойни текширишни буюради.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси божхона чегарасини кесиб ўтаётган автотранспорт воситалари ва товарларни божхона назоратидан ҳамда божхона расмийлаштирувида хавфни бошқариш тизими ишга туширилган. Мазкур хавфни бошқариш тизими автотранспорт воситалари ва товарларни Ўзбекистон Республикаси божхона чегараси орқали олиб ўтаётган шахслар томонидан олдиндан юбориладиган дастлабки электрон ахборотни қайта ишлаш, таҳлил қилиш, мониторинг қилиш асосида хавфни баҳолайди ва йўлақларга бўлиб, божхона назорати тартибини белгилаб беради. Хавфни бошқариш тизими мазкур жараён давомида автотранспорт воситаси ва товарларни инспекцион кўрик мажмуасидан ўтказиш топшириғини бериши мумкин. Ҳозирги кунда авто чегара божхона постларимизга бириктирилган инспекцион кўрик мажмуаларида автотранспорт воситаларини ва товарларни рентген қилиш ва ва уни рангсиз тасвирини чиқариш имкониятигагина эгамиз. Мазкур тасвирларнинг таҳлилинини эса божхона ходимлари томонидан амалга оширилиб келинмоқда. Яъни хавфни бошқариш тизими фақатгина рақамларни ўқий олганлиги сабабли, расмларни таҳлил қила олмайди, бу эса иш ҳажмини анчгина кенгайтиради.

Ушбу муаммони ижобий ҳал қилишимиз учун:

- халқаро юк ташувчи автотранспорт воситаларида товарларни ташишда миллий божхона назоратининг бугунги кундаги аҳволини ўрганиш;

- Ўзбекистон шароитида халқаро юк ташувчи автотранспорт воситаларида товарларни ташишда божхона назоратининг хорижий тажрибаларини ўрганиш ва уларни миллий божхона тизимига қўллаш;

- халқаро юк ташувчи автотранспорт воситаларида товарларни ташишда божхона назоратини самарали ташкил этишда қўлланиладиган математик моделлаштириш усуллари ўрганиш;

- хорижий тажрибалардан ва миллий божхона қонунчилигидан келиб чиққан ҳолда, товарлар ва автотранспорт воситалари ҳақидаги маълумотлар базасини математик моделлаштириш асосида божхона назорати самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи Инспекцион кўрик мажмуасига дастурий таъминот ишлаб чиқиш;

- тадқиқот жараёнида олинган натижаларни ва ишлаб чиқилган дастурий таъминотни амалиётга татбиқ этиш ва уни такомиллаштириш, хатоликлар устида ишлаш;

- божхона қонунчилигига тегишли ўзгартиришлар киритиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш каби жараёнларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Шунингдек, юқорида келтирилган жараёнларни амалга оширишимиз учун давлатлар, вазирликлар ва идоралараро ташкилотлар автомобил транспортида ташилаётган товарлар ва автотранспорт ҳақидаги маълумотлар алмашинувини талаб даражасида йўлга қўйиш лозим бўлади.

Юқорида қайд этилган жараёнларни ижобий ҳал этиш:

- товарлар ва автотранспорт воситаларини ҳақидаги маълумотлар базасини математик моделлаштириш асосида божхона назоратини ташкил этишни қисман автоматлаштириш;

- товарлар ва автотранспорт воситаларини ҳақидаги маълумотлар базасини математик моделлаштириш асосида хавфни баҳолаш;

- ДБК Инспекцион кўрик мажмуасида хавфни бошқариш тизимини ишга тушириш орқали автотранспорт воситаларининг ва товарлар хавфлилик даражалари бўйича маълумотлар базасини шакллантириш;

- хавфни баҳолаш асосида товарлар ва автотранспорт воситаларини божхона назоратидан ўтказиш самарадорлиги ошириш;

- товарлар ва автотранспорт воситаларини божхона назорати ва расмийлаштирувидан ўтказишга сарфланадиган вақтнинг қисқариши;

- Республикамизда авто чегара божхона постларида божхона расмийлаштируви постларини ташкил қилиш орқали автотранспорт воситалари ва товарлар учун божхона назоратини ўтказиш жараёнларини жаҳон стандартларига интеграллашувини кузатишимиз мумкин бўлади.

Юқорида кўрсатиб ўтилган чет ел тажрибаларини Ўзбекистон Республикасида авто чегара божхона постларига жорий қилиш орқали биз божхона назорати тартиб-таомилларини соддалаштиришга, самарадорлигини оширишга, бунга кетадиган вақтни бир неча барорбарга камайтиришга, мазкур жараёнларни рақамлаштиришга, ҳамда бу орқали инсон омилини камайтиришга, божхона қонунбузарлик ҳолатларини самарали аниқлаш ва олдини олишга эришишимиз мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси. 2016 йил 20 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ етиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6005-сон Фармони. 2020 йил 5 июнь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш ва давлат божхона хизмати органлари ташкилий тузилмасини янада такомиллаштириш тўғрисидаги” ПФ-6310-сон Фармони. 2021 йил 10 сентябрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасининг давлат чегараси орқали ўтказиш пунктларида чегара, божхона, санитария-карантин, фитосанитария ва ветеринария назоратини ташкил етиш тартибини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 912 сон қарори. 2019 йил 18 ноябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасининг божхона худудига келадиган товарлар ва транспорт воситаларини расмийлаштиришда божхона тартиботларини соддалаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрида”ги 762 сон қарори. 2018 йил 25 сентябрь.
6. www.lex.uz
7. www.wikipedia.org
8. www.wcoomd.org
9. <https://www.cbp.gov/>
<https://www.douane.gouv.fr>

ФИО авторов: *Усмонова Дона Сотволдиевна*, ФарДУ, Филология ва тилларни ўқитиш кафедраси мудири

Ахмадалиева Дилдора Рахитдиновна ФарДУ, Магистратура 2-босқич талабаси

Название публикации: «ТИЛЛАРАРО АЛОҚАНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ЎЗЛАШМА СЎЗЛАРНИНГ РОЛИ»

АННОТАЦИЯ

Мақолада тиллардаги ўзлашма сўзларнинг бир тилдан лисоний алоқа туфайли бошқа бир тилга ўтиши ва шу тил лексикасининг бир қисмига айланган сўзлар ҳақида сўз юритилади. Ўзлашма сўзлар тил лексикасининг бойитишнинг асосий йўлларида бири бўлиб жаҳондага ҳамма тиллар ўзлашма сўзларни қабул қилади. Тилшуносликда ўзлашмага ўхшаш бир тушунча мавжуд бўлиб у код кўчиши деб юритилади. Код кўчишини ўзлашмадан энг асосий фарқи шундаки, унда бир нутқнинг ўзида икки ёки ундан ортиқ тилнинг элементларини учратиш мумкин.

Калит сўзлар: тиллараро алоқа, ўзлашма сўз, тил рецепиент, тил донор, гегемон тил.

РОЛЬ ЗАИМСТВОВАНЫХ СЛОВ В РАЗВИТИИ МЕЖЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Усманова Дона Сотволдиевна, ФарГУ, заведующая кафедрой филологии и преподавания иностранных языков

Ахмадалиева Дилдора Рахитдиновна ФарДУ, магистрант 2 курса

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается переход заимствованных слов в языках из одного языка в другой за счет языковой коммуникации и слов, вошедших в состав лексики этого языка. Заимствованные слова являются одним из основных способов обогащения словарного запаса языка, и все языки мира принимают заимствованные слова. В лингвистике есть похожее на заимствование понятие,

которое называется миграцией кода. Основное отличие от освоения миграции кода в том, что в одной речи можно встретить элементы двух и более языков.

Ключевые слова: межъязыковая коммуникация, заимствованные слова, язык-реципиент, язык-донор, язык-гегемон.

THE ROLE OF BORROWED WORDS IN THE DEVELOPMENT OF INTERLANGUAL COMMUNICATION

**Usmanova Dona Sotvoldievna, FarSU, Head of the Department of Philology and
Language Teaching**

Ahmadalievna Dildora Rakhitdinovna FarDU, Master's 2nd year student

ANNOTATION

The article deals with the transition of borrowed words in languages from one language to another due to language communication and words included in the vocabulary of this language. Loanwords are one of the main ways of enriching the vocabulary of a language, and all the languages of the world accept loanwords. In linguistics, there is a concept similar to borrowing called code migration. The main difference from the development of code migration is that in one speech you can find elements of two or more languages.

Key words: interlingual communication, borrowed words, language recipient, language donor, hegemonic language.

Тиллардаги ўзлашма сўзлар деганда бир тилдан лисоний алоқа туфайли бошқа бир тилга ўтган ва шу тил лексикасининг бир қисмига айланиб улгурган сўзлар тушунилади. Ўзлашма сўзлар тил лексикасининг бойитишнинг асосий йўлларида бири бўлиб жаҳонда ҳеч бир тил йўқки, у ҳеч қандай ўзлашма сўзларни қабул қилмаган бўлса.

Ўзлашмоқ – ўзга тилдан қабул қилинмоқ ҳозирги кунда ўзбек адабий тилида ўзлашган сўзлар кўп миқдордадир⁹⁷.

Тилшуносликда ўзлашмага ўхшаш бир тушунча мавжуд бўлиб у код кўчиши деб юритилади. Код кўчишини ўзлашмадан энг асосий фарқи шундаки, унда бир

⁹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 – том Тошкент Ўзбекистон нашриёт матбаа уйи 2008

нутқнинг ўзида икки ёки ундан ортиқ тилнинг элементларини учратиш мумкин. Бирор бир тушунчанинг ўзлашган шакли эса ўзлаштираётган тилнинг ичига сингиб кетган бўлиб уни деярли шу тилнинг ҳар бир вакили билади ва тушунади. Баъзи бир сўзлар тилда минглаб йиллардан бери ишлатилиб келинади ва кўпчилик уни ажнабий элемент эканлигини пайқамайди ҳам.

Масалан хитой тилидаги *путао* (узум) сўзи қадимги эроний тилдан кирганига икки минг йилдан ошди ва у *бодова* деб талаффуз этилган. Ҳозирги кунда у шу даражада хитой тилига сингиб кетганки кам сонли тилшунослардан ташқари уни ажнабий элемент эканлигини ҳеч ким сезмайди ҳам. У бошқа сўзлар қатори хитой тилининг муқим ишлатиладиган сўзидир, бошқача қилиб айтганда у хитой тилига тўлиқ сингиб кетгандир.

Ўзлаштирилган сўзнинг сингиб кетишининг ҳам ўзига яраша даражалари бор. У қай даражада ўзлашган сўз ўзлаштирган тилнинг грамматикасига, фонологиясига ва ёзув тизимига мос келишига боғлиқ. Масалан, японларнинг кўпчилиги билишадики *бежитариан* ва *баиорин* сўзлари инглизча вегетариан ва виолин сўзларидан ўзлашган. Баъзи японлар ҳатто япон тилида мавжуд бўлмаган *в* товушини талаффуз этиб *вежитариан* ва *ваиорин* деб ҳам талаффуз этади. Шунингдек, уларнинг ажнабий ўзакка эга эканлиги улар ёзиладиган алифбедан ҳам маълум, зеро бошқа ўзлашган сўзлар сингари мазкур сўзлар ҳам кенгрок доирада ишлатиладиган ҳирагана алифбосида эмас, балки катакана ёзувида ифода этилади. Ҳатто португалча бўлган ва бир неча асрлардан бери япон тилига сингиб ишлатиб келинаётган *пан* (нон) сўзи ҳам унинг хорижий сўз эканлигини билдириш учун катаканада ёзилади. *Пан* сўзи у ёқда турсин *бежитариан* ва *баиорин* сўзлари ҳам япон тили лексикасининг бир қисмига айланиб улгурган. Мазкур сўзларни ишлатиб ҳеч ким португалчага ёки инглизчага код свитч қилмайди.

Грамматикага сингишга мисол тариқасида эса лотинча *састу*, сифатида инглиз тилида ҳам кўплик ҳосил қиладиган *састус* сўзини мисол қилиб олсак бўлади. Шунинг билан бир қаторда инглиз тилида *састусес* шаклида ҳам кўплик

ясалиши мумкин⁹⁸. Бошқа бир мисолни эса сваҳали тилида таҳлил қиламиз. Сваҳали тили арабча *китаб* сўзини ўзлаштирган шунингдек инглизча *слуб* сўзи ҳам тилга кириб келган. Бу икки сўзнинг биринчи бўғини *ки-* худди префикс сифатида талқин қилинади ва кўплик ҳосил қилишда ушбу префикс ўзгаришга юз тутди ва сваҳали тилида *китабу* китоб ва *витабу* китоблар, *килабу* клуб ва *вилабу* клублар каби ясалади. Ўзбек тилида ҳам араб тилидан ўзлашган кўпгина сўзлар кўплик шакли билан ўзган бўлсада, ҳозирда улар худди жуфт сўзлар каби ишлатилади. Мисол учун, *хулқ-ахлоқ*, *ҳол-аҳвол* каби жуфт сўзлардаги биринчи элемент араб тилидаги отнинг бирлиги бўлса, иккинчи элемент араб тилидаги айни ўша отнинг кўплик шаклидир.

Ўзлашма сўзлар асосан тил реципиент ва тил донор ўртасида олди берди қилинади.

Тил реципиент – лотинча *ресепт қабул қилмоқ*⁹⁹ сўзидан олинган бўлиб, бирор бир ўзлашган сўзни ўз лексикаси таркибига қўшиб олувчи тил саналади.

Тил донор – лотинча *донаре совга қилмоқ*, *қурбонлик қилмоқ* сўзидан олинган бўлиб бошқа тилга ўзлашма сўз берадиган тилга нисбатан айтилади¹⁰⁰.

Масалан орангутан сўзи инглиз ва ўзбек тилларига малай тилидан таржима қилинганда “ўрмон одами” (“оранг” одам, киши “утан” ўрмон) деб таржима қилинади. Ушбу вазиятда инглиз ва ўзбек тиллари реципиент малай тили эса донор тил саналади.

Умуман олганда, ҳар қандай тил ҳам донор ҳам реципиент бўла олади ва амалда ҳар қандай тил шундай рол ўйнайди. Аммо жуда кўп ҳолларда донор тил реципиент тилга нисбатан ижтимоий, маданий ёки сиёсий жиҳатдан юқори мавқеда бўлиши кузатилган. Ҳозирги кунда эҳтимолки, инглиз тили энг оммавий донор тил саналса. Осиё ва Африка тилларининг кўпчилиги ҳозирда инглиз тилидан ўнлаб, балки юзлаб сўзларни ўзлаштирамоқдалар. Бир давлат бошқа бир давлат томонида колонияга айлантирилса, маҳаллий тиллар одатда катта

⁹⁸ Uriel Weinreich. Language in contact. 1953., pp 45

⁹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3 – том Ўзбекистон нашриёт матбаа уйи Тошкент 200., 381 б.

¹⁰⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 – том. Тошкент Ўзбекистон нашриёт матбаа уйи 2005., 654 б.

миқдорда оккупантларнинг тилининг элементларини ўзлаштиради. Мисол учун, вьетнам тили француз тилидан, Сенегалдаги волоф тили француз тилидан, Гамбиядагиси эса инглиз тилидан элементлар ўзлаштирган. Худди шунга ўхшаш ҳолат Ўрта Асрларда француз элитаси томонидан бошқарилган Англияда оддий одамлар гаплашадиган инглиз тилида ҳам юз берган.

Бошқа турдаги донор тиллар вазифасини эса бир пайтлар буюк маданият яратишда асосий ўрин эгаллаган халқларнинг тиллари эгаллаши мумкин. Хитой тилидан ўзлашган сўзлар катта миқдорда япон, корейс, вьетнам ва бошқа Шарқий ва Жанубий – шарқий Осиё тилларида анча – мунча топилади; худди шундай араб тилидан ўзлашган сўзларни ҳам урду, форс, турк, сваҳали, фула ва бошқа мусулмон дунёси мамлакатлари тилларида кўп миқдорда учратиш мумкин. Урду, турк ва ўзбек каби тиллар форс тилидан ҳам кўпгина сўзларни ўзлаштирганлар.

Баъзан эса, ҳатто ўлик тиллар ҳам донор тил функциясини бажариши мумкин. Шарқда Санскрит ва классик хитой тиллари амалда ҳеч кимнинг она тили бўлмаса-да, улар маданий жиҳатдан ҳамон замонавий тиллар учун манбаа сифатида фойдаланилади. Худди шу жараён ғарбда классик юнон ва латин тиллари миқёсида юритилади. Ҳозирги хитой тили мумтоз хитой тилидан ва ҳинд тили эса Санскрит тилидан нафақат қадимда мавжуд бўлган предмет ва тушунчалар учун сўзларни, балки янги инновациялар туфайли юзага келаётган тушунчалар учун ҳам янги сўз яратиш учун мазкур тилларга мурожаат этишади. Ҳинд тили Санскрит тилидан ўзлаштиради, урду тили араб тилидан ўзлаштиради ва айнан шу ҳодиса бу икки тилни ажратувчи асосий критериялардан бири сифатида кўрилади. Мисол учун ҳиндча *раҳмат* сўзининг бир кўриниши сифатида талқин этиладиган *дҳанявад* сўзи Санскрит тилидан олинган бўлса, урдуча *шукрия* сўзи эса араб тилидан олингандир. Лексик бўшлиқни тўлдирадиган реципиент тилдги ўзлаштирилган элементлар **маданий ўзлашмалар** дейилади. Ундай сўзлар ўзлаштирган тил маданиятига янги бўлган предмет ёки тушунча билан кириб келади. Масалан, кўпгина ғарбдаги тилларда

мавжуд бўлмаган японча *суши* сваҳалича *сафари* сўзлари бунга яққол мисол бўла олади.

Бошқа томондан олиб қараганда эса, реципиент тилдаги аллақачон мавжуд бўлган элементга мос тушувчи тушунчани ифодаловчи ўзлашмалар **ўзак ўзлашмалар** деб юритилади. Мисол тариқасидаги хитой тилидаги *зай жиан* (хайр) ибораси ўрнига ишлатиладиган *баи-баи* иборасини келтиришимиз мумкин. Ўзак ўзлашмалар янги тилдаги код-кўчишида ажнабий элемент сифатида пайдо бўлиб ва ишлатилиб келиниб, кейинчалик тилга тўлалигича қабул қилинади. Маданий ўзлашмалар ўзак ўзлашмаларга нисбатан анча кўп ўзлаштирилади.

Шундай қилиб тиллараро алоқа қуйидаги натижаларни беради:

1. Тиллараро алоқа ҳам донор тилни ҳам реципиент тилни бойишига олиб келади;

2. Икки тилни қоришиши натижасида янги тиллар яратилади(креол, пиджин, аралаш тиллар);

3. Гегемон тилни таъсирида тиллараро алоқа туфайли нисбатан заиф ҳисобланган тилнинг буткул йўқ бўлиб кетиши.

Ҳозирги кунда кенг глобаллашув жараёни тиллараро алоқани янада жадаллашишига олиб келмоқда, ҳамда дунёдаги гегемон тилларни, айниқса инглиз тилини, бошқа тилларга таъсири кўпайишига хизмат қилмоқда. Тиллараро алоқа бутун инсоният тарихи давомида гоҳ тез-тез гоҳ секинлик билан юз берган бўлсада, асло тўхтаб қолган эмас ва унинг тилларнинг ривожланишидаги ўрни беқиёсдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 – том Тошкент Ўзбекистон нашриёт матбаа уйи 2008
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3 – том Ўзбекистон нашриёт матбаа уйи Тошкент 200., 381 б.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 – том. Тошкент Ўзбекистон нашриёт матбаа уйи 2005., 654 б.
4. Uriel Weinreich. Language in contact. 1953., pp 45

ФИО автора: *Д.Н.Бабаева*

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши Судьялар олий мактаби
магистратура тингловчиси

Название публикации: «ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАР БОР
ЭКАН, ДЕМАККИ, КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ ВА УНИ
ТАРТИБГА СОЛУВЧИ НОРМАЛАРГА ҲАМ ЭҲТИЁЖ ТУҒИЛАДИ»

Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 30 июнь куни одил судловни таъминлаш ва коррупцияга қарши курашиш тизимини таҳлил қилиш билан боғлиқ видеоселектор йиғилишида қуйидагиларни вазифа сифатида белгилаб берган эдилар: коррупцияга қарши курашишда кадрлар тайёрлаш масаласига жиддий эътибор бериш, бунинг учун таълим йўналишларида коррупция муаммоларини ўрганиш бўйича алоҳида ўқув модули, махсус кафедра ва магистратура мутахассислигини очиш, раҳбар ходимлар, бу борадаги билим ва кўникмаларини шакллантириш бўйича малака ошириш курслари ташкил этилиши каби вазифаларни видеоселекторда таъкидлаб ўтилган. Шунингдек, 2018 йил Конституция қабул қилинган кун муносабати билан сўзлаган нутқларида, “Коррупция билан Ўзбекистон ҳеч қачон олдинга қўйилган мақсадларга эриша олмай эҳтиёжларини қондириш, халққа хизмат қилиш каби тушунчалардан ҳали узоқлигидан далолат беради”, - деган эдилар, президент.¹⁰¹

“Коррупция” атамасининг этимологик жиҳати хусусида турли фикрлар мавжуд. Кенг оммалашган биринчи фикр тарафдорларига кўра, этимологик жиҳатдан “коррупция” атамаси латинча “corruptio” сўзидан келиб чиққан бўлиб, “пора эвазига оғдириш” деган маънони англатади¹⁰².

Халқаро ҳужжатларда биринчи бор коррупция тушунчасига БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 1979 йил 17 декабрда қабул қилинган “Ҳукуқий тартиботни сақлаш бўйича мансабдор шахсларнинг хулқатвор кодекси”да тўхталинган бўлиб, унда коррупция деганда “... мансабдор шахснинг ҳар қандай шаклдаги мукофот эвазига ўз мансаб ваколатлари доирасида мазкур мукофотни берувчи шахс манфаатларини кўзлаб, лавозим йўриқномаси

¹⁰¹ Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 30 июнь одил судловни таъминлаш ва коррупцияга қарши курашиш тизимини таҳлил қилиш билан боғлиқ видеоселектор йиғилишидаги нутқи. www.xs.uz

¹⁰² Криминология. Учебник. Отв.редактор: М.Х.Рустамбаев. – Ташкент: ТГЮИ, 2008. – С. 219.

қоидаларини бузган ҳолда ёки бузмасдан муайян ҳаракатларни бажариши ёки ҳаракатсизлиги ” тушунилади дейилган.¹⁰³

Экспертларнинг фикрига кўра коррупцияга фақат пора олиш ёки бериш эмас, балки хизмат вақтида товламачилик, фирибгарлик, мулкни ўзлаштириш, фитна қилиш, хушомадгўйлик қилиш, совға олиш ва бериш, қариндошчилик, лоббизм фаолиятлари ҳам киради. Коррупцияни тўлиқ эмас, қисман чеклаб туриш мақсадида давлат хизматлар кўрсатиш тизимини рақамлаштириш керак деган фикрларни кўплаб олимлар илгари суради. Масалан, Сингапурда аҳолининг давлат ишчиси билан юзма-юз кўришиши танқид остига олинади. Коррупцияни енгишнинг турли ечимлари таклиф қилинади. Баъзилар аввало тизимни рақамлаштириш зарурлигини айтса, бошқалар ишчилар маошини кўтариш, қонуний жазони кучайтириш ва коррупция ҳолатларини аниқлаш бўйича алоҳида текширувларни амалга ошириш кераклигини таъкидлайди. Аммо одамлар дунёқарашини ўзгартирмай туриб, давлат хизмати устидан халқ назоратини ўрнатмай туриб бир нарсага эришиш қийин. XX асрнинг иккинчи ярмида кам ривожланган давлатларда коррупция жамиятнинг ривожланиши учун яхши, деган фикр кенг тарқалган (Лэфф, 1964; Хантингтон, 1968; Луи, 1985). XXI асрга келиб кўпчилик олимлар коррупциянинг фойдаларидан кўра зарарлари кўплигини тан олишди. Унинг устига коррупция ҳолатини яхши дейиш аслида давлат секторини яхшилаш, ривожлантириш вазифаси кейинга сурилишига олиб келди.

Юқоридагилардан шу нарса маълум бўладики, ушбу масала ўта жиддий, шунчалик жиддийки, бугун Ер сайёрасининг биронта давлати бу муаммодан холи тарзда фаолият юрита олмайди ва уларни доим огоҳликка чорлайди. Коррупцияга қарши курашишдаги комплаенс тизими ўз ичига нималарни олади, унинг ишлаш механизмлари нимадан иборатлиги ҳамда дастлабки илдилари қандай кўринишларда намоён бўлганлиги борасидаги қарашларни таҳлил қилиш баробарида коррупциянинг асл моҳиятини ҳам тушунишга уриниб кўрамыз.

Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг 3-моддасида коррупцияга берилган таъриф мавжуд. Унга кўра, “коррупция - шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда

¹⁰³ Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1979 г.).

фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш”дир.¹⁰⁴

Бизнинг фикримизча, коррупция бугун ундаги айрим аспектлар тушуниладиган тор доирадаги пора олиш ва бериш эмас, буларга қўшимча тарзда, манфаатлар тўқнашуви, коррупцион ҳаракатлар билан алоқадор дея қараладиган “непотизм”, “регионализм” ва бошқа шу каби тушунчаларнинг миқдор ва чегаралари билан бирга тушунилиши ва амалдаги қонунчиликда улар аниқ белгилаб қўйилиши керак. Бир нарса аниқ, жамиятда ижтимоий муносабатлар бор экан, демак, уни тартибга солувчи нормаларга ҳам эҳтиёж туғилди дегани. Коррупцион ҳаракатлар ҳам юқоридаги омиллар таъсирида кенг қамровда илдиз отиб борар экан, унинг барча жиҳатларини қамраб олиш ва тартибга солиш вазифалари давлат ва қонун ижодкорлари олдида катта маъсулиятни пайдо қилмоқда.

Давлат бошқаруви ва хўжалик органларида коррупцияга қарши курашиш бўйича самарали ички назорат (“комплаенс-назорат”) тизимини жорий қилиш ишлари бошланди. Хусусан, маъмурий ва бюрократик тўсиқларни бартараф этиш, рўйхатга олиш, лицензиялаш ва рухсат беришга доир тартиб-таомилларни соддалаштириш ҳамда уларнинг тезкорлигини ошириш мақсадида барча ҳудудларда давлат хизматлари марказлари ташкил қилинди. 2021 йил май ойига келиб Давлат хизматлари агентлигига қарашли марказлар орқали 157 турдаги шаффоф, қулай ва тезкор давлат хизматлари кўрсатилмоқда. Лицензиялаш ва рухсат бериш тизимини янада либераллаштириш ҳамда институционал жиҳатдан тубдан ислоҳ қилиш ишлари амалга оширилди.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқ, Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимиятининг мустақиллиги конституциявий принципига риоя этилишини таъминлашга кўмаклашадиган Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгашини ташкил этиш ва унинг фаолияти тартиби қонун билан белгиланиши қайд қилинди. Судьялик лавозимларига номзодларни танлаш ва тайинлаш тартибини янада такомиллаштириш зарурияти Судьялар олий кенгашини ташкил этишни тақозо қилди.

Кенгаш фаолиятини тартибга солувчи 2017 йил 7 апрелда “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида”ги Қонуни матбуотда эълон қилинди. Унинг муҳим жиҳатлари ҳисобида, судьяларини тайинлаш, Кенгашни шакллантириш тартибини амалга ошириши белгиланган эди.

¹⁰⁴ Ўзбекистоннинг халқаро коррупция рейтингларидаги ҳолати. Коррупцияни қандай йўқ қилиш мумкин. Интернет манба: <https://review.uz/oz/post/ozbekistonning-xalqaro-korrupsiya-reytinglaridagi-holati-korrupsiyaniqanday-yoq-qilish-mumkin> 2 Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни. www.lex.uz

Кенгашнинг асосий вазифалари этиб, судьялик лавозимларига номзодларни танлов асосида танлаш, энг малакали ва масъулиятли мутахассислар орасидан судьяларни тайинлаш, судьяларни касбий тайёрлашни, уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш, судьяларнинг фаолияти самарадорлигини баҳолаш, оммавий ахборот воситалари билан ўзаро ҳамкорлик олиб бориш, аҳоли билан мулоқотни йўлга қўйиш, судьяларни интизомий жавобгарликка тортиш тўғрисидаги, шунингдек уларни жиноий ва маъмурий жавобгарликка тортиш учун хулоса бериш ҳақидаги масалани кўриб чиқиш кабилар белгиланган.

20.09.2021 йилдаги «Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида»ги Қонунга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги ЎРҚ-717-сон Қонун билан Кенгашнинг асосий вазифалари кенгайтирилди, улар жумласига, судьялар орасида коррупция ҳолатларининг олдини олиш ва уларни барвақт аниқлаш бўйича чора-тадбирлар кўриш, суд тизимида аниқланган ҳар бир коррупция ҳолатини кўриб чиқиш ва принципиал баҳолаш, Кенгашнинг ҳамда суд тизимининг фаолиятида очиқлик ва шаффофликни таъминлаш бўйича чора-тадбирлар кўриш, раҳбар судьялик лавозимларига кўрсатиш учун муносиб судья кадрларни танлаб олиш, шунингдек уларни рағбатлантириш ва мукофотлаш масаласи юзасидан ташаббус кўрсатиш киритилди.

Кенгашнинг ваколатлари кенгайтирилди, улар жумласига, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судларининг раислари ва раис ўринбосарлари, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маъмурий судлари раислари ва раис ўринбосарлари, шунингдек Ҳарбий суд раиси ва раис ўринбосарлари лавозимларига тавсия этиладиган номзодлар бўйича Президентга тақдимномалар киритади, туманлараро, туман, шаҳар судларининг раис ўринбосарларини; вилоятлар ва Тошкент шаҳар маъмурий судлари судьяларини; туманлараро маъмурий судларнинг раисларини, уларнинг ўринбосарлари ва судьяларини; ҳудудий ҳарбий судларнинг раисларин; лавозимга тайинлайди, Судьялар олий малака ҳайъатининг хулосасига кўра, судьяларни уларнинг ваколатлари муддати даврида ўз аризаларига асосан, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судларининг судьялари; туманлараро, туман, шаҳар судларининг раислари, раис ўринбосарлари; вилоятлар ва Тошкент шаҳар маъмурий судлари судьяларини; туманлараро маъмурий судларнинг раисларини, уларнинг ўринбосарлари ва судьялари; Ҳарбий суднинг судьялари, ҳудудий ҳарбий судларнинг раислари лавозимларига

ўтказади, судьялар фаолиятини очик ва шаффоф электрон рейтинг дастури асосида баҳолаш мезонларини аниқлаш бўйича чора-тадбирлар кўради ва ҳ.к.¹⁰⁵

Коррупцияга қарши мурасасиз муҳитни яратиш жамоатчиликнинг кенг иштирокида амалга оширилмоқда. Хусусан, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш тизими тубдан такомиллаштирилиб, Президентнинг Халқ ва Виртуал қабулхоналар «Ишонч телефони» ҳамда ҳар бир вазирлик ва давлат идораларининг «ишонч телефонлари», «виртуал қабулхоналари» ташкил қилиниб, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш мақсадида барча даражадаги давлат раҳбарларининг «сайёр қабуллар»ни ўтказиш амалиёти йўлга қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармонида асосан 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси белгиланди, унга асосан мамлакатимизда адолат ва қонун устиворлигини тамойилларини тараққиётининг энг асосий ва зарур шартига айлантириш каби вазифалари қаторига, мулкӣ ҳуқуқларнинг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш ҳамда давлат органларининг мулкӣ муносабатларига ноқонуний аралашувини чеклаш, қонун устуворлиги ва конституциявий қонунийликни таъминлаш ҳамда инсон қадрини ушбу жараённинг бош мезони сифатида белгилаш, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг фаолияти устидан самарали суд назоратини ўрнатиш ҳамда фуқаро ва тадбиркорлик субъектларининг одил судловга эришиш даражасини ошириш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишига сабаб бўлган шарт-шароитларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этишнинг самарали тизимини яратиш, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг янги киёфасини шакллантириш ва уларнинг фаолиятини халқ манфаатлари, инсон кадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликларини самарали ҳимоя қилишга йуналтириш, суд ва бошқа органлар ҳужжатларининг ўз вақтида ва тўлиқ ижросини таъминлаш, адвокатура институтининг инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдаги салоҳиятини тубдан ошириш, шунингдек, аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг малакали ҳуқуқий хизматларга бўлган талабини тўлиқ қондириш, фаол фуқаролик жамиятини ривожлантириш ҳамда фуқаролар ўртасида қонунга ҳурмат ва итоат қилиш ҳиссини шакллантириш каби муҳим вазифалар белгиланди.¹⁰⁶

Конституциявий нормалар ҳамда қонун фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг ишончли суд ҳимоясини, суд ҳокимиятининг чинакам

¹⁰⁵ 20.09.2021 йилдаги «Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида»ги Қонунга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги [ЎРК-717](#)-сон Қонун

¹⁰⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони

мустақиллигини таъминлашга, судлар фаолияти самарадорлиги ва нуфузини оширишга, одил судловга эришиш даражасини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 30 июнь одил судловни таъминлаш ва коррупцияга қарши курашиш тизимини таҳлил қилиш билан боғлиқ видеоселектор йиғилишидаги нутқи. www.xs.uz

Криминология. Учебник. Отв.редактор: М.Х.Рустамбаев. – Ташкент: ТГЮИ, 2008. – С. 219.

Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1979 г.).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони

Ўзбекистоннинг халқаро коррупция рейтингларидаги ҳолати. Коррупцияни қандай йўқ қилиш мумкин. Интернет манба: <https://review.uz/oz/post/uzbekistonning-xalqaro-korrupsiya-reytinglaridagi-holati-korrupsiyaniqanday-yoq-qilish-mumkin> 2 Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни. www.lex.uz

20.09.2021 йилдаги «Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида»ги Қонунга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги [ЎРҚ-717](#)-сон Қонун

ФИО авторов: *Мамуров Саидалохон Абдурасулович*

Марғилон Абу Али ибн Сино номидаги

Жамоат саломатлиги техникуми директори

Гачадзе Санобар Лалайевна

Ўқув ва тарбиявий ишлар

бўйича директор ўринбосари

Каримов Бобур Бахтиёрович

Касбий таълим бўйича

директор ўринбосар

Юсупова Дилдора Бахтиёровна

Акушёрлик ва гинекология фани ўқитувчиси

Название публикации: «ПСИХИК РИВОЛЖЛАНИШДА ОРКАГА КОЛГАН БОЛАЛАР БИЛАН ИНДИВИДУАЛ ИШЛАШ МЕТОДИ»

Аннотация: Мактабгача таълим муассасалари тарбиячиларининг 6 касбий билим ва кўникмаларини малака талаблари асосида чуқурлаштириш, янгилаш ва таълим-тарбия жараёнида мактабгача ёшдаги болаларнинг ёш ва психологик хусусиятларига оид назарий - методологик асослари билан қуроллантириш, ўйин фаолиятининг бола тараққиётидаги ўрни, боланинг мактабга психологик етуклик жихатлари каби масалалари тўғрисидаги билимлар тизимидан фойдаланиш имконини берадиган замонавий компетенцияларини ривожлантириш.

Калит сўзлар: Кузатиш, ташки кузатиш, она кундалиги, табиий эксперимент, лаборатория эксперимент, эизаклар методи, интеллектуал тестла

Нуткида камчилиги булган болаларнинг психологик-педагогик диагностикаси курсининг асосий максоди ва вазифаси курс тингловчиларига болапар ва усмирлар нуткидаги камчиликлар таснифини бериш, нуткида нуксони булган болаларнинг психологик-педагогик диагностикаси й^ллари, методлари билан танипгириш, психологик-педагогик диагностикани ташкил этиш ва текширишни утказиш буйича билим беришдан иборат. Бу курени Зфганиш натижасида курс тингловчилари куйидаги билим, куникма ва малакаларни эгаллашлари лозим:

- нутк бузилишларининг сабабларини билиш;

- нутк бузилишларининг таснифига оид билимларни эгаллаш;
- сенсор, интеллектуал ва хиссий патологияда нутк ривожланишининг бузилишларини дифференциация қилиш малакасига эга бўлиш;
- психологик-педагогик тадқиқ этишнинг концептуал асосларини билиш;
- психологик-педагогик диагностика методлари ва уларга қўйиладиган талабларни билиш;
- логопеднинг диагностик (ташхис қилиш) фаолиятининг мазмуни ва уни ташкил этишни билиш;
- психологик-педагогик-логопедик текшириш бўйича хулоса тузиш ва амалий тавсиялар бериш. Ушбу қурени ўқишда психология, логопедия, логопсихология,

Психологик-педагогик диагностика фанининг мақсади, вазифалари ва қисқача тарихи 5 махсус психология ва махсус педагогика, махсус методика фанларидан олинган билимларга асосланилади. Психодиагностиканинг объекти - нутк бузилишларига эга ҳар хил ёшдаги кишиларнинг шахси, интелликти ва фаолиятининг ривожланиш қонуниятлари.

Психологик-педагогик методлар ёрдамида болаларнинг психик ривожланиш даражаси аниқланади, барча билиш жараёнларини, баҳо берилади, бола ўз ёшига қўра эгаллаши лозим бўлган малакалар ва қўникмаларнинг шаклланиши даражаси аниқланади. Психодиагностика предметиш нутки бузилган шахсларда психик жараёнларнинг ривожланиш даражаси, психик функцияларнинг шаклланиши, психик ҳолатларнинг мавжудлиги ва ифодаланганлиги, нуксонга эътибор бериш даражаси, индивидуал қўдиқлиқлари ташкил этади. Психологик-педагогик диагностика вазифалари:

- нуксон структурасида бирламчи ва иккиламчи сабаларнинг нисбатини аниқлаш;
- ў ўқи бу нутк бузилиши учун ҳос бўлган иккиламчи психологик симптоматикани аниқлаш;
- ҳар хил генездаги нутк бузилишларида психик ривожланишнинг умумий ва ўзига ҳос қонуниятларини аниқлаш;
- нутк бузилишларининг шахс шаклланишига таъсирини аниқлаш;
- психокоррекция ва психотерапия методларини аниқлаш;
- психотерапия ва коррекциянинг самарадорлик мезонларини аниқлаш ва бирга қўдаги таъсирининг баҳоларини белгилашдан иборат.

Психологик-педагогик диагностика психологик-лингвистик меъёрлар асосида аввалам бор нуткий симптоматика (симптомологик даража)ни аниқлашга

каратилади. Нуткий бузилишлар тахлилининг симптомологик даражаси болалар тили (нутки) ривожланмаганлигининг ташки белгилари (симптомлари)ни тавсифлаш, нуткнинг етарли даражада ривожланмай колган компонентлари (тулик ривожланмаганлик, фонетик-фонематик ривожланмаганлик ва х.к.)ни аниклаш б имконини берадики, бу, уз навбатида, болапарни болалар богчапарининг тегишли гурухлари ёки муайян турдаги мактабга йуллаш учун асос вазифасини утайди.

Шундай килиб, нутк бузилишларининг симптомологик даражасини аниклаш аввалам бор гурухларни шакллантириш билан боглик амалий вазифаларни хал этишга ёрдам беради ва нутк патологияси характерини аниклаш учун шарт-шароитларни яратади. Маълумки, бир хил патологияда (нутк бузилиши шаклида) тил тизими турлича камчиликларга эга булиши мумкин. Ва, аксинча, бир хил симптоматика (белгилар) нутк бузилишининг механизмларига кура турли шаклларда кузатилиши мумкин.

Масалан, нуткнинг тулик ривожланмаганлиги дизартриянинг яширин шаклида хам, мотор алалияда хам, болалар афазиясида хам кузатилиши мумкин. Олиб бориладиган логопедик иш жараёнида эса нуткнинг ривожланмаганлик даражаси, бузилган компонентларини хам, нуткий бузилишлар механизмлари ва шаклларини хам хисобга олиш гоят мухим. Логопедик фаолиятга тегишли бу хариккала жихатнинг бирлиги нутк бузилишларини имкон даражада дифференциалашган холда коррекциялашга ёрдам беради.

Логопедик ташхислаш умумийдан хусусийга караб олиб борилиши лозим. Яъни бунда нутк симптомлари (белгилари)нинг бутун мажмуини аниклашдан нутк патологияси механизмларини, шунингдек нуткий ва нуткий булмаган симптоматиканинг (белгиларнинг) узаро алоқаларини аниклаштиришга, нутк камчилиги тузилишини аниклашга утилиши мақсадга мувофиқдир.

Клиник-педагогик диагностика клиник синдромларга катъий равишда боглик эмас. У диққат-этиборни асосан логопедик таъсир курсатиш объекти булиши лозим булган нутк бузилишларига каратади. Логопедик хулосани тузиш жараёнида у ёки бу логопедик ташхисни аниклаш имконини берадиган тиббий маълумотлар, клиник тавсифларга купрок этибор берилади. Клиник тавсифлар нуткни коррекция килиш ва ривожлантириш тизимида эмас, асосан нутк бузилишларининг юзага келиш сабабларини аниклашга, болани даволашга йуналтирилган булади.

Махсус адабиётлар

1 .Нишонова З.Т., Алимова Г.К.. Болалар психологияси ва психодиагностикаси Т.: ТДПУ 2017.

2. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси. Назарий- экспериментал таҳлил Т.: Ношир 2010.
3. Дўстмухамедова Ш.А., Нишонова З.Т ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология Т.: Фан ва технологиялар 2013.
4. Шаповаленко И.В. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология): учебник для студентов вузов. – М.: Гардарики, 2007.
5. Асадов Ю., Мусурманов Р. —Ўсмирлар девиант хатти-ҳаракатининг ижтимоий-психологик хусусиятлари (диагностика, профилактика, коррекция)- Т.,2011
6. Содиқов Б. —Тарбияси қийин ўсмирлар психологияси, Термиз 2003 йил
7. Содиқов Б —Девиант хулқ болалар психологияси, Термиз 2010 йил
8. Тўлаганова Г.К —Тарбияси қийин ўсмирлар. Т, —Университет, 2005

ФИО авторов: *Xalilxodjayeva Shaxnoza Gafurovna* - Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabi biznes asoslari fani o'qituvchisi,

Umarova Guljaxon Erdanovna - matematika fani o'qituvchisi

Название публикации: «МАТЕМАТИКА ВА ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИНГ О'ЗARO ALOQALARI»

Annotatsiya Maqolada matematika va iqtisod fanlari mustaqil bilim sohasi bo'lib, ularning har biri o'z o'rganish ob'ekti va predmetiga ega ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, iqtisod, sanash, o'lchash, tavsiflash, matematik usullar, matematik modellar, iqtisodiy dinamika, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, amaliy matematika, o'yin nazariyasi, dasturlash, bashorat.

Аннотация. В статье утверждается, что математика и экономика являются самостоятельными областями знаний, каждая из которых имеет свой объект и предмет изучения.

Ключевые слова: Математика, экономика, расчет, измерение, описание, математические методы, математические модели, экономическая динамика, хозяйствующие субъекты, прикладная математика, теория игр, программирование, прогнозирование.

Annotation. The article states that mathematics and economics are independent fields of knowledge, each of which has its own object and subject of study.

Key words: mathematics, economics, calculation, measurement, description, mathematical methods, mathematical models, economic dynamics, business entities, applied mathematics, game theory, programming, forecasting.

Matematika va iqtisod fanlari mustaqil bilim sohasi bo'lib, ularning har biri o'z o'rganish ob'ekti va predmetiga ega. Matematika - aniq ob'ektlarning shakllarini sanash, o'lchash va tavsiflash amallari asosida tarixan rivojlangan tuzilmalar, tartib va munosabatlar haqidagi fan. Iqtisodiyot jamiyatning iqtisodiy faoliyati, shuningdek, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol tizimida rivojlanadigan munosabatlar yig'indisidir.

Mashhur amerikalik olim N. Vinerning fikricha, matematikaning roli bizni qamrab olgan tartibsizlikda ko'rinmas tartibni topishdan iborat. Matematikaning ushbu vazifasidan kelib chiqqan holda, uni o'rganish predmeti bizni o'rab turgan

dunyoda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan mavhum bog'lanishlarni ifodalashning miqdoriy shakllarini o'rganishdir.

Bundan kelib chiqqan holda, matematika fan sifatida aloqalarni o'rganish va shu asosda atrofimizdagi dunyo haqidagi eng yangi ma'lumotlarni olish uchun ko'p funktsiyali analitik usullarni yaratadi. Bu matematik apparatni bilimning turli sohalarida: iqtisod, tilshunoslik, kimyo, fizika, psixologiya va boshqalarda ishlaydigan olimlar duch keladigan ko'plab jumboqlarni yechish uchun universal vositaga aylantiradi, ular matematikadan juda uzoqda. Shuning uchun ham matematika fanlar malikasi deb ataladi.

Hozirgi vaqtda eng yuqori muvaffaqiyatlarga o'z tadqiqotlarida matematik apparatlardan eng keng foydalanadigan bilim sohaları erishmoqda. Matematikani amaliyotda qo'llashda tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganishda sezilarli natijalarga erishishga nima imkon beradi? Axir, matematikada shunday atamalar mavjudki, ular bir qarashda real hayotga bevosita aloqasi yo'q: matritsalar, integrallar, tenglamalar va boshqalar.

Matematik usullar va modellardan foydalanish kompaniyaning bozor sharoitidagi faoliyati darajasida ham, makroiqtisodiyotda ham - mintaq va mamlakat iqtisodiy faoliyatining jihatlarini rejalashtirish va tahlil qilish darajasida dolzarbdir.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining globallasuvi va jamiyatning yangi turi – axborot jamiyati shakllanishi sharoitida matematik modellar sayyoramizdagi sivilizatsiya evolyutsiyasini prognoz qilishning kuchli vositasiga aylanib bormoqda, bu esa sivilizatsiya rivojlanishini aniqlash imkonini beradi.

Iqtisodiyot va matematika o'rtasidagi bog'liqlik uchun asoslarni topish muammosi, bir tomondan, iqtisodiy tahlil, rejalashtirish, prognozlash va boshqarish tartib-qoidalarining aniqligini oshirish zaruratida bo'lsa, ikkinchi tomondan, uni amalga oshirishning qiyinligidadir. shaxsiy imtiyozlar va manfaatlar kabi ko'rsatkichlarni rasmiylashtirish va miqdoriy jihatdan aniqlashdadir. Shu ma'noda iqtisod va matematikaning predmet sohaları nafaqat kesishadi va qisman mos keladi, bu fanlarning o'zaro rivojlanishiga hissa qo'shadi, balki bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi ham mumkin.

Qadim zamonlardan XIX asrgacha matematika bilan faqat bir nechta tanlangan olimlar shug'ullangan. Matematikaning, xususan, muhandislik sohasining rivojlanishiga sanoat inqilobi yordam berdi, bu esa turli mexanizmlar va har xil turdagi mashinalarni takomillashtirish va yaratish zaruratini keltirib chiqardi. Katta yutuq o'tgan asrning ikkinchi yarmida, yadro fizikasidagi yutuqlar matematikaning, matematik ta'limning va yuqori unumdorlikdagi hisoblashning yanada rivojlanishiga olib kelgan paytda amalga oshirildi.

Shunga o'xshash hodisalar bizning davrimizda, matematikani rivojlantirishning keyingi bosqichi uchun zaruriy shart bo'lgan ko'plab ijtimoiy va turli xil iqtisodiy jarayonlarni boshqarish zarurati tug'ilganda sodir bo'ladi. Iqtisodiyot fan sifatida ko'p yillar davomida matematiklarning e'tiborini tortmadi, garchi, XIX asrning iqtisod bilan bog'liq bo'lgan matematik asarlarining alohida misollari mavjud bo'lsada.

Hozirgi vaqtda ba'zi mamlakatlarda, ayniqsa AQShda matematikaning klassik amaliy sohalaridan ko'plab olimlarning iqtisodiyotga migratsiya jarayoni sodir bo'lmoqda. Iqtisodiy tadqiqotlarda matematik modellashtirishga asoslangan matematik usullardan keng foydalaniladi.

Iqtisodiy hayotdagi aloqalar, iqtisodiy dinamika va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xatti-harakatlarini bashorat qilish nazariy modellarni matematik usulda qurishga asoslanadi - bu iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilishning eng muhim vositasidir. Butun dunyo olimlari uchun matematik modellashtirish zamonaviy iqtisodiy nazariya tiliga aylanib bormoqda. Masalan, korxonalar ishini rejalashtirish vazifasi iqtisodiyotda matematik modellardan foydalanishga misol bo'la oladi.

Bugungi kunga kelib, o'z tadqiqotlarida matematik apparatlardan keng foydalanish ushbu sohalarda eng katta muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi. Shuning uchun ham matematikani amaliyotga tatbiq etish tabiat va jamiyatning ayrim hodisalarini o'rganishda sezilarli natijalarga erishish imkonini beradi.

Matematikaning o'ziga xos bilim sohasi sifatida uni o'ziga xos qiladigan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- qoidalarni va munosabatlarni belgilashda - matematik formulalarni yaratishda hech qanday nomuvofiqlikka yo'l qo'ymaslik;

- matematik formulalar qat'iy shartlarga asoslanib, bir qancha aksiomalardan tuzilgan;

- ma'lum tushunchalarga ularning ma'nosini ochmasdan egalik qilish qobiliyati.

Aynan yuqoridagi barcha xususiyatlar tufayli matematik apparat barcha bilim sohalari uchun ko'p funktsiyali analitik vositaga aylanadi.

Iqtisodiyotning matematika oldiga qo'yadigan ma'lum vazifalari ularni hal qilish yo'llarini topishda uni rag'batlantirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning yangi matematik usullarga bo'lgan ehtiyoji matematikaning qobiliyatidan yuqori.

Amaliy matematikada o'yin nazariyasi, dasturlash, navbat va boshqalar kabi yangi yo'nalishlarning kelib chiqishi iqtisodiy haqiqatdir. Iqtisodiyot va boshqaruv sohasidagi turli mutaxassislarning yuqori kasbiy bilimlarini rivojlantirishda ko'plab matematik usullarni bilish yordam beradi va bu, birinchi navbatda, rivojlanishning xarakterli elementidir.

Aynan kadrlar matematika tomonidan yaratilgan turli xil analitik vositalardan foydalanuvchi hisoblanadilar, shuning uchun ularga matematik atamalarning mohiyatini tushuntirib, matematik sifatida emas, balki foydalanuvchi sifatida matematikani o'rgatish zarur. Iqtisodiy tahlil, statistik hisob-kitoblar, har xil ichki xarajatlar hisobini tashkil etish va aylanma hujjatini qisqartirish uchun korxonalar va tashkilotlar formulalarining soddaligi va boy iqtisodiy mazmuni tufayli xo'jalik amaliyotida matritsali usullardan tobora ko'proq foydalanmoqda.

Matritsa - bu $m \times n$ o'lchamdagi to'rtburchaklar jadval bo'lib, raqamlardan iborat va m qatorlar soni va n ta ustunlar sonidan iborat va quyidagi shaklga ega:

$A =$

Matritsaning iqtisodiyotning turli sohalarida eng oddiy qo'llanilishini ko'rib chiqing.

4 turdagi xomashyodan 4 turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan korxonani olaylik. Xom ashyoning sarflanish koeffitsientlari A matritsasining elementlari sifatida berilgan. Xom ashyo turi: 1, 2, 3, 4

Har bir mahsulot turi uchun xom ashyo tannarxini ularni chiqarish rejasini bilan topish talab qilinadi: 60, 50, 35 va 40 dona.

Yechim. Boshlash uchun biz mahsulot ishlab chiqarish uchun vektor rejasini tuzamiz. Keyin muammoni hal qilish xarajatlar vektori bilan beriladi, uning koordinatalari uning har bir turi uchun xom ashyo narxining qiymatlari; bu xarajat vektori vektor va A matritsasining mahsuloti sifatida hisoblanadi:

Ushbu masalada biz matritsadan foydalanib, korxonada tomonidan 4 turdagi xomashyodan 4 ta mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishning eng yaqin rejasini tuzishga muvaffaq bo'ldik.

Shunday qilib, iqtisod va matematika kabi ikkita mutlaqo boshqa fanlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq degan muhim xulosaga kelishimiz mumkin. Darvoqe maqsadli matematiklar yoki iqtisodchilar bugungi kunda kerak emas, lekin ikki xil yo'nalishda tayyorlangan mutaxassislar kerak. Yuqorida aytilganlarning barchasi matematik aniqlik va chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo'lgan turli iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqishga o'tishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda eng ko'p rivojlanayotgan tarmoqlar o'zlarida matematik apparatlardan keng foydalanadigan bilimlarni taqozo etadi. Matematikadan foydalanganda tabiat hodisalarini o'rganishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishishga nima imkon beradi? Jamiyatgacha? Yani, matematika shunday tushunchalar bilan ishlaydi, ular:

- birinchi qarashda haqiqiy hayotga hech qanday aloqasi yo'q;
- vektorlar, integrallar, differentsiallar, tenglamalar va boshqalar.

Matematika bilimning o'ziga xos sohasi sifatida uni o'ziga xos qiladigan xususiyatlarga ega. Ular quyidagichadir:

- har qanday og'ishlarga yo'l qo'ymaydigan qat'iy ta'rif munosabatlarni (bog'lanishlarni) qurish qoidalarini
- matematik formulalar;
- mos formulalar olinganda, u birinchi bo'lib postulatsiya qilinadi aksiomalar tizimi, so'ngra ulardan kelib chiqib, qat'iy qoidalar asosida tegishli matematik formulalar tuziladi;

- muayyan tushunchalar bilan ishlash qobiliyati, emas ularning mohiyatini ochib beradi, chunki olingan xulosalar mavhumdir xarakterga ega va ob'ektlarning xususiyatlariga mutlaqo bog'liq emas.

Aynan shu xususiyatlar matematik apparatni bilimning barcha sohalari uchun universal analitik vositaga aylantiradi.

Shunday qilib, ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan matematika, ilgari surilgan gipotezalarga asoslanib, qat'iy mantiqiy qoidalardan foydalangan holda, o'rganilayotgan ob'ekt haqida yangi bilimlarni olish, tegishli qoidalarni qayta qo'llash, ko'proq yangi bilimlarni olish va h.k. imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ilgari qurilgan binolar va qat'iy mantiqiy qoidalarga asoslangan matematik o'zgarishlar yordamida haqiqiy ob'ektlarning yangi xususiyatlari va munosabatlarini (bog'lanishlarini) o'rnatish; keyin empirik tarzda tasdiqlanishi mumkin. Bu matematikani kuchli fanga aylantirgan narsadir.

Matematik modellar yordamida yangisini olish haqiqatga mos keladigan ma'lumotlar mavjud bilimlarga asoslanib, modelda ko'rsatilgan sifatli shartlarni shakllantirish kerak.

Mashhur ingliz matematigi Geksli shunday yozgan edi: "Matematik tegirmon toshidek tagiga ko'milgan narsalarni maydalaydi. Qushga sepilgan donni to'ldirish orqali bug'doy unini olmaganingiz kabi, formulalar bilan butun sahifalarni yozish orqali siz yolg'onlardan haqiqatni ololmaysiz.[5, b. 6].

Iqtisodiyotda matematika nisbatan yaqinda qo'llanila boshlandi. (1738 yildan), Fransua Kene o'zining birinchi jadvalini qurgan va nashr etganida. Bu ijtimoiy mahsulotning takror ishlab chiqarish jarayonini yagona butun sifatida miqdoriy tavsiflashga birinchi urinishdir.

Hozirgi vaqtda makro va mikroiqtsodiyotning rasmiylashtirilishi amaliy iqtisodiy fanlarning rivojlanishi yuqori daraja bilan bog'liq. Buning asosini amaliy matematika sohasidagi taraqqiyot qo'ydi: matematik dasturlash, o'yin nazariyasi, matematik statistika, navbat nazariyasi va boshqalar, shuningdek, katta hajmdagi dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini bergan axborot

texnologiyalari sohasidagi taraqqiyot (busiz matematikani iqtisodiy amaliyotga joriy etish mumkin emas edi).

Iqtisodiyot va matematikaning umumiy tomoni shundaki, ular yuqori darajadagi murakkablikdagi mavhum ob'ektlar bilan ishlashadi. Hamma narsa formulalar mavhumdir. Iqtisodiy jarayon va hodisalar, fazoviy xususiyatlar, iqtisodiy munosabatlar ham mavjud bo'lmagan iqtisodiy abstraktsiyalardir. Shuning uchun iqtisod matematikadan foydalanish uchun qulay zaminga aylandi.

Shunday qilib, ikkita mutlaqo boshqa fanlar uchun – iqtisod va matematika yaqin o'zaro ta'sir bilan tavsiflanadi. XXI asrda biznes muhitining tez o'zgarishi, rivojlanishning yuqori sur'atlari intellektual texnologiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyotdan bosqichma-bosqich o'tish, moddiy resurslarga asoslanib, bilim iqtisodiyotiga, bu o'zaro ta'sirni kuchaytiradi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar shunday tarmoqlangan tashqi va ichki bilan tavsiflanadi, ularning holati va xatti-harakatini aniqlaydigan aloqalar uchun bu samarali zamonaviy matematik apparatlar, axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan turib ularni boshqarish mumkin emas. Bu tasdiqlangan transmilliy korporatsiyalar tomonidan qo'llaniladigan biznesni boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyotda hozir o'tmishni tushuntirish, kelajakni ko'rish va iqtisodiy tadqiqotlarda matematikaning haqiqiy qo'llanilishi o'z harakatlarining oqibatlarini baholash, bundan ham ko'proq narsani talab qiladi sa'y-harakatlari, yangi fundamental bilimlar yetarli emas.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Гулай Т.А., Жукова В.А., Мелешко С.В., Невидомская И.А. Математика /Рабочая тетрадь. Ставрополь, 2015.
2. Гулай Т.А., Долгополова А.Ф., Мелешко С.В. Математические методы исследования экономических процессов //Международный журнал экспериментального образования. 2016. № 12-1. С. 116-117

3. Гулай Т.А., Невидомская И.А., Мелешко С.В. Анализ и оценка приоритетности разделов дисциплины «математический анализ» изучаемой студентами инженерных направлений // European Social Science Journal. 2013. № 8-2 (35). С. 109-115.
4. Коннова Д.А., Леликова Е.И., Мелешко С.В. Взаимодействие математики с экономикой //Современные наукоемкие технологии. 2014. № 5-2. С. 159-161.
5. Линейная алгебра (учебное пособие) / Крон Р.В., Попова С.В., Долгих Е.В., Смирнова Н.Б. // Международный журнал экспериментального образования. 2014. № 11-1. С. 115.
6. Светличная В.Ю., Орехова Н.В., Мелешко С.В. Применение элементов линейной алгебры в экономике //Современные наукоемкие технологии. 2014. №5-2. С. 174-175.
7. Сизова С.А., Мурдугова В.Ю., Мелешко С.В. Линейное программирование как область математического программирования при решении экономических задач. //Theoretical & Applied Science. 2013. № 6 (2). С. 16-20.

ФИО авторов: Ташкентский Государственный

Технический Университет

Махкамова М.А. (д.э.н., профессор)

Саидов Ж.Б. (магистр)

Название публикации: «ТРАНСПОРТНАЯ ЛОГИСТИКА В МАРКЕТИНГЕ»

***Аннотация.** Вопрос о взаимодействии маркетинга и транспортной логистики часто перетекает в выяснение вопроса кто важнее в компании. Гораздо продуктивнее будет проанализировать реальные моменты столкновения или пересечения интересов двух функциональных отделений и определить, каким же образом они должны взаимодействовать. Представлены аргументы, обосновывающие проблемы взаимодействия отделов маркетинга и логистики в компаниях-производителях товаров повседневного спроса. Дана современная трактовка основных проблем координации, определена роль служб маркетинга и логистики. Прослежена связь эффективности управления при грамотном взаимодействии служб маркетинга и логистики.*

***Ключевые слова:** маркетинга, логистика, транспорт, управление, спрос, цена.*

Транспортное логистическое управление, распространяясь на все стадии производственно-сбытовой деятельности, включает в себя элементы маркетинга и организации производственного процесса. Логистика использует методы маркетинга для анализа рынка, решения задач целеполагания и установления горизонтальных связей, а помимо этого включает в свою компетенцию задачи организации производственного процесса и его ведения, управления запасами, транспортировки, складирования, организации сбыта, управления и контроля информационными и финансовыми потоками, для чего в ряде конкретных случаев используются методы локально административного управления.

Логистика в транспорте дополняет маркетинг, увязывая потребителя, производителя, субподрядчика, транспорт и сбытовика в единую оперативную систему. Такая система функционирует в соответствии со сквозным технологическим процессом и использует однотипные и совместимые технические средства. Если маркетинг очерчивает задачу системного подхода к организации движения товаров, то логистика рассматривает и предлагает также методы технологической и технической реализации этого процесса и интеграции всех его участников. Логистика – это часть экономической науки, а также область деятельности, предмет которой заключается в организации, регулировании и контроле процессов функционирования сферы обращения продукции, товаров и услуг, создании инфраструктур, обеспечивающих товародвижение, а также управления ими и товарными запасами. Логистика объединяет в единый комплекс такие разнообразные виды управленческой

деятельности, как информационный обмен и финансовое обеспечение; упаковку, ведение складского хозяйства и управление запасами; организацию груз переработки и груз транспортировки; создание организационных структур, управление процессами товародвижения и персоналом; учёт, документооборот и пр.

Фактор цены в транспортной логистике оказывает прямое влияние на достижение фирмой корпоративных или финансовых стратегических целей, задаваемых маркетингом. Взаимодействие логистики и маркетинга в таком параметре как «место» представляет собой проблему выбора точек сбыта основного объема готовой продукции. Взаимосвязь маркетинга и логистики обширна и разнообразна, так как они тесно увязаны между собой единым алгоритмом управления бизнес-процессами. Современные рыночные условия характеризуются динамичностью и высокой степенью конкуренции. Направление спроса определяется посредством нужд и запросов потребителя. При этом играет важную роль насыщенность текущего рынка товарами. Постоянно востребованная группа товаров, приобретаемая регулярно, без сомнений и особого сравнения товаров между собой, попадает в большую зону риска относительно ротации, связанной с модификацией продукции согласно запросам потребителей и экономической составляющей государства в целом[1].

Маркетинг и транспортная логистика в свою очередь является инструментом улучшения хозяйственной деятельности для преобразования ресурсов в товары и услуги. В связи с возникновением проблем в взаимодействии логистики и маркетинга на предприятии, рассмотрим основные проблемы, возникающие при неграмотного управления отделами маркетинга и логистики на примере наиболее динамичной категории товаров. Одной из ключевых проблем крупных компаний является **обособленность функциональных подразделений**. В рамках одной компании неосведомленность отделов о деятельности друг друга может привести к рассогласованности действий внутри организации. Дисбаланс цепочки поставок в рамках различия систем оценки функциональных подразделений оказывает отрицательное влияние на себестоимость продукции, качество и параметры обслуживания клиентов, производительности активов и, как следствие, формирование доходов организации[2].

Эффективность внутренней коммуникации между отделами способствует достижению наилучших результатов в рамках бизнес- процессов. Обмен информацией необходим для координации задач и действий с целью продвижения организации в нужном направлении[3]. Согласованность работы отделов логистики и маркетинга является залогом получения максимальной прибыли предприятием путем своевременного удовлетворения спроса, формирования дистрибутивных каналов и сетей, управление информационными потоками для возможности быстрого и качественного обмена информацией[4].

Преувеличения функциональной роли подразделений также является проблемой которая представляет собой результат стремления менеджеров отделов к наилучшим показателям своих направлений. Функциональные

направления рассматривают свои отделы как наиболее значимые, стараясь укрепить позиции в компании, руководствуясь только своими целями и задачами. Высокий уровень профессионализма сотрудников в узких областях знаний способствует достижению максимизации показателей подразделения, но в то же время затрудняет фокусирование на вопросах эффективности всей компании[5].

Кроме этого следует что при отсутствии четкого разграничения целей, задач и функций отделов маркетинга и логистики не получится достичь максимального эффекта достижения максимальной отдачи. В процессе формирования общих условий ресурсного обеспечения и реализации продаж товаров отделом маркетинга логистика отвечает за оптимизацию потоковых процессов товародвижения[6]. Основная цель хозяйственной политики фирмы заключается в повышении эффективности общей деятельности компании и максимизации конечного результата[7].

Для возможности их достижения необходимо понимание целей и задач отдельных подразделений организации. Данные подзадачи являются частью общих целей компании относительно дивизионального распределения. Они являются множественными, краткосрочными в отличие от общих целей компании и связаны с процессом планирования текущей деятельности компании[8].

Неправильно задач и функциональных зон ответственности маркетинга и в транспортной логистики приводит к недостаточному уровню сервиса, высоким издержкам и становится причиной потери конкурентных преимуществ компании. [9]. В данной статье выделено три основные проблемы взаимодействия служб маркетинга и логистики в компаниях-производителях товаров повседневного спроса.

Маркетинг предопределяет предметную спецификацию и ассортиментную структуру производства, что влияет на формирование и дальнейшее развитие логистической системы; в то время как логистика имеет практический интерес, помогая решить основную задачу управления потоками, т.е. товар должен быть конкретизирован с точки зрения количества и качества продукции[10]. Управляя маркетингом и логистикой можно формировать конкурентное преимущество компании, поэтому направления данных отделов производственно-хозяйственной деятельности обладают синергетическим эффектом, но при этом нельзя сказать, что система управления не может быть сфокусирована на одном направлении маркетинга или логистики. В условиях экономического дисбаланса только совокупное взаимодействие, развитие и четкое понимание целей и задач логистики и маркетинга способно оказать компаниям поддержку.

Использованная литература:

1. Котлер, Ф. Основы Маркетинга. Краткий курс / Ф. Котлер. –М. : Вильямс, 2010. – 656 с. – ISBN 978-5- 8459-0376-1.

2. Теория жизненного цикла: подробный обзор [Электронный ресурс]. Режим доступа : <http://powerbranding.ru/tovar/zhiznennyjtsikl/> (дата обращения : 01.02.2016).
3. Петров, А. А. Основы управления : учебное пособие для бакалавров / А. А. Петров. – М. : Проспект, 2013. – 232 с.
4. Кирюков, С. И. Организация, планирование и контроль маркетинговой логистики [Электронный ресурс] С. И. Кирюков.– Режим доступа:http://www.elitarium.ru/organizacija_marketingovoj_logistiki/(дата обращения : 01.02.2016).
5. Друкер, П. Ф. Практика менеджмента : уч. пос. / П. Ф.Друкер. – М. : Вильямс, 2009. – 400 с.
6. Голиков, Е. А. Маркетинг и логистика – новые инструменты хозяйствования: учеб. пособие /Е. А. Голиков. –М. : Экзамен, 2006. – 220 с. – ISBN 5-472-01312-7.
7. Голиков, Е. А. Маркетинг и логистика : учебное пособие / Е.А. Голиков – М.: Академический Проспект, 2006. – 488 с. – ISBN-5-8291-0718-X.
8. Зуб, А. Т. Стратегический менеджмент: учебник для бакалавров / А. Т. Зуб. – М. : Юрайт, 2013. – 375 с. – ISBN 978-5-9916-2586-9.
9. Relationship between sustainable development of branches of fuel and energy complex and growth GDP Makhkamova, M.A., Allaeva, G.J.
- 10.Будрин, А. Г. Проблемы маркетинга. Логистика: Маркетинг в контексте полидисциплинарного подхода к изучению // А. Г.Будрин, А. М. Немчин, В. Н. Татаренко // Проблемы современной экономики. – 2012 –10. № 1 – С. 193–195.

ФИО автора: *Majidova Mehrinigor Shavkat qizi*

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti “Tabiiy va gumanitar fanlar” fakulteti 1-2ХТА-21 guruhi talabasi

Название публикации: «YANGI O‘ZBEKISTONNI BIRGALIKDA QURAMIZ»

Yangi O‘zbekistonimiz haqida so‘z boshlashdan avval uning tarixda tutgan o‘rni haqida fikr yuritsam. Tarixdan shuni bilamizki, o‘tmishda O‘zbekistonda qachadan qancha buyuk zotlar o‘tgan. Ular yosh avlodlarga ya’ni bizlarga qanchada qancha buyuk, qimmatli asarlar meros qoldirganlar. Misol uchun birgina O‘zbekistonning Buxoro shahrida tavallud topgan Ibn Sino yaratgan “Al qonun fit-tib” asari Yevropada XVII asrgacha o‘quv qo‘llanma vazifani bajargan.

Ko‘hna tarix shundan dalolat beradiki, bu hayotda yangilik qilish, ko‘pchilik odamlar o‘rganib, ko‘nikib qolgan eskicha qolip va andozalarni o‘zgartirish hech qachon oson kechmaydi. Istaymizmi, yo‘qmi, bunday harakat har qanday sharoitda ham ochiq yoki pinhona to‘siqlarga duch keladi. Ayniqsa, xalqni uyg‘otish, mudroq qalblarga hayotbaxsh yangi nafas olib kirish, davlat va jamiyat boshqaruvini butunlay yangilash masalasi islohotchi bo‘lib maydonga chiqishdek buyuk missiyani o‘z zimmasiga olgan yetakchi shaxsdan yanada ulkan mas’uliyat, jasorat va donishmandlikni talab etadi. Hech shubhasiz, istiqlol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo‘lida tarixiy ishlar amalga oshirildi, mard va olijanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi – Asosiy qonunimiz ishlab chiqildi va qabul qilindi. Vatanimiz suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi.

O‘zbekistonda zamonaviy davlatchilik asoslari yaratilib, konstitutsiyaviy tuzumga asos solindi. Davlat hokimiyatining uchta mustaqil tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari qaror topdi. Tom ma'nodagi konstitutsiyaviy davlat barpo etildi. Bu borada Prezidentimizning fikrlarini aytib o‘tsam: “O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti va davlat mustaqilligini,

sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch-osoyishta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlar tashkil etildi. Milliy valyutamiz – so'm joriy etildi va oltin-valyuta zaxiralarimiz shakllantirildi. Qadimiy tariximiz, boy madaniy merosimiz, milliy-diniy qadriyatlarimiz, o'zligimiz tiklandi. Mana shunday unutilmas tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etish nasib etganidan baxtiyorman. Mustaqil taraqqiyot borasida erishgan ulkan yutuqlar bilan birga, yo'limiz ayrim xato va kamchiliklardan ham xoli bo'lmaganini ochiq aytish lozim. Mustabid tuzumdan voz kechib, demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan jarayonlar, murakkab va tahlikali davrning o'zi turli muammo va vazifalarni oldimizga ko'ndalang qo'ydi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun bilim va tajribamiz, iroda va qat'iyatimiz ba'zan yetsa, ba'zida yetmagan holatlar ham bo'ldi. Shu bois mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish ob'ektiv zarurat, eng muhim strategik vazifaga aylandi. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa **“Renessans”** – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon. Ma'lumki, bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. Bu – jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun **“Yangi O'zbekiston”** va **“Uchinchi Renessans”** so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

So'nggi kunlarda Prezidentimiz yoshlarga qanchadan-qancha shart-sharoitlar yaratmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Darhaqiqat, yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan

marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar”. Muxtasar aytganda, so‘nggi besh yil davomida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni komil inson sifatida yetishi uchun zamin yaratildi. Yoshlarga berilayotgan bu e‘tibor, oxir-oqibat, o‘z mevasini bermoqda. Bunga yoshlarimiz xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Mazkur islohotlarning samarasi o‘laroq kelajagimiz bunday yoshlar qo‘lida porloq bo‘lishiga hech qanday shubha yo‘q. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O‘zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi. Albatta barchamiz birlashib Yangi O‘zbekistonimizni yangidan quramiz deb barilla ayta olamiz. Hayotiy haqiqatlardan misol qilib aytsak o‘zbek xalq maqollarida: “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”, “Kuch-birlikda” degan maqollar fikrimiz dalili hisoblanadi. Biz barchaga qo‘rqmasdan ayta olamizki, O‘zbekiston yoshlari hozirgi kundagidek bilimli, shijoatli bo‘lsa, albatta Yangi O‘zbekistonni ham shunday qurishadi.

Shu bilan birga, barchamiz jamiyatda yutuqlarga erishish va taraqqiyotni yuksaltirish o‘z-o‘zidan bo‘lmasligini, bu yo‘lda o‘ziga xos murakkabliklar ham yuzaga kelishini to‘g‘ri anglashimiz lozim. Chunki, hayotda tez va hech qanday yo‘qotishlarsiz hal qilib bo‘lmaydigan muammolar ham mavjud. Barcha o‘zgarishlar uchun, birinchi navbatda, vaqt va izchillik kerak. Shu sababli amalga oshirilayotgan strategiyaning pirovard muvaffaqiyati va uning to‘liq amalga oshirilishi uchun biz jamiyat hayotidagi yangilanishlarni qo‘llab-quvvatlashimiz va bu yo‘lda birlashishimiz, hamisha oldinga qarab barqaror va og‘ishlarsiz harakat qilishimiz lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--yoshlarga-yangi-imkoniyatlar>
2. <https://uzreport.news/politics/prezident-yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans-sozlari-hayotimizda-ozaro-uygun-va-hamohang>.
3. <https://daryo.uz/2021/08/17/shavkat-mirziyoyev-yangi-ozbekiston-gazetasiga-intervyu-berdi/>

ФИО автора: *Рахмонов Баходир Мирзаевич*

ТИҚХММИ тадқиқотчиси

Название публикации: «“МИЛЛИЙ ҒОЯ” ВА “ЭТНОМАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАР” ТУШУНЧАЛАРИНИНГ МОҲИЯТИ ВА ФУНКЦИОНАЛ АҲАМИЯТИ»

Аннотация: Мақолада миллий ғоя ва этномаданий қадрият тушунчаларининг моҳияти ва аҳамияти таҳлил қилинади. Хусусан, миллий ғоя ўзига хос шартлар ва омилларнинг объектив ифодаланиши ўлчови билан ҳам, улардаги миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро боғлиқлиги билан ҳам фарқ қилиши, этномаданият эса ўзбек халқининг миллий хусусиятларини ифода этадиган воқелик, миллий маънавиятнинг ўзаги эканлиги очиб берилган.

Калит сўзлар: миллий ғоя, мафкура, этномаданият, қадрият, Янги Ўзбекистон, тарих, жамият, давлат.

Инсониятнинг кўп асрлик тарихида миллий давлат қуришга интилган ҳар бир халқ ўз олдига қўйган юксак вазифаларни амалга ошириш, шу йўлда миллатни бирлаштириш ва сафарбар қилишда миллий ғоя таянч эканлигига алоҳида эътибор берган. Бу ҳақида Шавкат Мирзиёев шундай деган эди: “...биз барпо этаётган Янги Ўзбекистон мафкураси аввало инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик мафкураси бўлади. Ўзбекистон тараққиётининг бугунги жараёнлари миллий ғоя ва маънавий янгиланиш йўналишида ҳам жамият ва давлатимиз ривожининг янги босқичи бошланганидан далолат беради¹⁰⁷.”

Ғоя – бу концепция, тасаввур ва у нафақат объектив воқеликни акс эттиради, балки одамларни пировард мақсадга, масалан, ватан равақига эришиш учун уни ҳаракатга келтиради. Ғоя кўпчилиқни қамраб олганда, у улкан кучга эга бўлади ва нафақат воқеалар ривожини ўзгартириши, балки олдинги ғояларни ағдариши, тафаккур стереотипини ўзгартириши ва одамлар онгида ўзгариш ясаши мумкин.

¹⁰⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси –Тошкент:, Ўзбекистон, 2021. –Б. 293

Аммо мафкура кўп сонли ғоялардан келиб чиқиб, тизимга айланганда, одамларни пировард мақсадга эришишга йўналтира олади. “Миллий ғоя эса халқнинг олий мақсадлари, идеаллари, эркинликка ва тараққиётга интилишининг мужассам ифодаси сифатида миллий маънавиятнинг моҳиятли ўзак тушунчасини ташкил этади”¹⁰⁸.

Инсониятнинг кўп асрлик тарихида миллий давлат қуришга интилган ҳар бир халқ ўз олдига қўйган юксак вазифаларни амалга ошириш, шу йўлда миллатни бирлаштириш ва сафарбар қилишда миллий ғоя таянч эканлигига алоҳида эътибор берган. Бу ҳақида Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти Ислам Каримов шундай деган эдилар: “Миллий ғоя деганда, аجدодлардан авлодларга ўтиб, асрлар давомида эъзозлаб келинаётган, шу юртда яшаётган ҳар бир инсон ва бутун халқнинг қалбида чуқур илдиз отиб, унинг маънавий эҳтиёжи ва ҳаёт талабига айланиб кетган, таъбир жоиз бўлса, ҳар қайси миллатнинг энг орзу-интилиш ва умид-мақсадларини ўзимизга тасаввур қиладиган бўлсак, ўйлайманки, бундай кенг маъноли тушунчанинг мазмун-моҳиятини ифода қилган бўламиз”¹⁰⁹.

Илмий тадқиқотларда ғояни турли мафкуралардан юқори турувчи ҳодиса сифатида баҳолашга интилиш ҳам мавжудлигини қайд этиш зарур.

Хусусан, С. Тиллаев ва Г.Инсопова нафақат халқаро майдонда, балки бир мамлакатда ҳам турли мафкуралар бўлиши мумкинлигини таъкидлаб шундай ёзадилар: “Масалан, ҳар бир партиянинг ўзининг дастури, йўналишлари бўлиши мумкин. Аммо шу нарса эътиборлики, ҳар бир мамлакатда ўзининг тараққиёт йўли, барча мафкурадаги кишиларни бирлаштирувчи ғоялари бўлади. Бу ғоянинг номини миллий ғоя дейиш мумкин. Ҳар бир партиянинг ўзини мафкураси бўлиши мумкин, лекин миллий ғоя ҳар хил фикр, ҳар хил маслак, йўналишдаги одамларни келажак, мамлакат тақдири йўлида, тараққиёт йўлида бирлаштирувчи

¹⁰⁸ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси / А. Эркаев. - Тошкент: «Маънавият», 2018. – Б. 224.

¹⁰⁹ Каримов И.А. “Юксак маънавият - енгилмас куч.” -Т., “Маънавият”, 2008. 71-72 бет.

ғоя бўлади. Бундай ғоялар тизимига масалан, мустақилликни асраш, Ватанни севиш, озод ва обод жамият қуриш ғояларини киритиш мумкин”¹¹⁰.

Миллий онг ва ўзликни англашнинг ривожланиши миллий ғоя имкониятларини кенгайтириб туради. “Миллий ўзлик ва маънавий қадриятларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортиб бормоқда. Дунёдаги айрим сиёсий марказлар томонидан баъзи ҳудудларда сунъий равишда беқарор вазият юзага келтирилмоқда, норозилик кайфиятлари авж олдирилмоқда. Айниқса, бугун тобора чуқурлашиб бораётган глобал иқтисодий инқироз турли фитналар учун янада қулай шароит яратишини унутмаслигимиз лозим”¹¹¹.

Ғоя ва мафқуранинг нисбати ҳақида гап кетар экан, уларнинг шаклланиш жараёни, вақтини белгилашда ҳам ўзига хосликлар кузатилаётганини қайд этиш зарур. Масаланинг моҳиятига кириб бориш учун асос сифатида илмий ғоянинг шаклланиш жараёнига хос хусусиятлар тадқиқ этиладиган бўлса, у ҳолда унинг мураккаб ва бир-бирига ўтиб турадиган, ўзаро узвий боғлиқ бўлган бир қатор босқичларни қамраб олишига ишонч ҳосил қилиш мумкин¹¹².

Миллий ғоянинг таъсир доираси кенг бўлиб, у миллатнинг ўзига хослигини сақлаб туриш, миллат манфаатлари йўлида миллат вакилларини бирлаштириш, уюштириш ва тараққиёт юналишларини белгилаш кабиларга ўзининг таъсирини ўтказади. Шунини алоқиди қайд қилиш лозимки, агар миллат вакиллари ҳалол йўл билан бой, бадавлат бўлганини кўрсанг, мамлакатининг ўзга мамлакатларга нисбатан тез ривожланаётган, катта муваффақиятларни қўлга киритаётганлигини кўриб, руҳинг кўтарилади, келажакка ишончинг ортади ёки, аксинча, муммоларнинг тўпланиб бораётганлигини кўрсанг, руҳан эзиласан, қайқурасан ва уларни ечишда ўз ҳиссамни қўша олсам эди, деган фикрлар ҳаёлингдан ўтади. Бундай туйғуларнинг замини ва илдизи вна миллий ғояга келиб тақалади. Миллий ғоя фақат тор доирадаги туйғуларни (яъни миллий

¹¹⁰ Тиллаев С., Инсопова Г. Замон, мафқура ва ёшлар. // Миллий истиқлол ғояси тарғиботининг илмий асослари. – Т.: 2002. – 47 б.

¹¹¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси –Тошкент, Ўзбекистон, 2021. –Б. 295-296

¹¹² Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. –Тошкент: Ўзбекистон, 2004. –Б. 10

манфаат доирасидаги) шакллантирибгина қолмасдан, миллат билан ёнма-ён яшайдиган ўзга миллат ва элатлар вакиллари хурмат қилиш, халқ манфаатлари йўлида бирлашиш, диний-маърифий ва инсоний бағрикенглик тамойилларининг шаклланишида ҳам ўзининг ижобий таъсирини ўтказди.

Миллий ғоя ўзига хос шартлар ва омилларнинг объектив ифодаланиши ўлчови билан ҳам, улардаги миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро боғлиқлиги билан ҳам фарқ қилади. Давлатлар ўртасида тенг ҳуқуқли муносабатлар, уларнинг ҳамкорлиги ва ҳамжиҳатлиги, ўзаро тушуниш ва хурмат, хайрихоҳлик зарурати нафақат умуминсоний, балки индивидуал, ўзига хос ривожланишнинг ўсишини англатади. “Миллий ғоя миллат тафаккурининг маҳсули, унинг қонига ва жонига қувват бағишлаб, уни истиқболга йўналтириб, маънавий-руҳий озиқа бериб турадиган манбалардан биридир”¹¹³.

Миллий ғоя ҳар бир даврда аниқ тарихий мазмун касб этади. Хусусан, миллий истиқлол ғоясини миллий ғоянинг мустақилликни қўлга киритиш ва мустаҳкамлаш даврининг ўзига хосликларини яхлит тарзда характерлайдиган хусусий ҳолати, қўриниши сифатида баҳолаш мумкин. Шу нуқтаи назардан қараганда, “миллий ғоя” “миллий истиқлол ғояси”га нисбатан кенгроқ мазмунга эгадир. Зеро, миллий истиқлол ғояси миллий ривожланишнинг муайян босқичигагина хос бўлган қарашлар тизимини ифодалайди¹¹⁴.

Миллий интеллектал салоҳият, мерос ва миллий тараққиёт давомида тупланган тажрибалар умуминсоний мулкка айланиб, ер куррасининг бошқа заминларида яшаётган ўзга халқларга хизмат қилиб келаверади. Бу, ўз навбатида, зўравонлик билан (вақтинча) “жиловланиб” турилган, ўз авлод-аждодлари томонидан яратилган миллий- маънавий салоҳиятдан мақрум этилган миллатнинг истиқболда, яъни ўз миллий ғояларининг тикланишида катта аҳамиятга эга бўлади, аммо уни батамом йўқотиб юбориб бўлмайди, Вақт ўтиши билан унга миллатнинг эҳтиёжи ошиб бораверади.

¹¹³ Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. -Т.: O`zbekiston, 2018. –Б. 216

¹¹⁴ Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. –Тошкент: Ўзбекистон, 2004. –Б. 15

Биз миллий ғоямиз замирида умуминсоний кадриятларнинг устуворлиги ва унинг умумбашариятга интеграциялатирувчанлиги ҳақида ҳар қанча гапирмайлик бари-бир, унинг илдизлари, заминлари миллатнинг тарихий хотираси, мероси ва асрлар давомида тўплаган ҳаётий тажрибалари билан боқлик эканлигини назарда тути шимиз лозим бўлади, Худди мана шу жараёнда миллий ғоянинг ўрни, салоқияти, имконияти ва юқсақлиги намоён бўлиб туради. Шунингдек, миллий ғоя миллат вакилларининг онгида миллий уйғониш, масъулиятни уйғотади. Миллат реал ҳаётда уни ташкил этувчи шахслардан иборат экан, ўзга миллатлар даврасида ўз миллатининг вакилининг эришган ютуғидан хурсанд бўлса, шу миллат вакили бўлганиндан фахрланади, шу билан бирга, миллатдошининг бошига тушган оғир кунларни худди ўзининг, энг яқинларининг бошига тушгандай қабул қилади.

Этномаданият эса ўзбек халқининг миллий хусусиятларини ифода этадиган воқелиқдир. Маънавиятга замонавий муносабатлар ҳам киргани учун у тез трансформацияга учрайди, этномаданиятга эса ўз ўзагини асраш, ҳатто консервативлик хос. У янги, замонавий ўзгаришларга, модернизацияга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлади, давр ва ҳаёт синовидан ўтган кадриятларнигина инновация сифатида қабул қилади.

Хуллас, этномаданият миллий маънавиятнинг ўзагидир. Маданиятни инсоннинг биологик жиҳатлари билан боғлаб Э.С. Маркарян шундай фикрга келади: "Маданият биологик ҳолатлардан ташқари сунъий воқелиқ бўлса-да, у инсоннинг биологик конституцияси (морфологик ва б. хусусиятлари) билан боғлиқ ва уни асраш функциясини бажаради. Инсоннинг ушбу биологик хусусиятлари ва имкониятлари нафақат маданиятнинг намоён бўлиш шаклларида ўз изини қолдирган, шу билан бирга, уни ичдан белгилаб берган ҳамда унинг ривожланиш стратегиясини белгилаб бермоқда.

Хўжалик-маданий типлари билан оилавий ва маиший ҳаёт тарзи бир-бирига боғлиқдир. Агар хўжалик-маданий типлари ўтроқ ёки кўчманчи ҳаёт, деҳқончилик, чорвачилик ёки косиблик, ҳунармандчилик кабилар билан

белгиланса, оилавий ва маиший ҳаёт тарзи яратилган моддий ҳамда маънавий бойликлардан фойдаланиш хусусиятлари, амал қилинадиган оилавий анъаналарда намоён бўлади.

Ачилдиев А. Миллий истиқлол ғояси – миллатлараро муносабатларни такомиллаштириш омили // Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: 2004

ФИО авторов: *Мирзаабдуллаев М.М., Шамсиева У.А.*

Название публикации: «РАДИКУЛОПАТИЯ БЕЛГИЛАРИ ҚЎШИЛГАН ЁКИ ҚЎШИЛМАГАН УМУРТҚА ПОҒОНАСИДАГИ ОҒРИҚ СИНДРОМИНИ ДАВОЛАШГА ҲАЛҚАРО ВА МАҲАЛЛИЙ ЁНДАШУВ ВА КЛИНИК ТАВСИЯЛАР ТАҲЛИЛИ»

Калит сўзлар: Умуртқа поғонасидаги оғриқ, даволаш ёндашуви, клиник тавсиялар

АННОТАСИЯ

Мақсад: аввалги ҳалқаро клиник тавсиялар ва замонавий адабиётлардаги янги маълумотларни инобатга олиб умуртқа поғонасидаги оғриқ синдромини даволаш ёндашувини шакллантириш.

Методы: Ушбу ҳисобот 2013-2018 йилларда нашр қилинган ҳорижий адабиётлардаги тавсияларни ҳамда 2019-2021 йилларда ТТА неврология кафедраси етакчи шифокор-ўқитувчиларининг умуртқа поғонасидаги оғриқни даволашда фойдаланган усуллари метаанализини амалга оширган ҳолда тузилди. Уни тузишда бир қатор дори воситаларинг юртимизда рўйхатдан ўтмаганлиги ёки унинг аналоглари ишлатилиши инобатга олинган.

Беморларларни даволаш ёндашуви усуллари метаанализи ТТА КТК неврология бўлими ва унга ёндош хусусий шифохоналар етакчи мутахасислари натижасидан олинган.

Натижалар: Муаллифлар томонидан кўриб чиқиш учун 34 та клиник тавсия ва даволаш схемалари ишлаб чиқилди ва мутахасислар гуруҳи ва қизиқн академик ташкилотларга тақдим қилинди. Ҳар бир тавсиянома ва қўлланмалар мутақил турли ҳил экспертлар гуруҳи томонидан кўриб чиқилди ва маъқулланди; уларнинг барчаси ноаниқ ва ноўрин эмаслиги талоҳида таъкидланди. 28 та тавсия “кучли ишончли” деб топилган бўлса, 6 та тавсия “кучсиз ишончли” деб топилди.

1. Кириш.

Умуртқа поғонасидаги оғриқ (УПО) меҳнат қобилиятини йўқотиш(ногиронлик)га энг кўп сабаб бўлувчи ва даволаниш учун кўп маблағ сарфланиши буйича етакчи ўринларда турувчи ҳолат ҳисобланади. Ушбу ҳолат нафақат ривожланган, балки, ривожланаётган мамлакатларда ҳам ҳаётнинг айна кучга тўлган вақтида ногиронликки олиб келувчи асосий сабаблардан бири ҳисобланади[1]. Кўпчилик беморлар умуртқа поғонасидаги оғриқни ҳаётнинг маълум вақтидагина ҳис қиладилар. Лекин, айрим инсонларда УПО сурункали ҳолатга айланади ҳамда ҳаёт сифатига катта салбий таъсир ўтказди. УПО

шунингдек йирик миқдорда моддий зарар ҳам етказиб, бунга нафақат соғлиқни тиклаш учун кетган бевосита ҳаражатлар, шунингдек йўқотилган иш кунлари ва ишлаб чиқариш кўрсаткичларининг пасайиши билан боғлиқ билвосита зарарлар ҳам киради[2].

Умуртқа поғонасидаги оғриққа ёндашув бутун дунёда ҳамон гетероген характерга эга. Визуализацион усуллар чегараланган имкониятга эга эканлигига қарамасдан УАШ томонидан беморларни бундай текширувларга юбориш Норвегияда 39%[3], Францияда 50%[4,5], АҚШда 54% [6] ва Италияда 56% [7] ни ташкил қилади. Сурункали оғриқларни даволашда жисмоний машғулотлар энг яхши усул деб ҳисобланишига қарамасдан аксар физиотерапевтлар бунинг ўрнига фақатгина пассив даволаниш билан чегараланиб қоладилар[8]. Дорилар билан даволашда ҳам шифокорлар томонидан шунга ўхшаш ҳолатни кузатиш мумкин[9].

Шу сабабли биз беморларни даволаш сифатини яхшилаш орқали оғриқларнинг сурункали ҳолатга ўтиш кўрсаткичларини камайтириш учун чоралар кўриш керак. Қўлланма ишлаб чиқиш ва уни амалиётга татбиқ қилиш, катта эҳтимол билан УПОларни назорат қилишни кучайтиради[10].

Охириги бир неча йил давомида АҚШ, Дания, Англия, Белгияда бир неча ҳил қўлланмалар нашр қилинган[11–12–14]. Сўнгги ҳалқаро тавсияномалар 2016-йил март ойида янгиланган[13], шу сабабли ушбу тавсиялар радикулалгия кўшилган ёки кўшилмаган УПОларга оид илмия маълумотлар янгиланиши лозим. Францияда сўнгги тавсияномалар 2000-йилларга доир бўлиб, у ҳам янгиланишга муҳтож[15]. Мақсадимиз, аввалги ҳалқаро тавсияномаларга асосланиб, ва уларни янги маҳаллий шарт-шароитларни ҳисобини кўшиш орқали УПО даволаш ва уларга тиббий ёрдам кўрсатишга доир ҳудудий тавсияларни ишлаб чиқиш ҳисобланади. Тавсияноманинг асосий қамров гуруҳи тиббиётнинг бирламчи бўғини (УАШ ва физиотерапевтлар), шунингдек бирламчи ва иккиламчи тиббиётнинг УПОлари билан шуғулланувчи бошқа шифокор-мутахасислар ҳисобланади.

Методлар

Ушбу қўлланмани ишлаб чиқиш жараёнида қўлланмалар учун ҳалқаро стандартлар эътиборга олинди: адабиётларни критик баҳолаш, мултидисциплинар баҳолаш, томонлар ва беморларнинг иштироки[16].

Адабиётларни ўрганиш

Қўлланма учун танлаб олинган беморлар гуруҳи радикулалгия белгилари кўшилган ёки кўшилмаган умуртқа поғонасидаги оғриқ синдроми билан оғригвн катта ёшдаги беморлар ҳисобланади. Тадқиқотга рентгнологик аномалиялар (диск чурраси, тор умуртқа поғонаси канали, умуртқа орқа бўғими остеоартрити) кузатилган беморлар ҳам киритилган, лекин сколиоз (умуртқа поғонсидаги

носпесифик оғриқ синдромига кирмагани учун) билан оғриган беморлар киритилмаган. Хирургик давога мухтож, шунингдек меҳнат қобилиятини сақлаб қолган беморлар қўлланмалар яқинда янгилангани учун киритилмаганю[19,20]. Бошқа барча дори-дармонларни ёки дори-дармонларни даволашни ўз ичига олиши мумкин. Болаларда, ҳомиладор аёлларда ва иккиламчи УПО (инфекция, яллиғланишли ревматизм, саратон туфайли) УПО ҳақида хабарлар чиқариб ташланди. Тадқиқот методологиясини, йўриқноманинг кўламини (мақсадли гуруҳ) ва йўриқномада ёритилиши керак бўлган соҳаларни белгиловчи асосли ҳужжат ёзилди. Компиляция ҳисоботининг олдиндан кўрсатилган қисмида УПО таърифи, ЛБПни кўришнинг долзарблиги, фармакологик терапия, реабилитация, инфилтрасия, адабиётларда тасвирланган барча бошқа даволаш усуллари (олдинги тавсиялар ёки тизимли кўриб чиқиш): ўз-ўзига ёрдам бериш, қайта тиклаш. кундалик машғулотлар, қўлда терапия, психологик аралашувлар, мултидисциплинер реабилитация дастурлари, бел камарлари, тагликлар, белни тортиш, тери ости нервларини электр стимуляция қилиш (ТЕНС), акупунктур, массаж ёки иссиқлик каби жисмоний терапия, спорт, дам олиш, софрология ёки гипноз ва иккиламчи профилактика. Йложи бориша кўпроқ сўнгги йўриқномаларни киритиш учун олдинги 5 йил ичида нашр этилган йўриқномалар учун тизимли қидирув, шунингдек, олдинги 3 йил ичида нашр этилган тизимли шарҳлар ва мета-таҳлилларни қидириш ўтказилди.

Натижалар

Дастлабки адабиётларни қидиришда сўнгги халқаро кўрсатмаларга ёки ЛБПнинг тизимли шарҳларига 461 та ҳаволалар аниқланди. 6 та халқаро йўриқнома киритилди ва 8 та бошқа йўриқнома чиқариб ташланди: 2 таси манфаатлар тўқнашуви, 1 таси янгиланган адабиётшунослик йўқлиги ва 5 таси методологиянинг йўқлиги сабабли. Жами 32 та дастлабки тавсиялар ишлаб чиқилди ва илмий муассасалар ва манфаатдор томонларга тақдим этилди, шу жумладан даволаш режими (фойдаланиш қулайлиги ва ўқиш учун 2 қисмга бўлинган). Ўн учта манфаатдор томонлар ўқиш босқичига жавоб беришди ва уларнинг шарҳларини кўриб чиққандан сўнг, экспертлар гуруҳи якуний тавсиялар ва даволаш режимини ишлаб чиқди. Шунингдек, 3 та қўшимча тавсиялар ишлаб чиқилиб, жамланма ҳисоботига киритилди. 3 та тавсия А, 12 таси Б, 2 таси 3, қолган 13 таси эса экспертлар томонидан маъқулланди. Қизил сариқ, кўк ва қора байроқлар алоҳида жадвалда келтирилган. 31 та тавсия ва тартиблар тегишли тарзда баҳоланди; уларнинг ҳеч бири ноаниқ ёки аҳамиятсиз деб баҳоланмаган. 27 та тавсиялар учун кучли маъқуллаш ва 5 таси учун заиф маъқуллаш (бел оғриғи таърифлари, оғриқ неврологияси бўйича тренинглар, мануал техникалар, миорелаксантлар).

Номи	Тавсия	Ишонч-лилик
1. УПО оғриқ таърифи	ЛБП қовурға чеккалари ва пастки глутеал бурмалар орасидаги оғриқ билан белгиланади. Бу бир ёки бир нечта дерматомага кўра бир ёки икки оёқда локализация қилинган оғриқларга мос келадиган радикулалгия билан боғлиқ бўлиши мумкин. Умумий УПО - бу "қизил байроқ" огоҳлантирувчи белгиларисиз бел оғриғи. Сурункали бел оғриғи камида 3 ой давом этадиган оғриқ сифатида аниқланади	Кучсиз ишончли
2. УПОни таърифлаш учун таклиф этилган атамалар	Қуйидаги шартлар таклиф қилинади ЛБП оғриғи фонида ёки бўлмаган ўткир оғриқни ўз ичига олади, бу даволанишни вақтинча кучайтиришни талаб қилади ёки вақтинчалик функционал қобилиятнинг бузилишига олиб келади; УПО сурункали ривожланиш хавфи остидади УПО эволюцияси 3 ойдан кам бўлган ва узоқ муддатли ЛБП хавфи юқори бўлган (сарик байроқларнинг мавжудлиги); 12 ой ичида УПО нинг такрорланиши билан. Бу сурункалилик хавфи остида УПО деб ҳисобланиши керак	Кучли ишончли
3. Дори моддалариси 3 даволаш	Даво муолажаларини бошлашдан олдин ташхисни тасдиқлаб олиш керак. Жисмоний машқлар асосий усул ҳисобланади. Биринчи қатор: Кундалик кўникилган жисмоний фаоллик, сурункали УПО да физиотрапия, Иккинчи қатор: Беморларда оғриқ нейрофизиологияси ва сурункалилик хавфини ўқитиш, мануал терапия, когнитив-хулқ-атвор терапияси, мултидисциплинар терапия	Кучли ишончли
4. Дори моддалари билан даволаш	Биринчи қатор дорилар: Парасетамол, НЯҚВ Иккинчи қатор дорилар: Опиоидлар, антидепрессантлар(серотонин ва норадреналин ингибиторлари, Габапентиноидлар	Кучли ишончли
5. Тавсия қилинмайди	Ултратовуш ва тортишлар, ортопедик боғламлар, акупунктура, иссиқ игна кабилар ўз исботини	Кучсиз ишончсиз

ган ва маълум бир шартлар асосидаги тавсиялар ва ушулар	топмади. Камарлар фақат қисқа таъсирга эга эканлигини кўрсатди. Миорелаксантларда ножўя таъсир хавфи юқори эканлиги кузатилди	
--	---	--

Фойдаланилган адабиётлар.

[1] GBD 2017 Disease and Injury Incidence and Prevalence Collaborators. Global, regional, and national incidence, prevalence, and years lived with disability for 354 diseases and injuries for 195 countries and territories, 1990-2017. systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2017. *Lancet* 2018;392:1789–858.

[2]Katz JN. Lumbar disc disorders and low-back pain: socioeconomic factors and consequences. *JBJS* 2006;88:21–4.

[3]Werner EL, Ihlebæk C. Primary care doctors’ management of low back pain patients “ ten years after. *Tidsskr Nor Laegeforen* 2012;132:2388–90.

[4]Assurance Maladie “ Risques professionnels. Rapport inédit sur les lombalgies liées au travail : un enjeu de santé publique; 2016 [accessed December 24, 2019] <http://carsat-nordpicardie.fr/images/stories/GRP/2016-11-15-Dossier-de-presse-AT-MP.pdf>.

[5]Caisse Nationale d’ Assurance Maladie. Programme de sensibilisation sur la lombalgie “ Dossier de presse; 2017 [accessed December 24, 2019] https://www.ameli.fr/fileadmin/user_upload/documents/CP_DP_lombalgie.pdf.

[6]Rosenberg A, Agiro A, Gottlieb M, et al. Early trends among seven recommendations from the choosing wisely campaign. *JAMA Intern Med* 2015;175:1913–20.

[7]Rizzardo A, Miceli L, Bednarova R, et al. Low-back pain at the emergency department: still not being managed? *Ther Clin Risk Manag* 2016;12:183–7.

[8]Carey TS, Freburger JK, Holmes GM, et al. A long way to go: practice patterns and evidence in chronic low back pain care. *Spine* 2009;34:718–24.

[9]Michaleff ZA, Harrison C, Britt H, et al. Ten-year survey reveals differences in GP management of neck and back pain. *Eur Spine J* 2012;21:1283–9.

[10]McGuirk B, King W, Govind J, et al. Safety, efficacy, and cost effectiveness of evidence-based guidelines for the management of acute low back pain in primary care. *Spine* 2001;26:2615.

[11]Centre fédéral d’ expertise des soins de santé KCE, Wambeke P, Desomer A, et al. Guide de pratique clinique pour les douleurs lombaires et radiculaires. KCE Reports 287Bs. Good Clinical Practice (GCP); 2017 [accessed

September 11, 2019] [https://kce.fgov.be/sites/default/files/atoms/files/KCE_2_87B_Douleurs lombaires et radiculaires Resume1.pdf](https://kce.fgov.be/sites/default/files/atoms/files/KCE_2_87B_Douleurs_lombaires_et_radiculaires_Resume1.pdf).

[12]Qaseem A, Wilt TJ, McLean RM, et al. Noninvasive treatments for acute, subacute, and chronic low back pain: a clinical practice guideline from the American College of Physicians. *Ann Intern Med* 2017;166:514–30.

[13]Stochkendahl MJ, Kjaer P, Hartvigsen J, et al. National Clinical Guidelines for non-surgical treatment of patients with recent onset low back pain or lumbar radiculopathy. *Eur Spine J* 2018;27:60–75.

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының 1-курс студенті

ФИО научного руководителя: *Жандос Абдазимович Байзақов*

Название публикации: «АЙТЫСҚЕР АҚЫН-САРА ТАСТАНБЕКҚЫЗЫ»

Аннотация

Айтыс өнерінің қаламын тербеткен, суырып салма шеберлігімен көзге түскен Сара Тастанбекқызының әдебиет өнерін ұштастырған халықтың қызы атануы.

Кілтті сөздер: Әйел теңсіздігі, жетімдік тауқыметін, жоқшылық зардабы, уәжісі, шешендік дарындылық, лирикалық жанр, қастерлеу.

Annotation

Don't shake the pen of aitys art Sara Tastanbek kyzy ,known for her mastery, become the daughter of the people who combined the art of literature.

Keywords: female inequality, problem of orphanhood, the effects of poverty, motivation, oratory, talent, lyrical genre, reverence.

КІРІСПЕ

Сараның өмірі қиын әрі көпке үлгі. Жастайынан қиыншылықтарын саусақпен санағырлықтай болса, екінің бірі көтере алмас еді. Әйел теңсіздігі, әйел бостандығы үшін жан-айқай салып, шыр-пыр болып қуыстай жанын шүберекке орып, көптің алдында айтысқаны бұл үлкен ерлік, батылдық. Сараның өміріне үңіліп көз тастасақ үш жасында әкесінен айырылған, анасымен жетімдік тауқыметін, жоқшылық зардабын көрген екенің айта аламыз. Оны қамқорлығына алған немере ағасы Жайсаңбекте өтірік жаланын арқасында қамалып та кеткен.

Басынан қиыншылықтар өтіп жатқан Сара мен анасын Тұрсынбек қажы өз аулына әкелген. Солай бола тұра бой жеткен Сараны бай баласы Жиенқұлға атастырып, одан қыздың қалың малын сұрап алады. Сол сөз ауылдан шығып көптің құлағына қаяу түсіріп Есімбек қажының дау шығаруымен, Сараны ауылдан көшіруге құрбысы жетеді. Бірақ та бұл жағдай Сараның өмірін жеңілдеткені жоқ.

Оның өмірі Біржан салдың Сара ауылына келген сапарынан кейін ғана жеңілдеген. Барлығы осы екі ақынның танды таңға ұрып айтысқан өнеріне

тәңті болып, бүкіл жұртты тамаша өнерімен тамсандырған. Сол айтыстың нәтижесінде ақын қыздың абыройы ел, жұрт алдында көтеріліп, халықтың оған қошеметі артқан. Сараның көпке айтқан уәжісінен қажылар да көпке керенеу қарсы шыға алмай, бас бостандығын қайтарып береді. Айтыста Біржан Сараны жеңеді, ал өмірде Сара өз мақсатына жетеді. Оның қарсы шыға айтыса алмаған кезі әйел теңсіздігінің арқасынан сөз айталмағанында болып тұр. Сара өзінің сөз саптау, шешендік дарындылығынан арқасында теңдікке қол жеткізіп, он тоғыз жасында өзіне тең Бекбай Алтынбекұлы дегенге тұрмысқа шығады.

Сара Абайдың көзін көрген. Сара мен Абайдың жүздесуі жайында Мұхтар Әуезовтің "Абай жолы" атты романында айтылады. Ұлы ақынның ұлы Әбіш қайтыс болғанда Найман елінің игі жақсыларымен бірге Сара да Абай ауылына келеді. Арадан уақыт ұзамай, жастықтың тауқыметінің арқасында ауруға шалдығып қаза табады.

НЕГІЗГІ БӨЛІМ

Айтыс өнері 18-19 ғасырда пайда болған, ауыздан-ауызға тарағандықтан қазақ ауыз әдебиетінің яғни фольклор білімінің бір бөлшегіне айналған. Айтыс түріне қарай әр түрлі бағытқа, тақырыбы жағынан айқындалуына қарай бөлінеді. Айтыстың Біржан сал мен Сара айтысы "Қыз бен жігіт" айтыс түріне кіреді.

Халқымыздың сан мың жылдар бойы аузынан тастамай, есімін қастерлеп келген Сара Тастанбекқызы 1853 жылы Алматы облысына тиесілі Қапал ауданында дүниеге келген. Найман руынан шыққан. Сараның айтысы өзінің де басқа әйел қыздардың да жақсы ғұмыр кешуіне ықпалын тигізгені рас. Оның халық алдында айтысқа шыққаны 1871 жылы Талдықорған облысының Қапал-Ақсу өңірінде өтті. Бірнеше күнге созылған айтыста әлеуметтік мәселелер, махаббат, әйел теңдігі, адам тағдыры, әдет-салт жайлары, ақындық өнер жырланады. Біржан мен Сара айтысты амандасып, көрісуден бастап, келе-келе ұзақ сүреге түседі. Екеуі де сөзге алданбайтын алғыр, елге атағы шыққан әйгілі ақын екендігін танытады.

Зерттеу мәселесіне қарағанда, бұл айтысты Жүсіпбек Шайқысламұлы Сараның өз аузынан 1872 жылы жазып алған. Айтыс Қазан қаласындағы ағайынды Каримовтар баспасынан 1898 жылы жарық көрген. 1913 жылға дейін 5 рет қайта басылып, ел арасына кең таралған. Айтыстың алғашқы нұсқасы 969 жол болды десе, екіншісі 1080 жол, үшіншісі 1907 жол болып баспадан шыққан екен. Кеңес үкіметі тұсында екі рет, Кеңес үкіметіне дейін сегіз рет жарияланады. Бұл айтыстың шоқтығы биік көркем, теңдесі жоқ өнер екінің дәлелі. Сара Тастанбекқызы мен Біржан салмен айтысы ғасырдан-ғасырға үзілмей келе жатқан, қазақ фольклорының айтыс өнеріндегі шоқтығы биік, көркем үлгісі болып саналады. Сараның кесіп айтар шешендігі, сөз

тапқырлығымен тамсантқан өнерінің арқасында Арсалаң, Ниязбек сал ақындар өнер айтасында жеңген.

Белгілі қанша жұртқа атым – Сара,

Ішінен ер Қаптағай шықтым дара.

Домбыра ап он үшімнен сөз сөйледім,

Келемін бір сүрінбей жеке-дара, –

Оның ақындық жолын жастайынан ұстағанына "Он үште домбыра алып сөз сөйлеп ем, Келемін бір сүрінбей жалғыз қара" деген өлең жолдарынан көруге болады.

Біржан салдың айтқаны:

Қызы екен Тастанбектің ақын Сара

Бәйгеден күнде келген жалғыз қара.

Қыз да болса адамның жүйрігі екен

Көрмедім сөзді адамды, ондай дана.

Ә. Найманбаевпен 1889 жылы, Т. Есқожаұлымен 1900 жылы айтысқан. Айтыскер ақынның "Ашындым", "Жүрек", "Арсалаң аға алдында", "Жайлауда", "Жүрек сыры", "Қош бол елім", "Әбіштің аруағына" секілді көптеген өлеңдері мен "Тұзақ" атты дастаны бар. Сараның "Тағдыр тәлкегі" дастанының орны ерекше. Шығарма тақырыбы бойынша бостандыққа талпынған қыздың өмірі күрес жолына негіз болған. Сараның көп өлеңдері лирикалық жанрда жазылған, қайғысы мен мұңын зарлаған қыз тағдырының өнері нәзік лиризм ой-толғаныстарға толы. Т. Қалилахановтың "Ақын Сара" атты Сараның өмірін сипатталған кітап 1993 жылы "Жалын" баспасынан жарық көрді.

Сараның "Жүрек" өленінен:

Жүректен жанға жылы сөз бар ма елде,

Жүрексіз тірлік бап ма суда, жерде?

Қашанда өмір жылы-жүрек сыры

Біреуін сол жүректің айтам мен де.

-демекші болғаны жүректен шыққан әрбір жылы сөз барша дертке дәру, жүрек адамның соғуына, өмір сүруіне көмектесер екен, жүрексіз тіршілік болмайтының айтып тұрғандай-ақ.

Аяулы болғандықтан асыл жүрек,

Өз орнын кеудеден кең алып бөлек.

Шаң-қоқыс, тозақ-топырақ кіре алмайтын,

Күмбезде берік, жылы өмір сүреді.

Бәрінде мұндай жүрек жан-жануар,

Жұрт біледі, тұлай соғып тұрары бар.

ҚОРЫТЫНДЫ

Қазақ ауыз әдебиетінің ерекше өнер түрі айтыс болса, айтыстың қызық түрі, әдемі түрі Біржан сал мен Сараның айтысы деп нақты айта аламыз. Сара Тастанбекқызының өмірі қиыншылықпен өтсе де, сол зардапты басынан өткере отыра өзінің көздеген мақсатына жеткендігі, әйел теңсіздігін орнатқандығы сол уақыттағы, замандағы басқа да әйелдердің өмірлік қаупіне бір ықпалын тигізгені бүгінгі күннің жемісі десек артық жорамалдау емес. Сара ақынның өзі де, сөзі де, ісі де бәрімізге тәрбиелік мәні бар, қыз-келіншектерге үлгі, өмірі өнегелі.

ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ (REFERENCES)

1. Мәлік Ғабдуллин "Қазақ халқының ауыз әдебиеті" Алматы 1996
2. “ Қазақ әдебиеті. Энциклопедиялық анықтамалық. — Алматы: «Аруна Ltd.» ЖШС, 2010 жыл.
3. “Қазақстан”: Ұлттық энциклопедия/Бас редактор Ә. Нысанбаев – Алматы “Қазақ энциклопедиясы” Бас редакциясы, 1998

ФИО авторов: *Ko‘pjursinov Batirbek Toqsanbay uli*

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali talabasi

Atamuratov Alisher Bekmurat uli

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali talabasi

ФИО научного руководителя: *Saparbaeva Gulshira Abatbayevna*

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali “Madaniyat va kutubxona faoliyati” kafedراسи mudiri

Название публикации: «МЕНЕДЖМЕНТ ВА БОШҚАРУВ»

Аннотация: Mazkur maqolada madaniyat va san’at sohasi menejment va boshqaruvning ahamiyati haqida tahliliy fikr-mulohazalar yuritilgan. Ayniqsa, madaniyat va san’at muassasalarida boshqaruv bilan birgalikda, ijodiy jarayonlarni tashkil etishda menejning tashkilotchilik fazilatlari va faoliyati xususida so‘z yuritilgan.

Калит so‘zlar: san’at, menejment, muassasa, boshqaruv, madaniyat, rivojlantirish, menejer, maqsad, tashkilot, jamoa.

Копжурсинов Батырбек Токсанбаевич

Студент Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Атамуратов Алишер Бекмуратович

Студент Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Научный руководитель: Сапарбаева Гульшира Абатбаевна

Заведующая отделом культуры и библиотечной деятельности Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

УПРАВЛЕНИЕ И МЕНЕДЖМЕНТ

Аннотация: В данной статье представлены аналитические отзывы о важности управления и администрирования в сфере культуры и искусства. В частности, обсуждались организаторские качества и деятельность менеджера в организации творческих процессов, во взаимодействии с руководством учреждениями культуры и искусства.

Ключевые слова: искусство, управление, учреждение, управление, культура, развитие, менеджер, цель, организация, сообщество.

GOVERNANCE AND MANAGEMENT

Kopjursinov Batirbek Toksanbaevich

Student of the Nukus branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Atamuratov Alisher Bekmuratovich

Student of the Nukus branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Scientific adviser: Saparbaeva Gulshira Abatbayevna

Head of the Department of Culture and Library Activities of the Nukus branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article provides analytical feedback on the importance of management and administration in the field of culture and arts. In particular, the organizational qualities and activities of the manager in the organization of creative processes, in conjunction with the management of cultural and artistic institutions, were discussed.

Keywords: art, governance, institution, management, culture, development, manager, goal, organization, community.

Biron-bir jamiyat o‘z taraqqiyotini ta‘minlashda madaniyat va san‘atni, o‘zining milliy-ma‘naviy qadriyatlarini rivojlantirmay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. O‘zining qadimiy va an‘anaviy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosimiz durdonalarini asrab-avaylash, o‘zbek xalqi madaniyati va san‘atining tarkibiy qismi bo‘lgan qadimiy an‘analarimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma‘naviy boylik – xalq qo‘shiq-lari, cholg‘u va kuylari, tomoshalar, dostonlar, maqomlar, raqslar va milliy marosimlarni bugungi kun talabidan kelib chiqib o‘rganish, unga katta hurmat bilan munosabatda bo‘lish, kelgusi avlodlarga bekamu-ko‘st yetkazish Istiqlol yillarida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Boshqarish – xo‘jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni; subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli maqsadga muvofiq ta‘sir ko‘rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo‘naltirish va ko‘zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi. Boshqaruv usullari boshqariladigan obyektning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq, lekin hamisha boshqaruv qarori tatbiq etiladigan davrni ajratib olishni nazarda tutadi. Boshqaruv xo‘jalik faoliyati davrlari uchun ishlab chiqiladigan rejalar-ga muvofiq holda olib boriladi. Boshqaruvning iqtisodiy, ma‘muriy va ijtimoiy-ruxiy usullari mavjud.

Boshqaruvning ma‘muriy usuli buyruq va farmoyishlar asosida olib boriladi. Ma‘muriyat o‘z xo‘jaligi doirasida bo‘limlar, guruhlar, shuningdek xodimlarni

tabaqalashtirib, ularning vazifalari, mas'uliyati va huquqini belgilaydi. Unda rejalashtirish, resurslarni, foydani, tayyor mahsulotni taqsimlash, mablag'lardan foydalanish markazlashtirilgan tartibda olib boriladi. Ijtimoiy-ruhiy usuldagi boshqaruv ijtimoiy-ma'naviy vaziyatga ta'sir etish orqali kishilarning fe'l-atvori, ruhiyatini hisobga olib, ularning ijtimoiy talabini qondirish yordamida olib boriladi. Boshqaruv tarkibiy jihatdan korxonalar, firma, kompaniya, birlashma va b. miqyosida, hududiy jihatdan esa tuman, shahar, viloyat, davlat miqyosida bo'ladi. Boshqaruv ishini davlatning boshqaruv organlari yoki boshqaruvchilar (menejerlar) amalga oshiradi.

Boshqaruv jarayonida vaziyatni boshqaruv, ya'ni o'zgargan iqtisodiy vaziyatga tezkorlik bilan chora topish muhim o'rin tutadi. Boshqaruvning vazifasi xo'jalik obyekti uning uzoq muddatli maqsadlarini amalga oshirishga yunaltirishdan iborat. Boshqaruvda mahsulot sifati, xarajatlar, mulk, xatar, bozor, talab, taklif va boshqa masalalar bo'yicha juda muhim qarorlar qabul qilish talab etiladi va ularning kutilgan natijalarga olib kelishi boshqaruvning to'g'ri yoki samaradorligini tasdiqlaydi.

Boshqaruv har qanday jamoaga, tashkilot, hudud, soha, xullas, insonlar bilan bog'liq birlashmalarga xosdir. Chunki inson bor joyda o'zaro muloqot va faoliyat natijalarini ayirboshlashga ehtiyoj seziladi. Shuning uchun boshqaruv obyekti nihoyatda kengdir. Bular – iqtisod sohalari, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tizimi; madaniyat va san'at muassasalari hududiy birliklari (viloyat, tuman, shahar); ishlab chiqarish jabhalari (taqsimot munosabatlari, mahsulot sotish va h.k) va boshqalar bo'lishi mumkin.

Boshqaruv subyekti bo'lib turli shaxslar va ularning birliklari (direktor, rektor, shahar hokimi, madaniyat bo'limi boshlig'i va h.k.), ya'ni boshqaruv obyektiga ta'sir o'tkazuvchilar bo'lishi mumkin.

Boshqaruv sotsiologiyasida boshqaruvga quyidagicha ta'rif beriladi: Boshqaruv – tashkilot maxsus organining funksiyasi bo'lib, eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahiralalar) sarflagan holda eng yuqori natijaga erishish bo'yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir.

Ma'lumki, jamiyatning o'tish davridagi asosiy sotsial ehtiyojlaridan biri – tashkil etish va boshqaruv tizimini takomillashtirishdir. Aslida boshqaruv funksiyasi inson hayotining barcha sohalarida obyektiv jarayonlar natijasida oshib boradi. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida u yanada kuchayib, uni tashkil etish yanada murakkablashadi.

Insonlar o'rtasidagi hodisa va jarayonlar, aloqalar sotsial faoliyat ko'rinishi sifatida sotsial boshqaruvning ahamiyatini yanada oshiradi. Sotsial jarayonlarni o'rganish va ularni tizimli ravishda boshqarish orqaligina jamiyatning sotsial ehtiyojlari qondiriladi. Sotsial jarayonlarni boshqarishning aniq strategiyasi jamiyat rivojining iqtisodiy va sotsial vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Shu

ma'noda, barcha rivojlangan mamlakatlarda sotsial boshqaruv muammolariga katta ahamiyat beriladi.

Mustaqillik tufayli insonning jamiyatdagi o'rni, boshqaruv tizimidagi mavqei tubdan o'zgardi. Biz endilikda boshqaruv o'ziga xos sotsial jarayon ekanligini, odamlarning tafakkur tarzi, xarakteri, mijoz yoki ma'lumot darajasini hisobga olish boshqaruvni barcha darajalarda samarali ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini anglab yetmoqdamiz. Odamlarni boshqarish, avvalo, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi tufayli murakkab vazifa hisoblanadi. Bu o'rinda insonlarning xatti-harakati, xulq-atvori qonuniyatlarini chuqur o'rganish va bilish talab etiladi. Inson, uning ijtimoiy tabiati, shaxs va sotsial muhit munosabatlari, odamning sotsial jarayondagi o'rnini biror bir laboratoriyada aniq o'rganib bo'lmaydi.

Boshqaruv sohasiga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan fransuz olimi Anri Fayol boshqaruv tizimiga oid beshta universal elementlarni asoslab bergan. Bu har qanday tashkilot uchun hos bo'lgan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi. Bular 1) rejalashtirish; 2) tashkil etish; 3) rahbariyat; 4) muvofiqlashtirish; 5) nazorat.

Ishlab chiqarish, tijoratni yoki ijtimoiy madaniy faoliyatni boshqarish, mehnat samaradorligini oshirish, foydani ko'paytirish yoki jamiyat taraqqiyoti yo'lida ma'naviy islohotlarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllarining majmuasi – bu zamonaviy tilda menejment deyiladi.

Menejment (ingilizcha management – boshqarmoq, idora qilmoq, tashkil qilmoq) – bu:

- ishlab chiqarish, tijorat, shuningdek, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqarish bo'yicha ma'lum maqsadlarni ko'zlovchi amaliy faoliyat;
- boshqaruv nazariyasi, fani boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllarining majmuasi;
- mamlakatimizning hozirgi zamon amaliyotida korxonalar, aksiyadorlik jamiyatining rahbarlik qiluvchi tarkibidir.

“Menejment” tushunchasi bizning turmushimizga mustahkam kirib borgan va o'zbekcha ishga doir faoliyat uchun odatiy bo'lib qolgan. Ammo shuni hisobga olish zarurki, gap yangi falsafa haqida ketmoqda, bunda qadriyatlar va ustuvorliklarning yangi tizimlari amalda bo'ladi.

Shu munosabat bilan “menejment” atamasining ma'nosi ustida batafsilroq to'xtash darkor. Ba'zi bir mualliflar o'zbekcha “boshqaruv” so'zi va inglizcha “menejment” sinonimlar deb hisoblaydilar. Haqiqatda esa ularning mazmuni birmuncha farqlanadi. “Menejment” atamasini qo'llab turib biz xalqaro amaliyotda o'rnashib qolgan tendensiyaga rioya qilamiz, unga ko'ra uning ostida hodisalar va jarayonlarning butunlay ma'lum doirasi ko'zda tutiladi. Aslida esa “boshqaruv” atamasi “menejment” atamasining qanoatlantiruvchi o'rinbosari bo'lmaydi, chunki

keyingi holda gap zamonaviy tashkilot vositasida va doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqarish haqida ketadi. Bunda ishlab chiqarish yoki tijoratni sanoatlashtirilgan tashkil qilish asosida amalga oshirilgan xo'jalik yuritishning bozor turi menejmentning adekvat iqtisodiy asosi bo'ladi.

Shunday qilib, "menejment" atamasi zamonaviy tashkilotni boshqarishga nisbatan qo'llaniladi, shu vaqtda esa boshqa maqsadlar uchun boshqa atamalar, masalan: davlat boshqaruvi va ijtimoiy boshqaruvdan foydalaniladi. Bizning sharoitda buning uchun "tashkil qilish", "tartibga solish", "boshqarish" va "ma'muriy boshqarish" atamalarini qo'llash kerak. Shunga qaramasdan davlat, jamoa va boshqa tashkilotlar ham agar o'z maqsadlariga kamroq xarajatlar, faoliyat yuritish va davlat tomonidan tartibga solishning yuqori samaradorligida erishishni istasalar, menejmentning ba'zi bir tamoyillari va usullaridan foydalanishlari zarur.

Yuqorida bayon qilinganlarni hisobga olish bilan ushbu ishda "boshqaruv" atamasi shartlilikning ma'lum darajasi bilan "menejment" ma'nosida ham qo'llaniladi. Menejment tushunchasini belgilash uchun unga kiruvchi ba'zi bir holatlarni, hammadan avval maqsadli mazmunni aniqlab olish darkor. Masalan, boshqaruv tizimini barqaror, ishonchli, istiqbolli va samarali faoliyat yuritishning ta'minlovchi boshqaruv nazariyasi, ilmiy yondashuvlar, jarayonlar, tamoyillar va usullarni ishlab chiqish menejmentning fan sifatidagi maqsadi bo'ladi.

Shuning bilan bir vaqtda, menejmentning samarali boshqaruv amaliyoti sifatidagi maqsadi tashkilotning yuqori foydaliligi, raqobatbardoshligi va boshqa maqsadlariga ishlab chiqarish, savdo va boshqa jarayonini ratsional tashkil qilish va tashkilotning texnik-texnologik bazasini rivojlantirish yo'li bilan erishishdan iboratdir.

Menejmentning maqsadlari va vazifalari ishlab chiqarish va tijorat ko'lamlarining o'sishi va rivojlanganligi sari uzluksiz ravishda murakkablashadi. Bajariladigan vazifalar va mo'ljallangan maqsadlarga erishilganligi bozorda baholanadi.

Boshqaruv nazariyasining rivojlanishi va iktisodiy-matematik usullarni ishlab chiqilishi vazifalarning ko'pgina sifat yechimlarini vazifalarning aniq miqdoriy baholari yoki qarorlari bilan to'ldirish yoki almashtirishga imkon bergan, hisoblash texnikasi va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi esa boshqaruvning samaradorligi oshishiga ko'maklashgan. Hisoblashlarning ko'p mehnat talab qilishi tufayli vaqtning haqiqiy yoki yo'l quyiladigan ko'lamlarda hal qilinishi mumkin bo'lmagan ko'pgina masalalar kundalik haqiqat bo'lib qolgan.

Moliyaviy menejment – bu moliyalarni boshqarishning barqarorligi, ishonchligi va samaradorligini ta'minlashning majmuaviy tizimidir.

U o'z ichiga moliyaviy ko'rsatkichlarni, menejmentga ilmiy yondashuvlar va tamoyillar, daromadlar va xarajatlar balansi, resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari, ishlar va tovarlar rentabelligiga rioya qilish bilan shakllantirish va rejalashtirishni oladi.

Innovatsion menejment – bu mulk egasi tomonidan innovatsiyalarning barcha turlarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni boshqarishning majmuaviy usuli. U o‘z ichiga tashkiliy tuzilmalarni qurish, innovatsiyalarning yo‘nalishlarini tanlash, innovatsiyalar, xodimlarni boshqarishning har xil jihatlarini muvofiqlashtirishni oladi.

Savdo menejmenti – savdo korxonasi faoliyatining barcha asosiy jihatlarini boshqarish jarayonidan iborat bo‘ladi. U aniq savdo korxonasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha ratsionalroq boshqaruv qarorlarini shakllantirish, uning faoliyati har xil yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish va bu faoliyatning yakuniy natijalari yuqori samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida” 2012 yil 4 iyundagi PQ-1771-son qaroriga asosan “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” yo‘nalishi bo‘yicha yangi magistratura mutaxassisligi joriy etildi. Shunga ko‘ra 2012 yildan boshlab O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida madaniyat va san’at sohasi menejmentlarini tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Madaniyat va san’at sohasi menejmenti – yer maydonlari, bino va inshootlar, turli jihoz va moslamalar hamda moliya manbalariga ega bo‘lgan aqliy, ijodiy, badiiy va boshqa turdagi ijtimoiy-madaniy faoliyatning omillaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan maqsadli intellektual va xo‘jalik faoliyati majmuidir. Madaniyat va san’at sohasidagi menejment ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish menejmentiga o‘xshab ketadi. Ushbu soha menejmentining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u asosan madaniyat va san’at yo‘nalishidagi davlat tashkilotlarida, shuningdek, to‘yxonalarda, kafe-barlarda, xususiy uylarda, diskotekalarda o‘tkaziladigan tantanalarda madaniy xizmat ko‘rsatishni tashkil etadi.

Yurtimiz hayotining turli sohalarida bo‘lgani kabi, ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlarda ham davr talablariga mutanosib ravishda kechayotgan rivojlanish jarayonlari madaniyat va san’at menejmenti sohasi taraqqiyotiga alohida ahamiyat berilishini taqozo etmoqda. Shuning uchun ham kelgusida soha xodimlarini menejerlikka o‘qitilishiga bo‘lgan talab oshib boraverishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Haydarov. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. (o‘quv qo‘llanma) “Kamalak” nashriyoti. Toshkent – 2019. 192 b.
2. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent – 2021 yil. «O‘qituvchi» MCHJ matbaa uyi. 182-bet.
3. A.H.Haydarov. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori (matn) “Oltin meros press” nashriyoti. Toshkent – 2021. 478 bet.

4. V.Alimasov., Y.Manzarov. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy soha: nazariya va amaliyot (falsafiy-sotsiologik tadqiqot). “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent 2014. 120 b.
5. D.S. Qosimova. Menejment nazariyasi. Darslik. – Toshkent, “Tafakkur-bo‘stoni”. 2011. 336-bet.
6. M.B.Bekmuradov., X.X.Shodiyev. “Menejment nazariyasi va amaliyoti”. Magistrlar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2021 y. “Zamon poligraf” OK nashriyoti. 272 b.

ФИО автора: *Elmira Ataniyazova*

О‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti

Название публикации: «QORAQALPOQ DAVLAT MUSIQALI DRAMA VA KOMEDIYA TEATRINING TASHKIL ETILISHI VA REPERTUARLARIGA TAHLIL MASALALARI»

Аннотация: Maqolada Qoraqalpoq davlat musiqali drama va komediya teatrining tashkil etilishi va unda saxnalashtirilgan asarlar, teatrd faoliyat olib borgan mutaxassislar haqida so‘z yuritilgan. Qoraqalpoq davlat musiqali drama va komediya teatri qoraqalpoq san’atining shonli solnomasida yangi taraqqiyot davri boshlab begani va teatr repertuarlaridagi asarlarning tahlil masalalari bo‘yicha fikr-mulohaza yuritilgan.

Калит so‘zlar: teatr, san’at, rejissura, komediya, repertuar, sahnalashtirish, dramaturgiya, kadrlar, rivojlanish.

АНАЛИЗ ОРГАНИЗАЦИИ И РЕПЕРТОРА КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА ДРАМЫ И КОМЕДИИ

Элмира Атаниязова

Магистрант Государственный институт искусства и культура Узбекистана

Аннотация: Славная история каракалпакского искусства Каракалпакского государственного музыкального театра драмы и комедии знаменует начало новой эпохи развития и анализа произведений в репертуаре театра.

Ключевые слова: театр, искусство, режиссура, комедия, репертуар, постановка, драматургия, кадры, развитие.

ANALYSIS OF THE ORGANIZATION AND REPERTORY OF THE KARAKALPAK STATE MUSICAL DRAMA AND COMEDY THEATRE

Elmira Ataniyazova

Master's Student, the Uzbekistan State Institute and Culture

Annotation: The glorious history of Karakalpak art of the Karakalpak State Musical Drama and Comedy Theater marks the beginning of a new era of development and the analysis of works in the theater's repertoire.

Keywords: theatre, art, directing, comedy, repertoire, staging, dramaturgy, personnel, development.

1939 yili teatrga K.Stanislavskiy nomi berildi va Qoraqalpoq davlat musiqali drama va komediya teatri deb nomlandi. Teatr ko'p janrli hisoblanadi. Unda opera, balet, musiqali asarlar va drama janrdagi asarlar sahnalashtiriladi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri, 1926-yili 11-aprel kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati tomonidan "Qoraqalpoq milliy truppasini tashkil etish tug'risida"gi qaror qabul qilinib, "Tong nuri" truppasi tashkil qilinadi. Truppaning badiiy rahbari etib To'rtko'l shahri pedagogika texnikumi o'qutuvchisi Zarip Qasimov tayinlanadi. Qoraqalpoq teatrining yilnomasi ush bu sanadan boshlandi. 1927-yili truppga rahbar etib yosh istedodli yozuvchi Abdirahman Utepov tayinlanadi. Q.Avezov, Z.Qasimov, A.Utepovlar qoraqalpoq teatrining asoschilari hisoblanadi. 1926-yili truppa xodimlari soni 13 ta bo'lsa, 1927-yilga kelib 29 taga yetadi. Ularning ichida Jolmurza Aymurzaev, Seyfulg'abit Majitov, Qaljan Begimova, Bayniyaz Seytov, Qurbangul Bekmuratova, Genjebay Ubaydullaevlar bor edi.

Bu vaqtlarda truppa repertuari qoraqalpoq yozuvchilarining bir aktli asarlari bilan boyib bordi. Q.Avezov, S.Majitov, M.Daribaev, J.Aymurzaev va A.Utepvlarining asarlari sahnalashtirila boshladi. Qoraqalpog'iston Ijroyi Qo'mitasining 1930-yil 25-dekabrdagi qarori asosida teatrqa Qoraqalpoq davlat teatri statusi beriladi. Abdiraman Utepov teatrning badiiy rahbari va direktori etib tayinlanadi. 1939-yili 28 ta yosh iste'dodlar teatrqa ishga keladi. Teatrqa K.S.Stanislavskiy nomi berilib, K.S.Stanislavskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat

musiqali drama va komediya teatri deb yuritila boshladi. Bu haqida qoraqalpog‘istonlik birinchi SSSR xalq artisti A.Shamuratova quyidagicha eslab o‘tgan. 1939-yili Moskvadan Lunacharskiy nomidagi teatr institutini tamomlab, o‘zimizning yigit -qizlarimiz keldi. Ular quyidagilar edi.

1. Yaqit Ollomuratova
2. To‘resh Ollonazarov
3. Boltabay Aymanov
4. Tarbiya Jolimbetova
5. Saadat Yusupova
6. Sonya Karabaeva
7. Sapar Xojaniyazov
8. Xalmurat Saparov
9. Sabir O‘tepbergenov
10. Pirlepes Tilengenov
11. Murat Zarekeev
12. Juman Eshniyazov
13. Nikolay Zazulin
14. Qoljan Muxanova
15. Yuldash Mamutov
16. Genje Shamuratova
17. Yo‘ldash Sharipov
18. Biyke Nurimova
19. Aysanem O‘tepova
20. G‘ani Doshimov
21. Alquwat Kamalov
22. Anar Qurbanovalar

Hammasi malakasini oshirib, tajribali kadr bo‘lib qaytib keldi. Moskvada tayyorlanib, J. B. Molerning “Skapening nayranglari”, A. N. Ostrovskiyning “Kambag‘allik ayb emas” komediyasi, V. Vishnevskiyning “Birinchi otli Armiya” degan postanovkalari bilan keldi. Ularni o‘qitgan ustozlari Olga Pijova, V. Bibikov

olib keldi. Ushbu uch p'esda juda yaxshi yodda qoladigan darajada obraz yaratgan san'atkorlar: "Skapening nayranglari" pesasida Skapen rovida o'ynagan - Boltabay Aymanov, To'resh Ollonazarov, ofitsiantka rovida – Y. Mamutov (ijroga bitta og'iz so'z yo'q) bo'lsa ham uning ijro qilgan hatti-harakatlari muxlislarning yodida mangu muhirlandi. "Kambag'allik ayb emas" piasasida Lyubim Tartsov rolini – Madreyim Matjanov mohir ijro qildi. Mitya bo'lib o'ynagan S. Xojaniyazov qadimgi qishloqning haqiqiy rus yigitchasi bo'lib qolgan, obrazlari quyib qo'yganday, o'zi ham sahnaga yarashib turardi¹²⁹.

Keyinchalik, teatr jamoasidan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artistlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, san'at arboblari, madaniyat xodimlari, dramaturglar yetishib chiqdilar. To'resh Allanazarov (birinchi qoraqalpoq professional rejissyori), Yuldash Sharipov, Yuldash Mamutov, Sofya Karabaeva, Saodat Yusupova, Yaxit Allamuratova, Sabirbay O'tepbergenov, Madreyim Matchanov, Sapar Xodjaniyazov, Xalmurat Saparov, Tarbiya Jolimbetova, J.Eshniyazov, Bekpolat Aymanov, G.Shaxmuratova, G'aniy Doshumov, Isax Shadiev, Pirlepes Tilegenov, Rejepbay Saydov va boshqalar shular jumlasidandir. Ular teatrga 3 ta diplom spektakllarini tayyorlab kelishib, tomoshabinlarga havola qiladi. A.N.Ostrovskiyning "Kambag'allik ayb emas" («Ведность не порок»), Molerning "Skapening nayranglari", V.Vishnevskiyning "Birinchi otli armiya" spektakllari edi. Teatrda mahalliy dramaturglar A.Begimov, J.Aymurzaev, P.Tilegenov, M.Daribaev, S.Xojaniyazov asarlari bilan birga, o'zbek dramaturglaridan G.Zafariy, Hamza, K.Yashin, Hurshid, qozoq dramaturglaridan G'.Musrepov, azerbayjon dramaturgi Gadjibekov va boshqalarning asarlari sahnalashtirildi.

Ulardan "Bu Kim", "Halima", "Maysaraning ishi", "Bag'dagul", "Layli va Majnun", "Arshin mal alan" va boshqalarni aytib o'tish joiz. 1930-40-yillari milliy dramaturgiya rivojlanib bordi. Ularning qatoriga J.Aymurzaev, S.Xojaniyazov, M.Daribaev, R.Majitov, N.Dauqaraev singari iste'dolar kelib qo'shildi. Ikkinchi jahon urishi yillarida ham qiyinchiliklarga qaramasdan, teatr o'z ijodini davom ettirdi.

¹²⁹ Shamuratova A. Teatr – ómirim hám táǵdirim. – Nókis. Bilim. – 105.

Teatrga N.Dauqaraev boshchilik qildi. Teatr artistlaridan Ayimxan Shamuratova (SSSR xalq artisti) va Yuldash Sharipovlar boshchiligida 2 ta guruh tuzilib, respublikamizning uzoq ovullarida gastrol safarlarida bo‘lishdi.

Ular xalq ruhini ko‘taradigan, mardlik mavzusidagi asarlar bilan spektakl va kontsert dasturlarini tayyorlab, respublikamizning barcha tumanlarida, ovullarida ko‘rsatdilar. 1945-yili Toshkent davlat teatr va rassomlik san’ati institutining tashkil qilinishi bilan teatrimiz professional aktyor, rejissyor va rassomlar bilan ta’minlanib borildi. Urishdan so‘nggi yillarda teatrdan T.Allanazarov, A.Shamuratova, J.Shamuratov, B.Kamenev, A.Xalimov, Yu.Mamutov, Yu.Sharipov, G.Shirazieva, T.Raxmanova, R.Seytov, S.Xojaniyazov, G.Doshumov, Z.Zaripov, S.O‘tepbergenov, T.Jolimbetova, S.Yusupova, S.Karabaeva, M.Matchanov, Ya.Allamuratova, X.Saparov, S.Allamuratova, S.Auezova, O.Davletova, O.Umitkulov singari mohir san’atkorlar ijod qilishdi.

1945-50-yillarda “Suymaganga suykanma”, “Aygul Abat”, “Qizil gul”, “Ziyada”, “Gulsara”, “Og‘rik tishlar”, “Oltin ko‘l”, “Yangi yer”, “Yurak sirlari”, “Qo‘zi Ko‘rpeshtash va Bayan suluv”, “Tartyuf” singari asarlar sahnalashtirildi. 1955-yili Toshkent davlat teatr va rassomchilik san’ati institutini aktyorlik bulimini tugatib A.Juginisov, Z.Piyazov, Sh.Utemuratov, A.Abdaliev, A.Juzimbetov, A.Xojanazarov, B.Qurbanovlar teatrga ishga qabul qilindi. 1957-yili Toshkent shahrida Qoraqalpoq madaniyati va adabiyoti kunlarining o‘tkazilishi munosabati bilan teatr “G‘arib oshiq”, “Suymaganga suykanma”, “Kambag‘allik ayb emas” («Ведность не порок») mumtoz asarlari va zamonaviy mavzudagi “Ravshan” spektakllari sahnalashtirildi.

Bu spektakllar Toshkent tamoshabinlari va mutaxassislari tomonidan yaxshi kutib olindi. Qoraqalpoq teatr san’atiga yuqori baho berildi. Dekada so‘ngida bir nechta aktyorlar “O‘zbekistonga xizmat kursatgan artist” va “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvonlariga sazovar bo‘ldilar. 1955-yillari dramaturgiyamizga T.Seytjanov, M.Qalimbetov, N.Eshmatov, R.Eshimbetovlar kelib qo‘shildilar. Ularning “Tinimsiz to‘lqinlar”, “Yaylovdagi to‘y”, “Go‘zal yor”, “Qirdagi so‘qmaqlar” asarlari asosan qishloq yoshlari, Orol buyi muammolariga va o‘z davri qahramonlariga bog‘ishlangan asarlar bo‘ldi. Bu spektakllar ham o‘z davrida tamoshabinlar tomonidan iliq kutib

olinib bir necha yillar mobaynida repertuardan tushmay keldi. S.Xo‘janiyazovning “Ziyoda”, “Baxt”, J.Oymirzaevning “Qadirdon doktor”, “Berdaq”, T.Jumamuratovning “Qizlar hazili”, A.Shamuratov, I.Yusupovlar tomonidan yozilgan “Qirq qiz” piesalari ham tamoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olindi. 1960-70-yillari teatrga Toshkent davlat teatr va rassomchilik san’ati institutini tugatib kelgan qator istedodli yoshlar teatrga jalb etildi. Ular o‘z g‘oyalari, o‘zlarining yangi dunyoqarashlari bilan teatrga katta o‘zgarishlar olib keldilar.

1966-yili ush bu institutni tugatib kelgan bir guruh yoshlar K.Galdonining “Ikki boyga bir malay”, Bayseytov va Shamxalovlarning “Uch bo‘ydoq” spektakllarini namoyish etdilar. Bu spektakllar va rollarni ijro etgan yosh aktyorlar teatr mutaxassislari tomonidan yuqori baholandi. Bu yoshlar ichida keyin mashxur rejissyorlar Q.Abdreymov, N.Ansatbaev, R.Toreniyazov, akterlardan D.Ranov, A.Ansatbaeva, T.Qo‘chkarov, A.Sharipov, J.Sultabaev, X.Ayimbetov, R.Saparova, M.Sadiqov, B.Allaniyazov, B.Qayipov, Z.Sayipovalar bor edi. Teatr rassomlari Q.Sayipov, I.Alibekovlar ham sahnada o‘zlarininig yangi g‘oyalari namoyish etdilar. Yosh rejissyorlar Q.Abdreymov, R.Toreniyazov, N.Ansatbaevlar 60-70 yillar dramaturgiyamizda yangilik yo‘qligidan, teatrga yangi zamonaviy g‘oyalarga ega asarlar kerakligin his etdilar. Ular teatrdahon dramaturglari durdonalarini va qo‘shni xalqlar mumtoz asarlarini sahnalashtirdi.

V.Shekspirning “Otello”, Molerning “Tartyuf”, Goldonining “Ikki boyga bir malay”, Gogolning “Revizor”, Ch.Aytmatovning “Ona yer”, M.Karimning “Oy tutilgan tunda”, A.Abdullinning “13 rais”, A.Kahhorning “Tobuttan tovush”, G.Gorinning “Noming o‘chsin”, T.Minullinning “Azroyilni aldagan odam”, Iosalinning “Aravang ag‘darilmasin”, Sagarellinning “Xonuma” va boshqa asarlar teatr repertuaridan joy oldilar.

Ushbu rejissyorlar g‘oyalari asosida 70 yillar o‘rtalarida qoraqalpoq dramaturgiyasiga K.Raxmanov kirib keladi. Uning asarlari teatr jamoasini jonlantirdi, teatrni ham tamoshabinni ham zavqlantirdi. “Kelin”, “Yaralangan yuraklar”, “U dunyoga marhamat”, “Qiziqchilar kasalxonada” va boshqa piesalarini aytib o‘tish o‘rinli. K.Raxmanov haqida ikkinchi bobda batafsiliroq to‘xtalamiz. Bundan so‘ng

dramaturgiyamizga K.Matmuratov, O.Abdurahmanov, A.O'taliev, M.Nizanov singari yosh dramaturglar yetishib chiqib, milliy dramaturgiyamizni yanada boyitti. Ushbu yillarda, J.Aymurzaevning "Berdaq" musiqali dramasining yangi varianti qoraqalpoq klassik shoiri Berdaq hayoti va ijodiga bag'ishlanib, piesa va spektakl katta muvafaqqiyatlarga erishadi.

1987-yili teatr jamoasi I.Yusupov librettosiga N.Muhammeddinov musiqasi bilan "Ajiniyoz" nomli birinchi qoraqalpoq milliy operasini sahnalashtirdilar. Bundan so'ng "Maysaraning ishi", "Aleko" operalari va "Oyjamol" baletini sahnalashtirib teatr mutaxassislari va keng jamoatchilikga namoyish etdilar va yuqori bahoga munosib deb topildilar. Shunday qilib, teatr 3 ta yo'nalish bo'yicha drama, musiqali drama, opera va balet janrlarida ijod qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu munosabat bilan teatrga musiqali teatr statusi, 1991-yili Mustaqillik sharofati bilan qoraqalpoq mumtoz shoiri "Berdaq" nomi berildi. Mustaqillik yillari teatrimizda milliy operamiz "Ajiniyoz" qayta sahnalashtirildi. "Aleko" operasi, "Oyjamol" baleti, "Sohibqiron", "Alpomish" musiqali dramalari boshqa tarixiy spektakllar sahnalashtirilib, yoshlarimizga milliy m'eroslarimizni tanishtirib, biz kimlarning avlodlarimiz, ota-babolarimiz kim, ular qanaqa yuqori madaniyatga ega bo'lganligini sahnada ko'rsatib, ularning ma'naviyatini o'sishiga hissalarini qo'shdi.

Bundan tashqari teatr repertuaridan Mustaqillik g'oyalari bilan sug'arilgan yangi zamon qaharmoni, tarixiy shaxslarimiz siymosi, mehri-muruvvat mavzusi, Vatanga bo'lgan muhabbat va boshqa shu kabi mavzularda asarlar o'rin olgan. Shunday asarlardan S.Xo'janiiyozovning "Adolatga xiyonat", "Suymaganga suykanma", K.Rahmanovning "Kelin", "O'lim jazosi", K.Matmuratovning "Kechikkan muhabbat", O.Abdurahmanovning "O'jarlar", A.Qahhorning "Tobuttan tovush", O'.Hoshimovning "Uylanmasam o'laman", N.Jakievning "Ota taqdiri", S.Baltabaevning "Eng suluv kelinchak", A.Uteniyazovning "Qizng or-nomusi", K.Bayseytov va K.Shangitbaevlarning "Uch buydoq", P.Aytmuratovning "Intilganga tole yor", P.Uteniyazov va S.Uzaqbaevlarning "Farzandim jigar-bandim", H.Muhammadning "Hunar o'rgangan bola", Q.Narqabilning "Nur soyada qolmaydi" va boshqa asarlar teatr repertuaridan o'rin olgan.

Teatr istiqloqlarning bergan keng imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, o'tkazilgan Respublika miqyosidagi festival va tanlovlarda munosib ishtirok etib, turli mukofotlar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda. 1993-2000-yillari teatr jamoasi Toshkent shahrida, 2001-yili Xorazm viloyatida o'tkazilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat, san'at va adabiyoti kunlarida ishtirok etti. 1996-yili Amir Temurning 660-yilligi munosabati bilan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikalari teatrlari orasida o'tkazilgan tanlovda A.Oripovning "Sohibqiron" spektaklidagi Amir Temur rolini ijro etgani uchun aktyor Bazarbay Uzaqbergenov birinchi o'rinni olishga sazovar bo'ldi. 2008-yili Turkmaniston Respublikasi poytaxti Ashxobod shahrida o'tkazilgan "Qo'shiq-musiqqa-insoniyatning ruhiy boyligi" deb nomlangan festivalda teatr kamer orkestri bilan vokal artistlari ishtirok etishdi. 2009-yili Misr Arab Respublikasining poytaxti Qohira shahrida bo'lib o'tgan XXI xalqaro teatr san'ati festivalida S.Boltabaevning "Eng suluv kelinchak" spektakli bilan ishtirok etib, qoraqalpoq teatr san'atini jahon xalqlariga tanishtirishga sazovar bo'ldilar. 2009-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi teatrlari orasida "Yilning eng faol teatri" nominatsiyasini olishga erishdi. 2011-yili Toshkent shahrida utkazilgan "Seni kuylaymiz, zamondash!" I-Respublika teatr san'ati tanlovida P.Aytmuratovning "Intilganga tole yor" spektakli bilan ishtirok etib, tamoshabin va mutaxassislarning e'tirofiga sazovar bo'lib, ikkinchi o'rinni olishga muyassar bo'ldilar. 2013 yilda bo'lsa, "Seni kuylaymiz, zamondash!" II Respublika ko'rik-tanlovida Q.Narqabilning "Nur soyada qolmaydi" spektakli bilan ishtirok etib, III-o'ringa sazovor bo'ldi va Shabnam rolidagi S.Annaqulovaga "Eng yaxshi ayol roli " nominatsiyasi berildi. 2014-yili Turkmaniston Respublikasi Ashxobod shahrida o'tkazilgan "Baxtiyor davrimiz teatri" deb nomlangan Xalqaro teatrlar festivalida teatrimiz jamoasi "Eng suluv kelinchak" spektakli bilan ishtirok etishdi. 2016-yil may oyida Toshkent shahrida ijodiy safarda bo'lib A.Navoiy nomidagi opera va balet katta teatrida:

1. Q.Zaretdinovning "Tumaris" operasini,
2. N.Muxammeddinovning "Ajiniyoz" operasini
3. Teatr simfonik orkestrining "Assallom Toshkent oqshomi" kontsertini namoyish etishdi.

2016-yili noyabr oyida esa I.Sultanning “Imon” spektakli bilan ijodiy safarda bo‘lib O‘zbek Milliy akademik drama teatrida namoyish etishdi. Teatr jamoasi kichi ko‘lamdagi milliy dramaturgiyadan tortib jahon dramaturgiyasining klassik asarlarini yorqin va yuksak maxorat bilan namoyish etdilar. Opera va balet spektakllarining sahnalashtirilishi jamoaning katta yutuqlari hisoblanadi. Buning barchasiga aktyorlar, rejissyorlar, bastakorlar, rassomlar va boshqada teatr mutaxassislarining fidoyi mehnatlari tufayli erishildi. Repertuardan buyuk ma’naviy merosimiz, be’takror qadriyatlarimizni ulug‘laydigan, tariyxiy va afsonaviy spektakllar bilan milliy zamonaviy spektakllar o‘rin olgan.

Har yili belgilangan 4 ta spektaklni sahnalashtirib premeralari o‘tkazilib keladi. 2012-yili N.Dawqaraevning “Alpomish” musiqali dramasi yangi varianti, 2013-yil Q.Zaretidinov, I.Yusupovlarning “Tumaris” operasi, 2014-yil N.Muxammeddinov, I.Yusupovlarning “Ajiniyoz” operasi, 2015-yil Q.Zaretidinovning “Qirq qiz” baleti, 2016-yili Q.Matmuratovning “Berdaq” musiqali dramalari sahnalashtirilib xalqimizga namoyish etildi. 2017-yil N.Muxammeddinovning “Oyjamol” baleti, K.Raxmanovning “Edige” afsonasi asosida yozilgan musiqali dramasi va zamonaviy mavzularda spektakllar sahnalashtirildi. 2017-yili teatrning 90 yillik yubiley kechasi keng turda nishonlandi. 2017-yil noyabr oyida N.Abbosxonning “Tanho yulduz” spektakli Buxora viloyatida, 2018-yil aprel oyida Navoiy viloyati ham ushbu spektakl bilan gastrol safarida bo‘lib kelishdi. 2019-yil oktyabr oyida Xorazm viloyatida Q.Narqobilning “Gul olmagan go‘zallar” komediyasi bilan ijodiy safarda bo‘ldilar. 2018-yil noyabr oyida Qirg‘iziston Respublikasi Bishkek shahrida o‘tkazilgan “Aytmatov va teatr” Xalqaro teatrlar festivalida Ch.Aytmatovning “Luvr o‘rdagi” “Dengiz yoqalab chopayotgan Olapar” qissasi asosida spektakli bilan ishtirok etib nufuzli 3 o‘rinni egalladi.

Toshkent shahrida o‘tkazilgan yosh rejissyorlarning “Debyut-2018” Respublika yosh rejissyorlarining ko‘rik festivalida “Luvr o‘rdagi” spektakli sahnalashtiruvchi rejissyor M.Reymov I o‘rin g‘olibi bo‘ldi.

2019 yil aprel oyida Toshkent shahrida Ch.Aytmatovning “Jamiyla” spektakli bilan gastrol safarida bo‘lib, Muqimiy nomidagi musiqali teatrida, Rus Akademik

drama teatrida va O‘zbek milliy akademik drama teatrlarida namoyish qildi. 2019-yil iyun oyida Nukus shahrida o‘tkazilgan O‘zbekiston teatrlarining “Seni kuylaymiz, zamondash!” V-Respublika ko‘rik festivalida teatrimiz jamoasi K.Karimovning O‘zbekiston qahramoni Allaniyaz Uteniyazov hayotiga bog‘ishlangan “Saxovat bog‘i” spektakli bilan ishtirok etib, faxrli I-o‘rin g‘olibi bo‘ldi.

Spektakl sahnalashtiruvchi rejissyori Marxabay Usenov. Hozirhi kunda teatrdagi O‘zbekiston va Qoraqalpoqiston xalq artistlari, san’at arboblari, xizmat ko‘rsatgan artistlar: Bazarbay Uzaqbergenov, Mirzagul Sapaeva, Qurbanbay Zaretdinov, Abibulla Sharipov, Jalg‘asbay Sulatabaev, Umirbay Qosimbetov, Sapargul Davletova, Roza Kutekeeva, Eliza Aytneyazova, Qurbanbay Qalandarov, Sharapatdin Paxratdinov, Daribay Xojabergenov, Sarvinaz Annaqulova, Marxabay Usenov, Ko‘pjursin Allanazarov boshqada ijodkorlar ishlashadi. Bugungi kunga qadar qancha spektakl sahnalashtirildi degan savol barchani birdayin qiziqtirishi aniq. Teatr tashkil etilgan sanadan boshlab bugungi kungacha 326 spektakl sahnalashtirildi.

Shundan: 4 opera, 2 balet, 102 musiqali drama, 222 drama asarlari sahnalashtirildi. 1987-yili birinchi qoraqalpoq milliy operasi N.Muxammeddinovning “Ajiniyoz” operasi (libretto muallifi I.Yusupov), 1989-yili S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operasi, 1992-yili S.Raxmaninovning “Aleko” operasi, 2013-yili ikkinchi qoraqalpoq operasi Q.Zaretdinovning “Tumaris” operasi (libretto muallifi I.Yusupov). 1996-yili birinchi qoraqalpoq milliy baleti N.Muxammeddinovning “Oyjamol” baleti, 2015-yili ikkinchi qoraqalpoq milliy baleti Q.Zaretdinovning “Qirq qiz” baleti sahna yuzini ko‘rdi.

Mustaqillik yillari tariyxiy va dastonlar asosida yaratilgan asarlar sahnalashtirilib kelmoqda. Jumladan, 1991-yili T.Ollanazorov, A.Begimovlarning “G‘arib ochiq” musiqali dramasi, 1992-yili Q.Matmurotovning “Sharyar” dramasi, 1996-yili A.Oripovning “Sohipqiron” dramasi, 1999-yili Berdaqning “Adolatga qiyonat” musiqali dramasi, 2007-yili N.Dawqaraevning “Alpomish” musiqali dramasi, 2016-yili Q.Matmurotovning “Berdaq” musiqali dramasi, 2017-yili K.Raxmanovning “Edige” musiqali dramasi, 2018-yili A.Begimov, T.Ollanazarovlarning “G‘arib ochiq” musiqali dramalarini alohida aytib o‘tish mumkin. Teatrning o‘zining klassikaga

aylangan asarlari mavjud va ular bir necha marotaba qayta-qayta sahnalashtirilmoqda. Ulardan J.Aymurzaevning “Berdaq” musiqali dramasi (1951, 1958, 1976 yillari), N.Dawqaraevning “Alpomish” musiqali dramasi (1942, 1961, 2007 yillari), A.Begimov, T.Ollanazarovlarning “G‘arib ochiq” musiqali dramasi (1956, 1972, 1992 yillari), S.Xojaniyozovning “Suymaganga suykanma” musiqali komediyasi (1945, 1955, 1972, 1978, 2002, 2008 yillari), N.Muxammeddinovning “Ajiniyoz” operalarini (1987, 1994, 2014 yillari) aytish mumkin. Xulosa o‘rnida, qoraqalpog‘istonda professional teatrining tashkil etilishi o‘tgan asrda yangicha bosqichga ko‘tarilib, xalqning ma‘naviy olamini yuksaltirishga katta hissa qo‘shib, o‘zining istiqbolli yo‘liga va shonli rivojlanish tarixiga ega bo‘ldi.

Qoraqalpog‘istonda teatr san‘atining shakllanishi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Ayniqsa “Tong nuri” truppasining havaskorlik ijodiy-tashkiliy ishlaridan boshlangan tarixiy taraqqiyot bosqichlari birinchi bobimizning asosiy mazmun-mohiyati hisoblanadi. Umuman olganda, Qoraqalpoq davlat musiqali drama va komediya teatrining tashkil etilishi va rivojlanishi Qoraqalpog‘istonda komediya janri taraqqiyotiga misilsiz xizmat qildi. Uning repertuarlaridagi asarlar hazil-mutoyiba orqali yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishda katta amaliy ishlarni olib borayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Ayımbetov. Qaraqalpaq sovet dramaturgiyasınıń tariyxınan ocherkler. “Qaraqalpaq”. Nókis. 1963.
2. N.Ansatbaev “Teatr hám aktyor” sabaqlıq, - Toshkent: “Navro‘z”. 2020-jıl. 280 bet
3. A.Nadirova. Qaraqalpaq muzıka tariyxı Tashkent – 2018. «Sano-standart» baspası.
4. Bekturg‘an Tursınov. Dramaturgiya hám teatrımızdıń máseleleri. Nókis. Qaraqalpaqstan. 1988-jıl.
5. Allanazarov T. Qaraqalpaq teatrında milliy rejissuranıń qalıplesiwi. 1926-1959-jj. – Nókis: Bilim, 1996. 64 b.

6. Bayandiev T. San'at masalalari – teatrshunos nigohida. – Toshkent: O'zDSMI, 2009.
7. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining veb-sayti. Qarang: <https://berdax-teatr.uz/39-teatr-tarijhi-aida-malumot.html>.
8. Bayandiev T. Qoraqalpoq sahnasidagi odimlar. Jurnal. "Teatr". 2016/6 son.
9. Qarang: Gaz// O'zbekiston madaniyati. – Toshkent., 1969 yil, 3 yanvar, (1337)
10. "Teatr" jurnali, -Toshkent., 2000, 2-son, 32-bet

ФИО авторов: *Байджанов Ибадулла Самандарович*

Технический факультет УрГУ, профессор архитектуры, кандидат архитектуры,
Ургенч, Узбекистан

Мадрахимов Одамбой Бахтиёрович

Технический факультет УрГУ, кафедра архитектуры, магистр 211 группы,
Ургенч, Узбекистан

Название публикации: «ЗДАНИЯ ИТ-ПАРКА ЧТО НАМ НУЖНО»

ANNOTATSIYA

Maqolada IT-park binolari va uning bizga qanday foydali tamonalari borligi masalasi ko'tariladi.

Kalit so'zlar: *IT-park, IT*

АННОТАЦИЯ

В статье поднимается вопрос о зданиях ИТ-парка и в чем его польза для нас.

Ключевые слова: ИТ-парк, ИТ

ANNOTATION

The article raises the issue of IT-park buildings and what are its benefits for us.

Keywords: IT park, IT

За 5 лет сфера информационных технологий в Узбекистане, как и все другие отрасли, претерпела значительные изменения, которые в последствии отразились не только на экономике, но и на развитии страны в целом. В частности, увеличилась скорость Интернета, значительно увеличилось количество пользователей Всемирной паутины, оптических линий связи, мобильных базовых станций и т. д., специалистов в области ИТ.

Сегодня мы можем наблюдать огромные изменения в секторе информационных технологий и связи страны, во многом благодаря поддержке, которую правительство оказывает на протяжении последних пяти лет . [1]

Существует точка зрения, согласно которой после Шарля Балли, введшего термин фразеология в значении «раздел стилистики, изучающий связанные словосочетания», вопрос о фразеологии как лингвистической дисциплине был впервые поставлен выдающимся советским лингвистом проф. Е. Д. Поливановым.[1.8] Далее утверждается, что вслед за Е. Д. Поливановым вопросы о фразеологии как лингвистической дисциплине ставил В.В. Виноградов. Фундаментальные труды акад. В. В. Виноградова и его последователей, несомненно, способствовали появлению большого количества работ по фразеологии, написанных на материале различных языков, в том числе и узбекского. Теоретические проблемы узбекской фразеологии впервые были рассмотрены в работах Е.Д.Поливанова. [1.4] Он рассмотрел фразеологию русского и некоторых языков Востока и на основе этого выдвинул мнение выделить фразеологию в качестве одного из разделов лингвистики. По мнению Е.Д.Поливанова, новый раздел лингвистики - фразеология - должен занимать такое же место, как синтаксис и морфология. Поливанов предложил назвать новый раздел лингвистики фразеологией или

идиоматикой. В начале 50-х годов XX века появились первые труды, относящиеся к узбекской фразеологии. К числу таких работ можно отнести кандидатские диссертации Ш.Рахматуллаева,[1.7] Я.Д.Пинхасова,[1.3] М.Хусаинова.[1.11]

Сопоставительное изучение языков представляет одно из ведущих направлений современной лингвистической науки. Сопоставление позволяет вскрыть сходства и специфические для каждого языка различия в выборе фонетических, лексических, грамматических средств, при описании одних и тех же фактов языковой действительности.

Сопоставительное исследование языков требует не только применения, но и дальнейшей разработки методов и приемов изучения фактического материала сопоставляемых языков, так как некоторые вопросы сравнительно-сопоставительной лингвистики остаются дискуссионными, требующими своего дальнейшего решения.. Большой интерес для сопоставительного исследования лексических средств языка представляют фразеологизмы, в которых отражается национальное своеобразие истории, представлений, связанных с трудовой деятельностью, бытом и культурой народа.[1.2]

В русском языке существуют фразеологизмы, без которых фактически не может обойтись речь, особенно разговорная, и которые очень часто встречаются в художественной литературе, публицистике, и находят применение даже в научном изложении. Это такие фразеологизмы как *Медведь на ухо наступил* – Qulog'ini tom bitgan «нет слуха» ; *пустить камешек в чей-либо огород* «намек по адресу кого-нибудь», Qizim senga aytaman kelinim sen eshit; *медвежья услуга* «помощь, от которой стало хуже»,salla desa kallani olib keladi *зеленая улица* «свобода действий», to'rt tomoning qibla; *Из грязи в князи*- Go'lohdan chiqib to'g'ri taxtga,

Изучение узбекской фразеологии также имеет исключительную важность, прежде всего потому, что подавляющая часть всего арсенала художественных и выразительных средств узбекского языка приходится на фразеологию¹. Если сравнивать русские и узбекские фразеологизмы, то они имеют общие черты. Во-первых, легко входят в синонимические ряды. Например, *кот наплакал, в час по чайной ложке* «мало»; *Идти куда глаза глядят, Идти куда ноги несут* – Boshi oqqan tomonga; *тертый калач* (в значении «опытный человек») – *стреляный воробей*; Qo'li gul, As; *ещё конь не валялся, ранняя пташка* – Kallayi saharlab, tong azondan; Во-вторых, они вступают в антономические отношения со словами и между собой, ср.: *за тридевять земель – в двух шагах,odam qadami yetmagan yerlar- ikki qadamgina*; *у черта на куличках – рукой подать*, Gadoy topmas yerlar – qo'l uzatsa yetgudek;.

Некоторые фразеологизмы имеют эквиваленты в обоих языках:– *сам с ноготок, а борода с локоток*- Во'yi bir qarich, soqoli qirq qarich; *Искать иголку в стоге сена*- Somon orasidan igna izlamoq; *Как гора с плеч.* -Yelkasidan tog' ag'darilganday bo'ldi; *делать из мухи слона*- Pashshadan fil yasamoq; Процесс заимствования данном случае является прогрессивным явлением, так как активно обогащает фразеологические системы как русского, так и узбекских языков. Встречаются фразеологизмы, которые совпадают в рассматриваемых языках только по смыслу. Например, в узбекском языке есть фразеологизм *Oyoq ostidan, ostoondan tushganday* (букв. из-под ног), что в переводе означает «вдруг, внезапно». По смыслу данному фразеологизму соответствует русское выражение *как из под земли*; Ещё *как нитка с иголкой* – kindigi bir, (до сл. перев. «пупок одинокий»), bir teshikka tupurishadi («плюнуть в дырку вдвоем»); *рыба в воде*- o'z uyidagidek his qilmoq, o'zini erkin his qilmoq (почувствовать себя как дома); *Bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi*– *был бы хомут, а шея найдется*, *Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaunamas* – два медведя в одной берлоге не уживутся; *Ikki kemaga oyoq qo'yugan g'arq bo'lur* – *гоняться за двумя зайцами*,. В данных примерах фразеологические сочетания отражает в языке культуру говорящих на нем людей. В ней изображено все то, что характеризует образ жизни народа, его национальную психологию.

В формировании русской национально-культурной жизни важную роль сыграло христианство, что отразилось на уровне фразеологии, а в узбекском языке фразеология восполняется пословицами, поговорками, мифами, религиозными трактатами «Куран», историческими событиями и другими источниками. Некоторые фразеологические обороты, связанные с религиозными верованиями, в русском и узбекском языках являются общими в силу определенных разновидностей развития культуры и поэтому в настоящее время происходит преобразование русских фразеологизмов в узбекские с компонентом Бог на компонент Аллах: *Слава Богу* – *Слава Аллаху* –Ollohga shukur; Аллах с тобой, *Tangri qo'llasin*; *Во имя Бога* – *Во имя Аллаха*, Olloh nomiga; *Ради Бога* – *Ради Аллаха* – *Tangri uchun*, *Xudo yo'liga...*; *Дай Вам Бог сил* – *Дай Вам Аллах сил* – *O'zing qo'lla tangrim*, *Olloh madadkor bo'lsin* и др. Тождество фразеологических образов (Бог – Аллах) возникло на основе контактов взаимодействующих народов.

Наиболее распространенными фразеологизмами русского и узбекского языка можно назвать фразеологизмы о животных, где формирование слов – символов происходит при помощи метафоры. *Волк в овечьей шкуре*- *Farishta ko'rinishidagi iblis*, *Qo'yu terisini yopib olgan bo'ri*; *Гнать в бараний рог*- *Burnidan ip o'tkazib*

olmoq, adabini bermoq; *Змею на груди отогреть*- Qo'ynida ilon saqlamoq.[1.9] Так и возникли зооморфизмы, ставшие неотъемлемой частью языка.

В жизни узбекского народа особое значение имеют четыре вида скота (корова, овца, верблюд, лошадь), объединенные концептом мал. Например: *Moli birning joni bir* «у кого скот общий, у того и душа едина», *Mol achchig'i – jon achchig'i* «боль за скот – боль души». В мироощущении кочевника конь очень человекоподобен. Слово «лошадь» ведет свое происхождение из тюркского языка, от слова, которое в переводе означает «мерин». Данное слово является широко распространенным в тюркских языках, и часто встречается в странах Восточной Европы как тюркизм. Иногда слово употребляется с «ат»: «алаша ат», т.е. «конь». В русском языке слово образовано именно из «алаша ат» [11, 336]. Лошадь, игравшая в крестьянском хозяйстве на Руси важную роль – великая трудяга. Она символизирует это качество и во фразеологии: *устал как лошадь*, но это на узбекском языке как *Itday charchadim* «устал как собака».. Как видно, в языке русского народа во фразеологизмах с названиями животных, характеризующих человека, преобладает и негативная оценка. Вкалывать как лошадь – «очень напряженно работать» на узбекском языке как *Eshshakday ishladi* (работать как осёл) и отсюда устал как лошадь – «выбился из сил»- *Itday charchadi* (устал как собака), бред сивой кобылы – «ерунда, глупость, нелепица»- *Tovuq miya, eshshak miya* (мозг как у курицы или осла), *Авгиевы конюшни* – «захлащенное, загрязненное место, где все в полном беспорядке» *Molxonaga aylanib qolibdi*.(где-нибудь, дом или комната превратился в хлев) В современном узбекском языке существует много устойчивых выражений о лошадях. Например; значения сын, наследник «*Ot izini toy bosar*». *Bir qarasang biya- bir qarasang tuyu*, – «так говорили о ком-либо (часто о женщине)» *Bir qarasang biya- bir qarasang tuyu*, у кого быстро менялись настроение, решения, намерения.*To'rt oyog'i teng yo'rg'a-* пер. знач. это слово словосочетание употреблялось как характеристика талантливого, искусного импровизатора, оратора.

Таким образом, языковое восприятие мира у узбеков и русских отличается, поскольку на этот процесс влияет культура, язык, ведение хозяйственной деятельности, особенности восприятия объективного мира, психолингвистические процессы. Изучив фразеологизмы и сопоставив их особенности в русском и узбекском языке, мы узнаем глубже историю, культуру своего и другого народа, учимся сравнивать и находить схожие и отличительные черты, что очень важно в диалоге культур.

Литература

1. Бегматов Э., Йўлдошев Б. Йирик тилшунос олим ва устоз // Ўзбек тилшунослиги масалалари.
2. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – С. 4-8.)27.
3. Пинхасов Я. Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимжана. АКД., - Ташкент, 1953.- 19 с.
4. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов.-Л., 1928, с.. 60-61.
5. Попов Р. Н. Фразеологизмы русского языка. - М.: Просвещение, 1976.
6. Прадид Ю. Развитие фразеологической науки в Украине (II пол. XX ст. - началоXXI ст.) – Киев, 2008.
7. Рахматуллаев Ш. Соединение глагольных фразем в узбекском языке.- Ташкент, 1991.
8. Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц узбекского языка. АКД.,- М. 1952.
9. Садыкова. М. Краткий русско-узбекский словарь устойчивых выражений.
10. Санакулова. О.И. магистерская диссертация. Фразеологизмы семантического поля времени в русском и узбекском языках. Самарканд.2013.
11. Семенов А.В. Этимологический словарь русского языка. Русский язык от А до Я. – М., 2003. – 704 с. – С. 336. .
12. Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. АКД.,- Самарканд, 1959. - 18 с

ФИО автора: *Т.Г. Сулейманова (П.ф.н.)*

Андижон давлат университети Умумий психология кафедраси доценти в.б.

Название публикации: «ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШ ТАЛАБА ШАХСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА КАСБИЙ ЙЎНАЛГАНЛИККА ЭГА БЎЛИШНИНГ МУХИМ ОМИЛИ СИФАТИДА»

Аннотация: мақолада танқилий фикрлашнинг ижтимоий психологик тавсифи ёритилган. Танқидий фикрлашга нисбатан турли психологик назариялар ва ёндошувлар келтирилган. Талабаларда танқидий фикрлашни ривожлантиришнинг тамойиллари ҳамда назарий ва амалий тавсиялар ёритилган.

Калит сўзлар: танқидий фикрлаш хулоса чиқариш, когнитивистик ёндошув, бихевиористик ёндошув, метакогнитив таълимот, схемалар назарияси.

Танқидий фикрлаш – нарса ва ҳодисаларни оқилона хулосалар чиқариш билан таҳлил қилишда фойдаланиладиган ва асосланган баҳолар, талқинлар беришга, шунингдек, олинган натижаларни вазиятлар ва муаммоларга қўллаш имконини берадиган мулоҳазалар тизими.

Танқидий фикрлаш – одамнинг келиб тушаётган ахборотни, жумладан, ўз мулоҳазаларини шубҳа остига олиш қобилиятидир. [4].

Тор маънода танқидий фикрлаш «мулоҳазаларни тўғри баҳолаш», демакдир. Африм манбаъларда «фикрлаш ҳақида фикрлаш» деб ҳам тавсифланади. [4].

Энг тарқалган таърифлардан яна бири - «нимага ишониш ва нима қилиш ҳақида қарор қабул қилишга йўналтирилган оқилона рефлексив фикрлаш». «Танқидий фикрлаш» атамасини файласуф Жон Дьюи фанга олиб кирган бўлиб, ушбу атамадан кўпроқ «рефлексив фикрлаш» сифатида фойдаланган: «уни ва у олиб келадиган оқибатларни қўллаб-қувватлайдиган асосларда ҳар қандай фикр ёки тахмин қилинган билим шаклини фаол, изчил ва эҳтиёткорлик билан кўриб чиқиш».

Психолог Даяна Халперн (ингл. Диане Ф. Халперн) танқидий фикрлашни назорат қилиш, асослилиқ ва мақсадга мувофиқлик билан тавсифланадиган, керакли натижа олиш эҳтимолини оширадиган билиш усулларида фойдаланиш ,деб тавсифлаган . [1].

Танқидий фикрлаш – ахборотларни ўзлаштириш, хулоса чиқариш маълумот олиш ва ўз муносабатини шакллантиришдан бошланадиган мураккаб фикрлаш ва шахсий қарор қабул қилиш жараёни бўлиб, шахснинг янги саволлар қўйиш, ўз фикрини ҳимоя қилиш учун далил топиш, таҳлил этиш ва хулоса чиқариш қобилиятидир. Ушбу жараёнда шахс ҳар доим ўз нуқтаи назарини исботлай олади. Сухбатдошининг фикрига рози ёки рози эмаслигини далиллар ёрдамида тушунтиришга қодир бўлади.

Ғарб давлатларида таълим ва тарбия тизимида бихевиористик ёндашувдан когнитив ёндашувга қараб силжиш кузатилмоқда. Инсон фаолиятини баҳолашда когнитивизм ўтган асрнинг 60-йилларигача бўлган педагогика ва психологияда ҳукмрон бўлган бихевиористик ёндашувдан қуйидагича фарқланади: [3].

а) бихевиористик ёндашувда инсон хатти ҳаракатлари ташқи муҳит таъсири билан белгиланадиган, кўп ҳолларда онгсиз реакциялар мажмуаси сифатида тушунилади;

б) когнитив ёндашувда бу хатти-ҳаракатларда онглилик, таълим асосида ҳосил қилинган малака ва кўникмалар устунлиги тан олинади¹. Булардан кўриниб турибдики, бихевиористик ёндашувда таълим тарбия субъекти сифатида сушт, когнитив ёндашувда эса улар фаол характерга эгадир

Когнитив йўналишда таълимни ташкиллаштириш, таълим усуллариини тўғри танлаш ва қўллаш, таълим сифатини ошириш, таълим жараёнида мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялашда қуйидагилар таълим марказини эгаллайди :

– когнитивлик – шахсни фикр юритиш жараёнига етаклайдиган, билиш фаолиятини ноаниқ, номаълум янги унсурли масала моҳиятига киришга ундайдиган ва уларни ҳал қилишга йўналтирадиган ҳамда билим ва

маълумотларнинг шахс онги, мустақил фикр юритиши, ижодкорлик қобилиятининг ўсишига ва ақлий жиҳатдан таракқий этишига олиб келадиган таълимий фаолиятдир;

– диалогли таълим – ўқув мавзуси ёки муаммони гуруҳ шароитида ўқитувчи билан биргаликда ва ҳамкорликда муҳокама қилиш орқали таълим олувчиларни нафақат фаоллаштириш, балки ижодий муҳит яратиш ва фикрлар алмашинувини таъминлаш орқали ҳар бир таълим олувчининг манфаатдорлигини таъминлаш. Бу орқали талаба ўқув жараёнининг объектидан унинг субъектига айланади;

– онглилик – таълим жараёнига онгли муносабатни намоён қилиш, берилган топшириқ ёки вазифаларни фикрий жараёндан ўтказиш орқали индуктив хулосалар чиқаришга лаёқатлилик. Табиийки, юқоридаги мезонлар ўқувчиталабаларда мустақил ва эркин фикрлаш, фаоллик ва ўз нуқтаи назарини таҳлил қилишга имкон яратиш, уларда ташаббускорлик, билимдонлик ҳамда ўз ақлий имкониятларидан тўлиқроқ фойдаланиш имкониятини таъминлайди. Педагогик психологияда мустақил фикрловчи шахсни тарбиялашда таълимни ташкил этиш, таълим жараёнида таълимнинг интерфаол усулларида кенг фойдаланиш ижодий тафаккур соҳибини тарбиялашнинг асосий педагогик-психологик омилларидан бир

XX асрнинг 70-80-йилларида чет эллик олимлар томонидан танқидий фикрлашни ўрганиш унинг мантиқий асосларини чуқурроқ англашга ёрдам берди. Танқидий фикрлашнинг предмети - бу ахборотларни мантиқий тўърилиги ва асослилиги, танқидий фикрлаш эса кўплаб олимлар томонидан маълум маъорат ва кўникмалар тўплами сифатида тушунилган. Д. Курфис, Э. Глассер фикрича ахборотни тушуниш, тушунтира олиш танқидий фикрлаш жараёнини ак эттирувчи воситалардан бири ҳисобланади

Замонавий тадқиқотчилардан бири Р.Эннис идеал танқидий сифатида қуйидагиларни айтиб ўтади: [1].

- аниқ фикр билдириш;
- даллиларни излаш;

- муҳокама этилаётган муаммо тўғрисида кенг ахборотларга эга бўлиш;
- Муаммо ечимининг бир нечта муқобил вариантларни қидириш;
- очик фикрга эга бўлиш;
- далиллар етишмаса, муҳокама қилиш ва фикр билдиришдан тийилиш ва ҳоказо..

Танқидий фикрлаш –муаммоларни ҳал қилишга йўналтирилмайди (ўз фикрлашини «ўзгартириш»дан ташқари).

«Танқидий фикрлаш - кишиларнинг ўз фикрлари ва ҳаракатларини белгилловчи қарорлар қабул қилишни акс эттириш ва эътиборга олишни талаб қиладиган фикрлаш тури. Танқидий фикрлаш одамларга кўпроқ мантиқ билан ҳулоса чиқариш, мураккаб ахборотни қайта ишлаш ва қатъий ҳулосалар чиқара олишлари учун муаммонинг турли томонларига қараш имконини беради».

. Бугунги кунда рақобатчиликка асосланган бозор иқтисодиёти шароитида тезкор, тадбиркор, шароитга кўра иш тута биладиган, мақсадга эришиш йўли, усули ва воситаларини зудлик ва оқиллик билан янгилай оладиган, ижодий конструктив фаолиятга йўналтирилган танқидий фикрлаш қобилиятига эга бўлган мутахассисларни таълим тарбияси ҳар бир давлатнинг равнақи учун энг муҳим аҳамиятга эга бўлган вазифалардан биридир.

XX асрнинг 90 йилларида америкалик олимлар Джени Д.Стил, Кертис С.Меридит, Чарльз Темпл и Скотт Уолтерлар “Ўқиш ва ёзиш рқали танқидий фикрлаш ривожлантириш “технологиясини ишлаб чиқдилар. [2].

Муаллифлар фикрича танқидий фикрлаш талабада қизиқувчанликнинг, изланувчанликнинг намоён бўлиши,ўз олдига турли саволларни қўйиши, жавобларни излашда тайёр маълумотлардангина фойдаланилмасдан уларнинг сабаб ва оқибатларини аниқлаш, мантиқий таҳлил қилиш орқали шаклланади.

[3] Ч. Темпл Л.С. Виготского и Ж. Пиажеларнинг назарияларига яқин бўлган Контруктивлик технологиясига асос солди Ушбу технология асосини ,қуйидаги назариялар ташкил этади

Конструктивлик таълим субъектлари томонидан ривожланиш билимларни ўзлаштириш жараёнида талабадан ўз ҳаракатлари билан ўзини ўзи тарбиялашни,

ўқитувчидан эса унинг ғаракатларини белгилайдиган омилларни бошқариши ва тартибга солишни талаб қилади, шунингдек, нафақат ўқитувчи, балки талаба ҳам ушбу ғаракатларнинг мақсадини англаб этишни талаб қилади.

- Схемалар назарияси Ушбу йўналиш Р. Андерсон номи билан боғлиқ ва олдинги йўналишнинг натижасидир. Ушбу назариялар гуруҳининг моҳияти шундан иборатки, билиш жараёнида одам ўз ғояларини, схемаларини ўзгартиради, Шунинг учун ушбу схемалардан хабардор бўлиш ва улар билан ишлаш қобилиятини ривожлантириш керак.
- Луиза Розенблатт ва Дэвид Бляйхлар фикрича матнни англаш учун талабага ўз фикрларини оғзаки баён қилиш фикрларини шакллантириш имконини беради

- Метакогнитив таълим . Билиш жараёни самарадорлиги ахборотларни анланган холда идрок қилиниш шароитида ортади

Англаш маълумотларни объективлаштириш шароиди (рамлар графиклар жадваллар), фикрларини вербал ифодалаш ,ўқитувчининг фикрлаш йўналишини кузатиш орқали амалга ошади [167

Бундан ташқари, танқидий фикрлаш мантиқий хулосаларни қуриш, изчил мантиқий моделларни яратиш ва ҳукми рад этиш, у билан келишиш ёки вақтинча кўриб чиқишни кечиктириш билан боғлиқ онгли қарорларни қабул қилиш билан тавсифланади. Бу таърифларнинг барчаси муайян когнитив вазифани ҳал қилишга йўналтирилиши лозим бўлган руҳий фаолликни назарда тутди.

Танқидий фикрлаш бўлажак мутахассисни касбий тайергарлик жараёнида ривожланиши ва касбий йўналганликка эга бўлиши, мантиқий аналитик фикрлаш билан бирлаштирилиши керак. Рус психологлари А.В Коржуев, М.П Попова ўз тадқиқотларида танқидий фикрлаш талабаларда таълим жараёнида назарий ва амалий фаолият бирлигини амалга ошириш, фаолият натижаларини олдиндан кўра билишда мантиқий фикрлаш операцияларидан фойдаланишда юзага келиши мумкин бўлган турли муаммоли вазиятларни бартараф этиш жараёнида шаклланишини аниқлаганлар

Тадқиқотчилар В.П. Зинченко [4], А.А. Тюков [1], В.М. Розин [1] ва бошқалар талабаларда танқидий фикрлаш ривожлангандагина тўлақонли билимларга эга бўлиши мумкинлигини таъкидлайдилар .. Бунинг учун ўқув жараёнидаги анънавий ёндашувларни ўзгартириш, талабанинг танқидий фикрлашини шакллантиришнинг энг самарали усуллари излаш, содир бўлаётган воқеа сабаблари ва маъносини баҳолаш, мантиқий асосланган қарорлар қабул қила олиш қобилиятларини шакллантириш ,талаба шахсини фикрини хурмат қилиш талаб этилади .Бундан ташқари, талабаларда танқидий фикрлашни шакллантириш зарурати қуйидаги сабабларга боғлиқ:

1. Олинган ахборотларни олиш қайта ишлашда янги таълим ва ахборот технолгияларидан фойдалниш, талабаларда ахборо истемоли маданиятини шакллантириш
2. Талабаларда таълим жараёнига танланган мутахассислигига нисбатан қизиқишлари,билиш мотивацияларини ривожлантириш.
3. Талабаларда коммуникатив кўникмаларни ривожлантириш, ўз билим қоблиятларини ривожланишга нисбатан масъулият хиссларини шакллантириш, самарали мулоқот кўникмаларига эга бўлиш, мураккаб муаммларни ҳал этишда ўз нуқати назарини мантиқий далилай олиш, айти вақтда бошқаларнинг фикрини хурмат қилиш

Танқидий фикрлаш жараёнида олинган ахборотларни эсда сақлаш эсга тушириш ахамияти улканлигини таъкидлаган холда бирламчи ахамият аввало талабанинг м муаммони ҳал этишга ижодий фикрлаши ахборотни ўзлаштиришга нисбан қизиқишлари етакчи ахамият касб этади.

Танқидий фикрлаш етти муҳим хусусиятга эга:

- қизиқувчанлик,
- турли жиҳатларга очиқлик,
- тизимли фикрлаш қобилияти,
- таҳлилий ёндашув,
- ҳақиқатда қатъиятлилик,
- танқидий фикрлашнинг ўзига ишонч

-етуклик.

Шундай қилиб, талабанинг танқидий фикрлашини ривожлантириш қуйидагиларга ёрдам беради:

- ўқувчининг ахборот маданиятини ривожлантириш, яъни. уни яратиш, қайта ишлаш, сақлаш, узатиш ва истеъмол қилишда, янги ахборот технологиялари, замонавий мультимедия воситалар ва инновацион интерфаол таълим усуллардан фойдаланган ҳолда маълумотлар билан ишлаш кўникмаларини ривожлантириш;

- когнитив мотивацияни ривожлантириш, яъни. мавзуга, ўқув жараёнига мутахассисликка нисбатан қизиқишни ошириш, ўқув материални фаол ўзлаштириш, муҳим муаммолар ва саволларни кўтариш ва шакллантириш қобилиятини ривожлантириш;

- ижтимоий ваколатни шакллантириш, яъни. коммуникатив кўникмалар маъсулият, жавобгарлик хиссларини шакллантириш, суҳбатдош билан эмоционал яқин самарали мулоқот усулларини ўрганиш, мураккаб муаммоларни ҳал қилишда вазиятни суҳбатдошининг нуқтаи назари бўйича таҳлил қилиш, бировнинг фикрини ҳурмат қилиш.

Танқидий фикрга эга бўлган шахс:

- ғоялар ва фактлар ўртасидаги сабаб ва алоқадорликни тушуна олади;
- муайян ғоялар ёки далилларнинг аҳамиятини тушуна олади;
- ўз нуқтаи назаридан фарқ қиладиган нуқтаи назарларни баҳолай олади, шунингдек, ўз далилларини келтира олади;
- жараёнда нафақат бошқа шахсларнинг, балки ўзининг мулоҳазаларидаги номувофиқликларни ҳам аниқлай олади;
- пайдо бўлган муаммоларни изчил ҳал қилишга қодир бўлади.
- Танқидий фикрлашга қодир одам қуйидаги кўникмаларга эга бўлади:
- фикрларини мантиқан шакллантириш;
- ўз нуқтаи назарини изчил ва аниқ баён қилиш.

Замонавий талаба ёшларимизнинг мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларга нисбатан мустақил фикрлаш қобилиятларини

шакллантириш, уларнинг бефарқ, лоқайд ва содда бўлишига йўл қўймаслик учун уларнинг танқидий фикрлаш қобилиятини ривожлантириш лозим. Шундагина келажагимиз ҳар томонлама фикрлаб тўғри хулоса қилишга қодир ёшлар қўлида бўлади.

Адабиётлар

- 1. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления / Пер. с англ. Н.М.Никольской; Под ред. (и с предисл.) Н.Д.Виноградова. — М.: «Мир», 1985. -С. 25**
- 2. Ходжиева Ф.О., Ўқувчиларни Танқидий Фикрлашга Ўргатиш Ва Унинг Мухим Жихатлари Замонавий Таълим / Современное Образование 2017, 6**
- 3. Жаҳонгир Худойкулов “Танқидий Тафаккур” Тушунчаси Ва Унинг Таълим Жараёнидаги Роли Academic Research in Educational Sciences Vol. 1 No. 1, 2020 ISSN 2181-1385**
- 4. Ғозиев Э. Р. “ Умумий психология” Тошкент Ўқитувчи 2011**

ФИО автора: Усмонова Мухлисахон Носиржон қизи

Андижон вилояти Андижон тумани халқ таълими бўлими тасарруфидаги 3-умумий ўрта таълим мактаби она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Название публикации: «ТИЛШУНОСЛИК»

Аннотация: Мазкур мақолада тилшунослик бўйича маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Тилшунослик, Лингвистика, Паралингвистика, этнолингвистика, психоллингвистика, социоллингвистика

ТИЛШУНОСЛИК, лингвистика — тил ҳақидаги, унинг ижтимоий табиати, вазифаси, ички тузилиши, таснифи, муайян тилларнинг амал қилиш (фаолият) қонунлари, тарихий тараққиёти ҳақидаги фан. Мақсади, вазифаси ва шу кабига кўра, Тилшуносликнинг бир неча йўналишлари (соҳалари) бор: умумий Тилшунослик — тилни умуман инсонга хос ҳодиса сифатида ўрганувчи, асосий вазифаси дунё тилларига хос энг умумий белги хусусиятларни аниқлаш ва ёритишбўлган соҳа, хусусий Тилшунослик — айрим бир тил белгихусусиятларини ўрганувчи соҳа; амалий Тилшунослик — тилдан фойдаланиш билан алоқадор амалий масалаларни (экспериментал фонетика, лексикография, лингвостатистика, транскрипция, транслитерация ва б.) ҳал қилиш методларини ишлаб чиқувчи йўналиш; математик лингвистика, структуравий тилшунослик, киё'сийтарихий тилшунослик ва б.

Паралингвистика, этнолингвистика, психоллингвистика, социоллингвистика каби соҳалар сўзловчи (шахс)нинг жамиятдаги фаолияти билан алоқадор тил хусусиятларини ўрганади.

Мазкур йўналишлардан ташқари Т. нинг ҳар бир тилдаги муайян сатҳлар ва бирликларни ўрганувчи кўплаб тармоқ ва бўлимлари бор: семасиология тил бирликлари маъноларини ўрганади; фонетика ва фонология тилнинг товуш қурилишини текширади; лексикология ва фразеология тилнинг луғавий материални тадқиқ этади. Тилшунослик фан сифатида она тили ва хорижий тилларни ўрганишда, терминологияни ишлаб чиқиш ва такомиллаштиришда, лисоний матнларни илмий шарҳлашда, машина таржимасида муҳим аҳамиятга эга; мавжуд ва хаёлий нарсалар (моддийлик ва ғоявийлик)нинг ўзаро алоқадорлиги муаммоларини ҳал қилиш, ижтимоий онгни ва ижтимоий мавжудот бўлмиш инсоннинг ўзини тўғри тушуниш учун назарий хулосалар чиқаришга имкон берди. Тил ва тафаккурнинг, лисоний ва мантиқий бирлик (катталиқ)ларнинг ўзаро алоқаси муаммоси Тилшунослик ва фалсафатомонидан баравар, бир вақтнинг ўзида ўрганилади.

Асосий лингвистик методлар сифатида тавсифий (қиёсий, конфронтатив, контрастив, типологик), тарихий (қиёсийтарихий, компаратив) ва нормативстилистик (меъёрий услубий) методларни кўрсатиш мумкин.

Тилшуносликда яна махсус тадқиқот усуллари — лисоний ҳодисаларни кузатиш, лисоний эксперимент, лингвистик моделлаштириш, лингвистик талқин усуллари ҳам мавжуд.

Тилшунослик фалсафа ва филол. фанлари туташган чегарада пайдо бўлган.

Тилшунослик муаммоларини ўрганиш дастлаб қад. Ҳиндистондан бошланган. Қдц. хинд Тилшунослик мил. ав. 6-а. дан олдин яратилган ведаларни тил нуқтаи назаридан шархлаш натижасида вужудга келади ва мил. ав. 5 —4-а. ларда яшаган Панинининг грамматикаси туфайли юксакликка кутарилди. Бу асар назмда ёзилган 3996 та қоидадан иборат бўлиб, унда санскрит фонетикаси ва грамматикаси тавсиф этилган.

Юнонистонда тил мантиққа боғлиқ ҳолда, шунингдек, унинг грамматик қурилиши нуқтаи назаридан ўрганилган (Гераклитва Демокритнинг қарашлари, Платон ва Аристотелнинг асарлари, Фракиялик Дионисийнинг «Грамматика»си ва б.). Сўзларни туркумларга ажратиш Аристотелдан бошланган (мил. ав. 4-а.). Қад. юнон Тилшуносликнинг камолоти Искандариядаги, қисман Перган (Кичик Осиё)даги юнон тилшуносларининг фаолияти билан боғлиқ. Искандарияграмматика мактаби (мил. ав. 3—2-а. лар) вакиллари томонидан юнон тилиграмматикаси ёзилди. Юнон Тилшунослик асосида латин Тилшунослик вужудга келди (М. Т. Варрон, Э. Донат, Присциан ва б. нинг асарлари).

Кейинчалик араб (Бағдод, Куфа. Басрадаги грамматика мактаблари), қдд. яхудий, оромий (Андалусияфилологларининг 9 — 12-а. лардаги асарлари) ва туркий (Кошғарий ва Замахшарий асарлари) тиллари илмий тавсиф манбаи бўлади. Ўрта асрларда тилшуносликнинг ривожини араб, шунингдек, араб тилида ижод этган араб бўлмаган филологлар номи билан боғлиқ. Араб Тилшуносликнинг ривожланишида Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, Маҳмуд Кошғарий, Замахшарий, Жавҳарийсингари ўртаосиёлик олимларнинг ҳам ҳиссаси катта бўлган. Ибн Синотовушларни фонема нуқтаи назаридан текширган бўлса, Жавҳарий, Кошғарий ва Замахшарийлар лексикология ва лексикофафия соҳасида жаҳон тилшунослигига катта янгиликлар киритдилар.

Маҳмуд Кошғарий ва Замахшарий ўзларининг «Девону луғотиттурк», «Муқаддимат уладаб» асарлари билан туркий лаҳжаларни ҳамда бошқабошқа оилаларга мансуб тилларни қиёслаш ва чоғиштириш билан Тилшуносликда қиёсийтарихий метод ва типологиядан фойдаланган дастлабки тилшунослар сифатида ном қозонганлар. Филологик фанлар Узоқ Шарқда, хусусан, Хитой ва Японияда ҳам ривожланди. Россияда Тилшунослик 15 — 16-а. лардан бошлаб таракқий қилди.

М. В. Ломоносовнинг «Рус фамматикаси» асарида рус адабий тилининг фонетик, морфологик, қисман синтактик хусусиятлари биринчи марта изчил баёнқилинди.

Уйғониш даврида антик дунё маданий меросига бўлган қизиқиш классик филологиянинг ривожланишига ҳам туртки бўлди. Шу билан бир каторда, янги, замонавий европа тилларини мантиқий асосда ўрганиш

бошланди. Қиёсий методика ва тарихийлик тамойилининг қўлланиши қиёсий тарихий Тилшуносликка асос солдики, бу соҳа тилларнинг қариндошлигини ўрганишда, тилларнинг генеалогии: таснифшш ишлаб чиқишда, қариндош тилларнинг, тиллар оилаларининг, асосан, ҳиндевропа тиллари оиласининг тарихий таракқиётини ўрганишда, тилларнинг қад. ҳолатини қайта тиклашда ва б. да муваффақиятларга эришди.

Тилшунослик даги қиёсий тарихий йўналишнинг ривожланишига немис олимлари Ф. Бопп, Я. Гримм, А. Ф. Потт, А. Шлейхер, А. Диц, даниялик Р. К. Раск, чехиялик Й. Добровский, австриялик Ф. Миклошич, рус олими А. Х. Востоков ва б. катта ҳисса қўшдилар. Умумий Тилшунослик асослари, тилни «фаолият» ва «фаолият маҳсули» сифатида тушуниш, тилнинг ташқи ва ички шакли ҳақидаги таълимот, тилларнинг типологии таснифи ва б. муаммолар немис олими В. Гумбольдттомонидан ишлаб чиқилди. Унинг фикрлари 19—20-а. лар ғарб Т. нинг бир қанча йўналишлари ривожига катта таъсир кўрсатди. Гумбольдт Тилшунослик мантиқийликдан қутулиши ва ўз методига эга бўлиши кераклигини, тилнинг тизим хусусиятига эгаллигини, унинг 2 жихдти — товуш ва маъноси борлигини қамда ижтимоий ҳодисалигини асосли баён қилди. 19-а. ўрталарида А. Шлейхер Т. да биологик назарияларни қўллашга уриниб кўрди.

Лингвистик натурализмни танқид қилиш негизида ёш грамматикачилар (немис олимлари А. Лескин, К. Бругман, Г. Остхоф, Б. Дельбрюк, Г. Пауль ва б.) мактаби шаклланиб, у асосий эътиборни жонли тилларни ўрганишга қаратди. Ушбу мактаб вакиллари қиёсийтарихий Тилшуносликнинг ривожини янги босқичга олиб чиқдилар. 19-а. да ҳиндевропашуносликнинг асосий тармоқлари (эллинистикаюноншунослик, романистика, германистика, славяншунослик, кельтшунослик ва б.) батамом шаклланиб бўлди. Ҳиндевропа тиллари учун ишлаб чиқилган қиёсийтарихий метод тамойиллари ушбу оилага кирмайдиган бошқа тилларга ҳам татбиқ этилди. Шу тарика семитология, туркийшунослик, финугоршунослик, африкашунослик каби соҳалар шаклланади.

Тилшуносликнинг 20-аср бошларидаги ривожланишида Фердинандде Соссюрнинг асарлари, биринчи навбатда, «Умумий тилшунослик курси» (1916) муҳим роль ўйнади. Соссюртилнинг белги назариясини яратди, синхрония ва диахрония, ички лингвистика, ташқи лингвистика ва б. муаммоларни тадқиқ қилди.

Ф. де Соссюр ғоялари кейинроқ пайдо бўлган лингвистик структурализм мактабларида: Прага лингвистик мактаби — функционал тилшунослик, Копенгаген лингвистик тўғараги (глоссематика), Женевамактаби, Америка дескриптив (тавсифий) Тилшуносликда янада ривожлантирилади.

Структурал оқимлар билан бир каторда бошқача йўналишлар ва қарашлар ривожлана бошлади: психологик йўналиш (немис олимлари Х. Штейнталь ва В. Вундт асарлари; рус олими В. В. Потебиланя ҳам ушбу йўналишга қўшилади), нейролингвистика ва б. Материалистик дунёқарашнинг кенг ёйилиши билан экспериментал фонетика ва лингвистик география ҳам ривожлана бошлади.

Ўзбек Тилшунослик тарихи Махмуд Кошғарий ва Замахшарийларнинг изланишларидан бошланиб, узок, тарихий тараққиёт йўлини босиб ўтди. 15-а. дан 20-а. 20-й. ларигача ўзбек тилини ўрганишнинг амалий жиҳатларига алоҳида эътибор берилди (қ. Лексикография, Луғат), кўплаб икки тилли (ўзбекчафорсча, ўзбекчатуркча, ўзбекчарусча ва аксинча тартибда) луғатлар тузилди — Т. нинг лексикология ва лексикофафия бўлимлари ривожланди. Ўзбек тилини ҳоз. маънода ўрганиш 20-а. нинг 20-й. ларидан бошланган.

Шўро даврида олиб борилган тил сиёсати, рус тилининг жамиятдаги мавқеини ҳаддан зиёд ошириб кўрсатиш оқибатида тилни, тил ҳодисаларини ўрганиш, тавсиф ва тадқиқ этишда (айниқса, ўзбек тили грамматикасини ўрганишда) муайян камчилик ва нуқсонларга йўл қўйилган бўлсада, ўзбек Тилшунослик ривожланиб, маълум ютуқларга эришди. Ўзбек Тилшунослик ривожига Фитрат, К Рамазон, Отажон Ҳошим, С. Иброҳимов, Олим Усмон, З. Маъруфов, Фахри Камол, А. Ғуломов, Ф. Абдуллаев, Ш. Шоабдурағмонов, Ғ. Абдурахмонов, А. Рустамов, М. Асқарова, Х. Дониёров, Ш. Шукуров, Ш. Раҳматуллаев, М. Миртожиев, Э. Бегматов каби олимларимиз, рус тилшуносларидан Е. Д. Поливанов, А. К. Боровков, К. К. Юдахин, А. Н. Кононов, А. М. Шчербак, В. В. Решетов ва б. катта хисса қўшдилар.

Ўзбекистонда Тилшунослик муаммолари Ўзбекистон ФА Алишер Навоий номидаги Тип ва адабиёт институтў, шунингдек, олий ўқув юртларининг тилни ўргатиш билан боғлиқ кафедралари томонидан ўрганилади, махсус «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали нашр этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка, М., 1970; Общее языкознание. Внутренняя структура языка, М., 1972;

Общее языкознание. Методы лингвистических исследований, М., 1973; Березин .

История лингвистических учений, 2изд., М., 1984;

Реформатский А. А., Введение в языковедение, М., 1998;

Нурмонов А., Ўзбек тилшунослиги тарихи, Тилшунослик, 2002.

ФИО автора: АДУ Умумий психология кафедраси доценти

Тожибоева Гулхумор Рахманжановна

Название публикации: «ШАХСЛАРАРО НИЗОЛАРНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ МУАММОСИ»

Аннотация: Ушбу мақолада шахслараро низоларни самарали бартарарф этиш имкониятини берувчи шарт-шароитлар, низолашиш даражаси, уларнинг низоли хатти-ҳаракатлари шакл ва характерини инобатга олиш зарурлигига оид маълумотлар ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: низо, бифуркация, деструктив, конструктив динамика, невротизм.

Бугунги кунда бутун дунёда юз бераётган сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришлар ўқитиш ва тарбиялаш назарияси ва амалиётида ҳам жуда кўп ўзгаришларни юзага келтирди. Янги ижтимоий шароитларда мавжуд педагогик амалиёт методологик ва амалий муаммоларни назарий жиҳатдан чуқур англамасдан туриб амалга оширила олинмайди, чунки мазкур муаммоларни ҳал қилмасдан туриб, таълим ва тарбияда самарага эришиб бўлмайди.

Бир қатор муаллифлар шуни кўрсатиб ўтадиларки, низоли вазиятда шахслараро ўзаро таъсир қатнашчиларининг ҳар бири томонидан танланадиган хулқ-атвор стратегиясини белгилаб берувчи аҳамиятга молик шахслилик омиллари ичида невротизм, безовталанишнинг юқори даражаси, ички шахслилик низоларининг вазиятли ҳолати, махсус ҳимоя механизмлари, масалан, рационализациянинг мавжудлиги муҳим роль ўйнайди. [1 43-бет].

Шахслараро низо детерминациясида шахсдаги ички низо каби шахслилик омилига алоҳида эътибор қаратилади. Таъкидланадики, бундай ҳолатда шахслараро низо шахсдаги ички низони ҳал қилиш воситаси сифатида юзага чиқиши мумкин.

Низони юзага келтирувчи шахслилик омиллари қаторига адабиётларда эҳтиёжлар даражасининг юқорилиги, импульсивлик, доминантлик, ригидлик киритилади. Шахслилик омиллари сифатида “ноадекватлик самараси” ҳам қайд

этилади, у шахсдаги ўзини ўзи юқори баҳолаш ва уни оқлай олмасликдан кўрқиш тўқнашганда юзага келади.

Шахслараро низонинг юзага келиши, динамикаси ва сўнгги натижасини белгилловчи психологик омиллар қаторига бир қатор муаллифлар низоли хулқ-атворга шасхлилик мойиллиги сифатидаги тажовузкорликни ҳам киритадилар.

Шуни таъкидлаш жоизки, шахслараро низони воқелик сифатида аниқловчи омилларнинг ўзига хос хусусиятлари турли тумандир. Бироқ фақатгина битта омилнинг мавжудлиги ҳам низони келтириб чиқариши мумкинлигини осонгина тасаввур қилиш мумкин, бир вақтнинг ўзида эса шундай ҳолатларни ҳам кузатиш мумкинки, кўпгина оддий низони юзага келтирувчи омиллар бирикмаси ҳам инсонлар ўртасида тўқнашувларни келтириб чиқармайди.

Ижтимоий психологияда шахслараро низоларни таҳлил қилишда уларнинг тузилмаси, ривожланиш динамикаси, функциялари ва юзага келиш сабабларини муҳокама қилиш қабул қилинган.

Низонинг психологик тузилмаси ҳақида гап кетганда, одатда низоли вазият ва инцидент ажратилиб кўрсатилади.

Низоли вазият – бу низонинг объектив асоси бўлиб, томонлар қизиқишлари ва эҳтиёжларидаги реал қарама-қаршиликларнинг юзага келишига қаратилади. Низоли вазиятнинг мавжудлиги ҳали шахслараро низонинг мавжудлигидан дарак бермайди: қарама-қаршилик ҳали ўзаро таъсир қатнашчилари томонидан қайндайдир вақт оралиғида англанилмайди.

Низоли вазият тузилмасида низонинг объекти ва низо томонлари ажратилади. Низо объекти – реал ёки идеал предмет бўлиб, шахслараро низо сабаби ҳисобланади. Шахслараро низо томонлари сифатида одатда гуруҳ аъзолари қаралади.

Шахслараро низолар қатнашчиларида низодаги ички ва ташқи позицияни ажратиш кўрсатиш мумкин. Ташқи позиция – бу низо қатнашчилари томонидан ўз оппонентлари ва гуруҳнинг низода бевосита иштирок этмаётган бошқа аъзоларига очик намоёиш қилинадиган низода қатнашиш мотивидир.

Ташқи позиция ички позиция билан мос келмаслиги ҳам мумкин, ички позициялар ҳақиқий қзиқишлар, мотивлар, қадриятлар тўпланмини ўз ичига олган ҳолда, инсонни шахслараро низода қатнашишга ундайди.

Шахслараро низода ички ва ташқи позияларнинг бир-бирига мос келмаслигига типик намуна сифатида ўсмирлар ва катта ёшдагилар ўртасидаги низони келтириш мумкин, чунки бунда ўсмирнинг ташқи агрессив позицияси остида тан олиниш, ҳурматга бўлган эҳтиёж, ўз”Мен”и аҳамиятини қўллаб-қувватлаш зарурати яширинган бўлади [9]. Қоидага кўра, ўсмирлар катталар билан шахслараро низоларда ўзларининг яширин позицияларини англаб етмайдилар.

Низо динамика, яъни унинг ривожланиш қонуниятлари унинг тузилмаси билан тўла мос келади. Низо ривожланишининг қуйидаги асосий босқичлари тафовутланади:

Объектив низоли вазиятнинг юзага келиши;

- низонинг англаниши;

- низоли хатти-ҳаракатлар;

- низони ҳал этиш.

Шу нарса аниқки, иккита оралиқ босқичлар ҳар доим ҳам шарт эмас. Шундай қилиб, низо объектив тарзда юзага келиши мумкин, лекин низоли вазият йўқолгунга қадар ҳам анланмасдан қолиб кетиши мумкин. Низо хатти-ҳаракатларга ўмасдан туриб англаниш босқичида ҳам ўз ечимини топиши мумкин. Бироқ шахслараро низоларнинг кўпчилиги у ёки бу шаклда барча асосий босқичларни босиб ўтади.

Низоли хатти-ҳаракатлар босқичида шахслараро низонинг барча тузилмалари ривожланиши юз беради. Низо объекти, қоидага кўра, низоли муносабатларнинг ўзаро муносабатлар яқин зоналарига кўчирилиши ҳисобига кенгайди (масалан, когнитив низо шахслараро муносабатлар соҳасига кенгайди). Шунингдек, низо томонлари ҳам ўзгаради. Хусусан, улар мавқеи оппонентга нисбатан ўзгариши ва тарафига ҳамдардларни жалб қилиши мумкин. Бундай ҳолатда шахслараро низо гуруҳлараро низоларга ўтиб кетиши мумкин.

Шахслараро низолар тузилмаси ва динамикаси таҳлили шуни кўрсатадики, деструктив оқибатларга фақатгина низоларнинг ўзи олиб келмайди, балки уларнинг стихияли кечиши ва ривожланиши ҳам сабаб бўлади. Шахслараро низоларни бошқариш унинг барча босқичларида фақатгина деструктив оқибатлар эҳтимолини пасайтирмасдан, унинг шахсни ривожлантирувчи салоҳиятини амалга ошириш имконини ҳам беради. Шахслараро низоларни бошқариш муаммоси адабиётларда уни ҳал қилишда ўртада турувчиларнинг қатнашуви нуқтаи назаридан ҳам кўриб чиқилади. Шуни айтиш мумкинки, ўртада туриш, шахслараро низони бошқариш шакли сифатида, низони англаш босқичидан бошлабгина амалга ошириш мумкин. Низоли вазиятнинг юзага келиш босқичи, конструктив имкониятларга бой бўлган ҳолда, ўртада турувчилар учун “етиб бўлмайдиган” зонада жойлашади.

Шундай қилиб, шахслараро низоларни самарали бошқариш муаммоси фақатгина ўртада туришнинг турлича шакллари ишлаб чиқиш билан чегараланиб қолмайди. Агар шахслараро низоларни бошқариш тушунчаси остида биз фақат шуни назарда тутсак, низо қатнашчиларини долзарблаштириш учун шароит яратувчи деструктив низони шахсни ривожлантирувчи низога айлантириш бўйича хатти-ҳаракатлар муаммоси субъект томонидан низони бошқариш, унинг шакллари, методлари ва мазмуни нуқтаи назаридан ҳали ишлаб чиқилмаганлигини таъкидлаб ўтишимиз лозим бўлади.

Шу нарса аниқки, таълим жараёни контекстидаги шахслараро низолар ўзининг яққол намоён бўладиган хусусиятига эга [110], бу эса педагогик психология нуқтаи назаридан уларни ўрганиш зарурати ҳақидаги масалани кўндаланг қўяди.

Табиатига кўра турлича бўлган низолари юзага келтирувчи омилларнинг ўзаро таъсири низоли вазиятнинг вужудга келишига олиб келади, у эса ўз навбатида бифуркация нуқтасидаги шахслараро низога айланади. Бифуркация нуқтасидан ўтганидан сўнг шахслараро низо икки йўналишда ривожланиши мумкин: ўзининг деструктив оқибатлари билан хавф соладиган стихияли ва низоли ўзаро таъсирнинг конструктив салоҳиятини амалга оширишга қодир

бошқариладиган йўналишлар. Стихияли ривожланувчи шахслараро низонинг бошқарилувчи йўналишга ўзгариш шартлари ва воситаларини ўрганиш низо иштирокчиларини шахс сифатида ривожланиш имкониятларини нуқтаи назаридан янги истиқболни очиб беради.

Шундай қилиб, бошқариладиган шахслараро низо катнашчиларининг шахслилик ривожланиши биз томонимиздан улардаги субъектликнинг турли шакллари долзарбластириш ва кейинчалик шакллантириш сифатида қаралади. Низоли ўзаро таъсирларнинг шахсни ривожлантирувчи салоҳиятини амалга оширишнинг энг муҳим шарти психологнинг субъектлик позициясидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. – М.: 1995.117-128 с.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект-Пресс, 2003 96-113 с.
3. Андреева А.Д., Вохмянина Т.В., Воронова А.П., Чуткина Н.И. / под ред. Дубровиной М.В. / Руководство практического психолога. Психическое здоровье детей и подростков. М., 1995.
4. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. – СПб.: Питер, 2008. – 490 с.
5. Акимова М.К. Введение в психодиагностику: Учеб. пособие. - Москва: Академия, 2000. - 234 с.
6. Байярд Р.Т. Ваш беспокойный подросток/ Пер. с англ. А.Б.Орлова. - М.: Академический проект, 2008.-207с.
7. Баротов Ш.Р. Мактаб психологи фаолиятининг асосий йўналишлари // Халқ таълими. – Тошкент, 1993. 2-сон. - Б. 15-18.